

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

F.MUXAMEDOV, D.ABDIKARIMOVA

BIRJA ISHI

*O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent – 2021

UDK: 336.76(575.1)
KBK: 65.262.2(5ʻ36)

F.Muxamedov, D.Abdikarimova. Birja ishi. Darslik – T.: «Nihol print»
OK, 2021. - 362. b.
ISBN 978-9943-7619-9-5

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik yuritishning bozor printsiplariga o'tishi bilan milliy iqtisodiyotimizda turli xil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va moliya institutlari paydo bo'ldi, ular orasida birjalarning iqtisodiyotdagi o'rnini alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birjalar yordamida bozorni kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bozor qiymatini ob'ektiv baholash, ularning raqobatdoshligini oshirish va boshqalarni amalga oshirish imkoni paydo bo'ldi.

Birjalar mamlakat iqtisodiyotida juda muhim rol o'ynaydi. Ular (aksiyalar va obligatsiyalar orqali) investitsiya resurslarini jalb qilish, ularning yirik va ilg'or iqtisodiy sohalarda to'planishiga hissa qo'shadi, shuningdek, kerakli savdo tartibini va bozor barqarorligini ta'minlaydi. Sotish va sotib olishlarning uzluksizligi va ko'pligi tufayli birjalar talab va taklifni tenglashtiradi, narxlarni shaffof belgilash bilan birga ularning tebranishini yumshatadi.

Ushbu darslik yuqorida qayd etilgan o'zgarishlarga mos ravishda mualliflar F. Muxamedov, D. Abdikarimova tomonidan tayyorlangan bo'lib, birjalar faoliyati bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan. Jumladan bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan: birjalar va ularning nazariy asoslari va rivojlanishi, O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining faoliyati, savdo platformalari va a'zolari, O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi faoliyati mexanizmi, xorijiy mamlakatlarda tovar birjalari faoliyat mexanizmi, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularni hisobga olish, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, fond birjasi, uning tashkil topishi, tarkibiy tuzilmasi va faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslari, fond birjani faoliyat mexanizmi, fond birja indeksleri, birja auksioni va tahlil turlari, xorijiy mamlakatlar fond birjalari faoliyati va listing talablari, valyuta birjalari faoliyati, xorijiy mamlakatlar valyuta birjalari.

Shuningdek darslikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, mavjud birjalar faoliyatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, xalqaro birjalar mexanizmlarini o'rganish bilan bog'liq nazariy va amaliy jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

UDK: 336.76(575.1)
KBK: 65.262.2(5ʻ36)

Taqrizchilar: J.Ataniyazov – TMI “Xalqaro moliya-kredit” kafedrası mudiri, i.f.d., prof.;

X.Xudoyqulov – TDIU “Moliya” kafedrsi mudiri, PHD.

ISBN 978-9943-7619-9-5

X/R 3761/28
TMI kutubxonasi

© F.Muxamedov, D.Abdikarimova., 2021.
© «Nihol print» OK, nashriyoti, 2021.

KIRISH

Birjalar bozor infratuzilmasining muhim instituti sifatida tarixan rivojlanishning muhim bosqichlaridan o'tgan. Bu jarayon birjalar faoliyatining takomillashib, kengayib borishiga xizmat qilgan. Birjalarning muhim turlari sifatida dastlab tovar birjalari rivojlangan bo'lsa, keyinchalik valyuta birjalari va fond birjalari paydo bo'ldi. Bugungi kunga kunga kelib uchta birjada ham elektron savdo tizimlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu amaliyot birja tovarlari savdo ko'lamining va doirasining kengayishiga, savdo hajmining oshishiga asos bo'lmoqda.

Respublikamizda ham birjalar faoliyatini takomillashtirib borish masalasiga yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Tovar birjalari tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining bosh maqsadi hisoblangan daromadlilikni ta'minlashda tovarlar savdosini samarali tashkil etishi bois, Tovar-xomashyo birjasi faoliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan yangi imkoniyatlar taqdim etishga jiddiy yondashilmoqda.

Valyuta bozorini liberallashtirish borasida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar sharoitida valyuta birjasi faoliyatini takomillashtirib borishga, xorijiy valyutalar savdolarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga ustuvorlik berilmoqda. Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida Valyutani tartibga solishning ilg'or bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etilib kelinmoqda.

Fond birjasi orqali kapital oqimini samarali yo'lga qo'yish, emitentlar tomonidan qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish, mahalliy korxonalar aksiyalarini xalqaro fond birjalarida joylashtirishga erishish kabilar alohida vazifalar sifatida belgilangan bir vaqtda mamlakatimiz suveren evroobligatsiyalarining London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirilganligi korporativ emitentlar uchun yashil yo'lak vazifasini o'taydi.

Ayni shunday sharoitda tayyorlanayotgan iqtisodchi mutaxassislar tomonidan birjalar faoliyatini chuqur o'rganishda, bu borada milliy va xalqaro tajribani amaliyotda qo'llashda "Birja ishi" fani alohida ahamiyat kasb etuvchi mutaxassislik fani hisoblanadi.

Yuqoridagilar asosida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Birja ishi" fanidan o'quv dasturi asosida yozilgan mazkur darslik milliy va xalqaro tajribani atroflicha o'rganishga imkon beradi. Bunda tovar birjalari, valyuta birjalari, fond birjalari faoliyati alohida tartibda ko'rib chiqilgan.

Darslikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, faoliyat yuritayotgan birjalar faoliyati tahlili, xalqaro birjalar faoliyat mexanizmi tahlili qamrab olganligi sababli ham nazariy, ham amaliy jihatlarga e'tibor qaratilgan.

I-BOB. BIRJALAR, ULARNING NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISHI

1.1. Birjalar paydo bo'lishi va rivojlanishi

Bugungi kundagi iqtisodiy shart-sharoitlar birjalar samarali faoliyatini ham talab etadi. Chunki birjalar bozor infratuzilmasining muhim bo'g'iniga allaqachon aylangan. Bunda tovar munosabatlari, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq munosabatlar, valyuta munosabatlari samarali amal qilishida tegishli birjalar faoliyati muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda har bir mamlakat o'z iqtisodiy taraqqiyotida birjalar faoliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

Birja oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxsdir.

Birjalar avvalo tovarlar bozorining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun ham birjalar evolyutsiyasi xususida fikr yuritilganda, avvalo tovar birjalari rivojlanishi ko'z oldimizga keladi.

Dastlab tovarlar hech qanday tartibga solishsiz karvon savdolari orqali amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik savdo ko'laminin va tartiblarining takomillashuvi tashkillashtirilgan bozorlar rivojlanishini shart qilib qo'ygan. Natijada avvalo yarmarkalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yarmarka so'zi ma'nosi nemischa "Jahrmarkt" so'zidan olingan bo'lib, "har yillik savdo" degan ma'noni bildiradi.

Yarmarkalar faoliyati tovarlar savdolarining tartibga solingan va tashkillashtirilgan tartibda amalga oshirilishiga xizmat qilgan. Yarmarkalar faoliyatining rivojlanib borishi o'z navbatida bir tomondan yarmarkalar faoliyatining takomillashib borishiga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa tomondan birjalar yuzaga kelishiga ham zamin yaratgan.

Birja so'zi niderlandcha "beurs", nemischa "Börse", fransuzcha "bourse", italiyancha "börsa", ispancha "bolsa" so'zlaridan olingan bo'lib, "hamyon", degan ma'noni anglatadi.

Birja XIII-XV asrlarda Shimoliy Italiyada paydo bo'lgan bo'lib, uning keng yoyilishi XVI asrga to'g'ri keladi. Bunda Antverpen, Lion va Tuluza shaharlarida, so'ngra London va Gamburgda birjalar faoliyati yo'lga qo'yilganligini qayd etib o'tish zarur. XVII asrga kelib Evropaning ko'plab davlatlari savdo shaharlarida birjalar faoliyat yuritgan. Jumladan, "birinchi xalqaro tovar birjasi Belgiyaning Antverpen shahrida 1531 yilda tashkil etilgan bo'lib, unda Evropaning ko'plab mamlakatlaridan tovarlar keltirilib savdoiar amalga oshirilgan. 1549 yilda

Fransiyaning Lion va Tuluza shaharlarida, 1556 yilda esa Londonda birjalar paydo bo'lgan"¹.

Boshqa qit'alarda birjalar paydo bo'lishiga to'xtaladigan bo'lsak, Osiyo qit'asi bo'yicha birinchi birja "guruch savdosi bo'yicha Yaponiyada 1790 yilda tashkil etilgan. Amerika qo'shma shtatlarida birinchi tovar birjasi 1848 yilda Chikagoda ochilgan. Birjalar tarixida Amsterdam alohida ahamiyatga ega bo'lib, u erda birinchi marta tovarlar sifati bo'yicha talablar asosida tovarning o'zini bevosita taqdim etmasdan savdolar amalga oshirilgan"².

Dastlabki birjalar naqd tovarlarning oldi-sotdisini vositachilar yordamida qo'ldan-qo'lga o'tkazish orqali ayriboshlashga xizmat qilgan edi.

Zamonaviy tovar birjalari ulgurji savdoning turli shakllari uzoq evolyutsiyasi natijasi va tovar bozorining tashkillashtirilgan turlaridan biridir.

"XII-XIII asrlardayoq Evropadaga yarmarkalarda naqd tovarlar bo'yicha bitimlar to'lovlarni kechiktirish asosida ham tuzilgan. Ba'zi yarmarkalarda turli mahsulotlar sifati bo'yicha talablarni o'zida aks ettirgan standartlar ishlab chiqilgan va aniq tovarlar partiyalari, hattoki ma'lum tovarlar turlari bo'yicha ham savdo amaliyotida qo'llanilgan"³.

O'sha davrdayoq yarmarka savdolari qat'iy qoidalarga asoslangan bo'lib, qoidalar asosida belgilangan maburiyatlarni bajarmagan xaridorlar savdo hamjamiyatidan chiqarilgan. Bundan tashqari yarmarkalarda bahsli masalalar va nizoli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha yarmarka sudlari ham faoliyat ko'rsatgan.

Amsterdam birjasi qimmatli qog'ozlar bilan savdolar o'tkazilgan birinchi birja hisoblanadi. Nyu-York fond birjasiga esa 1792 yilda asos solingan. Natijada fond birjalari faoliyati yo'lga qo'yilishiga zamin yaratildi.

Davlatlararo savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi o'z navbatida valyuta bozorlarining, valyuta birjalarining tashkil etishiga sabab bo'ldi.

¹ Маскаева А.И., Туманова Н.Н. Биржа и биржевое дело. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2019. – С. 5.

² Маскаева А.И., Туманова Н.Н. Биржа и биржевое дело. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2019. – С. 5.

³ Деева Е.М., Курушин Д.А. Биржевое дело. Учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2015. – С. 7.

1.2. Birja funksiyalari, savdolari va turlari

Birja faoliyatining asosi birja savdosidar. Birja savdolarining vujudga kelishi ishlab chiqarish hamda savdoning rivojlanishi asosida yuz bergan. Bu jarayonda savdo ishlab chiqarish va tashqi muhitni o'zaro bog'lovchi bo'g'in sifatida ko'rib chiqiladi.

Ishlab chiqarish va savdo o'zaro uzviy bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish va savdo bir-biriga nisbatan ma'lum bir talablarni ilgari suradi. Bunda ishlab chiqarish belgilangan tovarlarni kelishilgan miqdorda, assortimentda va zaruriy sifat darajasida ishlab chiqarib, belgilangan muddatli yetkazib berishi zarur bo'ladi. O'z navbatida savdo qanday mahsulotni qancha miqdorda va qaysi muddatda ishlab chiqarish hamda qaysi iste'molchiga yetkazib berishni belgilab beradi.

Tovar bozorlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ulgurji savdo tizimlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini mustaqil tarzda ulgurji sotishlari bo'yicha hech qanday to'siq mavjud emas. Lekin tovar bozorida murakkabliklar, tovarlar assortimentlarining ko'pligi sharoitida ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini mustaqil ulgurji savdo firmalari va agentlarining vositachilik xizmatlaridan foydalangan holda ham sotishlari mumkin.

Bunda birja savdolari odatiy mahalliy bozor va yarmarkalardagi savdolarga nisbatan bir muncha yuqori sur'atlarda o'sib kelmoqda. Bunda bozor quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- savdolar muntazam ravishda (har kuni) o'tkaziladi;
- savdo ob'ekti hisoblangan tovarlar uchun chegaraning mavjud emasligi va o'tkaziladigan savdolarning omma uchun ochiqligi;
- savdo jarayonida tovarlar mavjud bo'lishi shartligi;
- savdolar kichik partiyalarda amalga oshirilishi va savdoldardan so'ng hujjatlar rasmiylashtirilishi har doim ham talab qilinmasligi;
- tovar narxi talab va taklif asosida shakllanadi hamda xaridor tovarning iste'molchisi hisoblanadi;
- mahalliy bozorlar asosan kichik hududlarga xizmat qiladi.

Yarmarkalarning asosiy xususiyatlari esa odatda bir yilda bir marta o'tkazilishi va maxsus tovarlar savdosi amalga oshirilishini keltirish mumkin.

Birja savdolari bozor va yarmarka savdolari xususiyatlarini ham o'z ichiga olgan holda savdo jarayonlarini soddalashtirish, ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) va xaridorlarni narx o'zgarishlari bilan bog'liq yo'qotishlardan himoyalash kabi afzalliklarga ham ega. Bunda birja

faoliyati foyda olish maqsadida tashkil etiladigan mustaqil tijorat faoliyati shakli sifatida ko'zga tashlanadi. Umuman birja savdolari xususiyatlari quyidagilar:

- ishlab chiqaruvchilarni va iste'molchilarni bir joyga jamlaydi;
- yirik partiyalarda birja tovarlari deb nomlanadigan tovarlar maxsus turlari savdolari amalga oshiriladi;
- tovarlar mavjud bo'lmagan holatda yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish imkoniyati mavjud bo'ladi;
- savdolar omborxonadan olib ketish tartiblarida ham amalga oshiriladi;
- erkin narx shakllanishi asosida savdolar amalga oshiriladi;
- birja vositachilari bevosita ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar nomidan ish yuritadi;
- birja savdolari jarayoniga davlatning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri mavjud emasligi;
- aniq talablar, standartlar va belgilangan qoidalar asosida savdolar amalga oshirilishi;
- mahsulot sifati va bahosini aniqlashni tavsiflovchi standartlar amal qilishi.

Birjalar o'z faoliyati davomida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Oshkora ommaviy savdolarini o'tkazish uchun birja yig'ilishlarini tashkil etish. Buning uchun birja savdolarini tashkil etish, birja savdolari qoidalarini ishlab chiqish, savdolarini moddiy-texnik ta'minlash, birjaning malakali apparati ishlashini yo'lga qo'yish talab etiladi.
2. Birja shartnomalarini ishlab chiqish. Bunda tovarlar partiyalari o'lchamlarini standartlashtirish, birja bitimlari bo'yicha hisob-kitoblarga nisbatan yagona talablarni ishlab chiqish talab etiladi.
3. Birja bitimlari bo'yicha bahslarni hal qilish. Odatda bahsli holatlarda arbitraj sudlari vositachilik qiladi.
4. Birja narxlarini aniqlash va tartibga solish. Bunda birja narxlarining e'lon qilib borilishi sotuvchi va xaridorlar uchun mo'ljal vazifasini o'taydi hamda navbatdagi birja savdolari strategiyasini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.
5. Narx tebranishlari tufayli noqulay holatlardan birja savdolari ishtirokchilarini xedjirlash. Mazkur funksiyaning ishlashi birjaga bo'lgan ishonchni oshiradi.
6. Birjaning kliring va hisob-kitoblari tizimlari asosida bitimlar bajarilishini kafolatlash. Buning uchun birja savdo ishtirokchilari o'zaro

talablarni va majburiyatlarini hisobga qo'yish orqali hisob-kitoblar tizimidan foydalanadi, hamda ularning bajarilishini tashkil etadi.

7. Birjaning axborot bilan ta'minlash funksiyasi birja narxlarini ro'yxatdan o'tkazish, umumlashtirish, mijozlarga va manfaatdor tashkilotlarga taqdim etish va boshqalarga xizmat qiladi.

Birjalar faoliyat xususiyatlarini anglash uchun ularni tasniflash, ya'ni ma'lum bir belgilariga ko'ra guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq. Birjalar quyidagi belgilariga ko'ra tasniflanadi:

- birja tovari turi bo'yicha;
- tashkil etilish printsipiga ko'ra (birjani tashkil etishda davlat ishtiroki bo'yicha);
- birja savdolariga tashrif buyuruvchilar ishtiroki shakliga ko'ra;
- birja savdosi ob'ekti hisoblanuvchi tovarlar nomenklaturasiga ko'ra;
- jahon savdosidagi ishtirokiga ko'ra;
- faoliyat tavsifiga ko'ra.

Yuqoridagi tasnifiy belgilariga ko'ra birjalar yana turlarga ajratiladi. Ularning har biri bo'yicha birja turlarini keltirib o'tamiz.

1. Jahon amaliyotida birja tovari turiga bog'liq holatda birjalar quyidagilarga bo'linishi qabul qilingan:

- tovar birjalari;
- tovar-xomashyo birjalari;
- fond birjalari;
- valyuta birjalari;
- mehnat birjalari.

O'zbekiston qonunchiligida birjalar o'z faoliyatini tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjasi turida amalga oshirishi belgilangan⁴.

2. Tashkil etilish printsipiga ko'ra, ya'ni birjani tashkil etishda davlat ishtiroki bo'yicha birjalarning ikkita turi ajratib ko'rsatiladi:

- davlat ishtirokidagi birjalar;
- xususiy birjalar.

O'zbekistonda uchta birjada ham davlat ulushi (ishtiroki) mavjud.

3. Birja savdolariga tashrif buyuruvchilar ishtiroki shakliga ko'ra birjalar ochiq va yopiq tipda faoliyat yuritadi. Yopiq tipdagi birjalarda savdolar faqat professional vositachilar ishtirokida amalga oshiriladi. Ochiq tipdagi birjalardagi savdolar esa doimiy a'zolar va birja

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 3-moddasi.

vositachilaridan tashqari boshqa tashrif buyuruvchilar ham ishtirok etishi mumkin.

4. Birja savdosi ob'ekti hisoblanuvchi tovarlar nomenklaturasiga ko'ra birjalar universal va ixtisoslashgan birjalarga bo'linadi. Bunda universal birjalarda keng assortimentdagi tovarlar savdolari kuzatiladi. Ixtisoslashgan birjalar esa ma'lum bir tovar yoki tovarlar guruhi savdolari bilan shug'ullanadi.

5. Jahon savdosidagi ishtirokiga ko'ra birjalar xalqaro, mintaqaviy va milliy birjalarga bo'linadi.

6. Faoliyat tavsifiga ko'ra birjalar real tovar, fyuchers, opsiyon va aralash birjalarga bo'linadi.

1.3. O'zbekistonda birjalar faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslari

Mamlakatimizda 2014 yil 12 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni birjalar faoliyatining huquqiy asosi hisoblanadi. Mazkur Qonunning maqsadi birjalarning tashkil etilishi va faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Birjalar o'z faoliyatini tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjasi turida amalga oshiradi. O'z navbatida har bir birja faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonunchilik hujjatlari ham mavjudligini qayd etib o'tish zarur.

Mamlakatimizda birjalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Birjaning firma nomida «birja» so'zi bo'lishi kerak.

Birjalar belgilangan tartibda litsenziya olganidan keyin birja faoliyatini amalga oshirish huquqini qo'lga kiritadi. Bunda tovar-xom ashyo birjasi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan, valyuta birjasi Markaziy bank tomonidan, fond birjasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan lizentsiya asosida faoliyat ko'rsatadi.

Birjaning ta'sis hujjati ustav hisoblanadi va unda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- birjaning to'liq va qisqartirilgan firma nomi, joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili;
- birja ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;
- birja tomonidan chiqariladigan aksiyalarning soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);
- birja boshqaruvining tuzilmasi, birja kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a'zolari soni, ushbu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Birja ustavida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

Birja aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi birjaning boshqaruv organlaridir.

Birja aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi birjaning kuzatuv kengashini saylaydi.

Birja kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- birjani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- birja savdosi qoidalarini tasdiqlash;
- birja a'zolikiga qabul qilish, a'zolikni to'xtatib turish, tugatish tartibini tasdiqlash;
- birja faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun jarimalarning miqdorlarini va ularni undirish tartibini belgilash;
- a'zolik badallarining va birja tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarning miqdorini belgilash;
- tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish tartibini tasdiqlash.

Birja kengashi qonun hujjatlariga va birja ustaviga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Joriy faoliyatga rahbarlik qilish vakolatlari birja ustavida belgilanadigan birjaning ijroiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

Birja:

- kotirovkalash, arbitraj, listing, nazorat va boshqa birja komissiyalarini tashkil etishga;

- agar birja tovarlarining kotirovkalari (narxlari) birja tomonidan belgilangan chegaraviy miqdordan o'zgarib ketsa, birja savdolarini to'xtatishga;

- qonun hujjatlariga muvofiq tanlov, kimoshdi, Ko'rgazmaymarka savdolarini, davlat xaridlari va korporativ xaridlarni tashkil etish hamda o'tkazishga;

- birja axborotnomalari, ma'lumotnomalari hamda boshqa axborot va reklama materiallarini chiqarishga haqli.

Birja qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Birja:

- birja savdolarini tashkil etishi;

- birja tovarlariga bo'lgan talab va taklifning nisbati asosida ularni kotirovkalashni (ularning narxini belgilashni) amalga oshirishi;
- savdo maydonchalarida va sektsiyalarda birja savdolari o'tkazish joyi hamda vaqti to'g'risida birja a'zolarini o'z vaqtida xabardor qilishi;
- tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi;
- birja a'zolarining va ular mijozlarining o'zaro majburiyatlarini belgilashni, aniqlashtirishni hamda hisobga olishni (kliring), shuningdek bankda ochilgan maxsus hisobvaraqlar orqali ular o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishi;
- birja, birja a'zolari va ularning mijozlari pul mablag'larining alohida-alohida hisobini yuritishi;
- muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) o'z rasmiy veb-saytida birja tovarlarining kotirovkalarini (narxlarini) joylashtirishi, shuningdek birja a'zolarini har bir birja savdosining yakunlari to'g'risida xabardor qilib borishi shart.

Birjaning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Birja faoliyati birja tovarlari bozorini tashkil etish va tartibga solishga hamda talab va taklif asosida birja tovarlarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir.

Birja faoliyatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- birja savdolarini o'tkazishning oshkoraligi va ommaviyligi;
- birja savdolarida narxlar shakllanishining erkinligi;
- birja bitimlarini tuzishning ixtiyoriyligi;
- birjaning barcha a'zolari uchun birja savdolarida ishtirok etishda shart-sharoitlarning tengligi;
- tuzilgan birja bitimlari bajarilishining ta'minlanishi.

Tovar-xom ashyo va fond birjalarining faoliyatini tartibga solish vakolatli organ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda amalga oshiriladi.

Valyuta birjasi faoliyatini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda birja savdolariga qo'yilgan muayyan turdagi va sifatdagi tovar, shu jumladan hosila moliyaviy vositalar (derivativlar) birja tovaridir.

Yer, yer osti boyliklari, suv, boshqa tabiiy resurslar, madaniy meros va intellektual mulk ob'ektlari, ishlar va xizmatlar, xususiy belgili ashyolar, ko'chmas mulk, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq

fuqarolik muomalasidan chiqarilgan mol-mulk birja tovari bo'lishi mumkin emas.

Birja savdolari birja tomonidan birja savdosi qoidalariga muvofiq tashkil etiladigan birja tovari savdolaridir.

Birja savdolari birjada birja a'zolarining barchasiga ushbu savdolarida bir vaqtda ishtirok etish imkoniyati berilgan holda, markazlashtirilgan tarzda elektron shaklda o'tkaziladi.

Birja savdosi qoidalarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizom;
- birja a'zolarining birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi;
- tovarlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi;
- birja bitimlarining turlari;
- birja savdolarida muomalada bo'ladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) tavsifi;
- tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish tartibi;
- birja savdolarini o'tkazish tartibi;
- birja bitimlarini va birja savdolari natijalarini ro'yxatga olish hamda rasmiylashtirish tartibi;
- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;
- birja tovarlarini kotirovkalash (ularning narxini belgilash) tartibi;
- birjada narxlarning shakllanish jarayoni ustidan nazorat qilish tartibi;
- birja savdolari to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibi;
- birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar;
- birjada nizolarni hal etish tartibi.

Birja savdosi qoidalarida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

Birja tomonidan belgilangan tartibda birja savdolarida ishtirok etish hamda dilerlar, market-meykerlar va brokerlar sifatida birja bitimlarini tuzish huquqini olgan yuridik shaxslar birja a'zolaridir.

Birja bitimlarini o'z nomidan va o'z hisobidan tuzuvchi birja a'zosi dilerdir. Birja tovarlari narxlarining, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun o'z zimmasiga birja bitimlarini tuzish majburiyatini olgan diler market-meykerdir.

Mijozning topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan birja bitimlarini tuzuvchi birja a'zosi brokerdir.

Diler va broker vazifalari birjaning bitta a'zosi tomonidan qo'shib amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari birja a'zolari bo'lishi mumkin emas, valyuta birjasi bundan mustasno.

Birja a'zolari birja savdolarida ularning nomidan birja bitimlari tuzishga vakolatli bo'lgan o'z xodimlari (treyderlar) orqali ishtirok etadi.

Birja a'zolari:

- birja savdolarida ishtirok etish va birja bitimlarini tuzish;
- birja komissiyalari faoliyatida ishtirok etish;
- birja savdosi qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- birja tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish;
- har bir birja savdosining yakunlari to'g'risida axborot olish

huquqiga ega.

Birja a'zolari qonun hujjatlariga va birja savdosi qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Birja a'zolari:

- birjada o'z faoliyatini qonun hujjatlariga va birja savdosi qoidalariga muvofiq amalga oshirishi;

- mijozga uning manfaatlarini ko'zlab tuziladigan birja bitimlari, shuningdek uning topshiriqlari bajarilishi bilan bog'liq to'liq axborotni o'z vaqtida taqdim etishi;

- birjaga o'zlarining birja savdolarida ishtirok etganligi hamda birja bitimlarini tuzganligi bilan bog'liq to'liq axborotni o'z vaqtida taqdim etishi;

- mijoz bilan shartnoma tuzayotganda uni birja savdosi qoidalari hamda kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari bilan tanishtirishi;

- o'z hisobidan va mijozning hisobidan tuzilgan birja bitimlarining alohida hisobini yuritishi;

- o'z mijozlari pul mablag'larining alohida-alohida hisobini yuritishi shart.

- Birja a'zolarining zimmasida qonun hujjatlariga va birja savdosi qoidalariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Dastlabki ko'zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko'rsatkichlari o'zgarماسligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan, birja savdolariga qo'yilgan muayyan turdagi tovarlar ro'yxati birjaning kotirovkalash varag'idir.

Tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi, qimmatli qog'ozlar bundan mustasno:

- tovar ishlab chiqaruvchining yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;

- tovarning belgilangan talablariga muvofiqligini tekshirish;

- tovarning likvidligini baholash;

- tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish (birja listingi) quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi:

- qimmatli qog'ozlar emitentining o'z qimmatli qog'ozlarini birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;

- qimmatli qog'ozlar emitentining moliyaviy holatini baholash;

- qimmatli qog'ozlarning likvidligini baholash;

- qimmatli qog'ozlarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilgan tovar birja savdolariga qo'yilgan hisoblanadi.

Chet el valyutasi va davlat qimmatli qog'ozlari birjaning kotirovkalash varag'iga tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish va birja listingi tartib-taomilisiz kiritiladi.

Birja bitimi birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnomasidir.

Birjada birja bitimlari, shu jumladan:

- birja tovarlarining ularni kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (spot);

- birja tovarlarining ularni kechiktirib yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (forwardlar);

- birja tovarini yetkazib berishni (yetkazib berish fyuchersi) yoki birja tovarini yetkazib bermagan holda bitim taraflari o'rtasida pul hisob-kitoblari amalga oshirilishini (hisob-kitob fyuchersi) nazarda tutadigan, kelgusida bajarish majburiyati bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (fyucherslar);

- birja tovarlarini yoki hosila moliyaviy vositalarni (derivativlarni) kelgusida sotib olish yoxud sotish huquqi bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (optionslar);

- valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan valyuta kursi bo'yicha amalga oshirish sharti bilan tuziladigan valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar (valyuta svoplari);

- qimmatli qog'ozlarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan narx bo'yicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari (repo) tuzilishi mumkin.

Birjada qonun hujjatlariga muvofiq boshqa birja bitimlari ham tuzilishi mumkin.

Birja bitimi to'g'risidagi axborot (birja tovarining nomi, soni, kotirovkasi (narxi), birja bitimi tuzilgan sana bundan mustasno) uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin emas. Birja bitimi to'g'risidagi axborot sudlarga taqdim etiladi, surishtiruv va tergov organlariga esa, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda taqdim etiladi.

Birja bitimining mazmuni haqidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq bo'lgan axborot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

Birja bitimi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga qonun hujjatlariga muvofiq o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, uning so'roviga ko'ra taqdim etiladi.

Birja savdolari birja a'zolari tomonidan berilgan buyurtmalar asosida, birja savdosi qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

Birja tovarini kotirovkalash birja savdolarida birja tovarining birja narxini belgilash maqsadida avtomatik rejimda, birja savdosi qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Birja savdolari yakunlariga ko'ra olingan qimmatli qog'ozlarning, davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno, birja narxi mazkur qimmatli qog'ozlarning birja savdolari sanasidagi bozor narxidir.

Birja bitimini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarga doir birja bitimlarini yozma ravishda rasmiylashtirish talab qilinmaydi.

Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi:

- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- agar birja bitimi shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, birja tovarlarini yetkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish;

- pul mablag'larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;

- birja savdosi qoidalariga va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birja bankrot deb topilgan taqdirda, birja a'zolarining va ular mijozlarining birja hisobvaraqlaridagi mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi hamda birja a'zolariga va ularning mijozlariga ularning birja bitimi bo'yicha majburiyatlari bajarilganidan keyin qaytarilishi lozim.

Birjaning majburiyatlari bo'yicha undiruvni birja a'zolarining va ular mijozlarining mol-mulkiga qaratishga yo'l qo'yilmaydi.

Birja a'zolarining mablag'lari etarli bo'lmagan taqdirda, birja bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondining pulli va qaytarib berish asosida birja a'zolariga taqdim etiladigan mablag'lari orqali ta'minlanishi mumkin.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shart-sharoitlarni ham yaratishi mumkin.

Birja quyidagilarga haqli emas:

- ishlab chiqarish, savdo, savdo-vositachilik faoliyatini bevosita amalga oshirishga, shuningdek birja faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa yuridik shaxslarning muassisi (aksiyadori) bo'lishga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- birja a'zolarining va ular mijozlarining pul mablag'laridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga, qonun hujjatlarida va birja savdosi qoidalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Birjada:

- birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilmagan birja tovarlarini muomalaga kiritishga;

- birja a'zolarining narxlarning sun'iy ravishda o'zgartirilishiga yoki qat'iy qilib qo'yilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kelishilgan xatti-harakatlariga;

- bozor kon'yunkturasini sun'iy ravishda o'zgartirishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan noto'g'ri va ataylab yolg'on ma'lumotlarni tarqatishga;

- birja savdolari o'tkazilmagan holda birja a'zolari o'rtasida tuzilgan birja tovariga taalluqli bitimlarni birja tomonidan ro'yxatdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat savollari

1. Birjalar, ularning yuzaga kelishi va rivojlanishi
2. Birjalar tashkillashgan bozor shakli sifatida
3. Birja faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari
4. Birjalarning funksiyalari
5. Birjalarning tasnifi va tavsifi
6. O'zbekistonda birjalar faoliyatining huquqiy asoslari
7. Birjalarning tamoyillari
8. Birjalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi roli

2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKA TOVAR-XOM ASHYO BIRJASINING FAOLIYATI, SAVDO PLATFORMALARI VA A'ZOLARI

2.1. O'zbekiston Respublika Tovar-xom ashyo birjasi faoliyatining umumiy tavsifi va uning savdo platformalari

O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi aksiyadorlik jamiyati 1994 yili aprel' oyida Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo maydonchasi, hamda MDH mamlakatlari ichida izchil rivojlanayotgan xom ashyo birjasi hisoblanadi.

Birja faoliyati maqsadi va predmeti o'rnatilgan qoidalar asosida oldindan ma'lum bo'lgan joyda va vaqtda, ochiq savdolari tashkil qilish va o'tkazish yo'li bilan birja tovarlari bilan savdo qilishga zaruriy sharoitlarni yaratishdir. Birja savdolarini tashkil qilish va aniqlangan haqiqiy talab va taklif nisbati asosida birja tovarlari narxlarini shakllantirish yo'li bilan birja tovarlar bozorini yaratishdir.

O'zbekiston Respublika tovar xom ashyo birjasi (keyingi o'rinlarda O'zRTXB) dushanbadan juma kunigacha soat 9:00 dan 18:00 gacha ishlaydi. Kun davomida ikkita birja savdo sessiyalari o'tkaziladi: ertalabki va kechki. Qolgan savdo platformalari haftada 7 kun 24 soat mobaynida ish yuritadi.

Yuqori organ – O'zRTXB aksiyadorlarining Umumiy majlisi, Boshqaruv organi – “O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi” (keyingi o'rinlarda O'zRTXB), AJ Kuzatuv kengashi, Ijrochi organ – “O'zRTXB” AJ Boshqarmasi.

“O'zRTXB” AJ birja savdolari ochiq-oydinlik, oshkoralik va mijozlarga teng raqobat sharoitlarni yaratib berish tamoyillari asoslarida olib boriladi. Birja savdosi qoidalariga binoan barcha savdo ishtirokchilari ularning maqomi - respublika rezidenti yoki norezidentligidan qat'iy nazar teng haq-huquqlarga egadirlar.

“O'zRTXB” AJ milliy va xorijiy kompaniyalarni respublikada ishlab chiqariladigan yuqori likvidli tovar aktivlari, shu jumladan qora va rangli metallar, neft mahsulotlari, paxta tolasi, mineral o'g'itlar, shakar, bug'doy uni, don va boshqalar bilan teng huquqlilik asosida ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Birja O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahrida joylashgan. Birja ko'p tarmoqli savdo infratuzilmasiga ega. Uning tarkibiy tuzilmasiga respublikamizning barcha viloyatlarining markazlarida joylashgan 13 filiallari kiradi. Shuningdek, hozirgi kunda mijozlarga

200dan ziyod savdo maydonchalari va 800 brokerlik idoralari birja xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Birjada 5 savdo platformalari faoliyat yuritadi:

1. Birja elektron savdo tizimi (avtomatlashtirilgan savdo-sotiqqa tegishli talablarni yig'ish va ularga javob berish elektron savdo tizimi);
2. Ko'rgazma-yarmarka savdolarining elektron savdo tizimi;
3. Avtoraqamlarni sotish bo'yicha elektron savdo tizimi.
4. Elektron davlat xaridlari
5. Mobilraqamlarni sotish bo'yicha savdo tizimi.

Birja savdolari

Birja savdolari elektron tizim asosida olib boriladi. Savdolarga tizimli ravishda bir turdagi standart xususiyatga ega, boshqa ishlab chiqaruvchi tovarlari yoki boshqa tovarlar partiyasi bilan o'zaro almashuvchi tovarlar qo'yiladi.

Birja savdosining asosiy afzalliklari quyidagilar:

- yuqori malakali savdo xodimlari xizmatidan foydalanish imkoniyati;
- vositachi-brokerlarni tanlab olish imkoniyati;
- harajatlarni oshirmasdan savdo hajmini ko'paytirish;
- bitimlar bajarilishining kafolatlanganligi;
- brokerlar idorasi orqali savdo operatsiyalarini amalga oshirishda shu xizmatlariga ma'lum bir foiziga teng miqdorda to'lov o'tkazish imkoniyati;
- savdo operatsiyalarining tezkorligi;
- barcha savdo ishtirokchilari uchun korxonalar hajmi, biror tarmoq yoki idoraga mansubligi, hududiy joylashuvidan qat'iy nazar tenglik ta'minlanganligi;
- bozorning yuqori darajada likvidligi;
- bitimlarni amalga oshirishda operatsion harajatlarning kamligi;
- savdolarida ko'plab xaridorlar/sotuvchilarning ishtiroki hisobiga shakllangan kuchli raqobat asosida optimal bozor bahosini aniqlash imkoniyati.

Birja savdolarida ishtirok etish huquqi brokerlik joyini o'rnatilgan tartibda olgan birja a'zolariga beriladi. Birja savdolari platformasida faqatgina birja tovarlari savdoga chiqariladi. "Birja tovari" tushunchasiga o'z sifati, tuzilishi bilan bir turdagi xususiyatga ega bo'lgan, o'zining asosiy va aniqlovchi parametrlari bilan xuddi shunday boshqa ishlab chiqaruvchining yoki boshqa partiyadagi tovar bilan o'zaro

almashinuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovar kiradi va u doimiy ravishda savdolariga chiqarilishi shart.

“O‘zRTXB” AJ savdolari har kuni, shanba va yakshanbadan tashqari, Toshkent vaqti bilan 9:30 dan 17:00 gacha o‘tkaziladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat olib boruvchi mahalliy va xorijiy ishtirokchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2005 yili 4 martdan boshlab O‘zRTXBda valyuta savdo maydonchasi ishga tushirilgan, u yerda birja savdolariga erkin ayirboshlanadigan valyutada qo‘yiladigan har qancha miqdordagi yuqori likvidlik mahsulotlarni sotib olish imkoniyati bor.

Ko‘rgazma-yarmarka savdolari

Ko‘rgazma-yarmarka savdo tovarlariga xususiyatlaridan qat’iy nazar, fuqarolik muomalasida bo‘lgan tovarlar, shu jumladan, individual xususiyatga ega bo‘lgan va savdolariga muntazam ravishda chiqarilmaydigan yoki kamdan-kam chiqariladigan tovarlar kiradi. Savdolar internet orqali real vaqt rejimida olib boriladi, savdo bo‘yicha hisob-kitoblar ham onlayn rejimida amalga oshiriladi.

Tizimning afzalliklari:

- Vaqt tejamkorligi – savdo tizimida ro‘yxatdan o‘tish jarayonining soddaligi;
- Savdolariga kechayu kunduz kira olish;
- Mablag‘ tejamkorligi – reklama xizmatlari uchun qo‘shimcha mablag‘ talab etilmaydi;
- Vositachilar soni minimal darajada ekanligi.

AVTORAQAM platformasi

AVTORAQAM - jismoniy va yuridik shaxslarga avtomototransport vositalari uchun ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarini oshirilgan to‘lov stavkalarida sotish bo‘yicha savdo platformasi. Avtoraqamlarni sotish bo‘yicha elektron auksion savdolar mexanizmi, birjaning boshqa savdo platformalari kabi ochiq-oydinlik, oshkoralik, raqobat va barcha savdo ishtirokchilari uchun teng sharoit yaratish tamoyillariga asoslangan.

Avtoraqamlarni savdolariga qo‘yilishi O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB bo‘linmalarining mas‘ul xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar uchun to‘lov shaxsiy kabinetdan ro‘yxatdan o‘tib bo‘lingach, faollashtirilgan plastik kartochka orqali amalga oshiriladi. Yuridik shaxslar esa ro‘yxatdan o‘tish sahifasida havola kilingan Ofertada ko‘rsatilgan hisob raqamga pul o‘tkazish yo‘li orqali to‘lovni amalga oshiradilar.

Davlat xaridlari

2018 yildan “O‘zRTXB” AJ davlat xaridlari bo‘yicha xarid.uz maxsus axborot portalining operatori etib belgilandi. Ushbu portal orqali davlat xaridlarining shaffofligi, ochiq-oydinligi va samaradorligi ta‘minlanadi. Xususan, portal orqali davlat xaridlari sohasidagi barcha e‘lonlarni ko‘rish mumkin. Bu yerda elektron xaridlar elektron do‘kon va auksion shaklida amalga oshiriladi. Buyurtmachilar va yyetkazib beruvchilar savdolarida faqatgina elektron raqamli imzo yordamida ishtirok etadilar. Elektron xaridlar narxlar so‘rovi va teskari auksion tarzida amalga oshiriladi. Tizimda shuningdek Hisob-kitob kliring palatasi orqali bitimlar ijrosini kafolatlash mexanizmi qo‘llaniladi.

MOBILRAQAM platformasi

MOBILRAQAM - chiroyli sonlar kombinasiyasiga ega uyali telefon raqamlarini sotish bo‘yicha yangi savdo platformasi. Onlayn auksionda ham yuridik (B2B) va ham jismoniy (B2C) shaxslar ishtiroq etishlari mumkin. Yangi savdo mexanizmi, O‘zRTXBning boshqa savdo platformalari kabi ochiqlik, oshkoralik, sog‘lom raqobat va savdo ishtirokchilari uchun teng sharoitlarni yaratib berish tamoyillariga asoslangan.

2.2. Birja a‘zolari, ularning huquq va majburiyatlari

Tovar-xomshyo birjasida savdolar “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o‘tkazish Qoidalari” asosida tashkil etiladi.

Qoidalar “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga (“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2014 yil 22 sentyabr, 38-son, 481-modda), birja faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o‘tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Qoidalar O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasiga (keyingi o‘rinlarda birja deb ataladi), birja a‘zolari va ularning treyderlariga, birja a‘zolari tomonidan nomidan birja bitimlari tuzadigan yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga, shuningdek birja bitimlarini amalga oshirish, ro‘yxatga olish, rasmiylashtirish va bajarishda hamda ular bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda bevosita qatnashadigan yoki ko‘maklashadigan shaxslarga nisbatan tadbir etiladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida mazkur Qoidalarda belgilanganidan boshqacha qoidalar o‘rnatilgan bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjatlar qoidalari qo‘llaniladi. Birjaning ichki hujjatlari

asosida belgilanadigan nizom va tartiblar mazkur Qoidalarga mos bo'lishi lozim.

Birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari "Birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi. Unga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari birja a'zolari bo'lishi mumkinemas. O'z navbatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari hamda birja xodimlari birja a'zosi bo'lgan yuridik shaxsning muassisi va mansabdor shaxsi bo'lishi mumkinemas.

Birja a'ziligiga qabul qilish, a'zolikni to'xtatish va tugatish tartibi "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidalari" bilan belgilanadi. Birja a'ziligiga to'lov asosida qabul qilinadi.

Birjaning har bir a'zosiga birja tomonidan birja a'zosining individual raqami beriladi, alohida elektron pochta manzil va shaxsiy (xona) kabinet ochiladi. Birja bitimlarini mijoz nomidan va uning hisobidan tuzuvchi birja a'zosi *broker* hisoblanadi.

Diler va brokerning funksiyalarini bitta birja a'zosi o'rindoshlik asosida amalga oshirishiga ruxsat etiladi. Birja a'zolari cheklanmagan sondagi mijozlarga xizmat ko'rsatishi mumkin. Birja a'zosi va uning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar ular o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma shartlari "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidalari"ga zid bo'lmasligi shart.

Birjada birja a'zolari o'z mijozlarining manfaatlarini o'z treyderlari orqali, shu jumladan mijozlarning manfaatlariga ta'sir etuvchi masalalar muhokama qilinadigan birja komissiyalarida qatanashish yo'li bilan himoya qilishlari mumkin. Birja a'zosi cheklanmagan sondagi treyderlarni ishga jalb qilishim mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, shuningdek birjaning xodimlari treyder sifatida ishlashga haqli emas.

Treyder faqatgiga bitta birja a'zosida faoliyatini amalga oshirishga haqli. Birja a'zosi va treyder o'rtasida munosabatlar mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi.

Birja a'zolarining treyderlari malaka talablariga javob berishlari kerak. Treyderlar birja faoliyatiga oid qonun hujjatlarini, "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidalari"ni, birja savdolarini tashkil etish, birja bitimlarini tuzish va bajarishni tartibga soluvchi birjaning ichki hujjatlarini bilishlari shart.

Treyderlarning malaka talablariga javob berishi birja Boshqaruvi tomonidan o'rnatilgan tartibda test o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi.

Treyder o'zining harakati yoki harakatsizligi bilan birja a'zosiga zarar yetkazgan taqdirda birja a'zosi ushbu zarar to'liq to'langunga qadar birjadan treyderning boshqa birja a'zosida treyder sifatida ishlashini cheklashni talab qilish huquqiga ega. Lekin bunda ular o'rtasida tuzilgan shartnomada birja a'zosiga shunday huquq berilgan bo'lishi lozim.

Birja va birja a'zosi o'rtasidagi rasmiy yozishmalar, shuningdek boshqa ma'lumotlarni yuborish pochta aloqa xizmati, birja elektron pochta yoki shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi.

Birja a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- birja savdolarida ishtirok etish va birja bitimlarini tuzish;
- birja komissiyalari faoliyatida ishtirok etish;
- birja savdo qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- birja tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish;
- har bir birja savdosining yakunlari to'g'risida axborot olish va boshqalar.

Birja a'zolari majburiyatlari esa quyidagilar:

- birjada o'z faoliyatini qonun hujjatlariga, mazkur Qoidalarga va birjaning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshirishlari;

- mijozga uning manfaatlarini ko'zlab tuziladigan birja bitimlari, shuningdek uning topshiriqlari bajarilishi bilan bog'liq to'liq axborotni o'z vaqtida taqdim etishlari;

- birjaga o'zlarining birja savdolarida ishtirok etganligi hamda birja bitimlarini tuzganligi bilan bog'liq to'liq axborotni o'z vaqtida taqdim etishlari;

- mijoz bilan shartnoma tuzayotganda uni mazkur Qoidalar hamda kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari bilan tanishtirishlari;

- o'z hisobidan va mijoz hisobidan tuzilgan birja bitimlarining alohida hisobini yuritishlari;

- o'z mijozlari pul mablag'larining alohida-alohida hisobini yuritishlari;

- birja tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishlari;

- birja komissiyalarining o'zlariga taalluqli qarorlarini bajarishlari;

- rekvizitlari o'zgariganligi haqida birjaga o'zgarish bo'lgan kundan boshlab o'n kunlik muddat ichida xabar berishlari;

- kuniga kamida bir marta birja tomonidan ochilgan o'zining elektron pochta yoki shaxsiy kabinetini tekshirishlari;

-birja binosida jamoat tartibi va odob-axloq qoidalariga rioya qilishlari va boshqalar.

Birja a'zolari va ularning treyderlariga quyidagilar ta'qiqlanadi:

-yolg'on, tasdiqlanmagan yoki insayderlik ma'lumotlarni birja xodimlari va a'zolari o'rtasida tarqatish;

-savdo vaqtida birja tomonidan o'rnatilgan tizimlardan farq qiluvchi operatsion tizimlardan foydalanish;

-birja a'zosining kompyuter terminalida birja tomonidan o'rnatilgan plomba (stiker)larni buzish.

Birja Boshqaruvi tomonidan treyderlarning kasbiy odob-axloq qoidalariga taalluqli boshqa talablar ham qo'yilishim mumkin.

2.3. Birja a'zolicigiga qabul qilish, a'zolikni to'xtatish va tugatish tartibi

Birja a'zolicigiga qabul qilish yuridik shaxslarni birja a'zosi sifatida akkreditsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Birjaga a'zo bo'lish, istagida bo'lgan shaxs (keyingi o'rinlarda talabgor deb ataladi) birjaga, shu jumladan uning hududiy bo'linmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- tasdiqlangan shakldagi ariza;

- a'zolikni taqdim etish to'g'risidagi ommaviy shartnoma shartlarini qabul qilinganligi bo'yicha aktsept;

- treyderning avtomatlashtirilgan ish joyi (keyingi o'rinlarda TAIJ)ni taqdim etish to'g'risidagi ommaviy shartnomani tuzish bo'yicha aktsept;

- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagigi guvohnoma va ustavning talabgor tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

- talabgor tomonidan tasdiqlangan talabgor rahbari va bosh hisobchisining pasport nusxasi (2-nusxada);

- kliring ishtirokchisining to'lirilgan anketasi;

- treyder(lar)ning ishga qabul qilinganligi to'g'risidagi talabgor tomonidan tasdiqlangan buyruq nusxasi;

- treyder(lar)ning pasport nusxalari.

Talabgordan belgilangan ro'yxatdan tashqari hujjatlarning talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Talabgorlar to'ldirishi uchun hujjatlar namunalari (shakllari) birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi va birjaning veb-saytida joylashtiriladi. Ommaviy shartnomalar ham birjaning veb-saytida joylashtiriladi. Talabgor taqdim etilgan hujjatlar to'plamidagi ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanadi.

Hujjatlar to'plami birjaning mas'ul tarkibiy tuzilmasi tomonidan ko'rib chiqilib, kamchiliklar aniqlanmasa, birja Boshqaruvi tomonidan

talabgorni a'zolikka qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi va bu haqda talabgorga tegishli xabarnoma yuboriladi.

Talabgorning hujjatlari ular taqdim etilgan kundan boshlab 5 ish kuni davomida ko'rib chiqiladi. Talabgor tomonidan ko'rsatilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa, birja a'zolikka qabul qilish haqidagi arizani qanoatlantirishni rad etadi, bu haqda rad qilish sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda talabgorni xabardor qiladi. Bunday holda hujjatlar talabgorga qaytariladi.

A'zolikka qabul qilish rad etilgan talabgor rad qilish uchun sabab bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etgandan so'ng hujjatlarni qaytadan topshirishga haqli. Birjaning vakolatli tarkibiy tuzilmasi birja a'zosi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni, shu jumladan birja a'zosining rekvizitlari, uning treyderlari, a'zolikni to'xtatish yoki tugatish sabablarini o'z ichiga olgan birja a'zolarining elektron reestrini yuritadi.

A'zolikni to'xtatish ixtiyoriylik asosida va majburiy tartibda amalga oshiriladi.

To'xtatish birja a'zosini birja savdolaridan chetlashtirish yo'li bilan quyidagi hollarda, ya'ni:

- birja va (yoki) savdo ishtirokchilari oldida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

- qonun hujjatlarini va (yoki) savdo qoidalarini buzganda;

- birja komissiyalarining qarorlarini bajarmaganda amalga oshiriladi.

Birja a'zosi va uning treyderlarini savdodan chetlashtirish uchun asos bo'ladigan qoidabuzilishlar "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidalari" bilan belgilanadi

Birja a'zosining a'zoligi to'xtatilgan va a'zolikdan chetlashtirilgan davrda undan a'zolik badallari va boshqa to'lovlar undirilmaydi, shuningdek ushbu birja a'zosining treyderini boshqa birja a'zosiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

A'zolikni tugatish haqidagi qaror birja Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi va bunday qaror quyidagi holatlarda qabul qilinadi:

- o mazkur birja a'zosi (yuridik shaxs) bankrot deb topilganda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan tartibda tugatilganda;

- o birja a'zosi sifatida 6 (olti) oydan ortiq muddat davomida faoliyat ko'rsatmaganda (a'zolik to'xtatilgan hollar bundan mustasno);

- o O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda tugatilishi mumkin.

2.4. Birja a'zolarini birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi

Birja a'zolarining birja savdolarida ishtirok etishiga Birja savdolarining elektron tizimi (keyingi o'rinlarda BSET)dan foydalangandagina ruxsat berilishi mumkin. BSET tizimiga kirish huquqi faqat birja a'zosining treyderiga beriladi. Treyderning BSETga kirishiga ruxsat unga treyderning avtomatlashtirilgan ish joyi va individual login hamda treyderning parolini berish orqali amalga oshiriladi.

Birja a'zosining arizasiga ko'ra savdolarida ishtirok etishga ruxsat birja filiallari va savdo maydonchalarida berilishi mumkin. Birja savdo zallariga ruxsat faqatgina treyderlarga berilishimumkin.

Treyderning avtomatlashtirilgan ish joyi (keyingi o'rinlarda TAIJ) birja tomonidan shartnoma va to'lov asosida beriladi. Savdo maydonchasida TAIJni berish shartlari savdo maydonchasi va birja a'zosi tomonidan belgilanadi.

Treyderning login va paroli to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy axborot hisoblanadi. Treyderning login va paroli to'g'risidagi ma'lumotlarning, shu jumladan treyderning o'zi tomonidan ham oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Treyderning shaxsiy login va paroli faqatgina treyder bilan mehnat shartnomasini tuzgan bitta birja a'zosi tomonidan foydalanilishi mumkin. Treyderning login va parolidan ushbu treyderga aloqasi bo'lmagan boshqa birja a'zolarining foydalanishi ta'qiqlanadi. Treyder login va parol olingan paytdan boshlab bir oy ichida qo'yilgan talablarga muvofiqligi bo'yicha test sinovidan o'tishi kerak.

Test sinovlaridan o'ta olmagan treyderlar ushbu sinovlardan o'tguniga qadar birja savdolaridan chetlashtiriladi. Birja a'zosi va uning treyderlari a'zoli to'xtatilgan va savdolaridan chetlashtirilgan davrda birja savdolariga qo'yilmaydi. Birja a'zosi birja savdosidan chetlashtirilgandan so'ng uning treyderi birja Boshqaruvi tomonidan o'rnatilgan tartibda qaytadan test sinovlaridan o'tadi.

Birja a'zosi birlashtirilgan savdo maydonchasining faoliyati to'xtatilgan yoki tugatilgan hollarda birja a'zosi uni boshqa savdo maydonchasi yoki filialiga o'tkazish haqida birjaga ariza berishi shart. O'tkazish rasmiylashtirilgunga qadar birja a'zosi birja savdolariga qo'yilmaydi.

2.5. Tovarlarini birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi

Birja savdolariga faqat birja tovarlari qo'yiladi. Bunda yer, yer osti boyliklari, suv, boshqa tabiiy resurslar, madaniy meros va intellektual

mulk ob'ektlari, ishlar va xizmatlar, xususiy belgili ashyolar, ko'chmas mulk, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolik muomalasidan chiqarilgan mol-mulk birja tovari bo'lishi mumkin emas.

Tovarni birja savdolariga qo'yish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- tovarni ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish haqidagi arizasini ko'rib chiqish;
- tovarning qonun hujjatlariga, shu jumladan birja tovariga nisbatan o'rnatilgan talablarga muvofiqligini, muvofiqlik sertifikatining mavjudligini, agar import qilingan tovar bo'lsa, uning bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilganligi haqidagi hujjatni tekshirish;
- tovarning likvidligini baholash;
- tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni birjaning Listing komissiyasi amalga oshiradi. Listing komissiyasi o'z faoliyatini birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Listing komissiyasi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tashkil etadi.

Birja savdosiga qo'yilgan birja tovarlari ro'yxati *birjaning kotirovkalash varag'i* hisoblanadi. Birjaning kotirovkalash varag'i birja savdolari muomalasiga qo'yilgan birjaning namunaviy kontraktlari ro'yxati ko'rinishida shakllantiriladi.

Ruxsat berish natijalari bo'yicha Listing komissiyasi kontraktga identifikatsiya raqami bergan holda bitimning eng ko'p qo'llaniladigan muhim shartlari ko'zda tutilgan namunaviy birja kontraktining spetsifikatsiyasini tasdiqlaydi.

Muhim shartlardagi har qanaday o'zgartirish yangi namunaviy birja kontrakti spetsifikatsiyasini qabul qilish va unga yangi identifikatsiya raqami berish uchun asosbo'ladi.

Namunaviy birja kontraktining spetsifikatsiyasi quyidagi muhim shartlarni o'z ichiga olishi kerak:

- birja tomonidan qo'yilgan kontraktning raqami (kodi);
- tovarning TIF TN kodi;
- tovarning to'liq nomi;
- o'lchov birligi;
- bitta kontraktidagi lot (tovarning o'lchov birligidagi miqdori);
- bitim pul birligi (valyutasi);
- yetkazib berish bazisi;
- to'lov va yetkazib berish muddati;

- bitim bajarilishini ta'minlash kafolati bo'yicha zakalat foizi;
- sotib oluvchilar toifasi.

Birja namunaviy kontraktining spetsifikatsiyasi mazkur turdagi tovarni sotishning alohida xususiyatini belgilovchi sotuvchi bilan kelishilgan maxsus shartlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Birjaning Listing komissiyasi tomonidan tovarlarni birjaning kotirovkalash varag'idan chiqarish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- tovar sotuvchisi yuridik shaxs sifatida tugatilganda;
- sotuvchi tomonidan tovarlarni doimiy ravishda belgilangan miqdorda savdoga qo'yish majburiyatlari bajarilmaganda;
- tovarga nisbatan talabning mavjud emasligi, mazkur tovar bo'yicha bitimlar doimiy tuzilmaganda;
- tovar sotuvchisining tovarni birjaning kotirovkalash varag'idan chiqarish haqidagi arizasi asosida.

Birjaning kotirovkalash varag'ida mavjud bo'lmagan birja tovarlarini muomalaga chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi faoliyati umumiy tavsifi
2. O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasida savdo platformalari
3. Birja elektron savdo tizimi
4. Ko'rgazma – yarmarka savdolarining elektron savdo tizimi
5. O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasida "Avtoraqam" platformasi
6. Elektron davlat xaridlari
7. O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasida "Mobilraqam" platformasi
8. O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birja savdolarining asosiy afzalliklari va kamchiliklari
9. Birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari
10. Birja a'zolisiga qabul qilish, a'zolikni to'xtatish va tugatish tartibi

11. Birja a'zolarini birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi
12. O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasida brokerlik idoralari va treyderlar faoliyati
13. Tovarlarini birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKA TOVAR-XOM ASHYO BIRJASI FAOLİYATI MEXANIZMI

3.1. Birja bitimlarining turlari va birja savdolarini o'tkazish tartibi

Birja bitimi birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnomasidir.

Birjada quyidagi birja bitimlari amalga oshiriladi:

- spot bitimlari;
- forvard bitimlari.

Bunda spot bitimi, bu sotib oluvchi to'lovni kechtirmasdan amalga oshirishi, sotuvchi esa tovarlarni kechiktirmasdan yetkazib berishi lozim bo'lgan bitimdir. Forvard bitimi esa bu sotuvchi shartnomada belgilangan muddatda tovarni sotib oluvchiga topshirishi, o'z navbatida sotib oluvchi esa tovar haqini bitimda kelishilgan muddatda va tartibda to'lash va tovarni qabul qilib olish majburiyatini olgan bitimdir.

Forvard bitimlari bitim shartlari asosida tovarni yetkazib berish va uning haqini to'liq to'lash bilan yakunlanadi (yetkazib berish forvardi).

Birja bitimining namunaviy shakli birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi:

- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- birja tovarlarini yetkazib berishni hisobga olishni amalga oshirish;
- pul mablag'larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;
- birja savdosi qoidalariga va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun bitimlar bo'yicha barcha hisob-kitoblar "yetkazib berishga qarshi to'lov" printsipi asosida amalga oshiriladi.

Birja savdolarida tuzilgan bitimlar bajarilishining moliyaviy kafolatini ta'minlash uchun birja savdolarida tuzilgan barcha bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar birjaning Hisob-kitob kliring Palatasi (keyingi o'rinlarda HKKP) orqali amalga oshiriladi.

Birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida birja qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondini tashkil etish huquqigaega.

Birja savdolari birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan birja savdolari sessiyasi jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Jadval birjaning rasmiy veb-saytida oldindan joylashtiriladi. Savdo sessiyalari jadvalidagi o'zgarish va qo'shimchalar yangi jadval e'lon qilingan paytdan boshlab kamida uch kundan keyin kuchga kiradi.

Savdolar ish kunlarida doimiy ravishda o'tkaziladi. Barcha birja savdolari faqatgina BSETda o'tkaziladi.

Birja savdolari sessiyasi quyidagi davrlardan tashkil topadi:

- sotuv uchun buyurtma berish;

- sotib olish uchun buyurtma berish;

- birja a'zolari tomonidan berilgan qarama-qarshi buyurtmalarni birlashtirish va tuzilgan bitimlar reestirini shakllantirish;

Birja a'zolari o'z mijozlarining topshirig'iga ko'ra birja savdolarida birja tovari bo'yicha birja bitimlarini BSETga buyurtma berish orqali amalga oshiradilar.

Birja a'zosi birja savdolarida bitimni amalga oshirishda mijozning topshirig'i (buyrug'i)ga qat'iy amal qilishi shart. Mijozning buyruqlari birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan namunaviy shakllardaberiladi.

Birja a'zosi xizmat ko'rsatayotgan mijozlari va ulardan qabul qilinadigan topshiriqlar hisobini birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan shakidagi jurnalda, shu jumladan elektron ko'rinishda qayd etib borishi va birjaning so'roviga ko'ra ularni taqdim etishi shart.

Qog'oz ko'rinishidagi jurnal raqamlangan, tikilgan va birjaning muhri bilan muhrlangan bo'lishi shart. Jurnalda har bir topshiriqqa takrorlanmaydigan ro'yxatga olish raqami beriladi. Topshiriqlar jurnalga ular qabul qilingan vaqtga mutanosib ravishda ketma-ketlikda kiritilishi kerak. Mijozning topshirig'ini jurnalda oldindan qayd etmasdan bajarish taqiqlanadi.

Agar mijozning topshirig'i boshqa mijozlar topshirig'i bilan raqabatga kirishsa, birja a'zosi topshiriqlarning kelib tushish vaqtiga mutanosib ravishda va topshiriqlarni ro'yxatga olish jurnalida qayd etilgan ketma-ketlikda navbati bilan bajarishi shart.

Tovarni sotish yoki sotib olish uchun buyurtmalar faqat treyderlar tomonidan berilishi mumkin. Buyurtmani taqdim etish bir tomonlama bitim hisoblanib, unga muvofiq nomidan buyurtma berilgan shaxs namunaviy birja kontraktida belgilangan shartlar asosida shartnoma tuzish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Sotishga berilgan buyurtma tovar kimning nomidan berilgan bo'lsa, O'sha shaxsga tegishliligini va u uchinchi shaxslar huquqlariga ta'sir

qilmasligini tasdiqlaydi va ushbu shaxsga quyidagi majburiyatlarni yuklaydi:

- namunaviy kontrakt va berilgan buyurtmada belgilangan shartlarda mahsulotni yetkazib berish;

- savdoda bitimni amalga oshirish yoki tovarni savdodan chiqarishdan boshqa usulda tovardan foydalanmaslik.

Sotish uchun buyurtmada:

- namunaviy birja kontraktining identifikatsiya raqami;

- savdoga qo'yiladigan lotlar soni;

- lot uchun boshlang'ich narx ko'rsatilishi kerak.

Sotish uchun buyurtma birjaning korporativ chatida savdodan bir kun oldin e'ton qilingan savdoni o'tkazish bilan bog'liq ma'lumotlar aks ettirilgan jadval asosida birja savdolari sessiyasi boshlanishidan oldin joylashtiriladi.

Yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlar sotuvchilari manfaatida sotish uchun berilgan buyurtma asosida savdoga qo'yiladigan mahsulotlar miqdori mahsulotlarni qayta savdoga qo'yish qonun hujjatlarida nazarda tutilganligini inobatga olgan holda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan mahsulotlarni birja savdolariga qo'yish jadvaliga muvofiq bo'lishi shart. Yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlar sotuvchilari tomonidan savdoga qo'yilayotgan tovarlar miqdorining muvofiqligi bo'yicha majburiyatlari bajarilishining nazorati birja tomonidan haqiqatda savdoga qo'yilgan mahsulotlar miqdorini savdoga qo'yish jadvalida ko'rsatilgan miqdorga hamda mahsulotlarni qayta savdoga qo'yish bo'yicha majburiyatlarga kunlik taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Birja korxonalar - yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlar sotuvchilari tomonidan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining e'tiboriga mazkur Qo'mita hamda birja tomonidan o'zaro belgilangan muddat va tartibda etkazadi.

Buyurtma berishdan oldin sotuvchilar va sotib oluvchilarning shaxsiy hisob raqamiga qonun hujjatlariga muvofiq birja tomonidan belgilangan miqdordagi kafolat ta'minot mablag'i kiritilishi shart. Kiritiladigan kafolat ta'minot mablag'i miqdori birja va hisob-kitob-kliring Palatasining komissiya to'lovlarini, shuningdek birja shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning buzilish ehtimoli borligi uchun neustoyka to'lovini ta'minlovchi bo'nakni o'z ichiga oladi.

BSET shaxsiy hisob raqamida etarli mablag'i bo'lmagan shaxs manfaatida bitimlar tuzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Sotib olish uchun buyurtma u kimning nomidan berilgan bo'lsa, O'sha shaxs zimmasiga namunaviy birja kontrakti va bergan buyurtmasida belgilangan shartlarda tovar haqini to'lash va tovarni tanlab olish majburiyatini yuklaydi.

Sotib olish uchun buyurtmada:

- namunaviy birja kontraktining identifikatsiya raqami;
- savdoda sotib olinadigan lotlar soni;
- lot uchun taklif etilayotgan narx ko'rsatilishi kerak.

Qonun hujjatlarida yoki birja tomonidan narx o'zgarishining yuqori miqdori qat'iy belgilangan tovarlar bo'yicha sotib olish uchun buyurtma faqatgina mazkur yuqori miqdorlarga amal qilgan holda berilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar yoki vakolatli davlat organlari qarorlari talablariga javob bermaydigan mijozlar nomidan u yoki bu birja tovarini sotib oluvchilarga nisbatan sotib olish uchun buyurtma berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan parametrlarni buzadigan buyurtmalar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlar bilan alohida talablar qo'yilgan birja tovarini sotib olish uchun buyurtma mijozning mazkur tovarni sotib olish huquqiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslantirilgan bo'lishi shart.

Birja a'zosi BSETga buyurtma berishdan oldin birja tovarini potentsial sotib oluvchisidan tegishli hujjatlarni olishi shart.

Sotib olish uchun buyurtma birja a'zosi tomonidan birja savdolari sessiyalari jadvalida belgilangan sotuvchi tomonidan tovar savdoga qo'yilgandan so'ng beriladi.

Birja a'zosi kiritilgan buyurtmani quyidagi hollarda qaytarib olishga haqli:

- qaytarib olingan buyurtma o'miga yuqoriroq narx ko'rsatkichli yangi buyurtma berilganda;
- buyurtmasi "buyurtmalar stakani"dan tushib qolganda (ancha yuqori narx ko'rsatilgan raqobatchi buyurtma berilganligi va ushbu buyurtmaning narx parametrlari asosida bitim tuzish mumkin bo'lmaganligi sababli buyurtmaning bahosi o'z dolzarbligini yo'qotganda).

Sotib olish uchun buyurtma birja a'zolari tomonidan faqat ro'yxatga olingan joylaridaberiladi.

Birja savdolari boshlang'ich narxning oshirib borishida ifodalangan oddiy aukcion shaklidan o'tkaziladi.

BSET birja a'zolariga raqobat asosida o'tkaziladigan savdolar jarayonida asosli, shu jumladan narxni shakllantirish masalalariga oid qarorlar qabul qilish uchun "buyurtmalar stakani"ga kirish huquqini ta'minlaydi.

"Buyurtmalar stakani" ayni vaqtda elektron savdo tizimi kompleks dasturiga kiritilishi mumkin bo'lgan barcha buyurtmalarga oid narx va miqdorlar bo'yicha ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

BSET birja a'zosiga o'zining buyurtmalarini identifikatsiyalay olishi va ularning raqobatbardoshligini aniqlay olishi uchun birja a'zosining buyurtmasini alohida rang yoki boshqa vosita orqali ajratilishini ta'minlaydi.

Buyurtmalari "Buyurtmalar stakani"ga kiritilgan boshqa birja a'zolari haqidagi ma'lumotlar aks ettirilmaydi.

BSET birja savdolari g'oliblarini birja a'zolari tomonidan birja tovari sotuvchisining manfaatida BSETga sotish uchun berilgan buyurtmalarni baho parametrlari sotuvchining baho parametrlari bilan teng yoki undan yuqori bo'lgan sotib olish uchun berilgan buyurtmalarni birlashtirish orqali jadvalda belgilangan birja savdolari sessiyalari vaqtida aniqlaydi.

Bunda birinchi navbatda sotuvchining buyurtmasi bilan eng yuqori bahoni taklif etgan sotib oluvchilarning buyurtmalari birlashtiriladi. Sotib oluvchilar tomonidan bir xil bahodagi buyurtmalar berilgan bo'lsa, birinchi navbatda raqobatchi buyurtmalarga nisbatan BSETga ertaroq berilgan buyurtmalar bilan sotuvchining buyurtmasi birlashtiriladi.

Birja xodimlari yoki boshqa shaxslarning birja savdolariga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Buyurtmalarni birlashtirish va birja savdolari g'olibini aniqlash jarayoniga, shu jumladan ruxsat berilmagan birja dasturi ta'minotidan foydalangan holda aralashish narxlarni *manipulyatsiyalash* deb baholanadi.

Sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan bitta shaxsiy hisob raqamda bitim tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday bitimni amalga oshirish narxlarni manipulyatsiyalash deb baholanadi.

Sessiya yakunlangunga qadar keyinchalik buyurtmalardagi ma'lumotlarni o'chirish orqali sessiya davomida buyurtma berish yo'li bilan birja tovarining narxini oshirish narxlarni *manipulyatsiyalash* deb baholanadi.

Birja savdolarida birja tovari narxini sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirishga olib keladigan birja a'zolarining harakatlari *narxlarni manipulyatsiyalash*, deb baholanadi.

Birja savdolari alohida turdagi mahsulotlarni birja savdolarida realizatsiya qilishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talabari hisobga olingan holda o'tkaziladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan birja savdolarini o'tkazishning boshqa maxsus shartlari belgilanishim mumkin.

Agar mijozning buyrug'ini bajarish qonun hujjatlari va (yoki) savdo qoidalarning buzilishiga olib kelsa, birja a'zosi mazkur buyruqni bajarishni rad etishga majbur.

3.2. Birja savdosi natijalari va birja bitimlarini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish tartibi

Qarama-qarshi buyurtmalarni birlashtirish natijasi bo'yicha BSET birja savdo sessiyasi yakunlangan paytdan boshlab bir soat ichida amalga oshirilgan bitimlarni shakllantiradi va ro'yxatga oladi, shundan so'ng Makleriat va Hisob-kitob kliring palatasi (keyingi o'rinlarda HKKP)ga kelib tushadigan amalga oshirilgan bitimlar (savdo bayonnomalari) reestrini shakllantiradi.

Amalga oshirilgan bitimlar (savdo bayonnomalari) reestrining shakli birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

HKKP O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tariflarga muvofiq birja bitimlarini ro'yxatga olganlik va kliring xizmatlari ko'rsatganlik uchun birja foydasiga komission yig'im undirilishini ta'minlaydi. Komissiya yig'imi kelusida bitimning rasmiylashtirilishi yoki rasmiylashtirilmasigidan qat'iy nazar undiriladi.

Savdo sessiyasi yakunlani bo'yicha Makleriat amalga oshirilgan bitimlar reestri asosida birja filiallarining maklerlari va savdo maydonchalari registratorlari orqali birja a'zolariga ular tomonidan amalga oshirilgan barcha birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Birja bitimi amalga oshirilgan bitimlar reestri asosida BSET tomonidan avtomatik tarzda namunaviy birja kontraktida belgilangan shartlarga muvofiq shakllantiriladi.

Birja bitimida:

- birja savdosi sanasi va raqami; birja bitimi raqami;
- birja shartnomasi tomonlari (sotuvchi va sotib oluvchi)ning rekvizitlari;
- bitimni amalga oshirgan birja a'zolarining rekvizitlari;
- shartnoma predmeti;

- tovar nomi;
- birja kontraktining raqami;
- o'lehov birligi;
- o'lehov miqdori;
- har bir birlikning bahosi;
- har bir birlikning boshlang'ich bahosi; har bir lot qiymati;
- har bir lotning bolnag'ich bahosi; shartnoma summasi;
- pul birligi; qadoq turi;
- tovarni yetkazib berish va to'lovni amalga oshirish muddatlari va shartlari;
- taraflarning majburiyatlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda tomonlarning javobgarligi;
- nizolarni birjaning Arbitraj komissiyasida sudgacha hal etish; namunaviy birja kontraktiga muvofiq alohida shartlar ko'rsatiladi.

Amalga oshirilgan barcha birja bitimlarini rasmiylashtirilish talab etiladi.

Birja tovariga nisbatan uning a'zolari tomonidan birja savdolari o'tkazilmasdan tuzilgan birja bitimlarini birja tomonidan ro'yxatga olinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Birja a'zosi o'zi tomonidan amalga oshirilgan barcha bitimlarni tekshirishi, imzolashi, muhr qo'yishi va ularni savdo sessiyasi yakunlangan paytdan boshlab ikki soatdan kechiktirmasdan birja filialining makleriga (savdo maydonchasi regulatoriga) topshirish shart.

Birja a'zosi - sotuvchi va birja a'zosi – sotib oluvchining birja bitimi nusxalari birja filiali makleri (savdo maydonchasi regulatori)ning muhri bilan tasdiqlanadi, shundan so'ng bitim rasmiylashtirilgan hisoblanadi.

Birja bitimini rasmiylashtirish bitimni tuzgan birja a'zosining joylashgan (ro'yxatga olingan) joyida amalga oshiriladi.

Birja bitimlari nusxalari birja a'zosi – sotuvchi va (yoki) birja a'zosi – sotib oluvchi, shuningdek makler yoki regulator tomonidan rasmiylashtirilmaganda bitim tuzilmagan hisoblanadi.

Sotuvchi va sotib oluvchining bitim bo'yicha huquq va majburiyatlari birja bitimi rasmiylashtirilgan paytdan boshlanadi.

Sotib oluvchining manfaatida harakat qilayotgan birja a'zosi birja filialining makleriga yoki savdo maydonchasi regulatoriga quyidagi hujjatlarni topshiradi:

- mijoz bilan tuzilgan topshiriq shartnomasi (komissiya shartnomasi);

- birja savdosida birja tovarini sotib olish haqidagi buyruq (agar topshiriq shartnomasi yoki komissiya shartnomasida tovarni sotib olish bo'yicha mijozning ko'rsatmasini bir marta bajarish nazarda tutilgan bo'lmasa);

- birja tovarini sotib olishga ushbu mijozning vakolati borligini tasdiqlovchi hujjatlar (agar qonun hujjatlarida birja tovarni sotib olish uchun sotib oluvchilarning alohida toifalari nazarda tutilgan bo'lsa).

Birja bitimini rasmiylashtirish uchun mas'ul filial maklerlari (savdo maydonchalari registratorlari) birja a'zosidan buyruqlarni ro'yxatga olish kitobini talab qilib olishga haqli.

Birja eksport bitimini (eksport kontraktini) ro'yxatga olishda unga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 21.05.2004 yilda 1365-raqam bilan ro'yxatga olingan Tashqi savdo shartnomalariga identifikatsiya raqami berish to'g'risidagi Nizom ("O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami", 2004 y, № 20, 247-modda)ga muvofiq raqam beriladi.

O'tkazilgan birja savdosi natijasida chet el valyutasida tuzilgan eksport kontrakti birja yoki uning vakolatli organi (filial, savdo maydonchasi) tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatga olinadi.

Birjada ro'yxatga olingan standart eksport kontraktlari bir ish kuni ichida hisobga qo'yish uchun kontrakt tuzilgan joydagi hududiy bojxona organlariga yuboriladi.

Eksport kontraktlarini sotuvchining vakolatli banki va bojxona organlarida hisobga qo'yish ular o'rnatilgan tartibda birjalarda ro'yxatga olingandan so'ng amalga oshiriladi.

Eksport qilinadigan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda sotuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ertalabgi sessiyalar yakunlanganidan keyin soat 15:00 ga qadar, kechki sessiyalar yakunlanganidan keyin esa keyingi kun soat 9:10 ga qadar savdo maydonchasi registratori birja filialining makleriga (hududiy joylashuviga ko'ra) u tomonidan rasmiylashtirilmagan, shu jumladan savdo Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra, birja bitimlari haqidagi ma'lumotni yuboradi.

Ertalabgi sessiyalar yakunlanganidan keyin soat 15:30 ga qadar, kechki sessiyalar yakunlanganidan keyin esa keyingi kun soat 9:30 ga qadar birja filialining makleri Makleriatga (hududiy joylashuviga ko'ra) uning tomonidan (shu jumladan savdo Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra) rasmiylashtirilmagan birja bitimlari,

shuningdek savdo maydonchasi registratoridan olingan ma'lumotlarni yuboradi.

Makleriat savdolar o'tkazilgan kunning ertasi soat 10:00 dan kechiktirmasdan ma'lumotlarni umumlashtiradi, rasmiylashtirish uchun topshirilmagan birja bitimlari haqidagi ma'lumotlarni aybdor brokerlarga nisbatan chora ko'rish uchun Intizom komissiyasiga, ushbu bitimlarni kliringga kiritmaslik uchun HKKPga, shuningdek nizo mavjud yoki mavjud emasligiga qarab savdo Qoidalarning 155-bandida nazarda tutilgan holatlarni ko'rib chiqish uchun Aribitraj yoki Intizom komissiyasiga yuboradi.

HKKP Makleriatning xarbarnomasida ko'rsatilgan bitimlarni kliringga kiritmaydi va ushbu bitim tomonlarining pul mablag'larini ozod qiladi, savdo Qoidalarning 155-bandida ko'rsatilgan nizoli holatlar bundan mustasno.

Savdo Qoidalarning 155-bandida ko'rsatilgan nizoli holatlarda HKKP tomonlarning pul mablag'lariga Arbitraj komissiyasi tomonidan qaror chiqarilgunga qadar band solib qo'yadi.

Broker o'zi tomonidan amalga oshirilgan bitimlarni qabul qilib olishdan, imzolashdan va (yoki) filial makleriga (savdo maydonchasi registratoriga) rasmiylashtirish uchun (shu jumladan xatolik sababli berilgan buyurtmalar bo'yicha ham) topshirishdan, shuningdek savdo Qoidalarning 155-bandida ko'rsatilgan bitimlarni amalga oshirishdan yoki birja (savdo maydonchasi) oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishdan bosh tortgan taqdirda aybdor tarafdin jarima undiriladi.

Birja filialining makleri yoki savdo maydonchasi registratori tomonidan birja bitimlarini rasmiylashtirishdan bosh tortgan taqdirda (mazkur Qoidalarning 155-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari) birja a'zosi qonunbuzilishini ko'rib chiqish uchun birjaga ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Ariza birjaga kelib tushgan paytdan boshlab bir kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi. Bitimni rasmiylashtirish asossiz rad etilgan bo'lsa, u birja tomonidan darhol rasmiylashtiriladi. Birja filialining makleri yoki savdo maydonchasi registratori tomonidan bitimni rasmiylashtirish asossiz rad etilganligi uchun birjadan yoki savdo maydonchasidan jabrlangan birja a'zosi foydasiga jarima undiriladi.

Birja a'zosiga nisbatan jarima qo'llash haqidagi qaror Intizom komissiyasi tomonidan qabul qilinadi. Intizom komissiyasining qarori birja a'zosiga yuboriladi.

Qo'llanilgan jarima o'n bank ish kuni ichida to'lanmasa, aybdor birja a'zosi jarima to'liq to'langanga qadar birja savdolaridan chetlashtiriladi.

Bitim normativ-huquqiy hujjatlar, vakolatli davlat organlari qarorlari talablariga zid ravishda amalga oshirilgan bo'lsa, shuningdek mijoz – sotib oluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, vakolatli davlat organlari qarorlariga muvofiq kelmasa, birja filialining makleri va savdo maydonchasi registratori birja bitimini rasmiylashtirmaydi.

Savdo qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan nizo vujudga kelsa, ushbu holatlarning mavjudligi faktini tasdiqlash yoki inkor etish maqsadida nizolar Arbitraj komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Qonunbuzilish holati mavjudligi fakti inkor etilsa, Arbitraj komissiyasi birja tomonidan bitimdan bandni echish bo'yicha qaror qabul qiladi, bu haqda tomonlarga, Makleriatga va HKKPga xabar beriladi. Qonunbuzilish holati mavjudligi fakti tasdiqlansa, Arbitraj komissiyasi bitimni amalga oshirilmagan deb toshish to'g'risida qaror qabul qiladi va uni HKKPga tomonlarning pul mablag'lariga solingan bandni echish uchun, Intizom komissiyasiga aybdor birja a'zosiga chora ko'rish uchun yuboradi

Savdo qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan qonunbuzilishlar yuzasidan nizo mavjud bo'lmasa, mazkur holatlarni Intizom komissiyasi ko'rib chiqadi va ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi.

Birja a'zosi tomonidan mijozning ko'rsatmasi (buyrug'i)ga zid ravishda bitim tuzilganligi haqida dalillar mavjud bo'lsa, mijoz birja a'zosining javobgarligini belgilash haqida Intizom komissiyasiga ariza bilan murojaat qilishga, shuningdek birja a'zosidan o'ziga etkazilgan zararni sud tartibda undirishni talab qilishga haqli.

Mazkur Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, birja tomonidan rasmiylashtirilgan bitimlarni tomonlarning o'zaro roziligi bilan bekor qilish haqidagi ariza va murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

Birjada savdolarining o'tkazilishini yoki normal o'tkazilishini buzadigan, birja tovarlari bilan savdo o'tkazilishini mumkin bo'lmaydigan qilib qo'yadigan yoki birja a'zolarining savdolarida ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi favqulotda holatlar yuz berishi natijasida birja savdolari o'tkazilmagan deb topilishi, uning natijalari esa bekor qilinishi mumkin.

Savdolar o'tkazilmagan deb topilgan taqdirda birja tomonidan komissiya yig'imi undirilmaydi.

Favqulodda holatlarga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yoki ularga har qanday o'zgartirish kiritilishi;

- qonun hujjatlari bilan birjaga berilgan vakolatlariga kiritilgan masalalar bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining birjaga yuborilgan farmoyish yoki ko'rsatmalari;

- yong'in yoki boshqa baxtsiz hodisalar;

- birja egallagan binolarning buzilishi yoki ularga jiddiy shikast etkazilishi;

- elektr energiyasining o'chishi yoki uning yetkazib berilishida uzilishlar bo'lishi, birjaning ixtiyorida bo'lgan texnik vositalar bilan normal holatga keltirish imkonibo'lmasa;

- hisoblash texnikalari, orgtexnika, aloqa vositalari, shu jumladan telekommunikatsiyadagi dasturiy ta'minotning yaroqsizligi yoki ishdan chiqishi;

- birja xodimlari va (yoki) treyderlar, birja a'zolarining hayoti va sog'ligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan birja binosida sodir bo'lgan har qanday holatlar;

- savdolari normal o'tkazilishini mumkin qilmay qo'yadigan favqulotda, kutilmagan va bartaraf etib bo'lmaydigan xarakterga ega bo'lgan har qanday boshqa holatlar.

Natijalari bekor qilingan birja savdolari chog'ida amalga oshirilgan bitimlar amalga oshirilmagan hisoblanadi va ularni rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bekor qilingan miqdorlar sotuvchi tomonidan qayta savdoga qo'yiladi.

3.3. Kliring va hisob-kitobni amalga oshirish tartibi

Birja savdolarida tuzilgan bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar birjaning HKKP orqali amalga oshiriladi.

Hisob-kitobni amalga oshirish maqsadida birjaga hizmat ko'rsatadigan bankda sotib oluvchi va sotuvchilarning mablag'larini saqlash, birja bitimlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun ikkilamchi talab qilib olunguncha depozit raqam ochiladi.

Sotuvchi va sotub oluvchilarning talab qilib olingungacha ikkilamchi depozit hisob raqamidagi mablag'lari harakatini nazorat qilish uchun HKKP har bir sotuvchi va sotib oluvchi uchun tegishli foydalanuvchining individual raqamiga (bundan buyon FIR deb yuritiladi) muvofiq alohida shaxsiy hisob raqam ochadi.

Sotuvchi va sotib oluvchilarning mablag'lari HKKP talab qilib olingungacha ikkilamchi depozit hisob raqami doirasida ushbu shaxsiy hisob raqamda hisobga olib boriladi.

HKKP birja a'zolarini ularga xizmat ko'rsatish shartlari va mablag'larining ahvoli haqida o'z vaqtida xarbardor qilib turishi shart.

HKKP mijozlarning shaxsiy hisob raqamlari ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Birja mijozlarning so'roviga asosan ularni birja kliringi natijalari, ularning mablag'lari ahvoli va joriy kun uchun belgilangan savdofar limiti to'g'risida xabardor qilishga majbur.

Sotuvchilar va sotib oluvchilar birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi HKKPning ikkilamchi depozit hisob raqamiga birja savdolariga qo'yiladigan mahsulotlarning umumiy qiymati va bitimning taxminiy miqdoriga muvofiq zakalat kiritadilar.

Sotib oluvchilar taxminiy to'lovlar miqdoridagi birja bitimlarini kiritilgan zakalatni hisobga olgan holda tuzishgahaqli.

Sotib oluvchilar va sotuvchilarning birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi HKKPning ikkilamchi depozit hisob raqamidagimablag'lari:

- birja bitimlari va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ular o'rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun;

- savdo sessiyalarida ishtirok etish uchun zakalat sifatida;

- mijozning topshirig'iga ko'ra – kliring ishtirokchisining vakolatli bankdagi hisobiga qaytarish uchun;

- deponent mablag'lar hisobidan birja xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirishga ishlatiladi.

Birja bitimi ro'yxatga olingandan keyin sotib oluvchi ro'yxatga olingan bitim bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni to'liq qoplash uchun HKKPning birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankidagi ikkilamchi depozit hisob raqamiga qo'shimcha mablag'larni kiritishi shart. Bunda mablag'lar o'tkazilishi bo'yicha to'lov topshiriqnomasining "to'lov ma'lumotlari" grafasida albatta sotib oluvchining FIRi ko'rsatilishi shart.

Mahsulotni temir yo'l transportida tashishda sotib oluvchi bitimda ko'rsatilgan muddatda, birja bitimi ro'yxatga olingandan so'ng temir yo'l xarajatlarini qoplash uchun mablag'larni sotuvchining talab qilib olungungacha asosiy hisob raqamiga o'tkazishi shart. O'z navbatida sotuvchi temir yo'l xizmati xarajatlari uchun to'lovni amalga oshirish uchun sotib oluvchiga hisobni berishi shart.

HKKP sotib oluvchidan mablag'lar kelib tushgan paytdan boshlab to'langan bitimlar reestirini sotuvchiga taqdim etishi shart.

Agar sotib oluvchi bitimda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishni ta'minlamasa, HKKP ushbu muddat o'tganidan so'ng shartnoma

majburiyatlari bajarilmaganligi uchun bitimni bekor qilish haqida sotuvchiga xabar beradi va sotuvchining hisob raqamiga jarima sifatida, zakalat miqdoridan kam bo'lmagan miqdordagi mablag'larni, birja komissiya yig'imini chegirgan holda, o'tkazadi.

Sotuvchi tomonidan bitimda ko'rsatilgan muddatlarda sotib oluvchiga mahsulotni yuklab jo'natish majburiyati bajarilmasa, HKKP ushbu muddat o'tganidan so'ng sotib oluvchining hisob raqamiga jarima sifatida bitimda ko'rsatilgan miqdordagi mablag'larni, birja komissiya yig'imini chegirgan holda, o'tkazadi va sotib oluvchi hamda sotuvchiga bitimning bekor qilganligi xaqida xabar beradi. HKKP tomonidan taqdim etilgan to'lov amalga oshirilgan bitimlar reestri sotuvchi uchun mahsulotni yuklab jo'natishga asos bo'ladi.

Sotuvchi sotib oluvchi o'z majburiyatlarini bajarganligi HKKP tomonidan tasdiqlanmasdan mahsulotni yetkazib bergan taqdirda, birja bitimi bo'yicha sotib oluvchi o'z majburiyatlarini vijdonan bajarmaganligi uchun birja javob bermaydi.

Mahsulot topshirilgan va qabul qilinganligi faktini sotuvchi tomonidan taqdim qilinadigan schet-faktura yoki yuk xati tasdiqlaydi.

Mahsulot temir yo'l transportida yuklab jo'natilganligi faktini temiryo'l yuk xatining nusxasi tasdiqlaydi.

Eksport kontraktlari bo'yicha mahsulot yuklab jo'natilgan kun bo'lib BYuD (bojxona yuk deklaratsiyasi) rasmiylashtirilgan kun hamda sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan topshirish-qabul qilish akti rasmiylashtirilgan kun hisoblanadi.

Sotuvchi tomonidan taqdim etilgan schet-faktura yoki yuk xati HKKP uchun bir bank ish kuni ichida sotib oluvchining shaxsiy hisob raqamidan mablag'larni sotuvchining shaxsiy hisob raqamiga, keyinchalik sotib oluvchining unga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi hisob raqamiga o'tkazish va bitimni yopish uchun asos bo'ladi.

Birja savdolari g'oliblariga mahsulotlarni yetkazib berish, bitimda ko'rsatilgan muddatlarda sotuvchining naryadlari asosida amalga oshiriladi.

Eksport kontraktlari bo'yicha sotuvchining brokeri tomonidan sotib oluvchi tovarni qabul qilganligini tasdiqlovchi sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan bir nusxadagi yuk xatining asli taqdim etilganligi, hisob-kitob bo'yicha ma'lumot olish uchun HKKP tomonidan valyuta mablag'larini sotib oluvchining vakolatli bankdagi talab qilib olingungacha ikkilamchi (tranzit) valyuta hisob raqamiga o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Sotuvchilar tomonidan chet el valyutasidagi tushumlarni vakolatli bankka sotish qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Import kontraktlari bo'yicha hisob-ktoblar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi "so'm"da amalga oshiriladi.

Import kontraktlarini tuzishda sotuvchi shartnoma tuzilgandan keyin to'lov shartlariga muvofiq uch bank ish kuni ichida kontraktga ko'rsatilgan, lekin bitim summasining 15 foizidan kam bo'lmagan pul mablag'larini HKKPning maxsus hisob raqamiga o'tkadi. To'lov amalga oshirilganligi faktining o'zi bojxona organida bitimni ro'yxatga olish uchun etarli bo'ladi.

Import kontraktlari bo'yicha tovar O'zbekiston Respublikasiga kelib tushgan va u sotib oluvchi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olingandan keyin HKKP pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi "so'm"da sotuvchi – norezidentning HKKPdagi hisobiga o'tkazadi. Mazkur mablag'lar sotuvchi tomonidan quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

- birja savdolari va Ko'rgazma-yarmarkalarda tuzilgan eksport kontraktlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun;

- bevosita birja kontraktlari bo'yicha boshqa to'lovlar (komission yig'imlar, brokerlik mukofotlari, transportirovka va h.k.)ni amalga oshirish uchun;

- chet el banklarining korrespondent "LORO" hisob raqamlariga o'tkazish va O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklarida hisob raqam ochish uchun;

- davlat mulki uchun belgilangan tartibda kombinatsiyalangan shakldagi to'lovni amalga oshirish uchun;

- birja bitimlari bo'yicha kafolatli ta'minot kiritish bilan hisob-kitobni amalga oshirish, shu jumladan jarima, penya va boshqa xarajatlarni to'lash uchun;

- agar HKKPsi mijozi (birja a'zosining mijozi)ning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan vakolatli vakili bo'lsa, vakillik xarajatlarini to'lash uchun;

- norezidentning O'zbekiston Respublikasida bo'lgan vaqtidagi xarajatlarini to'lash uchun;

- HKKP palatasi mijozi (birja a'zosining mijozi) ta'sischi yoki aksiyador bo'lgan korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish va to'ldirish uchun;

- sud xarajatlarini to'lash uchun.

Birja bitimini yopish, to'lovlarni o'tkazish, tomonlarning javobgarligi, birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Birja bitimlari bo'yicha hisob-kitob kliring xizmati ko'rsatish qoidalarida ko'rsatilgan.

3.4. Birja tovarlarini kotirovkalash (narxini belgilash) tartibi va narx shakllanishi ustidan nazorat

Birja tovarlarini kotirovkalash birja tovarlarining o'rtacha hisoblangan bahosi aniqlash hisoblanadi.

Kotirovkalash:

- realizatsiya qilingan har bir turdagi tovarning navi, sinfi, markasi va boshqa xususiyatlari bo'yicha avtomatik rejimda;
- o'tkazilgan birja savdolari natijasi bo'yicha bir hafta ichida;
- bir oyda kamida bir marta realizatsiya qilinadigan tovarlarga nisbatan amalga oshiriladi.

Har bir birja tovarini ularning navi, sinfi, markasi, xili va boshqa xususiyatlariga qarab ma'lum tovarlar turiga kiritish, Listing komissiyasi tomonidan birja Boshqaruvi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Realizatsiya qilingan har bir turdagi tovarlarni kotirovkalash hisobot haftasi yakuni bo'yicha quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Sc = (X1 \times Y1 + X2 \times Y2 + \dots + Xn \times Yn) / (X1 + X2 + \dots + Xn),$$
bunda:

Sc – o'rtacha hisoblangan baho;

X1, X2, Xn- hisobot davri (hafta) davomida realizatsiya qilingan tovarlar miqdori;

Y1, Y2, Yn - hisobot davri (hafta) davomida realizatsiya qilingan tovarlar bahosi.

Har bir turdagi tovar bo'yicha kotirovkalash hisobot haftasida tuzilgan barcha bitim ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Birja savdolarida hafta davomida (dushanba-juma) amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha kotirovkalash keyingi hisobot haftasining dushanba kuni soat 17.00 ga qadar amalga oshiriladi.

Keyingi hisobot haftasining dushanba kuni soat 17.00 dan boshlab birja o'zining veb-saytida kotirovkalash bo'yicha ma'lumotlarni joylashtiradi va uni ommaviy axborot vositalariga hamda o'zining informatsion byulletining obunachilariga taqdim etadi.

Savdo sessiyasi o'tkazilishidan oldin birja bitimlarini tuzishda birjada mazkur tovar turi bo'yicha mazkur savdo sessiyasida bitimlar bahosi tebranishining cheklangan qiymati o'rnatilishi mumkin. Bahoning cheklangan tebranish qiymati birja Boshqaruvi tomonidan o'rnatiladi.

Sotuvchilar tomonidan chet el valyutasidagi tushumlarni vakolatli bankka sotish qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Import kontraktlari bo'yicha hisob-ktoblar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi "so'm"da amalga oshiriladi.

Import kontraktlarini tuzishda sotuvchi shartnoma tuzilgandan keyin to'lov shartlariga muvofiq uch bank ish kuni ichida kontraktga ko'rsatilgan, lekin bitim summasining 15 foizidan kam bo'lmagan pul mablag'larini HKKPning maxsus hisob raqamiga o'tkadi. To'lov amalga oshirilganligi faktining o'zi bojxona organida bitimni ro'yxatga olish uchun etarli bo'ladi.

Import kontraktlari bo'yicha tovar O'zbekiston Respublikasiga kelib tushgan va u sotib oluvchi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olingandan keyin HKKP pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi "so'm"da sotuvchi – norezidentning HKKPdagi hisobiga o'tkazadi. Mazkur mablag'lar sotuvchi tomonidan quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

- birja savdolari va Ko'rgazma-yarmarkalarda tuzilgan eksport kontraktlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun;

- bevosita birja kontraktlari bo'yicha boshqa to'lovlar (komission yig'imlar, brokerlik mukofotlari, transportirovka va h.k.)ni amalga oshirish uchun;

- chet el banklarining korrespondent "LORO" hisob raqamlariga o'tkazish va O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklarida hisob raqam ochish uchun;

- davlat mulki uchun belgilangan tartibda kombinatsiyalangan shakldagi to'lovni amalga oshirish uchun;

- birja bitimlari bo'yicha kafolatli ta'minot kiritish bilan hisob-kitobni amalga oshirish, shu jumladan jarima, penya va boshqa xarajatlarni to'lash uchun;

- agar HKKPsi mijozi (birja a'zosining mijozi)ning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan vakolatli vakili bo'lsa, vakillik xarajatlarini to'lash uchun;

- norezidentning O'zbekiston Respublikasida bo'lgan vaqtidagi xarajatlarini to'lash uchun;

- HKKP palatasi mijozi (birja a'zosining mijozi) ta'sischi yoki aksiyador bo'lgan korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish va to'ldirish uchun;

- sud xarajatlarini to'lash uchun.

Birja bitimini yopish, to'lovlarni o'tkazish, tomonlarning javobgarligi, birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Birja bitimlari bo'yicha hisob-kitob kliring xizmati ko'rsatish qoidalarida ko'rsatilgan.

3.4. Birja tovarlarini kotirovkalash (narxini belgilash) tartibi va narx shakllanishi ustidan nazorat

Birja tovarlarini kotirovkalash birja tovarlarining o'rtacha hisoblangan bahosi aniqlash hisoblanadi.

Kotirovkalash:

- realizatsiya qilingan har bir turdagi tovarning navi, sinfi, markasi va boshqa xususiyatlari bo'yicha avtomatik rejimda;

- o'tkazilgan birja savdolari natijasi bo'yicha bir hafta ichida;

- bir oyda kamida bir marta realizatsiya qilinadigan tovarlarga nisbatan amalga oshiriladi.

Har bir birja tovarini ularning navi, sinfi, markasi, xili va boshqa xususiyatlariga qarab ma'lum tovarlar turiga kiritish, Listing komissiyasi tomonidan birja Boshqaruvi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Realizatsiya qilingan har bir turdagi tovarlarni kotirovkalash hisobot haftasi yakuni bo'yicha quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Sc = (X1 \times Y1 + X2 \times Y2 + \dots + Xn \times Yn) / (X1 + X2 + \dots + Xn),$$

bunda:

Sc – o'rtacha hisoblangan baho;

X1, X2, Xn- hisobot davri (hafta) davomida realizatsiya qilingan tovarlar miqdori;

Y1, Y2, Yn - hisobot davri (hafta) davomida realizatsiya qilingan tovarlar bahosi.

Har bir turdagi tovar bo'yicha kotirovkalash hisobot haftasida tuzilgan barcha bitim ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Birja savdolarida hafta davomida (dushanba-juma) amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha kotirovkalash keyingi hisobot haftasining dushanba kuni soat 17.00 ga qadar amalga oshiriladi.

Keyingi hisobot haftasining dushanba kuni soat 17.00 dan boshlab birja o'zining veb-saytida kotirovkalash bo'yicha ma'lumotlarni joylashtiradi va uni ommaviy axborot vositalariga hamda o'zining informatsion byulletining obunachilariga taqdim etadi.

Savdo sessiyasi o'tkazilishidan oldin birja bitimlarini tuzishda birjada mazkur tovar turi bo'yicha mazkur savdo sessiyasida bitimlar bahosi tebranishining cheklangan qiymati o'rnatilishi mumkin. Bahoning cheklangan tebranish qiymati birja Boshqaruvi tomonidan o'rnatiladi.

Savdo ishtirokchilari tomonidan bitimlarning baholar tebranishiga rioya etilishini birja nazorat qiladi.

Tovarni birja savdosiga qo'yish uchun ruxsat berishda Listing komissiyasi ko'pchilik potentsial sotib oluvchilar tomonidan tovar sotib olinishini imkoniyatini ta'minlash zaruratidan va raqobatning maksimal darajasidan kelib chiqib lot qiymatini belgilaydi.

Birjada:

- bitim taraflari aynan bir shaxs bo'lgan tovarlar bilan bitim tuzish;
- baholar dinamikasiga ta'sir qilish maqsadi bo'lgan bir shaxs tomonidan bevosita yoki soxta shaxs orqali tovarlar oldi-sotdi bitimlarini tuzish;

- birja a'zolarining narxlarning sun'iy ravishda o'zgartirilishiga yoki qat'iy qilib qo'yilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kelishilgan xatti-harakatlar;

- bozor kon'yunkturasini sun'iy ravishda o'zgartirishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan noto'g'ri va ataylab yolg'on ma'lumotlarni tarqatish ta'qiqlanadi.

Birja birja savdolari va ularning natijalari bo'yicha axborotni oshkor etilishini ta'minlaydi. Birja o'zining veb-saytida ochiq axborotga ruxsat etilishini ta'minlashi shart hisoblanadi.

Birja Boshqaruvi birja savdolari ishtirokchilari, shuningdek savdolarda ishtirok etmaydigan tashkilotlarga axborot xizmati ko'rsatishning shartlari va tariflarni mustaqil belgilaydi.

Birja quyidagi axborotlarni ommaviy tarzda oshkor etadi:

- birja savdosiga qo'yilgan tovarlar haqidagi axborotni (kotirovkalash varag'i);

- birja tovarlarining o'rtacha hisoblangan bahosi haqidagi axborotni; birja a'zolarito'g'risidagi axborotni, ularning bog'lanish ma'lumotlarini ko'rsatgan holda;

- birja tariflari to'g'risidagi axborotni.

Birja o'zining rasmiy veb-saytida birja faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va birjaning lokal hujjatlari matnlarining mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

Birja savdolarini o'tkazish haqidagi axborot birjaning korporativ chatida e'lon qilinadi va birja a'zolarining e'tiboriga havola qilingan hisoblanadi.

Quyidagi ma'lumotlar tijorat sirini tashkil qiladi:

- birja bitimining mazmuni (tovar nomi, miqdori, bahosi, tuzilgan vaqti va bitimni tuzgan birja a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari);

- HKKP palatasi mijozlarining hisob varag'i bo'yicha operatsiyalar, shu jumladan xizmat ko'rsatishda mijozning pul mablag'lari va (yoki) ularning aylanishi to'g'risidagi ma'lumotlar, mijoz topshirig'ining mazmuni;

- birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi, shu jumladan to'langan bitimlar reestri va (yoki) topshirish hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Tijorat sirini har qanday shaklda (og'zaki, yozma yohud boshqa shaklda, shu jumladan texnika vositalaridan foydalangan holda) oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Tijorat siri bilan muomala qilish tartibi va ushbu tartibga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek tijorat siridan foydalanishga ruxsat olgan shaxslarni hisobga olish birja Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Birja Boshqaruvchi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tijorat siri va uni himoya qilish bo'yicha choralar ko'riladi. Birja a'zosi tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, shu jumladan mijoz bilan munosabat tugatilgandan keyin ham sir saqlashga majbur.

Birja bitimi to'g'risidagi axborot (birja tovarining miqdori, kotirovkasi (bahosi), birja bitimi tuzilgan sanasidan tashqari) uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi. Birja bitimlari to'g'risida axborot sudlarga, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lganda esa, surishtiruv va tergov organlariga taqdimetiladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq birja bitimining mazmuni to'g'risidagi axborot qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdimetiladi.

3.5. Birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibi.

Savdo qoidalari talablarini buzgan Birja va uning xodimlari va ularning treyderlari, shuningdek savdo maydonchasi va ularning registratorlari belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Birja a'zolari uchun Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.11.2009 yilda 2038-raqam bilan ro'yxatga olingan) (keyingi o'rinlarda Ichki nazorat qoidalari deb ataladi) rioya etish barcha birja

a'zolari, ularning treyderlari uchun ham majburiy hisoblanadi va Ichki nazorat qoidalariga rioya etmaslik savdo qoidalarini buzish hisoblanadi.

Jazo chorasi javobgarlik chorasi hisoblanadi va u yangi huquqbuzarliklar sodir etishning profilaktikasi maqsadida qo'llaniladi.

Birja a'zolari va savdo maydonchalari tomonidan mazkur Qoidalar talablarining buzilishi birjaning Intizom komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Intizom komissiyasi o'z faoliyatini birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Intizom komissiyasi to'g'risidagi nizom asosida amaga oshiradi.

Birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarning buzilishi bilan bog'liq masalalarni Intizom komissiyasi ko'ribchiqmaydi.

Huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda Intizom komissiyasi quyidagi jazo choralari qo'llashga haqdi:

- ogohlantirish;
- jarima;
- birja a'zosi va uning treyderini birja savdolaridan chetlashtirish;
- savdo maydonchasi registratori vakolatini to'xtatish.

Intizom komissiyasining qarori birja a'zolari, savdo maydonchalari va birjaning tarkibiy tuzilmalari tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Ichki nazorat qoidalari talablarini bajarmaganlik, birjada Ichki nazorat qoidalari bilan belgilangan shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan mijozga nisbatan, shu jumladan gumonli operatsiyalar bo'yicha Departamentga xabar bermaganlik uchun birja a'zosi va uning treyderiga nisbatan birja savdolaridan chetlashtirish jazo chorasi qo'llaniladi. Bunda jazo chorasi vakolatli davlat organi yozma ravishda tasdiqlangan birja a'zosining mijoz tomonidan huquqbuzarlik sodir etilgan hollardagina qo'llanilishi mumkin.

Ogohlantirish tarzidagi jazo chorasi qoidaga ko'ra odob-axloq qoidalarini buzgan treyderlarga nisbatan qo'llaniladi. Jarima tarzidagi jazo chorasi savdo qoidalarining XV bo'limida ko'rsatilgan huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi. Jarima kimning foydasiga ushdirilishi ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu jarima birja foydasiga undiriladi. Jarima aybdor tarafdan undiriladi.

Intizom komissiyasining jarima qo'llash haqidagi qarorini ixtiyoriy ijro qilish uchun birja a'zosiga 10 bank ish kuni beriladi. Ushbu muddat o'tganidan keyin qaror ixtiyoriy ijro qilinmasa, birja a'zosi va uning treyderi 3 oy muddatga yoki qaror ijro qilingunga qadar birja savdolaridan chetlashtiriladi. Chetlashtirish muddati tugagach, qaror ijro qilinmasa jarima qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ijro qilinadi.

Birja a'zosi o'z mijozining topshirig'ini bajarmaganligi uchun, basharti bunday topshiriq normativ-huquqiy hujjatlar va (yoki) mazkur Qoidalarga zid bo'lsa, shuningdek birja bozori kon'yukturasida yuzaga kelgan holat tufayli uni ijro qilish mumkin bo'lmay qolsa, javobgar bo'lmaydi.

To'g'ri buyurtma berish va buyurtma noto'g'ri berilgan buyurtmadan etkazilishi mumkin bo'lgan zarar, shuningdek birja bitimini nomidan harakat qilayotgan birja a'zosi mijozining buyrug'ini buzgan holda rasmiylashtirganlik uchun javobgarlik to'liq birja a'zosining zimmasida bo'ladi.

Birja a'zosining mijoz yoki birja savdosining boshqa har qanday ishtirokchisining, o'zining treyderining harakati yoki harakatsizligi tufayli birjaga etkazilgan zarar uchun birja a'zosi javob beradi. Shuningdek birja a'zosi birja bitimini bajarmaganlik yoki birja bitimini rasmiylashtirmaganlik uchun sotuvchiga yoki sotib oluvchiga birjaning komission yig'imlarini to'laydi.

Mijoz buyrug'ining bajarilishi normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek mazkur Qoidalarning buzilishiga olib kelsa, bunday huquqbuzarlik uchun birja a'zosi javob beradi.

Mijozning topshirig'iga ko'ra birja a'zosi tomonidan birja savdosida tuzilgan birja bitimi bo'yicha majburiyat buzilganligi uchun javobgarlik mijoz zimmasiga yuklanadi.

Birja a'zosi tomonidan birja savdosida tuzilgan birja bitimi bo'yicha mijoz topshirig'ining buzilishi natijasida majburiyat buzilganligi uchun javobgarlik, mijozning talabi bilan birja a'zosi zimmasiga yuklanishi mumkin.

Birja a'zosi tomonidan mazkur Qoidalar buzilgan hollarda, mijoz birjadan birja a'zosini intizomiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rishni talab qilishga haqli.

Birja xodimlari tomonidan mazkur Qoidalar talablari buzilgan hollarda birja a'zosi yoki uning mijoz ushbu huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish haqida birjaga ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Ariza u kelib tushgan kundan boshlab uch kun ichida ko'rib chiqiladi, birja filialining makleri tomonidan birja bitimini rasmiylashtirishni rad etilganligi bilan bog'liq arizalar bundan mustasno.

Birja xodimi tomonidan huquqbuzarlik sodir etilganligi tasdiqlansa, birja mazkur Qoidalarga va O'zbekiston Respublika Tovar xom ashyo birjasi (keyingi o'rinlarda O'zR TXAB) ichki mehnat qoidalariga muvofiq choralar ko'radi va bu haqda arizachiga ma'lum qiladi.

Huquqbuzarlik sodir etilganmagan bo'lsa, birja bu haqda arizachiga asoslantirilgan javob beradi.

Birjaning qaroridan norozi shaxslar qonun hujjatlaridan belgilangan tartibda birjaning harakatlariga nisbatan shikoyat berishlari mumkin.

Birjaga birja savdolarida ishtirok etish va birja bitimlarini tuzish bilan bog'liq to'liq ma'lumot taqdim etmaganlik – bazaviy hisoblash miqdori qiymati miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Mijozning topshirig'ini jurnalga oldindan ro'yxatga olmasdan ijro qilganlik – bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Login va parol egasiga aloqasi bo'lmagan birja a'zosi tomonidan login va paroldan foydalanish, xuddi shuningdek o'z login va parolini boshqa birja a'zolariga berish – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Savdo maydonchasi registratori tomonidan birja filialining makleriga rasmiylashtirilmagan birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yubormaganlik – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan birja bitimini bajarish yoki birja bitimini rasmiylashtirish mumkin bo'lmaydigan harakatlar sodir etganlik, shu jumladan o'zi tomonidan amalga oshirilgan birja bitimini qabul qilib olish, imzolash va (yoki) birja filialining makleriga (savdo maydonchasi registratoriga) rasmiylashtirish uchun belgilangan muddatda topshirishni rad qilganlik; dislokatsiyadan tashqari va limitdan yuqori boshqa kontrakt uchun BSETga buyurtma berganlik; sotib oluvchi mijoz nomidan normativ-huquqiy hujjatlar yoki vakolatli davlat organlari qarorlarida sotuvchilarga nisbatan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan birja bitimlarini amalga oshirganlik – bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni ikki marta jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolaridan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Makler yoki savdo maydonchasi registratori timsolida birja tomonidan bitimni rasmiylashtirishni rad etganlik – jabrlangan birja a'zosi foydasiga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni regulator tomonidan jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – regulatorning

vakolatini 6 oygacha muddatga to'xtatishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni birja filialining makleri tomonidan jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy jazo chorasi qo'llashga sabab bo'ladi.

Birja tomonidan birja a'zolariga yoki ularning mijozlariga topshirilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni, shu jumladan amalga oshirilgan bitimlar haqidagi ma'lumotlarni va to'langan bitimlar reestrini taqdim etmaganlik – jabrlangan tomon foydasiga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni birjaning mas'ul xodimi tomonidan birjadan jarima undirilgandan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy jazo chorasi qo'llashga sabab bo'ladi.

Narxlarni manipulyatsiyalash – bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni oshkor etganlik – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Savdolar jarayonida birja tomonidan o'rnatilgan tizimdan farq qiladigan operatsion tizimdan foydalanish – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 yilgacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Kompyuter terminalidagi plomba (stiker)larni uzish – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni qayta sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja binosida, birjaning kommunikatsiya tizimida, shu jumladan chatda birja xodimlari va (yoki) birja savdosining boshqa ishtirokchilarini haqorat qilish – treyderni bir haftagacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Savdo qoidalari talablarini boshqa tarzda buzganlik – bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi bo'yicha mas'ul shaxsni tayinlamaganlik – mas'ul shaxs tayinlangunga qadar birja a'zosi va uning treyderlarini savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

O'zining tasdiqlangan ichki nazorat qoidalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarining mavjud emasligi – chora-tadbirlar tasdiqlangan paytga qadar birja a'zosi va uning treyderlarini savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Mas'ul shaxs tayinlanganligi haqidagi ma'lumotni tayinlangan paytdan boshlab 3 kun ichida birjaning vakolatli xodimiga taqdim etilmaganligi – ma'lumot taqdim etilgan paytga qadar birja a'zosi va uning treyderlarini savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Mas'ul shaxstomonidan:

- mijozlarni tegishli tartibda tekshirishni amalga oshirish bo'yicha;
- benifitsiar mulkdorlarni identifikatsiyalash choralari ko'rish bo'yicha;
- mijozlardan maqsad va mo'ljallangan ishchanlik munosabatlari xususiyati, zarur hollarda pul mablag'larining kelib chiqishi haqida so'rovnomalar bo'yicha;
- xavflilik darajasi yuqori bo'lsa, shuningdek operatsiya ishtirokchilardan biri jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda doimiy istiqomat qilsa, joylashgan bo'lsa yoki ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, mijozni tegishli tartibda tekshirish bo'yicha kuchaytirilgan choralarni ko'rish bo'yicha;
- mijoz tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlardan foydalangan holda uning operatsiyalarini amalga oshirishdagi vakolatlarini tekshirishni amalga oshirish bo'yicha;
- mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni belgilangan tartibda tekshirish bo'yicha;
- aniq iqtisodiy yoki qonuniy maqsadlar ko'zlanmagan, barcha qiyin, o'zgacha yirik operatsiyalar, shuningdek barcha o'zgacha sxemalar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda yuqori e'tibor qaratish bo'yicha;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida texnologik imkoniyatlardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralari bo'yicha;
- mijozni tegishli tartibda tekshirish bilan bog'liq materiallarga qo'shib qo'yiladigan uning ta'sis hujjatlari yoki davlat ro'yxatidan o'tganligi haqidagi guvohnomasida nazarda tutilgan faoliyat turlari va

maqsadlariga muvofiq kelmaydigan, aniq iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan barcha operatsiyalar bo'yicha tegishli tartibdagi tekshirish natijalari va xulosalarini yozma ravishda qayd etish bo'yicha;

- identifikatsiyani tugatishning yoki tegishli tartibdagi tekshirish natijasida mijoz bilan ish bo'yicha munosabatga kirishishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni olishning imkoni bo'lmagan hollarda mijozga bitim tuzishni rad etish bo'yicha;

- Departamentga belgilangan tartibda axborot taqdim qilish uchun aniqlangan gumonli operatsiyalar haqida birja a'zosi rahbariyatini xabardor qilish bo'yicha;

- olingan ma'lumotlarni oshkor qilinmasligiga rioya etilishi bo'yicha; ichki nazoratni amalga oshirish vaqtida olingan hujjatlarni saqlash va qaytarish bo'yicha;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmi moliyalashtirish holatlarini aniqlashda o'z tavakkalchiligini baholash, ularni hujjatlashtirish va ularni qisqartirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganda – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan huquqbuzarlik holatlarini belgilangan muddatlarda bartaraf etmaslik, shuningdek jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlik holati sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosining mas'ul shaxsi tomonidan o'z faoliyati bo'yicha birjaning vakolatli xodimiga belgilangan muddatlarda hisobot topshirmaganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 haftagacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosining mas'ul shaxsi tomonidan birjaning vakolatli xodimiga jazo qo'llanilgandan keyin hisobot topshirmaganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan mijozning birja bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun bergan topshirig'iga ko'ra, qonun hujjatlariga muvofiq mijozni yoki boshqa manfaatdor shaxslarni identifikatsiyalash:

ilgari mazkur mijoz tomonidan o'tgan hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, bir yil)da amalga oshirilgan operatsiyalarni o'rganish, agar qo'l ostida bunday operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar bo'lsa;

operatsiya turini, uning mijoz - yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida belgilangan faoliyat turiga muvofiq qililgini aniqlash;

operatsiya turini, uning mijoz – tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik haqidagi guvohnomasida belgilangan faoliyat turiga muvofiq qililgini aniqlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmaslik – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan huquqbuzarlik holatlarini belgilangan muddatlarda bartaraf etmaslik, shuningdek jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlikni sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan operatsiyaning bir tarafi:

- jinoiy harakatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda doimiy istiqomat qilsa, joylashgan bo'lsa yoki ro'yxatdan o'tgan shaxs bo'lganda;

- terroristik faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanishi gumon qilinayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lganda;

- terroristik faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanishi gumon qilinayotgan tashkilotning mulkdori bo'lsa yoxud ushbu tashkilotni bevosita yoki bilvosida nazorat qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lganda;

- terroristik faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanishi gumon qilinayotgan tashkilotning mulkdori yoxud ushbu tashkilotni bevosita yoki bilvosida nazorat qilayotgan jismoniy shaxsga qarashli yuridik shaxs bo'lganda Departamentga axborot yubormaslik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan gumonli operatsiyalar bo'yicha belgilangan muddatlarda Departamentga axborot yubormaslik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja faoliyati yuzasidan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar va nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Birja bitimlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik to'g'risidagi kelishmovchiliklar va nizolar quyidagi vositalari yordamida ko'rib chiqiladi:

- Arbitraj komissiyasi to'g'risidagi nizomga asosan birja Arbitraj komissiyasining sudgacha muhokamasi;

- sud muhokamasi.

Birja savdosi ishtirokchilari o'rtasida birja savdolarida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish tartibi mazkur Qoidalar, Arbitraj komissiyasi to'g'risidagi nizom va boshqa ichki hujjatlar bilan belgilanadi.

Birja a'zosi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Ichki nazorat qoidalariga muvofiq ichki nazoratni amalga oshirishi shart.

Ichki nazoratni tashkil etish va realizatsiya qilish qonun hujjatlari va Ichki nazorat qoidalari muvofiq amalga oshiriladi.

Birja a'zosi o'z faoliyatining xususiyatidan kelib chiqib, ichki nazoratni amalga oshirish bo'yicha o'z choralar dasturini qabul qilish shart.

Choralar dasturi birja a'zosi faoliyati doirasida tavakkalchilikni aniqlash va baholash, shuningdek ularni qisqartirish choralarini ko'zda tutishi kerak.

Tavakkalchilikni aniqlash va baholash birja a'zosi mijozlari faoliyatining yo'nalishlari (operatsiyalari) va xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi.

Birja a'zosi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari talablariga rioya etishi shart.

Birja a'zolari:

- ishchanlik munosabatlarini o'rnatishda;

- summasi bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravaridan ortiq bo'lgan bir martalik bitimlarni amalga oshirishda;

- amalga oshirilayotgan operatsiyalarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qaratilgan maqsadi borligi yoki aloqadorligi bo'yicha har qanday gumon yoki shubha tug'ilganda;

- ilgari olingan identifikatsiya ma'lumotlarining haqiqiyliги va ichonchililigiga shubha tug'ilganda mijozlarni tegishli ravishda tekshirish choralarini ko'radilar.

Amalga oshirilayotgan operatsiyaning bir tarafi jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda doimiy istiqomat qilsa,

joylashgan yoki ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, birja a'zolari mijozni tegishli tartibda tekshirish bo'yicha kuchaytirilgan choralarni ko'rishlari shart.

Mijozni tegishli tartibda tekshirish birja bozorida xizmat ko'rsatishning barcha yo'nalishlari va bochqichlarida, shu jumladan ilgari mavjud bo'lgan mijozlarga nisbatan ham amalga oshirilishi shart.

Mijozni yoki benifitsiar mulkdorni identifikatsiyalash bilan birga qonun hujjatlariga muvofiq ular tomonidan taqdim etilgan hujjatlardan foydalangan holda ularning operatsiyalarni amalga oshirish vakolatlarini ham tekshirish zarur.

Mijoz birja bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun topshiriq bilan murojaat qilganda, birja a'zolari:

mijozni va boshqa manfaatdor shaxslarning ushbu operatsiyalarni amalga oshirishlarining qonun hujjatlariga muvofiqligini identifikatsiya qilishlari;

agar qo'l ostida bunday operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar bo'lsa, ilgari mazkur mijoz tomonidan o'tgan hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, bir yil)da amalga oshirilgan operatsiyalarni o'rganishlari;

operatsiya turini, uning mijoz - yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida belgilangan faoliyat turiga muvofiqiligini aniqlashlari;

operatsiya turini, uning mijoz - tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik haqidagi guvohnomasida belgilangan faoliyat turiga muvofiqiligini aniqlashlari shart.

Birja a'zolari mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni:

- davlat organlari va boshqa tashkilotlardan mijoz bo'yicha olingan ma'lumotlardan foydalanish;

- mijozning boshqa birja a'zolari bilan munosabatlarini o'rganish; mijozning ishchanlik obro'si yuzasidan ma'lumotlar yig'ish orqali tekshirishlari shart.

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklar bilan operatsiyalar quyidagi hollarda shubhalih hisoblanadi:

- zarurat tufayli talab qilingan, shu jumladan ishonch bildirgan shaxsga oid (agar mijoz ishochli vakil sifatida ishtirok etayotgan bo'lsa) ma'lumotlarni taqdim qilishni mijoz tomonidan asoslantirilmagan holda rad etish;

- qulayroq bo'lgan shartlarda xizmat ko'rsatishni mijoz tomonidan e'tiborga olmaslik, shuningdek mijoz tomonidan xuddi shunday xizmatlarni ko'rsatish uchun odatda to'lanadigan mukofotdan farq qiladigan yuqori miqdordagi mukofotni taklif etish;

- birja operatsiyalari bo'yicha hisob-kitobni amalga oshirish tartibi bo'yicha mazkur mijoz yoki birja tomonidan foydalaniladigan odatdagi amaliyotdan farq qiladigan nostandart yoki qiyin bo'lgan qoidalarning mavjudligi;

- bekor qilingan birja bitimlari bo'yicha mijoz tomonidan o'z mablag'larini uchinchi shaxslarga yoki norezidentlar-bank hisobiga o'tkazish haqida taklif berilishi;

- mijoz tomonidan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qilinishini asossiz kechiktirish yoki mijoz tomonidan tekshirish mumkin bo'lmagan yohud tekshirish juda qimmatga tushadigan ma'lumotlar taqdim qilinishi;

- birjada amalga oshiriladigan bitimning maxfiylik masalalari bo'yicha mijozning haddan tashqari tashvishlanishi;

- mijozning birjada operatsiyalarni zudlik bilan amalga oshirishni talab qilinishi;

- mijoz tomonidan naqd pul shaklida bir kun yoki o'ttiz kun ichida depozitga qo'yilgan pul mablag'i bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravaridan ortiq summani tashkil etishi;

- Hisob-kitob kliring palatasida O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari o'rtasida uch oy mobaynida bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravaridan ortiq bo'lgan summada Foydalanuvchining individual raqami (keying o'rinlarda FIR)da akkumulyatsiya qilingan mul mablag'lari bilan voz kechish bo'yicha, bir martalik operatsiya yoki bir nechta operatsiyalar o'tkazish;

- jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar uchun FIR ochish, shuningdek ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha topshiriq berilishi;

- chet el tashkilotlarining ishonchnomasi asosida O'zbekiston Respublaksi fuqarolarining FIR ochish bo'yicha topshirig'i;

- identifikatsiyalashni yakunlash imkoniyati bo'lmasa yoki tegishli tekshirish o'tkazish natijasi foydalanuvchi bilan ishchanlik munosabatini o'rnatish maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatsa;

- bitim tuzilishi natijasida pul mablag'lari yoki boshqa mulk egalari o'zgarimasada, lekin ushbu birja savdolari ishtirokchilari faollashgandek taassurot qodirsa;

- birja savdolari qoidalaridan belgilangan birja savdolarida narxlarni manipulyatsiya qilish belgilari mavjud bo'lsa;

- 30 kun ichida tovar sotib olish uchun eng kam oylik ish haqqining 5000 baravaridan ortiq bo'lgan summaga bitim tuzilganligi;

- moliyaviy yilning bir choragidan ortiq bo'lmagan davr faoliyat ko'rsatayotgan mijoz bilan tovar sotib olish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2500 baravaridan ortiq bo'lgan summaga birja bitimlari tuzilganligi;

- birja operatsiyalari bo'yicha boshqa mintaqada joylashgan mijoz tomonidan topshiriq berilganligi;

- operatsiyalarning mijozning faoliyat turi va xususiyatiga nomuvofiqligi;

- amalga oshirilayotgan operatsiyalarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qaratilgan maqsad borligiga asosli shubha tug'ilgan boshqa barcha hollar.

Shubhali operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar haqida ichki nazorat Qoidalarida belgilangan tartibda Departamentga xabar berilishi lozim.

Birja a'zolari tomonidan Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoring va nazorat o'tkazish uchun birjaning Ichki va axborot xavfsizligi bo'limi (keyingi o'rinlarda bo'lim deb ataladi) vakolatli hisoblanadi.

Shu maqsadda bo'lim:

- birja a'zolari faoliyatining Ichki nazorat qoidalari talablariga rioya qilinishini doimiy asosda o'rganadi;

- o'z vakolatlari doirasida huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf qilish, shuningdek Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi va bajarilishi bo'yicha choralar ko'radi.

- birja a'zosi tomonidan Ichki nazorat qoidalari talablariga rioya etilmaganlik yoki bajarilmaganlik holatlari aniqlangan taqdirda, ikki nusxada tegishli dalolatnoma tuzadi, uning bir nusxasini birja a'zoga taqdim etadi;

- Ichki nazorat qoidalariga rioya etilmaganligi holatlari yuzasidan materiallarni Intizom komissiyasiga yuboradi;

birja a'zolari tomonidan aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha monitoringni amalga oshiradi.

Monitoring va nazoratni amalga oshirishda bo'lim:

- birja a'zolaridan Ichki nazorat qoidalari bilan bog'liq ma'lumotlar so'rashga;

- huquqbuzarliklar va Ichki nazorat qoidalarining buzilishini operativ ravishda to'xtatish maqsadida yuqori darajadagi tavakkalchilikka ega bo'lgan mijoz nomidan operatsiyalarni amalga oshirgan yoki gumonli

operatsiyalarni amalga oshirgan birja a'zosiga zudlik bilan Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishini, shu jumladan mijozni tegishli ravishda identifikatsiya qilish va tekshirish, mijozning operatsiyalarni amalga oshirish vakolatini tekshirish, mijoz taqdim etgan axborotlarni tekshirish, mijoz tomonidan identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim qilinmagan taqdirda operatsiyalarni amalga oshirishni rad qilish, Ichki nazorat qoidalariga muvofiq tavakkalchilik darajasini aniqlash, gumonli operatsiyalar bo'yicha Departamentga xabarnoma yuborishni tavsiya etish huquqiga ega.

Nazorat savollari

1. Birja bitimlarining turlari va birja savdolarini o'tkazish tartibi
2. Spot va forvard bitimlari
3. Birjada fyuchers va opsiyonlar
4. Birja savdosi natijalari va birja bitimlarini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish tartibi
5. Kliring va hisob-kitobni amalga oshirish tartibi
6. Birja tovarlarini kotirovkalash (narxini belgilash) tartibi va narx shakllanishi ustidan nazorat
7. Birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibi

IV-BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA TOVAR BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI

4.1. Yevropada birjaning rivojlanish bosqichlari va eng yirik tovar birjalari

Zamonaviy birjalar va tovarlar bilan birja orqali savdo qilishning asosida yotadigan tamoyillar ko'p asrlik shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimning markaziy bozor muassasasi, umumiy tovar ayirboshlash operatsiyalari, pul tizimi, uzoq muddatli tovar yetkazib berishga shartnomalar tuzish amaliyotiga ega savdo tajribasi mavjud bo'lgan. Rim imperiyasi gullab-yashnagan davrda foravendalia (sotuv bozori) deb nomlangan savdo markazlari rimliklar imperiyaning uzoq hududlaridan keltirgan tovarlarni sotishning markazi hisoblangan. Zamonaviy birjalar bevosita G'arbiy Yevropa xalqlarining hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lib, birja savdosi shakllarini tahlil qilganda G'arbiy Yevropa madaniyatining ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini ko'rish mumkin.

G'arbiy Yevropa IX asrning boshida vujudga kelgan. XI asrga kelib esa G'arbiy Yevropa xalqlari yetuk holatga yetadi. Aynan XI asrning oxiri va XII asrning boshlarida Angliya va Fransiyada o'rta asrlarga xos ilk yarmarkalar paydo bo'ldi. XII asrning o'rtalariga kelib bu yarmarkalar yiriklashib, xilma-xil ko'rinishga ega bo'ldi. Ixtisoslashuvning rivojlanishi bilan ayrim yarmarkalar ingliz, flamand, ispan, fransuz va italyan savdogarlari o'rtasida savdoning markazlashuviga aylandi. XIII asrda naqd pul bilan joyida hisob-kitob qilish va tovarni darhol yetkazib berish asosidagi bitimlar keng tarqalgan va odatiy bo'lgan, biroq bu paytda belgilangan namunalar bo'yicha sifat standartlariga ega, kelishilgan muddatda tovarni keyinroq yetkazib berishga shartnomalar tuzila boshladi.

«Birja» tushunchasi etimologik jihatdan grek tilidagi «Birsas» (sumka, hamyon), nemis tilidagi «Borse» va XV asrda ilk paydo bo'lgan joyi — Bryugge shahri (Niderlandiya) bo'yicha golland tilidagi «Bturs» so'zlaridan olingan. Gap shundaki, bu shaharda taniqli sarrof va makler Van der Bursening uchta hamyondan iborat bo'lgan gerbli uyi yonidagi maydonda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar savdo axboroti bilan almashish, xorijiy veksellar sotib olish va oldi-sotdi predmetini muayyan ko'rsatmasdan turib boshqa savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun to'planishardi. Biroq bir necha yil ichida yangi iqtisodiy munosabatlar turiga nom bergan bu birja 1460-yilda vujudga kelgan Antverpen birjasiga

o'rmini bO'shatib berdi. Bu birja shaharning geografik jihatdan qulay joylashganligi va savdo aloqalari tufayli dunyo ahamiyatiga ega edi.

XV—XVI asrlarda birjalar yirik tovar partiyalari bilan tashqi savdo operatsiyalarini rivojlantirish zaruratining namoyon bo'lishi sifatida Italiya va Gollandiyada manufakturalar paydo bo'lgan joylarda vujudga kela boshladi. Antverpen birjasiga qarab Lion (1545), London Qirollik birjasi (1566) va boshqa birjalar vujudga kelib, ular, asosan, tovar va veksellar bilan savdo qilgan. 1602-yilda tashkil qilingan Amsterdam birjasi XVII asrda jahon savdosida bosh rol ni o'ynagan, unda endi paydo bo'la boshlagan aksiyadorlik kompaniyalarining aksiyalari ilk bor birja bitimlari predmetiga aylandi. AQSHda tovar bozorlari 1752-yildan beri mavjud; ularda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar, uy xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, teri va jun, metall va yog'och bilan savdo qilingan.

Dastlab real tovar birjasi, ya'ni manufaktura ishlab chiqarishiga mos keladigan ulgurji savdo shakli vujudga kelgan. Uning zamonaviy birjalarga ham xos bo'lgan ajratib turuvchi jihatlari savdoni tiklashning muntazamligi, savdoning oldindan o'rnatilgan qoidalarga va belgilangan joyga bog'lab qo'yilganligidir. Birja operatsiyalarining eng xarakterli turi naqd tovar bilan operatsiyalar hisoblanadi. Birja savdosining bu bosqichida faqat xaridor va ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi o'rtasida aloqa o'rnatilgan. Birjalarni ta'sis etish juda sekin borgan va asosan, xalqaro savdo bandargohlari uchun yetakchi birjalar bilan cheklangan.

Sanoat inqilobi xomashyo va oziq-ovqatga talabning kengayishi, savdo hajmi va nomenklaturasining o'sishiga olib keldi, tovarlar sifatining bir xilligi va ta'minotning muntazamligiga talablarni kuchaytirdi. Ishlab chiqarishning bu talablarini qondirish zarurati birinchi turdagi birjalarning o'zgarishini, ularning yangi sharoitlarga moslashuvini asoslab berdi. Xususan, bozordan o'rin ajratish, birja savdosini tashkil qilish va savdo odatlarini qayd etish bilan birga birjalarning asosiy funksiyalari qatoriga tovar standartlarini belgilash, namunaviy shartnomalar ishlab chiqish, narxlarni kotirovkalash, muammolarni tartibga solish (arbitraj) va axborot faoliyati ham qo'shildi. Birjalar asta-sekinlik bilan xalqaro savdo markazlariga aylandi.

Savdo aylanmasi o'sish sur'atining tezligi, jahon bozorining vujudga kelishi naqd tovar partiyalari asosida savdo yuritishni qiyinlashtirdi. Ommaviy ishlab chiqarish ularning narxi o'zgarib turadigan xomashyo yyetkazib berilishiga ishonchdan tashqari kapitalga, jumladan, tovar shaklida sotish bosqichida turgan mahsulot chiqarishga sarflangan

kapitalga foyda olishni ham talab qiladi. Narxlarning keskin o'zgarishi riskni sezilarli oshirib, foyda olishdan ishonchi komil bo'lishni pasaytiradi. Natijada birja operatsiyalarida tadbirkorlarga talab qilingan sifatli tovarni kerakli paytda foyda olish imkoniyatini ta'minlaydigan narxda yyetkazib berishni kafolatlaydigan real tovar bilan muddatli bitimlar yetakchi rol o'ynay boshladi.

G'arbiy Yevropada deyarli har bir Yevropada mavjud qimmatli qog'ozlar almashinuvidan farqli o'laroq, G'arbiy Yevropada kichik tovar birjalari so'nggi yillarda birlashib, G'arbiy Yevropa bozorida bir qancha kuchli o'yinchilarni yaratgan. Markaziy va Sharqiy Yevropa mintaqasida keyingi o'n yil ichida shunga o'xshash rivojlanishni ham kutish mumkin.

Tovar birjalari va birja bozorlaridagi masalalar Yevropa Ittifoqi direktivasi tomonidan tartibga solinmagan va qonunlar bir ma'noda birlashishi kutilmaydi. Shu bois, tovar birjalarining huquqiy shakllari alohida mamlakatlarda o'zgarib turadi va muayyan tuzilmalar yaratilishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omil an'ana edi. Tovar-valyuta bozori davlat yoki xususiy shaxslar sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, tovar birjalarini standart Yevropa kompaniyalari turlari orasida tasniflanmagan maxsus yuridik shaxs sifatida ko'rgan joriy Chexiya qonunchiligi anaxronizmdir.

Markaziy Yevropa mintaqasida, aniqrog'i, eng ilg'or tovar ayirboshlash shahobchasi Budapeshtda (Budapesht tovar-xom-ashyo birjasi, Inc.) tashkil etilgan. Ushbu almashinuv Avstriya tovar birjasi bilan qisman birlashib, Yevropada uchinchi yirik savdo birjasini tashkil etdi.

Muhim dalillar, shuningdek, Yevropa fond birjalari aksariyat aksiyadorlik kompaniyalari tamoyiliga amal qilishidir. Ushbu huquqiy shakl, shuningdek, zamonaviy va progressiv harakatga asoslangan Praga fond birjasi uchun ham samarali bo'ldi.

Slovakiyada ikkita tovar birjasi mavjud: an'anaviy Komoditna Burza Bratislava (Bratislava tovarlari) va Yevropa tovar birjasi. Slovakiyada tovar birjalari 229/1992-sonli Federal qonun bilan tartibga solinadi, unda Chexiya Respublikasida tovar birjalari hali ham tartibga solinadi. Ushbu qonun avvalgiday bir nechta rasmiy tuzatish bilan o'zgartirildi.

1872 yilda Vena shahrida tashkil etilgan birinchi tovar aylanmasi Vena fond birjasi bilan qisqa vaqt o'tgandan keyin birlashib, natijada Vena fond va tovar-xomashyo birjasi tashkil etilgan. Shundan buyon bugungi kunda Vena almashinuvi ikki qismga ega: birja va tovar birjalari. Shunday bo'lsa-da, Vena hech qachon an'anaviy yoki muhim savdo-sotiq markazi emas edi. Yuqori tovarlar hajmi faqat 1921 va 1924 yillarda sotilgan.

Bugungi kunda Avstriya iqtisodiyoti uchun Vena Savdo Birjasining ahamiyati, asosan, muhim mahsulotlarning narxini baholash, ichki iste'molni belgilash, ekspert-analitik tadqiqotlar tayyorlash, nashr qilish narx grafikalari va ayniqsa, hakamlik sudining xizmatlarida. Avstriya tovar birjalari operatsiyalari kapital va tovar bozorida qo'shma bitim bilan tartibga solinadi. Qimmatli qoidalar yangi almashinuvlarni o'rnatishni boshqaradi, litsenziyalar, Moliya bozori boshqarmasi (qimmatli qog'ozlar almashinuvi uchun) yoki Federal Iqtisodiyot vazirligi (tovar birjalari uchun) tomonidan beriladi. Davlat vakolatlarini so'ragan korxonalar aksiyadorlik jamiyatining shakliga ega bo'lishi va birjadagi operatsiyalar "funktional almashinishdagi milliy iqtisodiy manfaatlar yoki investitsiyalarga qiziqqan insonlar manfaatlarini himoya qilish"ga kafolat bermasligi kerak. Bunga rioya qilish keng vakolatga ega bo'lgan birja komissiyasi instituti yordamida tekshiriladi. Avstriya qonunchiligi (Vengriya qonunchiligi bilan birgalikda) Chexiya tovar hujjatlarida taklif qilingan qonunchilikdagi o'zgarishlarni tayyorlashda asosiy manba sifatida foydalanildi.

Vengriyada tovar birjasi 1989 yilda tashkil qilingan. Budapeshtdagi tovar birjasi eng ilg'or almashinuv, eng katta kapitalga ega bo'lgan va Markaziy Yevropa eng yuqori likvidlikka ega. 2003 yil boshida uning strukturasi aksionerlik jamiyatiga aylandi, bu esa tovar ayirboshlashni yanada kengaytirishga imkon berdi. Mamlakatning sarmoyasi va tovar bozori haqidagi ilg'or Vengriya qonunchiligi Chexiya tovar-xomashyo birjasi va tovar bozori to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlashda asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

1996 yilda tashkil etilgan Warenterminbörse Hannover AG (Gannover Tovar Birjasi) eng muhim nemis tovar-xomashyo birjasi hisoblanadi. U to'rt yirik aksiyadorlar (EWB agrofirma, Gannover va Gamburg fond birjasi, Landschaftliche Brandkasse, Deutscher Terminhandelsverband). Birja qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga ixtisoslashgan. Bremenda paxta (Bremer Baumwollbörse) savdosiga ixtisoslashgan tovar birjasi mavjud. Germaniyada bir necha boshqa davlat darajasidagi tovar-xomashyo birjalari mavjud bo'lib, odatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishga qaratilgan (masalan, Mitteldeutsche Produktenbörse, Bayerische Warenbörse, Rheinische Warenbörse urf-Köln und Krefeld, Wormser Getreide - und Produktenbörse va boshqalar). Germaniya qonunchiligi tovar birjalarini tashkil qilish uchun ruxsat berish uchun qat'iy shartlarni belgilaydi va davlat organlarini tovar birjasida amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha qattiq nazoratni amalga oshirishni

talab qiladi, shuning uchun barcha bozor ishtirokchilari uchun teng sharoitlar kafolatlanadi va alohida tovarlar narxining darajasi ta'sir qilmaydi.

Polshadagi tovar bozori juda rivojlangan emas. Tovar birjalari hududiy xususiyatlarga ega va kapital-kambag'aldir. Eslatib o'tamiz, 1995 yilda ochilgan Warszawska Gielda Towarowa Spolka Akcyjna (Varshava tovar birjasi) ham xususiy, ham jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tovar birjasining huquqiy shakli aksionerlik jamiyatidir. 2000 yilda xususiylashtirildi. Eski va eskirib qolgan qonunlar va kapitalning yetishmasligi tufayli Polsha tovar birjalari Yevropada muhim rol o'ynaydi.

Buyuk Britaniyaning tovar bozori katta va uzoq an'anaga ega. Eng mashhur savdo birjasi - mashhur London metal birjasi (LME). Ushbu tovar birjasida amalga oshiriladigan tranzaksiyalar rangli metallarning (alyuminiy, mis, nikel, qo'rg'oshin, rux, qalay) global bahosiga ta'sir ko'rsatmoqda. Qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina va palladiy) va strategik metallar (surma, arsenik, xrom, magniy, indiy, iridiy, kobalt, kremniy, marganets, simob, ruteniy, selen, tantal, titanium, vanadiy, volfram va boshqalar) Londonga keltiriladi. Boshqa bir muhim tovar ayirboshlash shahobchasi - Shimoliy dengiz Brent Crude Oil, Dubay Xom neft, motor moyi, yetakchi va benzin hamda boshqa neft mahsulotlarini o'z ichiga olgan Xalqaro neft konvensiyasi (IPE). Buyuk Britaniyadagi uchinchi yirik tovar ayirboshlash turi - sobiq Londondagi Tovar Bozor Birjasida (LCE) tashkil etilgan Futures and Options Exchange. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsuloti (kakao, qahva, shakar, kauchuk, don, kartoshka) sotuvga qo'yiladi. Buyuk Britaniyadagi birjalar bizning xususiy sektorga nisbatan o'xshash bo'lgan shaklga ega. (MChJ).

Polshadagi tovar bozori juda rivojlangan emas. Tovar birjalari hududiy xususiyatlarga ega va kapital-kambag'aldir. Eslatib o'tamiz, 1995 yilda ochilgan Warszawska Gielda Towarowa Spolka Akcyjna (Varshava tovar birjasi) ham xususiy, ham jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tovar birjasining huquqiy shakli aksionerlik jamiyatidir (uning nomi aytilganidek). 2000 yilda xususiylashtirildi. Eski va eskirib qolgan qonunlar va kapitalning yetishmasligi tufayli Polsha tovar birjalari Yevropada muhim rol o'ynaydi.

Fransiyaning MATIF-Marche company Terme International de France shirkatiga ega. Tovar ayirboshlash birjasi 1986 yil Fevral oyida tashkil qilingan. Birjada asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (qahva,

Robusta qahvasi, jo'xori, kartoshka, kolza yog'i, bug'doy va boshqalar) sotiladi.

Italiya, olmos almashinuvi (1926 yildan buyon mavjud bo'lgan Borsa diamanti d'Italia) va turli xil qishloq xo'jalik ekinlari almashinuvi (masalan, 1951 yildan buyon mavjud bo'lgan Borsa Merci Bologna) kabi bir nechta tovar birjalari ega. Tovarlar birjalari savdogar va ishlab chiqaruvchilarning notijorat tashkilotlari sifatida tashkil etilgan bo'lib, ular tegishli sohada faoliyat olib boradilar va faqatgina a'zolari ular bilan savdo qilishadi. Italiyada birja faoliyati to'g'risidagi akt 1913 yilda qabul qilingan va unga keyinchalik o'zgartirishlar va farmonlar qo'shilgan. Kompaniyalar va birjalar bo'yicha milliy komissiya (CONSOB agentligi) 1985 yilda tashkil etilgan. CONSOBga oldindan Italiyaning vakolatiga kiradigan birja va operatsiyalarni nazorat qilish sohasida vakolat berilgan.

Yevropadagi top-10 tovar birjalari⁵

BIRJALAR	QISQART-MASI	JOYLASHGAN JOYI	MAHSULOT TURI
<u>APX-ENDEX</u>	APX-ENDEX	<u>Amsterdam, Niderlandiya</u>	Energiya
<u>Trieste Commodity Exchange</u>	BMTS	Triest, Italiya	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari
<u>Commodity Exchange Bratislava, JSC</u>	CEB	<u>Bratislava, Slovakiya</u>	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, olmoslar
<u>Climex</u>	CLIMEX	<u>Amsterdam, Niderlandiya</u>	Gaz
<u>Deutsche Börse/Eurex</u>	DBAG/EUREX	<u>Frankfurt, Germaniya</u>	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, metal
<u>European Climate Exchange</u>	ECX	<u>London, Buyuk Britaniya</u>	Gaz

⁵ "Saint-Petersburg International Mercantile Exchange", "Moscow Energy Exchange", 2018

<u>European Energy Exchange</u>	EEX	<u>Leipzig</u> , Germaniya	Energiya, tabiiy gaz, ko'mir
<u>Energy Exchange Austria</u>	EXAA	<u>Vena</u> , Avstriya	Energiya, gaz
Commodities Investment Exchange	COINVEX	<u>London</u> , Buyuk Britaniya	Neft-gaz, qazib chiqarish, tiklanuvchi energiya
<u>Integrated Nano-Science & Commodity Exchange</u>	INSCX	Buyuk Britaniya	<u>Nanometall</u>

Hozirgi kunda Yevropa tovar-xomashyo birjalari assotsiatsiyasi (keyingi o'rinlarda ECA) mavjud bo'lib, 12 Yevropa mamlakatidan 38 ta milliy birjalarni birlashtiruvchi assotsiatsiya hisoblanadi. Bu 1957 yilda qabul qilingan Strasburg qonuniga binoan faoliyat yuritadigan Mannheim Manchester kompaniyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan.

1960 yillarga qadar Yevropa tovarlari kombinatsiyasini yaratish qaroriga kelgandi. Shuning uchun aloqa vositasi beriladi. Yevropa tovarlari birjasi 1966 yilda o'sish sur'ati bo'ldi.

2018 yilda Ruminiyaning birjasiga topshirilgan 58-Yevropa tovar-xomashyo birjasi butun dunyo bo'ylab 2700 nafar ishtirokchini mamnuniyat bilan kutib oldi.

• ECA iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bir qatorda tovar birjalarida ham bo'lishi mumkin risklarni boshqarish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- narx riskini boshqarish.
- qarshi tomon riskini kamaytirish. "Vetting" mexanizmlarini va undan foydalanish moliyaviy kafolatlar, birjalar xavflarni kamaytirishi yoki hatto olib tashlanishi mumkin noma'lum qarama-qarshi tomonlar bilan shug'ullanayotganda yuz berishi mumkin.

- narx oshkoraligini kuchaytirish. Birjalar narxlarni aniqlashga imkon beradi, savdoning kuchini kamaytirishda sysimetrik ma'lumot (masalan, fermerlar).

- risklarni kamaytirish;
- tovarlar sifatini sertifikatlash;
- repo orqali kapital bozoriga bevosita kirishni ta'minlash;
- ichki moliya va tovar bozorlar o'rtasidagi ishonchlilik.

Ushbu funksiyalarni amalga oshirish jarayonida bevosita ushbu assotsiatsiya tarkibidagi birjalar faoliyati tartibga solinadi va yaxshilanadi.

4.2. ICE Futures Canada

ICE Futures Canada, Inc. Kanada tovar-xomashyo birjasi bo'lib, asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlari oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Kompaniya kanola va don bo'yicha fyuchers va opsiyonlar bo'yicha shartnomalar, savdo va risklarni boshqarish bo'yicha xizmatlarni taklif etadi.

ICE Futures Canada 1887 yilda "Winnipeg Grains and Produce Exchange" nomi ostida tashkil etilgan bo'lib, bug'doy, suli va arpa bozorini ta'minlovchi shirkat bo'lgan birlashma sifatida tashkil etilgan. 1904-yildan buyon fyuchers shartnomalar orqali savdo qilishga yo'naltirilgan. Nomi 1908-yilda Winnipeg don birjasi va 1972-yilda Winnipeg tovar birjasiga o'zgartirildi.

2007 yildan buyon Intercontinental Exchange (ICE) kompaniyasiga tegishli va hozirgacha ICE Futures Canada, Inc. kompaniyasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda ICE Futures Canada Kanadaning fyucherslar bo'yicha yagona tovar-xomashyo birjasi bo'lib, Hozirda ham, odatda, Winnipeg Commodity Exchange (WCE) deb ataladi. 2004 yilda butunlay elektron tarzda o'tdi va Shimoliy Amerikada birinchi bo'lib to'liq elektronlashtirilgan birja sifatida ta'kidlandi.

2007 yil 26-aprelda kompaniyani saqlab qolish maqsadida, kompaniyasotuvini amalga oshirish mumkin bo'lgan strategik muqobillarini o'rganib chiqish "Deutsche Bank"ga topshiriladi. 2007 yil 22-iyun kuni kompaniya Intercontinental Exchange (ICE)dan taklifni qabul qildi, ammo 2007 yil avgust oyida taklifni qabul qilganini e'lon qildi. Winnipeg Commodity Exchange (WCE) 2007 yil 22-avgustda ICE tomonidan o'zgartirilgan taklifni qabul qildi va operatsiya 28-avgust kuni yopildi. ICE bitta oddiy aksiyatar uchun 77,59 kanada dollari yoki jami 50

mln Kanada dollari to'ladir. WCE mahsulotlari 2007 yil 10-dekabr kuni ICE savdo platformasiga o'tkazildi.

Kanola fyucherslari 1963 yilda ishga tushirildi va 2007 yil noyabr oyida savdolarning 95 foizini tashkil etdi, bug'doy fyuchersi 4,2 foizni tashkil etdi. 2014 yil 13-fevralda kanola fyucherslari kuniga 71 536 ta shartnoma bo'yicha yangi rekord o'rnatdi. ICE kanola shartnomasi kanola savdosi bo'yicha jahon me'zonidir. 2012 yil yanvar oyida ICE yangi turdagi don mahsulotlari bo'yicha fyuchers shartnomalarini boshladi.

2007 yil sentyabr oyidan beri WCE Atlanta shtatidagi Intercontinental Exchange (ICE)ning filiali sifatida faoliyat yuritmoqda va uning kotirovkalari ICE platformasida sotilmoqda.

ICE Futures Canada xalqaro standartlardagi kanola mahsuloti uchun fyuchers va opsiya shartnomalari taklif qiladi. 2012 yilda, qariyb 70 yildan keyin, Kanada bozoriga bug'doy bo'yicha fyuchers shartnomalarini qayta kiritdi.

Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyodagi 12 ta birjalar va 6 ta kliring markazlari orqali ICE butun dunyo bo'ylab aktivlar, ularni huquqiy tartibga solish bo'yicha risklarni boshqarish yechimlarini taqdim etadi.

ICE Futures Europe

ICE Futures Europe neft, qimmatli qog'ozlar stavkalari, derivativlar, tabiiy gaz, energiya, ko'mir, emissiyalanuvchi va ichimliktovarlar uchun fyuchers va opsiya shartnomalarini tuzadi. Shunday qilib, ushbu birja avia yonilg'isi, benzin, gaz, qimmatli qog'ozlar stavkasining o'zgarishi yoki elektrichun xaridorlarning maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun arzon narxlarni taklif qiladi.

ICE Futures Europe birinchi bo'lib energiya bozoriga elektron kirishni amalga oshirgandastlaki birja hisoblanib, hozirgi kunda jahonda neft va qayta ishlangan neft bo'yicha fyuchers shartnomalari savdosining 50 foizini amalga oshiradi. Neft va qayta ishlangan neft uchun yetakchi global standart bo'lgan "Brent" nefti va "Gasoil" suyultirilgan va sof neft savdosini amalga oshiradi.

ICE Futures Europe Yevropadagi suveren va banklararo daromadlilik yuqori, shuningdek, dollarli valyutalar va GCF Repo fyucherslarning eng keng qamrovli tizimidir. Shu bilan birga, ICE foizli fyucherslar va opsiyalarni qisqa, o'rta va uzoq muddatga taqdim etadi.

ICE Futures Europe Londonning ichimliklar bozorlari uchun kakao, Robusta qahvasi, shakar va bug'doy uchun fyuchers va opsiya shartnomalari savdosini amalga oshiradi. Birjaning ichimliklar bozori

butun dunyoda tijorat bozori ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Emissiya savdosi bo'yicha dunyodagi yetakchi bozor bo'lib, ICE Futures Europe Yevropa Ittifoqi ruxsatnomasi (EUAs) va sertifikatlangan emissiyalarni kamaytirish (CERs) shartnomalarini taklif qiladi. Ishtirokchilar Yevropa Ittifoqining emissiya savdosi tizimiga, Yevropa Ittifoqining iqlim o'zgarishi bilan kurashish va sanoat chiqindilarini kamaytirish siyosatiga mos tarzda faoliyat yuritishadi.

Bozor ishtirokchilarini fyuchers yoki opsiyon shartnomalari bo'yicha barcha kapital ko'rsatkichlari narxlarining o'zgarishiga ta'sir qilishini ta'minlash uchun ICE Futures Europe derivativlari FTSE, MSCI va Russell indekslarini o'z ichiga oladi. Birjada shuningdek, birjadan tashqari fond birjalari va yagona aksiyadorlik turlarining keng doiradagi savdosi, shuningdek, dividendlarni tartibga solish bo'yicha eng keng tarqalgan qimmatli qog'ozlar fondlari portfeli savdosini amalga oshiradi.

ICE Futures U.S.

ICE Futures U.S. global iqtisodiyotda risklarni boshqarishga imkon beradigan samarali bozorlarni qo'llab-quvvatlaydi. Xaridorlarning moslashuvchanligiga ko'maklashish hamda daromadlilikini oshirish uchun ishlab chiqilgan savdo va risk boshqaruvi yechimlari jahon miqyosida sotiladigan ichimlik mahsulotlari, Shimoliy Amerika tabiiy gazi va energetikasi, qimmatli qog'ozlar ko'rsatkichlari va valyuta ayirboshlash ko'rsatkichlarida turli xil fyuchers shartnomalarni o'z ichiga oladi.

Keng qamrovga ega bo'lgan ICE Futures U.S.ning ichimlik mahsulotlari bozorlari qishtoq xo'jaligi sohasidagi yetakchi ishlab chiqaruvchilarga don mahsulotlari ishlab chiqarish, iqlimo'zgarishi hamda talab va taklifning o'zgarishi bilan bog'liq narx riskini boshqarishga imkon yaratadi. Ushbu bozor No.11 shakar, paxta No.2, qahva "S" va kakao kabi global ichimlik mahsulotlarining fyuchers shartnomalariga ega.

Shimoliy Amerika tabiiy gaz va energiya fyuchers va opsiyonlarining tanlov imkoniyatining kengligi bilan birga energetik kompleks Henry Hub tabiiy gazi, ERCOT va PJM energetika markazlari kabi yuzlab shartnomalarni o'z ichiga oladi.

Ekologik risk energiya talab qiladigan tarmoqlar uchun biznes operatsiyalarining tobora muhim tarkibiy qismi bo'lib bormoqda. Ifloslanishni kamaytirish dasturlari asosidagitovarlar savdosini o'z ichiga olgan derivativlar o'sib borayotgan bozor hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda ekologik xavfni kamaytirishga yordam beradigan

uglerod, kislota yomg'iri va qayta tiklanadigan energiya mahsulotlariga asoslangan fyuchers shartnomalar taklif etiladi.

ICE Futures U.S.da kredit derivativlari sohasidagi innovatsiyalar asosida tartibga solingan fyucherslar bozorida kreditlash uchun sarmoyalashning samarali usulini taklif qilinadi. Kredit derivativlari shartnomalari kredit siyosatining o'zgaruvchan svoplari iqtisodining andozasi bo'lgan Eris MethodologyTM ga asoslanadi.

AQShning fyucherslar bozorida qimmatbaho metallar sohasida mijozlar talabi asosida bankirlar, zargarlar, konchilar va chakana savdogarlar uchun samarali himoya qilish yo'llari yaratildi.

Nazorat savollari

1. Tovar birjalari faoliyati bo'yicha ilg'or xorij tajribalari.
2. Jahonda eng yuqori ulushga ega tovar birjalari.
3. Xorijiy tovar birjalarida qo'llanilayotgan fyuchers va opsiyonlar turlari.
4. Yevropadagi eng yirik tovar birjalari va ularning rivojlanish bosqichlari.
5. Yevropada tovar birjalari faoliyatini tartibga solishdagi umumiy o'ziga xosliklar.
6. ICE Futures Canada, ICE Futures Europe, ICE futures US
7. Xorijiy mamlakatlarda tovar birjalari faoliyat mexanizmi.

V-BOB. QIMMATLI QOG‘OZLARNI CHIQARISH, JOYLASHTIRISH VA ULARNI HISOBGA OLISH. QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING PROFESSIONAL ISHTIROKCHILARI

5.1. Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, joylashtirish va ularning muomalasi O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 3 iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014 yil 6 maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalarini va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilish shakliga ko‘ra blankalar tarzida hujjatli va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz bo‘lishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlarning chiqarilish shakli qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilanadi.

Aksiyalar, korporativ va infratuzilma obligatsiyalari, shuningdek depozitar tilxatlar hujjatsiz shaklda chiqariladi.

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- emitentning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror tasdiqlangan sana;
- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlagan emitent boshqaruv organining nomi;
- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning turi va xili hamda ularning chiqarilish shakli;
- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar egasining huquqlari;
- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish shartlari;
- chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning soni;
- ilgari joylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning soni;
- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymati.

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda qonunchilik doirasida boshqa qoidalar ham ko‘rsatilishi mumkin. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qonun

hujjatlariga va emitentning ustaviga muvofiq emitent boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorda garov, bank kafolati yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlash nazarda tutilsa, bunday qarorda ta'minot bergan shaxs to'g'risidagi va ta'minot shartlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak. Bunda obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi bunday qaror ta'minot beruvchi shaxs tomonidan ham imzolanishi kerak.

Davlat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda O'zbekiston Respublikasining Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan aksiyalarning emissiya risolasi aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror hisoblanadi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning bir nusxasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi (hozida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi)da qoladi, bir nusxasi emitentga beriladi va bir nusxasi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshiriladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi ro'yxatdan o'tkazilgan qarorga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur qarorni o'z kuchini yo'qotgan deb topish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Korporativ obligatsiyalar quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

- emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi o'z kapitali miqdori doirasida. Agar korporativ obligatsiyalar summasi emitentning o'z kapitali miqdoridan oshsa, emitent oshgan summa uchun ta'minot berishi shart;

- so'nggi bir yilda rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgan emitentlar tomonidan;

- obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi bir yil uchun moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi mavjud bo'lganda;

- investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.

Infratuzilma obligatsiyalari quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

9 - emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi o'z kapitali miqdori doirasida. Agar infratuzilma obligatsiyalari summasi emitentning o'z kapitali miqdoridan oshsa, emitent oshgan summa uchun ta'minot berishi shart;

- obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi bir yil uchun moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi mavjud bo'lganda;

- infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida nazarda tutilgan loyihani moliyalashtirish uchun foydalanilsa, chiqariladi;

Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, shuningdek davlat korxonalari infratuzilma obligatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda chiqariladi.

Korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini chiqarishning qo'shimcha shartlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Aksiyalarga doir opsiyonni chiqarish shartlari ularning muomalasiga cheklovlarni nazarda tutishi mumkin. Agar aksiyadorlik jamiyatining e'lon qilingan aksiyalari soni olish huquqini opsiyonlar beradigan aksiyalar sonidan kam bo'lsa, mazkur jamiyat aksiyalarga doir bunday opsiyonlarni joylashtirishga haqli emas.

Aksiyadorlik jamiyatining mehnat jamoasi va kuzatuv kengashi a'zolariga mukofotni yoki rag'batlantirish to'lovini aksiyalarga doir opsiyonlar tarzida berish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Olish huquqini opsiyonlar beradigan muayyan turdagi aksiyalarning soni aksiyalarga doir opsiyonlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra joylashtirilgan ushbu turdagi aksiyalarning 5 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Aksiyalarga doir opsiyonlar aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali uni ta'sis etish chog'ida to'liq to'langanidan keyin joylashtirilishi mumkin bo'ladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan emitentning arizasi asosida amalga oshiriladi. Emitentning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror;

- qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi (qimmatli qog'ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);

- blanka namunasi (hujjatli shakldagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilgan taqdirda);

- ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadigan boshqa hujjatlar.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar olingan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida davlat ro'yxatidan o'tkazishi yoki emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning har bir nusxasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishiga berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik raqami ko'rsatiladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlarning to'g'riligi uchun javobgarlik emitent zimmasida bo'ladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning hamda ulardagi ma'lumotlarning qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga nomuvofiqligi;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish tartibiga emitent tomonidan rioya etilmaganligi;

- qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yig'implarning to'lanmaganligi;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarishni amalga oshirayotgan yuridik shaxsda ularni chiqarish huquqining yo'qligi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining qarorida ko'rsatilgan muddat ichida qayta murojaat etilgan taqdirda, yangitdan taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklardan tashqari yangi asoslarga ko'ra emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning dastlabki chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishda emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar nominal qiymatining 0,01 foizi miqdorida (hozirda Moliya vazirligining byudjetdan tashqari jamg'armasiga ilgari Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasiga) yig'im to'laydi.

Ilgari ro'yxatdan o'tkazilgan chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati oshirilgan taqdirda, emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar nominal qiymati oshgan summasining 0,01 foizi miqdorida (hozirda Moliya vazirligining byudjetdan tashqari jamg'armasiga ilgari Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasiga) yig'im to'laydi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yig'im quyidagi hollarda undirilmaydi:

- aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan emissiya risolasi asosida chiqarilgan taqdirda;

- infratuzilma obligatsiyalari va opsiyon chiqarilgan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reestrda emitentning nomi, qimmatli qog'ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa axborot bo'lishi lozim.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi:

- emissiya jarayonida qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari emitent tomonidan buzilganligi aniqlanganda, shuningdek emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishi haqida e'lon qilingan axborotda noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan taqdirda ular bartaraf etilguniga qadar to'xtatib turiladi;

- ularning chiqarilishini to'xtatib turishga olib kelgan qoidabuzarliklar emitent tomonidan bartaraf etilmagan, shuningdek chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddatda mazkur chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarning 60 foizidan kam qismi

joylashtirilgan taqdirda amalga oshmagan deb topiladi, mazkur chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarning kamida 30 foizi qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida joylashtirilgan hollar bundan mustasno;

- sudning tegishli qarori mavjud bo'lgan taqdirda haqiqiy emas deb topiladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, mazkur chiqarilishning barcha qimmatli qog'ozlari muomaladan olinishi lozim, amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini joylashtirishdan emitent olgan mablag'lar esa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda egalariga qaytarilishi kerak.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topish va mablag'larni egalariga qaytarish bilan bog'liq chiqimlarning o'zmi emitent hisobidan qoplanadi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish emissiya risolasisiz va davlat qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari qisqa muddatli (bir yilgacha muddatga), o'rtacha muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) etib chiqarilishi mumkin.

Depozit sertifikatlarini chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Veksellarni chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.2. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi

Qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirishga va ularning muomalasiga, agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida;
- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni, bundan xalqaro obligatsiyalar mustasno O'zbekiston

Respublikasi hududidan tashqarida joylashtirish hamda muomalaga kiritish kvotalari va tartibini belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlarning qiymati, bundan xalqaro obligatsiyalar mustasno O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish ularni yozma ravishda (qog'ozda) rasmiylashtirish zaruratisiz elektron shaklda amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlarga doir boshqa bitimlar yozma shaklda tuziladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Uyushgan bozorlarda oldi-sotdi bitimlari tuzilganda ular yuzasidan hisob-kitob qilish muddatlari qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil qilish qoidalari bilan, boshqa hollarda esa oldi-sotdi shartnomalari bilan belgilanadi. Belgilangan muddatlar buzilgan taqdirda bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Fond birjasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzilganda sotuvchi (bundan emitent mustasno) O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasiga bitim summasining 0,01 foizi miqdorida yig'im to'laydi. Bunda sotuvchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining tuzilgan bitim bo'yicha daromadlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi.

Qimmatli qog'ozlarga doir narxlarning, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun birja bitimlari tuzilganda market-meyker birjaga, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga yig'imga va boshqa to'lovlar to'lashdan ozod qilinadi.

Emitentlar qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega.

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish quyidagi turlarda amalga oshirilishi mumkin:

- qimmatli qog'ozlarni xususiy joylashtirish (oldindan ma'lum bo'lgan, soni cheklangan investorlar orasida ommaviy e'lon bermagan va reklama kampaniyasi o'tkazmagan holda yopiq obuna qilish);

- qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish (soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda ochiq obuna qilish).

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishining eng kam yoki eng ko'p hajmi emitent tomonidan belgilab qo'yiladi.

Aksiyalarning ochiq obunasi qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosidagina o'tkaziladi.

Banklar va investitsiya vositachilari emitentlar tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishining joylashtirilmagan qismini sotib olish majburiyatini olib yoki olmagan holda emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni emitent nomidan sotish to'g'risida emitentlar bilan shartnomalar tuzishi mumkin.

Joylashtirilayotgan qimmatli qog'ozlarning soni emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlar sonidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Emitent emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning haqiqatda joylashtirilgan sonini ularning chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatadi. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi bildirishnomani taqdim etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Emitent chiqarilayotgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan muddatda tugallashi shart, bu muddat qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot belgilangan tartibda oshkor qilinganidan keyin kamida ikki hafta o'tgach amalga oshiriladi.

Emitent, shuningdek u bilan shartnomaga ko'ra emissiyaviy qimmatli qog'ozlar joylashtirilishini amalga oshiruvchi banklar va investitsiya vositachilari mazkur qimmatli qog'ozlar olinguniga qadar investorga qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Hujjatsiz shakldagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ushbu qimmatli qog'ozlar joylashtirilishi muddati ichida ularning haqi to'liq to'langanidan va ular oluvchilarning depo hisobvaraqlariga o'tkazilganidan keyin joylashtirilgan hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bitimlar tuzish orqali amalga oshiriladi. Bunda aksiyalarning oldi-sotdi bitimlari qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosidagina amalga oshiriladi, bundan aksiyadorlarning talabiga ko'ra aksiyalarning aksiyadorlik jamiyati tomonidan qaytarib sotib olinishi,

shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilangan hollar mustasno.

Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish va ularning muomalasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Depozit sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Veksellarni joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari quyidagilardir:

- fond birjasi;
- fond bo'limini tashkil etgan valyuta birjasi;
- qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.
- Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari rioya etilishi shart bo'lgan qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil qilish qoidalarini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari o'z faoliyatini tegishli litsenziya asosida amalga oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari sotuvchidan sotuvga qo'yilayotgan qimmatli qog'ozlarni oldindan baholash o'tkazilishini talab qilishga, agar bunday talab qonun hujjatlarida belgilanmagan bo'lsa, shuningdek qimmatli qog'ozlarni ularning nominal qiymatidan past narxda realizatsiya qilishga taqiq belgilashga haqli emas.

Kliring qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bitimlar natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlardagi va pul mablag'laridagi hisob-kitoblar qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining kliring topshirig'i asosida amalga oshiriladi.

Kliringni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari va qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil qilish qoidalari bilan belgilanadi.

Investitsiya vositachisi tomonidan investorga yetkazilgan zararining o'rmini qoplash uchun qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi har bir investitsiya vositachisiga tegadigan vositachilik haqining chegirib qolinadigan qismi hisobidan kafolat fondini shakllantiradi. Kafolat fondining mablag'lari investitsiya vositachilariga tegishli bo'lib, har bir investitsiya vositachisi bo'yicha alohida shakllantiriladi va hisobga olinadi.

Kafolat fondining mablag'laridan boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas va ushbu mablag'lar investitsiya vositachisiga u investitsiya vositachisi sifatidagi faoliyatini tugatgan taqdirda qaytarilishi kerak.

Kafolat fondini shakllantirish va undan foydalanish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

5.3. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yurituvchilar

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat quyidagilar sifatida amalga oshiriladi:

- ✓ investitsiya vositachisi;
- ✓ investitsiya maslahatchisi;
- ✓ investitsiya fondi;
- ✓ investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi;
- ✓ transfer-agent;
- ✓ qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional qatnashchilari o'z mablag'larining eng kam miqdori

T/r	Investitsiya muassasalari	O'z mablag'larining eng kam miqdori (mln. so'm)
1.	Investitsiya maslahatchilari	
2.	Transfer-agentlar	50
3.	Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari	100
4.	Investitsiya vositachilari (brokerlar, dilerlar)	250
5.	Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdolari tashkilotchilari	1000

Izoh. *Investitsiya fondlari uchun o'z mablag'larining eng kam miqdori belgilanmagan.

Litsenziya talabgoriga uning arizasiga binoan qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni yoki mazkur faoliyat turining bir qismini amalga oshirish uchun litsenziya berilishi mumkin. Litsenziya talabgori bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga litsenziya berilganligi uchun davlat boji va litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im to'lashdan ozod qilinadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borish uchun belgilangan cheklolar hisobga olingan holda beriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari to'g'risida ma'lumot

(07.09.2020) holatiga

T/r	Ishtirokchilar turi va lisenziyalar	Soni
1	Professional ishtirokchilar	67
2	Lisenziyalarning umumiy miqdori	124
	<i>shundan:</i>	
2.1	investisiya maslahatchisi	43
2.2	investisiya vositachisi	40
2.3	investisiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi	32
2.4	investisiya fondi	8
2.5	qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi	1

Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi bo'lgan kamida ikki xodimga ega yuridik shaxslargina (investisiya fondi bundan mustasno) qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi besh yil muddatga beriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Chet el tashkiloti tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yangi yuridik shaxsni — qimmatli qog'ozlar

bozorining professional ishtirokchisini tashkil etish yoxud faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxsning — qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining ustav kapitalida ishtirok etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya fondining faoliyati boshqa turdagi faoliyat bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin emas.

Transfer-agent investitsiya vositachisining va qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining professional faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Professional faoliyatni birga qo'shib olib borish va qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishga doir qo'shimcha cheklovlar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Investitsiya vositachisi

Mijozning topshirig'iga binoan, mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi **investitsiya vositachisidir.**

Investitsiya vositachisi mijozlarining qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari, agar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, investitsiya vositachisining o'z hisobvaraqlaridan alohida hisobvaraqlarda turishi kerak.

Investitsiya vositachisi har bir mijozning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari hisobini yuritishi, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirishi, tuzilgan bitimlar va amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida unga hisobot berishi shart.

Investitsiya vositachisi mijozlarning qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishga buyurtma berish, o'tkazish borasidagi topshiriqlarini vijdonan hamda ularning kelib tushishi tartibida bajarishi kerak. Mijozlarning topshirig'iga binoan amalga oshiriladigan bitimlar investitsiya vositachisining o'z dilerlik operatsiyalariga nisbatan ustun ravishda bajarilishi kerak.

Agar investitsiya vositachisi tomonidan tegishli topshiriq olinguniga qadar investitsiya vositachisi va uning mijozi o'rtasidagi mijoz xabardor qilinmagan manfaatlar to'qnashuvi mijozga zarar etkazilishiga olib kelsa, investitsiya vositachisi zaraming o'rmini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplashi shart.

Investitsiya vositachisi tomonidan investitsiya vositachisi sifatidagi faoliyatni to'xtatib turish, tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan yoki u tugatilgan taqdirda, tegishli axborot qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran ikki ish kuni ichida ommaviy axborot vositalarida va fond birjasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Investitsiya vositachisi sifatida o'z faoliyatini to'xtatib turayotgan, tugatayotgan yoki tugatilayotgan investitsiya vositachisida hisobi yuritilayotgan qimmatli qog'ozlar mijozning qaroriga ko'ra bir haftalik muddatda boshqa investitsiya vositachisiga o'tkaziladi, bunday qaror mavjud bo'lmagan taqdirda esa, qimmatli qog'ozlarning egasi tanlagan investitsiya vositachisiga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan muddatlarda keyinchalik o'tkazish uchun Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga (faoliyatni to'xtatib turish hollari bundan mustasno) o'tkaziladi.

Yuridik shaxsni — investitsiya vositachisini tugatish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi (hozirda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi) tomonidan ("Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 26-moddasi 6- qismida ko'rsatilgan harakatlar yakunlaganini yozma ravishda tadiqlagandan keyingina) amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiya vositachisi depozitar operatsiyalarni amalga oshirayotganda:

- manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni va pul mablag'larini hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;
- deponentlarning har biriga tegishli qimmatli qog'ozlarning soni va nominal qiymati hisobini yuritishi;
- qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;
- qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzish va mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar bajarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;
- depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag'idan tegishli ko'chirma bergan holda tasdiqlashi;

- mijozlarning hisobvaraqlaridagi qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larining mavjudligi va harakati, ularning holati to'g'risidagi axborotning maxfiyligini ta'minlashi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turishi;

- o'z faoliyatiga taalluqli ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, davlat soliq xizmati organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining yozma talablariga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan doirada va tartibda taqdim etishi;

- o'zi yetkazgan zararining o'rmini qoplash maqsadida kafolat fondini shakllantirishda ishtirok etish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni sug'urta qilish yo'li bilan qoplash imkoniyatini nazarda tutishi;

- qimmatli qog'ozlar egalarining reestrini shakllantirish uchun zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlarning egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining talabiga ko'ra taqdim etishi;

- o'zida hisobga olinadigan qimmatli qog'ozlar va ularning emitentlari rekvizitlariga Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan olingan ma'lumotlar asosida o'zgartirishlar kiritishi shart.

Investitsiya vositachisining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Investitsiya vositachisi tomonidan mijozlarning pul mablag'larini hisobga olish va ularning but saqlanishini ta'minlash tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Investitsiya maslahatchisi

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi masalalari, qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari holatini tahlil etish hamda istiqbolini belgilash bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarini qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs **investitsiya maslahatchisidir.**

Investitsiya fondi

Investorlarning pul mablag'larini va qo'yilmalarini investitsiya aktivlariga jalb qilish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs — **aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir.**

Investitsiya fondi yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o'zgartirilishga haqli emas. Investitsiya fondini qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalga oshirish uchun investitsiya fondiga berilgan litsenziyaning amal qilishini tugatish yoki uni bekor qilish investitsiya fondining belgilangan tartibda tugatilishiga olib keladi.

Investitsiya fondi quyidagi huquqlarga ega emas:

- korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini, shuningdek imtiyozli aksiyalarni chiqarish;
- fond sof aktivlarining 10 foizidan ortig'ini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatning ulushiga investitsiyalash;
- to'lanishi lozim bo'lgan qarzning jami hajmi kredit va (yoki) qarz bitimi imzolanadigan sanadagi holatga ko'ra investitsiya fondi sof aktivlari qiymatining 15 foizidan oshib ketgan taqdirda kredit va (yoki) qarz mablag'larini jalb etish. Kredit va (yoki) qarz muddati uch oydan oshib ketmasligi kerak;
- kafil bo'lish, mol-mulkn yoki mulkiy huquqlarni garovga qo'yish;
- tashkiliy-huquqiy shakli o'z ishtirokchilarining qo'shimcha javobgarligini nazarda tutadigan yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni amalga oshirish;
- investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi, auditorlik tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni amalga oshirish;
- boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini olish va ularga ega bo'lish;
- umumiy summasi fond sof aktivlarining 10 foizidan ortiq investitsiyalarni amalga oshirish, bundan qimmatli qog'ozlarga qo'yish mustasno.

Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchisi

Yuridik shaxsning — ishonchli boshqaruvchining o'ziga egalik qilish uchun topshirilgan va boshqa shaxsga tegishli bo'lgan:

- qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan qimmatli qog'ozlarni;

- qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan va investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan pul mablag'larini shu shaxsning yoki u ko'rsatgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab, o'z nomidan ishonchli boshqaruvni belgilangan muddat mobaynida amalga oshirishi **investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatdir.**

Transfer-agent

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish tizimiga taalluqli hujjatlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va ularning o'tkazilishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs **transfer-agentdir.**

Emitent, shuningdek qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzuvchi shaxslar transfer-agentning mijozlaridir.

Transfer-agent emitentga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga haqlidir.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi

Investorlarga vositachilarni jalb etmay turib savdoda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha faoliyatni buyurtmalar qabul qilish punktlaridan, maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiruvchi yuridik shaxs **qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisidir.**

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyatini amalga oshirish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha pul mablag'larining hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblar Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va (yoki) investitsiya vositachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi qimmatli qog'ozlar bozorida o'zlari amalga oshirayotgan barcha operatsiyalar va bitimlarning hisobini yuritadi, ularni hisobga olishga doir hujjatlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi va uning mijozlari munosabatlari qonun hujjatlari hamda shartnoma bilan tartibga solinadi.

Mijozlar hisobidan bitimlar tuzish mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida faqat investitsiya vositachisi va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiya vositachisi uzaytirish imkoniyati bilan bir yil uchun tuziladigan shartnoma asosida mijozlarga:

- mijozning nomidan va hisobidan brokerlik xizmatlari;
- o'z nomidan, lekin mijozning hisobidan brokerlik xizmatlari;
- depozitar xizmatlar ko'rsatadi.

Investitsiya vositachisi mijozlarga depo hisobvaraqlari ochishga, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish uchun ularning topshiriqlarini qabul qilishga, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda mijozlarga elektron shaklda va o'zga aloqa vositalari orqali boshqa xizmatlarni ko'rsatishga haqli.

5.4. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida va (yoki) investitsiya vositachisida ochiladigan qimmatli qog'ozlar egalarining depo hisobvaraqlarida amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Investitsiya vositachisi o'z mijozlarining hisobvaraqlarida uning Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidagi hisobvaraqlarida jamlab hisobga olib boriladigan hujjatsiz qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi.

Hujjatsiz qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar oluvchiga uning depo hisobvarag'i bo'yicha tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Nettingdan foydalanilganda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar o'tishining o'ziga xos xususiyatlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Egasining nomi yozilgan hujjatli qimmatli qog'ozga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga qimmatli qog'oz blankasiga belgilangan tartibda tegishli yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi.

Qimmatli qog'oz bilan tasdiqlanadigan huquqlar ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran oluvchiga o'tadi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi hamda faoliyatini xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar va boshqa tushumlar hisobidan amalga oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi xizmatlari uchun tariflarning miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining mutlaq vazifalari quyidagilardan iborat:

- qimmatli qog'ozlarni hisobga qo'yish;
 - hujjatli qimmatli qog'ozlarni saqlash;
 - qimmatli qog'ozlar chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni saqlash;
 - qimmatli qog'ozlar egalarining reestrlarini yuritish;
 - davlatning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini, shuningdek qimmatli qog'ozlarni boshqarish bo'yicha davlat vakolat bergan shaxslarning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish;
 - investitsiya vositachilarining depo hisobvaraqlarini yuritish;
 - qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblarni belgilangan tartibda amalga oshirish;
 - O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish;
 - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish;
 - agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish;
 - Deponentlarning yagona bazasini yuritish;
 - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarga xalqaro kodlarni berish;
 - depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati to'g'risidagi axborotni to'plash va tizimlashtirish.
- Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qimmatli qog'ozlar egalarining reestrlarini yuritishga doir vazifalarini bajarayotganda investitsiya vositachilaridan mazkur reestrlarni shakllantirish uchun zarur ma'lumotlarni so'rash va olishga haqli.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi:

- manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida saqlash va hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;

- saqlash uchun qabul qilib olingan hujjatli qimmatli qog'ozlarning but saqlanishini ta'minlashi;

- o'zining har bir deponentiga tegishli qimmatli qog'ozlar sonining va nominal qiymatining hisobini yuritishi;

- qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;

- o'z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;

- o'z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- o'z deponentining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag'idan tegishli ko'chirma bergan holda tasdiqlashi;

- depo hisobvaraqlari bo'yicha qimmatli qog'ozlarning mavjudligi va harakati, holati to'g'risidagi axborotning maxfiyligini ta'minlashi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- o'z deponentining depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turishi;

- o'z faoliyatiga taalluqli ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, davlat soliq xizmati organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining yozma talablariga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan doirada hamda tartibda taqdim etishi shart.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qimmatli qog'ozlar egalarining reestrlarini yuritish vazifasini bajarayotganda:

- qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan reestrlarini saqlashi;

- qimmatli qog'ozlar egalarining reestrlaridagi mavjud axborotni qonunchilikka muvofiq taqdim etishi;

- qimmatli qog'ozlar egalarining reestrlaridagi mavjud axborotning maxfiyligini ta'minlashi shart.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining zimmasida qimmatli qog'ozlar egalarining reestrlarini yuritish vazifasini bajarayotganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi:

- o'ziga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlardan foydalanishga;

- boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatishga;

- boshqa yuridik shaxslarning ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Deponent quyidagi huquqlarga ega:

- o'z depo hisobvarag'idagi qimmatli qog'ozlarni qonun hujjatlarida belgilangan doirada va tartibda tasarruf etish;

- investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga o'z depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni bajarish yuzasidan topshiriqlar berish (uchinchi shaxslar oldida majburiyatlar yuklatilgan qimmatli qog'ozlarni qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatish tugallanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmasdan o'tkazishga doir farmoyish bundan mustasno), so'rovlar kiritish, topshiriqlar bajarilganligi to'g'risida hisobot talab qilish;

- hujjatsiz va harakatsizlantirilgan hujjatli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqini hamda boshqa ashyoviy huquqlarni hisobga olishni investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshirish;

- shartnoma shartlariga muvofiq o'z depo hisobvarag'ining holati haqida ko'chirma va o'z depo hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risida hisobot olish.

Deponent qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Deponent:

- o'z vakolatli shaxsining vakolatlari tugatilganligi yoki o'zgartirilganligi to'g'risida investitsiya vositachisini va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini xabardor qilishi;

- o'z rekvizitlaridagi barcha o'zgarishlar haqida investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga xabar berishi;

- investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi yozma xabarlarining to'g'riligi va to'liqligini tekshirishi hamda aniqlangan noaniqliklar haqida ularga o'z vaqtida xabar berishi shart.

Deponentning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Hujjatli qimmatli qog'ozlarning but saqlanishi ularning egalari tomonidan, ular Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshirilgan taqdirda esa mazkur depozitariy tomonidan qimmatli qog'ozlarni saqlash joylarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq ta'minlanadi. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida saqlanadigan va hisobga olinadigan qimmatli qog'ozlarning but saqlanishi texnik tizimda nosozliklar yuzaga kelganda va kutilmagan vaziyatlar ro'y bergan taqdirda, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlar axborot bankining qo'shimcha saqlab turish va tezkor tiklash tizimi orqali ham ta'minlanadi.

Hisobga olish registrlaridagi elektron yozuvlarning but saqlanishini ta'minlash tartibi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan birgalikda belgilanadi.

Nazorat savollari

1. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, joylashtirish va ularning muomalasini tashkil etish
2. Qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi va uning shakllari.
3. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilish.
4. Korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish shartlari.
5. Aksiyalarga doir opsiyonni chiqarish shartlari.
6. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish.
7. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish.
8. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yig'im.
9. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri.

10. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini to'xtatib turish, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topish.

11. Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish.

12. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi shartlari.

13. Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish.

14. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish.

15. Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyati

16. Investitsiya vositachilari faoliyati

17. Investitsiya maslahatchilari faoliyati

18. Investitsiya fondi

19. Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi faoliyati

20. Transfer-agent

21. Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyati

VI-BOB. FOND BIRJASI, UNING TASHKIL TOPISHI, TARKIBIY TUZILMASI VA FAOLIYATINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

6.1. O'zbekistonda fond birjasining vujudga kelishi va "Toshkent" Respublika fond birjasining tashkil topishi

O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuniga ko'ra fond birjasi — ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs.

Fond birjasi qimmatli qog'ozlar bilan birja faoliyatini yuritish uchun lisenziyaga ega bo'lishi kerak. Fond birjalarining muassislari bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (lisenziyaga) ega bo'lgan yuridik va jis moniy shaxslar qatnashishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari, ularning xodimlari va mutaxassislari birjalarning muassislari sifatida ishtirok etishi mumkin emas.

Fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar quyidagi asosiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- birja savdolarining ishtirokchilari, shuningdek, birja xizmatkorlari tomonidan qonunchilik va birja qoidalariga qat'iy rioya qilinishi;
 - birja savdolarining barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratilishi;
 - birja savdolari o'tkazilishini oldindan belgilangan joy va yil bilan reglamentlash yo'li orqali ushbu savdolarning regla mentlanishini ta'minlash;
 - tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligi;
 - amalda yuzaga kelgan talab va taklif asosida narxni belgilash;
 - birja savdolariga ruxsat etilgan qimmatli qog'ozlar haqidagi ishonchli va to'liq ma'lumotlarni zudlik bilan e'lon qilish hamda birja savdolari ishtirokchilarini birja bitimlarining narxlari to'g'risida xabardor qilish;
 - qonun yo'li bilan talab etiladigan birja axborotini taqdim etish va e'lon qilish;
 - tovlamachilik, narxlar bilan nayrangbozliklar qilinishi, qasddan noto'g'ri axborot berilishining taqiqlanishi va ta'qib qilinishi va h.k.
- Birjada quyidagilar taqiqlanadi:
- qalbaki, sun'iy qisqa muddatli bitimlarning tuzilishi;

- monopoliyaga qarshi siyosatni yuritishga vaqil etilgan organ bilan oldindan kelishuvlarsiz bir–birining mulkini nazorat qiluvchi bir shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan biror–bir emitent aksiyalarining 35 va undan ortiq foizini ta'minlovchi yoki aksiyadorlar ovozlarining 50 foizidan ortig'ini ta'minlovchi aksiyalarni harid qilish hamda bitimlarni ro'yxatga olish;

- bir shaxs tomonidan bevosita yoki baholar kotirovkasiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan soxta shaxs orqali qimmatli qog'ozlarni sotib olish (sotish) bo'yicha ko'lamli bitimlarning tuzilishi;

- qimmatli qog'ozlar bozori qon'yunkturasing sun'iy ravishda o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yolg'on xabarlarini tarqatish va qimmatli qog'ozlar bilan savdolar qilishning asosiy tamoyillariga hamda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan boshqa harakatlar.

Fond birjalari o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar jumlasiga kiradi. Bu shuni anglatadiki, birjalar qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolari qoidalarini, birjaning tarkibiy tuzilmalari, ularni a'zolarining ishini tartibga soluvchi hujjatlarni mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, biroq bularning barchasi qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari doirasida amalga oshirilishi lozim. Xususan, birja operatsiyalarining qoidalari majburiy tartibda quyidagi ta'riflarni nazarda tutishi kerak:

- muayyan birjada qimmatli qoyuzlar bilan savdo–sotiq qilish tamoyillari;

- birja savdolari ishtirokchilarining tarkibi va ularga nisbatan qo'yiladigan talablar; birja yig'ilishlarining joyi va yili haqida axborot;

- qimmatli qog'ozlarning birja savdolariga ruxsat etilishi tartibi;

- birja bitimlari;

- mijozlarning brokerlarga topshiriqnomalari (buyruqlari)ning turlari;

- savdolarini tashkil etish;

- bitimlarni ro'yxatga olish va rasmiylashtirish tartibi;

- bitimlarni tuzishda foydalaniladigan shartnomalar, arizalar, hisobotlar, xabarnoma shakllari va boshqa birja hujjatlarining namunalari.

Birja savdolarining ichki qoidalari, birjaning ustavi majburiy tartibda O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi organ bilan kelishilishi zarur.

O'z vazifalarini bajarish uchun fond birjalari:

- birja a'ziligiga kirish uchun zarur bo'lgan investisiya muassasalariga nisbatan qo'yiladigan majburiy talablarni belgilashi;

savdolarida birja a'zolarining vakillariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilashi;

- ekspert, malaka, kotirovka, bahslarni hal etish uchun nizolar bo'yicha komissiya, maslahat va ma'lumotnomalar byurosini tashkil etishi;

- kirish va joriy a'zolik badallari, bitimlarni ro'yxatga olish, texnik xizmatlar, birjaga doimiy va bir martalik kelib ketuvchilarning tashrifi uchun to'lovlarni belgilashi va undirib olishi;

- ustavni, savdolar qoidalarini buzganlik uchun, ro'yxatga olish yig'imlarini o'z yilida to'lamaganlik uchun jarimalarni undirib olishi;

- birja qo'llanmalari, ma'lumotnomalari, to'plamlarini nashr qilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida birja faoliyati fond birjasining maxsus faoliyat turi bo'lganligi bois, qonunchilik bilan uning daromad manbalari qat'iy reglamentlangan. Chunonchi, birja faoliyatini moliyalash o'z aksiyalarini, paylarini, brokerlik joylarini sotish, muntazam a'zolik badallari, birja bitimlarini ro'yxatga olishdan tushgan yirimlar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda vositachilik qilganlik uchun vositachilik haqlari, shuningdek, axborot va ayrim boshqa xizmatlardan olingan daromadlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekistonda fond birjasining vujudga kelishi

1991 yilning bahorida O'zbekiston hukumatining qarori bilan respublikaning eng yangi tarixida birinchi "Toshkent" O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi tashkil etildi. O'sha yilning yoziga kelib u tovar seksiyasida savdolarini o'tkaza boshladi, qag'iy davlat narularining belgilanishi amaliyotidan voz kechishni nazarda tutgan bozor munosabatlariga o'tish, har bir korxonaga qat'iy belgilangan xom-ashyo yetkazib beruvchilar va maxsulot iste'molchilariga ega bo'lgan sobiq Sovet Ittifoqi rejali iqtisodietining O'sha davrda barbod bo'la boshlaganligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlari uchun eng ma'qul bo'lgan xomashyo yetkazib beruvchilar hamda maxsulot iste'molchilarini mustaqil ravishda topa oladigan yangi iqtisodiy vositani barpo qilish zaruratini keltirib chiqardi. Tez orada yuz bergan sobiq SSSRning tarqalib ketishi davlat tomonidan tartibga solinadigan muayyan qoidalar bo'yicha tashkil etilgan mustaqil ichki bozorni jadallik bilan yuzaga keltirishning maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqladi. Dastlab birja mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida barpo etildi. Qator vazirliklar, idoralar, respublikaning yirik korxonalari uning ishtirokchilari bo'lishdi. Birjaning ustav fondi 10 mln. rublni tashkil etdi. Biroq, 1991 yil bahor oylarining

oxiri va yoz oylarining boshida birja savdolarining shiddat bilan o'sishi birja ustav sarmoyasining oshirilishi, uning ishtirokchilari tarkibining kengaytirilishi zaruratini keltirib chiqardi O'sha yilning avgustida "O'zbekiston tovar-xom ashyo birjasi" mas'uliyati cheklangan jamiyat "Toshkent" O'zbekiston respublika universal tovar-fond birjasi (qisqartirilgan nomi - "Toshkent" birjasi)ga aylantirildi va uning tarkibida qimmatli qog'ozlar bozorining dastlabki rasmiy tashkiloti - Fond bo'limi ochildi Fond bo'limi zimmasiga qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozorini tashkil etish (fond boyliklari bilan birja savdolarini tashkil qilish), birjaning brokerlik o'rinlarini sotish, birjaning ustav sarmoyasini shakllantirish maqsadida uning aksiyalarini joylashtirish vazifalari yuklatildi.

1991 yilning sentyabrida Biznes milliy universiteti bazasida "Toshkent" birjasi "Aksiyalashtirish. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar" maxsus o'quv kursini tashkil etdi. Savdo zalining fond seksiyasida ishlashni xoxlovchi barcha brokerlar ushbu kursda o'qishlari lozim edi. Bir yilning o'zida Fond bo'liminint tarkibi shakllandi. Brokerlik joyining narxi 100 ming rublni tashkil etdi. O'sha yilning ko'z oylari mobaynida me'eri y xujjatlar paketini ishlab chiqish bo'yicha jiddiy ishlar olib borildi va bu ishlar 1992 yilning boshiga kelib tugatildi O'sha yilda "Toshkent" birjasi Fond bo'limi to'g'risida, brokerlik joyi to'g'risida, Fond bo'limining a'zolari to'g'risida, Ekspert, Malaka, Kotirovka, Nizolar bo'yicha komissiyalar to'g'risida tasdiqlangan nizomlarga va eng asosiysi boshqa respublikalar, shuningdek, g'arbiy Yevropa davlatlari hamda AQSh fond birjalari tajribalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalariga ega edi.

1992 yilning yanvarida "Toshkent" birjasining Fond bo'limi respublikada birinchi bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan muntazam savdolarini o'tkazishga kirishdi. O'sha 1992 yilda "Toshkent" birjasi Fond bo'limining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha aylanmasi 26 mln. rublni tashkil qildi, bu Rossiyani dongdor fond birjalarining xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadigan darajada edi. Savdolarga banklarning aksiyalari, turli birjalarning fond boyliklari toifasiga kiritiladigan brokerlik joylari, shuningdek, ishlab chiqarish tijorat yo'nalishidagi dastlabki aksiyadorlik jamiyatlarining paydo bo'la boshlagan aksiyalari qo'yildi. Fond bo'limi O'sha yilda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining faoliyatini tartibga soluvchi me'eri y xujjatlar bo'lmagan sharoitda va o'zi yaratgan qoidalar asosida ish olib

bordi Fond bozorining respublika miqesidagi dastlabki yirik muassasasi bo'lgan Fond bo'limi nafaqat dastlabki emitentlar va sarmoyadorlarning, balki Moliya vazirligining ham e'tiborini tortdi Moliya vazirligi O'sha yil endigina fond bozoriga nisbatan o'z munosabatini belgilay boshlab, uni tartibga solishga urinib ko'rdi.

Ayni paytda birjalarning soni asta-sekin o'sib bordi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, faqat O'zbekistonning o'zida 1992 yilning yoziga kelib ularning soni 36 taga yetdi. Respublikada qabul qilingan "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonun birjalarga nisbatan zarur majburiy talablarni belgilagan holda, ularning faoliyatiga sezilarli o'zgartirishlar kiritdi. Qonunga binoan birjaning ustav fondi 50 mln. rubldan kam bo'lmasligi lozim edi. Birjalar hech qanaqa tijorat tuzilmalarini tashkil qilishi mumkin emas edi. Vazirliklar, idoralar, davlat qo'mitalari va shu kabi tashkilotlar birjaning muassislari bo'lishi mumkin emas edi. Ustav sarmoyasining miqdoriga ko'ra "Toshkent" birjasi qonunchilik talablariga javob berdi. Biroq O'sha yilda bu birja ancha nomdor bo'lgan gijorat tuzilmalari katta miqdorining asosiy ta'sischi bo'lib, bir necha yirik vazirliklar va idoralar birjani o'zining muassisi edi Bu birjalar to'g'risidagi yangi qonunga zid keldi 1992 yilning oxirida "Toshkent" birjasi "O'zbekinvest" – O'zbekiston moliya–investisiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi va u yangi birja – "Toshkent" O'zbekiston Respublikasi tovar–fond birjasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatning muassisi bo'lib qatnashdi. Yangi birjaning tarkibida Fond bo'limi tashkil etilib, bu bo'lim tashkiliy–me'eriyl jihatdan hech bir o'zgarishlarga duch kelmadi. Yangi birja amaldagi qonunchilikning barcha talablariga javob berdi. Ta'sis xujjatlarining shartlariga ko'ra eski birjaning barcha a'zolari to'g'ridan–to'g'ri yangi birjaning a'zolari maqomini oldi.

Fond bo'limining "solnoma"sida quvonchli va ayanchli saxifalarni uchratish mumkin. Biroq O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining tarixidan u joy oldi, chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil yanvardagi Farmoniga muvofiq, 1994 yil 8 aprelda uning negizida uning nomini, avvalgi belgisini – bir o'rkachli tuya (matonatlilik va chidamlilik ramzi), fond birjalari faoliyat ko'rsatishining mumtoz tamoyillariga asoslangan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalariga amal qilish an'analarini saqlab qolgan "Toshkent" Respublika fond bijasi tashkil etildi.

O'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab birja tarmoq dasturiy maxsulotlarini yaratishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni jalb etish bilan

savdolarning elektron birja tizimini barpo etish, shuningdek, aksiyalashtirish va aksiyalarni harid qilish orqali mablag'larni milliy iqtisodiyotga investisiya qilishni tashviq etish bo'yicha faol ishlarni boshlab yubordi.

Barcha fond birjalarida bo'lgani kabi, savdolarda ishtirok etish uchun faqat Moliya vazirligining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus lisenziyasiga ega bo'lgan birja a'zolariga ruxsat etiddi. Faoliyatining dastlabki yilida "Toshkent" RFB o'z qo'l ostiga 250 nafar a'zolari, shu jumladan, AQSh, Germaniya, Rossiya, Pokiston davlatlarining vaqillarini birlashtirdi, ularning deyarli to'rt dan bir qismini xususiy shaxslar tashkil etdi. Birja a'zoligiga kirish shartlari brokerlik joyining sotib olinishini va muntazam a'zolik badallarining to'lanishini nazarda tutdi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish qoidalarida savdolarda birjada ro'yxatga olingan har bir brokerlik idorasidan uning to'rtta vaqili ishtirok etishiga ruxsat berildi, ushbu vaqillardan ikkitasi bitimlarni tuzishda imzo chyokish xuquqiga ega edi. Sarmoyadorlar va jamoatchilik narxlar kotirovkasi to'g'risidagi axborotni informasion lavxa va birja axborot byulletenlari yordamida olishi mumkin edi. Umumiy va maxsus birja xizmatlaridan tashqari, fond birjasi doirasida malaka, ekspert, kotirovka, nizolar bo'yicha komissiyalar va makleriat faoliyat ko'rsatdi. Malaka komissiyasi brokerlarning malakasini va ularga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish uchun ruxsat etilishi mumkinligini belgilab berar edi. Kotirovka komissiyasi qimmatli qog'ozlar kotirovkasini o'tkazish bilan birga, birja axborot byulleteklarini tuzar edi. Nizolar bo'yicha komissiya esa, savdolar o'tkazilishi yilida yuzaga kelgan tortishuvlarni, shuningdek, bitim tuzilganidan keyin, birja shartnomalarining bajarilishi jarayonida sodir bo'lgan bahslarni xal qilib berardi. Makleriat savdolarni tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish ishlarining bajarilishini ta'minlab turdi.

O'sha yilda Ekspert komissiyasi alohida rol o'ynadi. Ya'ni u aksiyalarga ekspert bahosini berish bilan birga, ularning kotirovkaga va birja savdolariga kiritilishiga ruxsat etilishini amalga oshirdi. "Toshkent" Respublika fond birjasida savdolar o'tkazishning qoidalariga binoan, barcha emitentlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va investision jozibadorligi puxta tahlil qilinib, uning natijalariga ko'ra ekspert komissiyasi mazkur emitentning aksiyasini savdolarga taqdim etilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxatiga kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qilardi.

1995 yilda "Toshkent" RFB Andijon, Samarqand, Buxoro shaharlarida, keyinchalik esa respublikaning boshqa viloyatlari markazlarida o'zining shu'ba bo'linmalari tarmoqlarini tashkil etdi. Bu bo'linmalar mintaqalarda birjaning manfaatlarini namoyon qilish, brokerlik joylarini mustaqil ravishda sotish va bitimlarning mahalliy ishtirokchilari tomonidan to'lanadigan vositachilik yig'imlaridan tushadigan daromadlarning bir qismiga egalik qilish xuquqini qo'lga kiritishdi. 1995 yilning yezida birja savdolarini o'tkazish tizimi tubdan o'zgardi. Fond birjasining viloyatlardagi hududiy bo'linmalarining soni o'sishi munosabati bilan savdolar Toshkent shaxridagi Markaziy telegrafda buning uchun maxsus jihozlangan aniq yil mobaynidagi selektor so'zlashuvlar zalida o'tkazila boshlandi. Selektor tizim tufayli savdolarida respublikaning deyarli barcha viloyatlari brokerlari ish tirok etishdi. Bunda birjaning mintaqaviy bo'linmalari mintaqadagi savdolar ishtirokchisining bitimni tuzish bo'yicha amaldagi harakatini tasdiqlovchi savdolar tashkilotchisi rolini bajardi.

1996 yilning mart-aprel oylarida "Toshkent" Respublika fond birjasi o'z joyini o'zgartirdi va yangi binoda faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu yilga kelib Birja savdolarining elektron tizimini yaratish bo'yicha ishlar tugatilib, 1996 yilning bahoridayoq birja uning mintaqaviy bo'linmalaridagi maydonchalarining terminallarini qo'shish bilan bevosita asosiy savdo zalidagi 84 ta terminaldan foydalangan holda aniq yil mobaynida savdolarini o'tkaza boshladi.

Hozirga kelib birja zamonaviy elektron tizimga ega savdo maydonchasiga aylangan.

O'sha yilda Ekspert komissiyasi alohida rol o'ynadi. Ya'ni u aksiyalarga ekspert bahosini berish bilan birga, ularning kotirovkaga va birja savdolariga kiritilishiga ruxsat etilishini amalga oshirdi. "Toshkent" Respublika fond birjasida savdolar o'tkazishning qoidalariga binoan, barcha emitentlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va investision jozibadorligi puxta tahlil qilinib, uning natijalariga ko'ra ekspert komissiyasi mazkur emitentning aksiyasini savdolariga taqdim etilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxatiga kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qilardi.

1995 yilda "Toshkent" RFB Andijon, Samarqand, Buxoro shaharlarida, keyinchalik esa respublikaning boshqa viloyatlari markazlarida o'zining shu'ba bo'linmalari tarmoqlarini tashkil etdi. Bu bo'linmalar mintaqalarda birjaning manfaatlarini namoyon qilish, brokerlik joylarini mustaqil ravishda sotish va bitimlarning mahalliy

ishtirokchilari tomonidan to'lanadigan vositachilik yig'implaridan tushadigan daromadlarning bir qismiga egalik qilish xuquqini qo'lga kiritishdi. 1995 yilning yezida birja savdolarini o'tkazish tizimi tubdan o'zgardi. Fond birjasining viloyatlardagi hududiy bo'linmalarining soni o'sishi munosabati bilan savdolar Toshkent shaxridagi Markaziy telegrafda buning uchun maxsus jihozlangan aniq yil mobaynidagi selektor so'zlashuvlar zalida o'tkazila boshlandi. Selektor tizim tufayli savdolar respublikaning deyarli barcha viloyatlari brokerlari ish tirok etishdi. Bunda birjaning mintaqaviy bo'linmalari mintaqadagi savdolar ishtirokchisining bitimni tuzish bo'yicha amaldagi harakatini tasdiqlovchi savdolar tashkilotchisi rolini bajardi.

1996 yilning mart-aprel oylarida "Toshkent" Respublika fond birjasi o'z joyini o'zgartirdi va yangi binoda faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu yilga kelib Birja savdolarining elektron tizimini yaratish bo'yicha ishlar tugatilib, 1996 yilning bahoridayoq birja uning mintaqaviy bo'linmalaridagi maydonchalarining terminallarini qo'shish bilan bevosita asosiy savdo zalidagi 84 ta terminaldan foydalangan holda aniq yil mobaynidagi savdolarini o'tkaza boshladi.


Hozirga kelib birja zamonaviy elektron tizimga ega savdo maydonchasiga aylangan.

6.2. "Toshkent" Respublika fond birjasining tarkibiy tuzilmasi

"Toshkent" Respublika fond birjasi ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilganligi tufayli uni boshqarish organlarining tarkibi o'ziga xos xususiyatga ega. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi boshqaruvning oliy organi hisoblanadi, bu faqat investisiya muassasalari bo'lishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari oralig'idagi davrda birjani boshqarish bilan Kuzatuv kengashi shug'ullanadi. Kengashning a'zolari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Birjaning joriy faoliyatini boshqarishni birja a'zolaridan tarkib topgan Boshqaruv amalga oshiradi, unga Rais boshchilik qiladi. Boshqaruv faoliyatini tekshiruvchi organ Taftish komissiyasi bo'lib, uning xulosalarisiz aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Boshqaruvning yillik hisobotini tasdiqlash xuquqiga ega emas.

"Toshkent" RFBning barcha funksional bo'linmalarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh - bu oddiy korxonalariga xos bo'linmalardir. Bunga quyidagilar kiradi: ishlar boshqarmasi, birjaga to'lanishi lozim bo'lgan yirimlar va to'lovlarning o'z yilida kelib tushishini nazorat qiluvchi hisob-kitob to'lovining moliya boshqarmasi, huquqiy boshqarma, nashriyat xizmati, ommaviy axborot vositalari bilan

ishlash xizmati va tashqi aloqalar xizmati bilan axborot boshqarmasi. Mazkur bo'linmalarning vazifalari barchaga ma'lum, ya'ni istalgan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning vazifalari bilan bir xil. Ikkinchi guruh – bu muayyan birja xususiyatlariga ega bo'lgan faqat fond birjalariga xos bo'lgan bo'linmalar.



“Toshkent” Respublika fond birjasining tashkiliy tuzilmasi⁶
Tahlil va istiqbolli rivojlantirish boshqarmasi vazifalari
quyidagilardan iborat:

⁶ www.uzse.uz sayti ma'lumotlari.

Birja faoliyati to'g'risida, Birjadan ro'yxatdan o'tgan investision institutlar to'g'risida, shuningdek boshqa davlatlarning fond birjalari to'g'risida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.

O'tkazilgan savdo sessiyalari to'g'risida sifatli elektron ma'lumotlar bazasini yuritish va doimiy ravishda uni to'ldirib borish.

Rahbariyatni, Birja bo'limlari, manfaatdor tuzulma va idoralarni Birjada o'tkazilgan savdo sessiyalari to'g'risidagi tahliliy-informasion materiallar bilan ta'minlash.

Fond bozori va investision institutlar bo'yicha tahliliy va statistik tadqiqotlar o'tkazish va ular asosida raqamli-grafik hamda statistik ko'rsatgichlarni ishlab chiqish.

Birja mutaxassislarining ommaviy axborot vositalarida chiqishlari uchun tahliliy materiallarni tayyorlashni tashkillashtirish.

Birja rasmiy veb-saytida joylashtirish uchun joriy kalendar yili uchun Birja faoliyati to'g'risidagi oylik byulleten va tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash.

Qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish va tahlil qilish asosida Birja rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.

Birja savdo aylanmalari miqdorini oshirish borasida tafsiyalarni ishlab chiqish.

Birja faoliyati samaradorligini oshirish borasida tafsiyalar ishlab chiqish.

Kelajakda yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish yo'li va fond bozoriga yangi ishtirokchilarni qo'shimcha jalb qilish mexanizmi bilan birjani o'rtacha muddatda rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.

Fond bozorini rivojlantirish darajasigi ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va fond bozorini normativ-huquqiy tartibga solinishini baholash.

Birjaning infratuzilmaviy ishtirokchilari faoliyatini, fond bozor kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilish, hamda bo'lishi mumkin bo'lgan tavsikalchiliklar va rivojlanish darajalarini baholash.

Investision dasturlarni ishlab chiqish.

Birjaning kelajakdagi rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

Birja faoliyati standartlarini takomillashtirish va ishlab chiqish borasida yagona birja siyosatini olib borish, ularni jahon standartlariga yaqinlashtirish.

O'zbekiston bozorida qimmatli qog'ozlar muomalasining xalqaro amaliyotini joriy etish dasturini ishlab chiqish.⁷

⁷ www.uzse.uz ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Hisob-kitob kliring palatasi vazifalari quyidagilardan iborat:

Fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar bo'yicha zarog hisob-kitoblarning to'liq va o'z vaqtida o'tishini ta'minlash;

Qimmatli qog'ozlar bozorida bitimlar tuzilish jarayonida to'lanmay qolinish va kechikib qolinishini oldini olish;

Amalga oshirilgan bitimlar natijasini tezkor umumlashtirish va qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarini bozor kon'yukturasining joriy holati to'g'risida xabardor qilish.

Amalga oshirilgan bitimlar natijalarini tezkorlik bilan umumiyashtirish va bozor kon'yunkturasi joriy xolati bilan bozor ishtirokchilarini xabardor etish.⁸

Birja nazorati va birja a'zolari bilan o'zaro aloqalar bo'limi vazifalari quyidagilardan iborat:

Savdo tizimining maxsus modulini ishlatgan holda bija a'zolari va ular treyderlarini savdo tizimiga kirish uchun ruxsat berishni nazorat qilishni ta'minlash (brokerlik idoralari ruxsatnomasi hisobini yuritish va treyderlar ERI sertifikatini registratsiyasi);

Qonunchilikka asosan brokerlik idoralari hodimlarining qimmatli qog'ozlar bozori mutaxasisi attestatini mavjudligi hisobini yuritish bo'yicha nazorat;

Birja a'zolari tomonidan brokerlik va dillerlik, shuningdek depozitariya faoliyatini yuritishda investision vositachi sifatida faoliyat yuritishga ruxsat beruvchi lisenziya borligini nazoratini ta'minlash

Davlatning vakolatli tashkiloti tomonidan berilgan investision vositachi sifatida faoliyat yuritishga imkon beruvchi lisenziyaning faoliyat muddatini nazoratini ta'minlash;

Davlatning vakolatli tashkiloti tomonidan berilgan Birja a'zolari treyderlardagi qimmatli qohozlar mutaxasisi attestatini haqiqiyiligini aniqlashnazoratini ta'minlash;

Elektron savdo tizimida birja a'zolari treyderlarning yaxshi ishlashi yoki faoliyatni amalga oshirishi uchun o'qitish jarayonini nazorat qili, shuningdek Birja savdo tizimiga ishtirok etish uchun ruxsat beruvchi malaka-ma'lumotnomasining borligini nazorat qilishni ta'minlash;

Birja a'zolari treyderlarning savdo tizimiga kirish uchun parl berish jarayonini ta'minlash;

Investision vositachi sifatida lisenziyasining muddatlari tugashi bilan; birja a'zosi treyderning birja savdo maydonchalarida qimmatli

⁸ www.uzse.uz ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

qog'ozlar bilan savdolari amalga oshirish ishochnomasi muddati tugashi bilan; davlat vakolatli organi tomonidan berilgan malaka attestati muddati tugashi bilan; Birja savdo tizimiga kirishga ruxsat beruvchi malaka-ma'lumotnomasi muddati tugashi bilan savdo tizimidan o'z vaqtida o'chirish;

Birja a'zosi treydemning vakolatlarining tugaganligi to'g'risidagi axborotni Bosh maklarga o'z vaqtida yetkazish.⁹

Savdolarni tashkil qilish xizmati (MAKLERIAT) vazifalari quyidagilardan iborat:

Birja a'zolari treyderlardan kelib tushgan savdo tizimining belgilangan seksiyalarida qimmatli qog'ozlarni sotish/sotib olish uchun topshirilgan arizalarni yozma va/yoki elektron tarzda qabul qilish;

Birjaning HKKP bo'limidan olingan va o'zida qo'yidagilarni aks ettirgan elektron fayllarni bo'lib o'tadigan savdo tizimi uchun qabul qilish va yuklash:

- markaziy depozitariya tomonidan blokirovka qilingan qimmatli qog'ozlar soni;

- savdo ishtirokchilari tomonidan milliy va chet el valyutasida deponentlangan pul vositalari summasi;

- mijoz (sotuvchi va sotib oluvchi) ning ochiq, o'zgartirilgan va bloklangan savdo hisob varqlari rekvizitlari;

- emitentlar va qimmatli qog'ozlar tasnifi;

Tartib qoidalar asosida savdolar o'tkazish jadvali va rejimiga kiritilgan o'zgartirishlardan Birja a'zolarini xabardor qilish;

Tegishli birja Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangan savdolar o'tkazish jadvaliga muvofiq ravishda Birja savdo tizimini ishga tushirish;

Savdolarni muvofiq savdo tizimi seksiyalarida amalga oshirilishini tashkillashtirish va ta'minlash.

Moliyaviy-iqtisodiy xizmat vazifalari quyidagilardan iborat:

Buxgalteriya hisobi schyotlarida aktivlar g'olati va harakati, mulk huquqlari va majburiyatlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish;

Samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;

Moliya, soliq va boshqa hisobotlarni tuzish;

⁹ www.uzse.uz ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Kelib tushgan pul vositalari, tovar-moddiy qimmatliklar va asosiy vositalarning to'liq hisobini yuritish, shuningdek buxgalteriya hisobida ularning harakati bilan bog'liq operatsiyalarni o'z vaqtida aks ettirish;

Birjaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarni o'rnatilgan BHMS asosida aniq yuritish;

Byudjet to'lovlarini, davlat ijtimoiy sug'urta badallarini to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida to'lash, ssudalar bo'yicha banklarga qarzdorlikni belgilangan muddatlarda to'lab berish, iqtisodiy rag'batlantirish fondlari va boshqa fondlar hamda rezervlarga mablag'lar ajratish;

Ish haqini o'z vaqtida hisoblash va to'lab berish, shuningdek boshqa ushlanmalarni;

Birlamchi xujjatlar va buxgalteriya yozilmalari asosida buxgalteriya hisoboti va hisob-kitoblarni shakllantirish, ularni belgilangan muddatlarda tegishli tashkilotlarga topshirish.

Birja savdo tizimini qo'llab-quvvatlash va axborot texnologiyalari bo'limi vazifalari quyidagilardan iborat:

Yangi informasion texnologiyalarni, tizimli dasturiy vositalar va bir vaqtning o'zida dasturiy ta'minotni joriy etish va rivojlantirish;

Birjada qabul qilingan me'yoriy xujjatlarga asosan konfidensial informasiyalar himoyasini ta'minlash;

Tijorat va xizmat axborotlarini himoyalash maqsadida tashkiliy, dasturiy va injener-texnik ishlarni o'tkizish;

Birjaning informasion xavfsizligi qoidalarini tashkil etuvchi bir qator xujjatlarni yaratilishi va ijrosida hamkorlik qilish hamda joriy etish;

Birjada informasion tizim va qimmatli qog'ozlar bilan elektron savdolarda komp'yuter tizimini uzluksiz ishlashini ta'minlash;

Birja savdo tizimi faoliyatigi ish stansiyalari (terminallar) da foydalaniladigan lisenziyalangan dasturiy mahsulotlarni sotib olishni nazorat qilish va ta'minlash;

Birja savdo tizimidagi texnik nosozliklarni (apparatlarga tegishli) o'z vaqtida bartaraf etish;

Yangi dasturiy mahsulotni o'rnatish, moslashtirish va ish stansiyalari (terminallar) da hamda ishchi tizimlarda joriy etish;

Birjaning rasmiy veb-saytida ma'lumotlarni joylashtirishda texnik yordam va qullab-quvvatlashni ta'minlash;

Idora komp'yuter texnika vositasini ishchi faoliyatini ushlab turish va ta'minlash;

Birja ma'lumotlar va axborotlar bazasini xavfsizligini, nusxasini va zaxirasini ta'minlash;

Kelgusi kalendar yili uchun tuziladigan Birja biznes-rejasi uchun texnik va texnologik ta'minot qismiga tegishli bo'limlarini tayyorlash.

Yuridik byuro vazifalari quyidagilardan iborat:

Birja faoliyatida va uning qimmatli qog'ozlar bilan savdolarni tashkil etuvchi tuzilmaviy bo'linmalarida qonunchilikka amal qilinishini ta'minlash.

Birjada mehnat qonunchiligi amal qilinishini ta'minlash, shuningdek mehnat munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi huquqiy xujjatlarni ishlab chiqish (mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi, jamoa klishuvi va h.k.).

Birjada huquqiy-shartnomaviy va da'vo ishlarini o'z vaqtida joriy etishni ta'minlash, shartnomaviy intizom sifatini oshirish.

Birjaning mulkiy va boshqa manfaatlarini sud tashkilotlari va boshqa idoralarda huquqiy himoya qilishni ta'minlash.

Birja tomonidan sud qarorlarini, birja faoliyatini lisenziyalovchi davlat vakolatli tashkiloti, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtiruvchi davlat vakolatli tashkiloti qoidalarini, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar qoidalari va e'tirozlarini o'z vaqtida ijro etilishini nazorat qilishni amalga oshirish.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan so'ralgan va talab qilingan konfidensial axborotlarni birja bo'limlari tomonidan taqdim etilishini qonunga asosan amalga oshirilishini nazorat qilish.

Birja Arbitraj komissiyasi ishini ta'minlash va kerakli xujjatlarni tayyorlash.

Ish yuritishni va xujjatlar saqlanishini ta'minlashni, ularni o'z vaqtida ichki xujjatlar asosida arxivga topshirilishini tashkillashtirish.

Listing va emitentlar bilan ishlash bo'limi vazifalari quyidagilardan iborat:

- Listing kompaniyalari qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalash varag'iga qo'shish jarayonini ta'minlash;

- Emitentning moliyaviy-xo'jalik faoliyati xujjatlari bo'yicha ekspertiza o'tqazish jarayonini ta'minlash;

- Listing kompaniyalari qimmatli qog'ozlaring birja kotirovkalash varag'ida bo'lish jarayonini nazorat qilish;

- Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlar qimmatli qog'ozlarini delisting qilishni nazorat qilish;

- Qimmatli qog'ozlar birja aylanmasini oshirish maqsadida investorlarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar bilan ta'minlash;

- Birja kotirovkalash varag'iga emitentlarni kiritish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash;

- Birja tomonidan har bir listing kategoriyasi uchun o'rnatilgan birja bitimlarini amalga oshirish miqdoriga o'rnatilgan talablarga listing kompaniyalari amal qilishini nazorat qilish.

Xalqaro hamkorlik bo'limi vazifalari quyidagilardan iborat:

Birjani yetakchi xalqaro fond birjalari va assosiyasalari bilan xalqaro munosabatlarini tashkillashtirish;

Fond birjasi xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlarni informasion-uslubiy ta'minlash.

Birjaning boshqa bo'limlari bilan birgalikda birja bozoriga oid ikki tomonlama va ko'p tomonlama dasturlar loyihasini tayyorlash.

Yetakchi xalqaro fond birjalari bilan samarali o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish.

Rahbariyatga hodimlarni va fond birjasi professional ishtirokchilarini yetakchi xalqaro fond birjalariga trening o'tash uchun, t'lim olish uchun va tajriba almashish uchun jo'natish takliflarini ko'rib chiqish uchun kiritish.

Yetakchi xalqaro birjalar bilan o'zaro hamkorlik Memorandumlari loyihasini tayyorlash.

Rahbariyatga "Toshkent" RFB ning yetakchi xalqaro birjalar bilan xalqaro hamkorlikning yangi ustuvor yo'nalishlarini ko'rib chiqish uchun kiritish.

Birjaning boshqa bo'limlari bilan xalqaro dastur va loyihalarda ishtirok etish bo'yicha hamkorlik qilish.

Faoliyatini xalqaro investorlar bilan muvofiqlashtirish va potensial investorlarga birja savdolariga taklif etilayotgan qimmatli qog'ozlar to'g'risida ma'lumot berish.

Jamoatchilik bilan aloqalar va marketing boshqarmasi vazifalari quyidagilardan iborat:

- marketing strategiyasini ishlab chiqish;

- moddiy, moliyaviy, mehnat, yer va texnologiya resurslarini samarali taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- iste'molchilarning yangi xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash;

- moliyaviy instrumentlar turlarini kengaytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- reklama tadbirlarini tashkil etish va birja axborot siyosati bo'yicha tavsiyalar berish;

- jamoatchilik bilan o'zaro munosabat sifatini oshirish va samaradorlik bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida birjaning dolzarb jixatlarini yoritish;

- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha keng qamrovli takliflar tayyorlash.

Marketing va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'limi vazifalari quyidagilardan iborat:

- Marketing rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish. Marketing strategiyalari va taktikalari hamda olingan natijalarning amalga oshirilishini monitoring qilish;

- bozor segmentasiyasi, iste'molchilarning ehtiyojlarini aniqlash, maqsadli bozorning imkoniyatlari va potensialini baholash, shuningdek uning rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish;

- asosiy ichki va tashqi muammolarni aniqlash hamda ularni hal qilishning maqbul usullarini ishlab chiqish;

- reklama tashkil qilish;

- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va fond bozoriga sodiqlik darajasini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni bajarish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Fond birjasining tarkibiy tuzilmalari qatorida komissiyalar alohida o'rin tutadi. Ular, odatda, fond birjasining xodimlari – yuqori malakali, tajribali mutaxassislaridan tarkib topadi.

Listing komissiyasi – Birjaning qimmatli qog'ozlar birja listingi va delistingini amalga oshiradigan komissiyasi.

Nazorat komissiyasi jamiyat faoliyatida, hamda uning bo'linmalari va xizmatlarida ichki moliyaviy-xo'jalik va huquqiy nazoratni amalga oshiruvchi organdir.

Malaka komissiyasi Birjaning birja faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq Birja A'zolari treyderlarining malakasini aniqlash va ularga birja savdolarida qatnashish huquqini berish maqsadida tuziladigan shtatdan tashqari bo'linmasi.

Arbitraj komissiyasi bo'yicha komissiya savdolarini o'tkazish, bitimlarni ijro etish jarayonida tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan bahsli vaziyatlarni hal etish bilan shug'ullanadi.

6.3. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar savdo tizimlariga va birjalar faoliyatiga doir huquqiy me'yoriy hujjatlarning takomillashuvi

O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, uning savdo tizimlarini shakllantirish va ular faoliyatini tartibga solish, muvofiqlashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Qaror va Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi. Ta'kidlash kerakki, qabul qilingan normativ-mazkur hujjatlarning ayrimlari vaqt o'tishi bilan bekor qilindi, ularning o'miga yangilari qabul qilindi yoki bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'miga bitta umumlashtirilgan holda takomillashtirildi. Mazkur jarayonda qimmatli qog'ozlar bozori savdosini yo'lga qo'yish, savdo tizimlari elementlarini shakllantirish va ular faoliyatini uzluksiz rivojlantirib borishga qartilgan yagona davlat siyosati asosida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida", "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qator Qonunlari shular jumlasidandir. Qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining me'yoriy-huquqiy asoslari hisoblangan ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinish shart-sharoitlari, ularning maqsad va vazifalari haqida batafsil ko'rib chiqamiz.

Qimmatli qog'ozlar bozori va uning savdo tizimlari faoliyatida mulkchilik munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Shu sababdan ham, mamlakatimiz mustaqilligining ilk davrlaridayoq respublika Hukumati oldida mulkchilikni bozor munosabatlariga muvofiq shakllantirish vazifasi turardi. Shu sababdan mustaqillikning ilk yillaridayoq, ya'ni 1991 yilda qabul qilingan muhim qonunlardan biri – O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonuni bo'ldi. Mazkur qonun xususiy mulkchilikni shakllantirish bilan birga qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishiga ham asos bo'lib xizmat qildi. Sababi, davlat mulki birlamchiligidan mulkchilikning turli shakllariga asoslangan mulk shakllari, xususan qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining asosini tashkil etuvchi jamoaviy mulk shakllanishiga zamin hozirlandi. Shuningdek, 1991 yilda O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi ham qimmatli qog'ozlar bozori va uning savdo tizimlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunga muvofiq, tijorat banklari ham qimmatli qog'ozlarni, xususan, aksiyalar, obligatsiyalarni chiqarish huquqiga ega bo'ldi.

1992 yildan boshlab qisqa muddatda to'plangan amaliy tajribalar asosida qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizim (keyingi o'rinlarda QQBST) lari faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Bu borada, ushbu yilda O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib, QQBSTlarining muhim elementlaridan hisoblangan fond birjalari va tovar birjalari fond bo'limlarining vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilab berildi. Bundan tashqari, 1992 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatda aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyat ko'rsatish xususiyatlari, ularning o'z aksiyalarini chiqarish hamda emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatiga olish tartibini belgilandi.

1993 yilda QQBSTlari faoliyatida asosiy o'rinni egallovchi qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish hamda qimmatli qog'ozlar bozoridagi muhim ishtirokchilardan biri fond birjalari va boshqa ishtirokchilari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning faoliyat ko'rsatish me'yorlari, davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishni o'zida aks ettirgan huquqiy asos – O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni muomalada yuritish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari (yoki QQBST) faoliyatini boshqarib borish shartlari va uning tartibi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida fond birjalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish printsiplari belgilab berganligi bilan ham ahamiyatlidir.¹⁰

1996 yilning 26 aprelida sohaga aloqador bo'lgan qator qonunlarni yaxlit tarzda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni sifatida qabul qilinishi orqali aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, faoliyat yuritish tartibi, ularni tugatish tartibi, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishga aloqador bo'lgan munosabatlar tartibga solindi. Davlat korxonalarini xususiylashtirish natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish tartibi va ularning huquqiy maqomi qonuniy jihatdan tartibga solindi.

1998 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to'g'risida"gi qonuni qabul

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonunidan. Eslatma: Mazkur Qonun O'z.R. 2008 yil 22 iyuldagi O'RQ-163-sonli "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni bilan o'z kuchini yo'qotgan.

qilinib, ushbu hujjatga muvofiq, QQBSTlarining institutsional tuzilmasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan – qimmatli qog'ozlar depozitariylarining ikki pog'onali tizimini shakllantirish yo'lga qo'yildi.

2001 yili O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi natijasida qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlari huquqiy jihatdan yanada to'laroq kafolatlandi. Ushbu qonunning maqsadi investorlarning huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Qimmatli qog'ozlar bozori va uning savdo tizimlari faoliyati borasida amalga oshirilgan eng samarali huquqiy islohotlardan biri bo'lib – 2008 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni bo'ldi. Ushbu qonun shu davrga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to'g'risida"gi hamda "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari takomillashtirilib, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritgan holda yagona qonun sifatida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan o'z-o'zidan yuqorida qayd etilgan to'rtta qonun o'z kuchini yo'qotdi.

Shuningdek, mazkur davrda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlari faoliyatiga doir nafaqat qonunlar, balki sohaga oid bir qancha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari ham qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-745-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda yopiq turdagi davlat aksiyadorlik jamiyatlarini "Ochiq turdagi jamiyatlar (OAJ)" shakliga o'tkazishga alohida ahamiyat berildi. Shuningdek, farmon bilan fond birjasi faoliyatini tashkil etish va xususiylashtirilishi amalga oshirilayotgan korxonalar aksiyalarini joylashtirish masalasi belgilab berildi¹¹. Yuqorida qayd etilgan farmonning ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil "Toshkent Respublika fond birjasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va qimmatli

¹¹<http://lex.uz/acts/195887>

qog'ozlar bozori infrastrukturasi rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorda “Vaqt” ochiq turdagi Milliy depozitariy aksiyadorlik jamiyatini faoliyatini yo'lga qo'yish, uning asosiy vazifasi - qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish, ularni saqlash va bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish etib belgilandi¹².

2003 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-3202-son farmoni, 2006 yil 10 iyulda O'zbekiston Respublikasi “2006-2008 yillarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish to'g'risida”gi 417-son qarori qabul qilindi. Mazkur farmon, qarorlarda xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, korxonalarining ustav jamg'armalarida davlat ulushini maksimal darajada qisqartirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2008 yil 28 iyulda “Qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 160-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan qimmatli qog'ozlar bozori va undagi professional ishtirokchilar o'z faoliyatini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, bu borada esa 2011 yildan e'tiboran qimmatli qog'ozlar bozorining Yagona dasturiy-texnik kompleks (keyingi o'rinlarda YaDTK)ni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish kabi muhim bo'lgan vazifalar belgilab qo'yildi.¹³ Bu albatta, qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasida katta o'rinni egallovchi QQBSTlarining faoliyatida axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyatini ham kengaytirish imkoniyatini hosil qildi.

2014 yil 6 mayda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquq hamda majburiyatlariga doir masalalarni batafsil belgilab bergan. Jumladan, Qonunda aksiyadorlik jamiyatining huquqiy holati, jamiyatning filiallari va vakolatxonalari, sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari, jamiyatni tashkil etish, jamiyatning muassislari, jamiyatning ustavi, jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali), jamiyatning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari, jamiyatning sof aktivlari, jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, oltin

¹²<http://lex.uz/docs/749986>

¹³<http://lex.uz/docs/1377757>

aksiya, aksiyadorlarning huquqlari, jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish hamda olish, jamiyat aksiyadorlarining reestri va aksiyalarni saqlash, dividendlarni to'lash, dividendlarni to'lashga doir chekllovlar, jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish, jamiyatning boshqaruv organlari, minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, jamiyatning kuzatuv kengashi, jamiyat kuzatuv kengashining raisi va a'zolarini saylash, jamiyatning ijroiya organi, jamiyatning minoritar aksiyadorlari qo'mitasi, jamiyatning affillangan shaxslari va ular bilan bitimlar tuzish, jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish hamda jamiyatning faoliyatini nazorat qilish va h.k. masalalar yoritib berilgan.¹⁴ Mazkur Qonun qabul qilinganidan boshlab, hozirgi kunga qadar Qonunga yana bir qancha o'zgarishlar kiritildi. Xususan, ushbu qonun 2014 yilda qabul qilingan paytda aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalining eng kam miqdori 400 ming AQSh dollari ekvivalentida belgilangan edi. Mazkur miqdor keyinchalik 2017 yilning so'nggida 1 mlrd. to'rt yuz million so'm etib, 2018 yilning o'rtalarida to'rt yuz million so'm etib belgilandi. Bugungi kunga kelib esa, ustav kapitalga qo'yilgan talab olib tashlandi.

Nihoyat, 2019 yilning 20 martidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan kiritilgan o'zgartirishga asosan jamiyat ustav kapitalining minimal miqdoriga belgilangan umumiy talab bekor qilindi va ustav kapitalining miqdori jamiyat ustavida belgilanadigan bo'ldi. Shuningdek, 2019 yilning 20 martidagi o'zgartirishga asosan aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bir nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerakligi belgilab qo'yildi.

2014 yilning 12 sentyabrida yangi tahrirda, takomillashtirilgan holda O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun nafaqat fond birjasi, balki tovar-xom ashyo va valyuta birjasi faoliyatini ham tartibga solsada – fond birjasi faoliyatini amalga oshirishda eng muhim huquqiy asoslardan biridir. Mazkur qonun bilan birja, birja ustavi, birjaning boshqaruv organlari, birjaning huquq va majburiyatlari, birja faoliyati tushunchasi, birja faoliyatining asosiy printsiplari, birjalar faoliyatini tartibga solish, birja tovari, birja savdolari, birja savdosi qoidalari, birja a'zolari, birja a'zolarining huquq va majburiyatlari, birjaning kotirovkalash varag'i,

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining yangi tahririmoddatori asosida tuzilgan. <http://lex.uz/acts/2382409>

tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish, birja bitimlari va ularning turlari, birja savdolarini o'tkazish va birja tovarini kotirovkalash, birja bitimini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish, tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash, birja faoliyatini amalga oshirishdagi cheklovlar hamda birja faoliyatiga doir boshqa tushunchalar belgilab berildi.¹⁵ Shuningdek, ushbu qonunda birjalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi hamda birjalar o'z faoliyatini tovaralohida ko'rsatib o'tilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozorining eng muhim huquqiy asosi hisoblangan O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 22 iyulda qabul qilingan «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni yangi tahrirda, shu nomda 2015 yilning 3 iyunida qayta qabul qilindi. Mazkur qonun qimmatli qog'ozlar bozoriga oid juda ko'p faoliyatni, tushunchalarni qamrab oldi hamda huquqiy maqomini belgilab berdi. Xususan, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni, davlat qimmatli qog'ozlarini, depozit sertifikatlarini va veksellarni chiqarish hamda joylashtirish, qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari, qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish, qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyati, qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi, qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni oshkor qilish to'g'risidagi qoidalar, qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish asoslari, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi shular jumlasidandir.¹⁶ Shuningdek, ushbu qonunning boshida qimmatli qog'ozlar bozoriga doir 40 dan ortiq asosiy tushunchalarga izoh berilgan. Bu esa foydalanuvchiga ushbu tushunchalarni to'g'ri talqin etishga yordam beradi. Bundan tashqari, mazkur qonunning 21-moddasida qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari sifatida fond birjasi, fond bo'limini tashkil etgan valyuta

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining 2014 yilning 12 sentyabrdagi «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi qonunining yangi tahriri moddlari asosida tuzilgan. (<http://lex.uz/docs/2462666>)

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining 2015 yilning 3 iyundagi «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunining yangi tahriri moddalari asosida tuzilgan. <http://lex.uz/acts/2662539>

birjasi hamda qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchilari keltirilgan.¹⁷

Yuqorida ta'kidlangan Qonunning 24-moddasida investitsiya vositachisi, investitsiya maslahatchisi, investitsiya fondi, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi, transfer-agent va qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat sifatida amalga oshirilishi belgilangan.¹⁸ Qonunning 32-moddasida "Investorlarga vositachilarni jalb etmay turib savdoda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha faoliyatni buyurtmalar qabul qilish punktlaridan, maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiruvchi yuridik shaxs qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi"¹⁹, ekanligi belgilangan. Yuqorida qayd etilgan qonunning 46-moddasida "Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari savdoda bitimlar tuzish qoidalarini, savdoga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxatini hamda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining talabiga ko'ra investorlarning yoki qimmatli qog'ozlar egalarining arizalarini, takliflarini va shikoyatlarini ko'rib chiqish yakunlari haqidagi axborotni oshkor qiladi"²⁰, deya belgilab qo'yilgan.

QJBST faoliyatini yanada jonlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4933-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan davlat mulki ob'ektlarini sotishda xalqaro amaliyotda keng foydalanilayotgan shakllar, xususan, fond birjasida aholiga va tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga aksiyalarni birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) oshkora taklif etish hamda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan

¹⁷ O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunining 46-moddasi(yangi tahriri).

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunining 24-moddasi(yangi tahriri).

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunining 32-moddasi(yangi tahriri).

²⁰ O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunining 46-moddasi(yangi tahriri).

elektron shaklda o'tkaziladigan tanlov va auksion joriy etilishi belgilandi²¹.

Bundan tashqari, QQBSTlari faoliyatida muhim o'rinni egallovchi normativ-huquqiy hujjatlardan bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 19 martdagi PQ-1727-son qarorini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 22 maydagi 140-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasiga «Fond bozori uchun umumiy summasi kamida 6 mln AQSh dollari bo'lgan Yagona dasturiy-texnik kompleksni yetkazib berish va joriy etishga «Toshkent» respublika fond birjasining bitta aksiya kam 25 foiz miqdoridagi aksiyalar paketini ayirboshlash bo'yicha Koreya fond birjasi bilan shartnoma tuzilishini ta'minlash» belgilandi²².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat mulki ob'ektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2014 yil 3 iyuldagi PQ-2200-son qaroriga muvofiq, davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibini takomillashtirish, ularni sotish mexanizmlari va tartibotlari samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat mulki ob'ektlari bilan bitishuvlarni amalga oshirishda ommaviylik va oshkoralikni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining «Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» 2014 yil 6 oktyabrdagi 279-son qarori qabul qilindi.²³ Ushbu qarorga asosan davlat korxonalari va muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirish tartibi to'g'risidagi nizom, davlat aksiyalarini sotish tartibi to'g'risidagi nizom, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning ustav fondlari (ustav kapitalari)dagi davlat ulushlarini sotish tartibi to'g'risidagi nizom, davlat ko'chmas mulk ob'ektlarini sotish tartibi to'g'risidagi nizom, davlat mulki ob'ektlarini xaridor tomonidan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar qabul qilinishi sharti bilan «nol» xarid qiymati bo'yicha sotish tartibi to'g'risidagi nizom hamda davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha Davlat komissiyasi qarorlari bo'yicha sotish tartibi to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi²⁴.

²¹<http://lex.uz/docs/3098864>

²²<http://lex.uz/docs/2013889>

²³<http://lex.uz/docs/2472699>

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 6 oktyabrdagi «Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» 279-son qarori asosida tayyorlandi. <http://lex.uz/docs/2472699>

2015 yil 28 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2340-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, korxonalarining ustav kapitalidagi davlat ulushi va aktivlarini xususiy investorlarga, birinchi navbatda, xorijiy investorlarga sotish hisobidan respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning darajasi va rolini tubdan oshirish va shu asosda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda texnologik yangilashni ta'minlash masalalarini ko'zda tutib, ushbu qaror bilan investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan «nol» qiymatida tanlov asosida sotilishi lozim bo'lgan davlat mulki ob'ektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan ob'ektlar ro'yxati, oshkora savdolarda to'liq xususiy mulk qilib sotiladigan davlat mulkning foydalanilmayotgan ob'ektlari ro'yxati, tugatish yoki bankrot qilish tartibini qo'llash tashabbusi bilan chiqilgan past rentabelli va faoliyat ko'rsatmayotgan tashkilotlar ro'yxati hamda vakil qilingan organlar xulosasi hamda tuman (shahar) hokimliklari qarori bilan buzib tashlanishi lozim bo'lgan foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan davlat mulki ob'ektlari ro'yxati tasdiqlandi.²⁵

QQBSTlarini rivojlantirishda aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investor va menejerlarni keng jalb etish, korporativ boshqaruvda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashda, sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uni tashqi bozorlarga olib chiqishda ularning faol ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2015 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-2454-sonli qarori qabul qilindi²⁶. Ushbu qaror aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga chet el investitsiyalari bilan bog'liq keskin talablarning qo'yilishi bilan ajralib turadi. Qaror bilan aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida xorijiy investorlarning ulushi 15 foizdan kam bo'lmasligidan iborat tartib joriy etildi va ustav kapitalida xorijiy investorlarning ulushi 15 foizdan kam bo'lgan, avval tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari, 2016 yilning 1 iyuligacha bo'lgan muddatda

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 28 apreldagi "Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2340-sonli qarori asosida tayyorlandi.<http://lex.uz/docs/2637893>

²⁶<http://lex.uz/docs/2846969>

mazkur talablarni bajarishlari lozimligi belgilandi²⁷. Strategik mahsulotlar ishlab chiqarish va birlamchi qayta ishlash sohasida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, tabiiy monopoliya sub'ektlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha narxi boshqariladigan ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar va xizmatlarni yetkazib beruvchilar bundan mustasno qilindi, o'z ustav kapitalariga belgilangan muddatlarda xorijiy investorlarning 15 foizdan kam bo'lmagan ulushi jalb qilinishini ta'minlamagan aksiyadorlik jamiyatlari, soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berishdan kelib chiqadigan barcha oqibatlarni hisobga olgan holda, ular aksiyadorlik jamiyatlari reestridan chiqarilishi va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga o'zgartirilishi belgilandi²⁸. Shuningdek, mazkur qarorda 01.07.2016 yildan boshlab yangi faoliyatini boshlaydigan aksiyadorlik jamiyatlari xorijiy investorming ustav kapitalidagi ishtiroki hissasi 15 foizdan kam bo'lmagan hollardagina tashkil qilinishi qayd etildi.²⁹

Ammo, shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, amaliyotda mazkur qaror o'zini oqlamadi. Balki, kamida 15 foiz ulushini xorijiy investorlarga sota olmagan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining tugatilishiga yoki tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishiga olib keldi. Shuning uchun ham keyinchalik, ya'ni 2018 yilning o'rtalariga kelib aksiyadorlik jamiyatlarining kamida 15 foiz ulushini xorijiy investorlarga sotishi majburiyligi borasidagi talab bekor qilindi.

QQBSTlari infratuzilmasida fond birjalari muhim o'rin tutishini inobatga olsak, ularning faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy asoslarni takomillashtirish zaruriyati yuzasiga keladi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 maydagi "Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi 268-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror respublikamizda birinchi marotaba fond birjasida aksiyalarning birlamchi (IPO) hamda ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish orqali sotish huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur qaror bilan aksiyalari fond birjasida birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif asosida joylashtiriladigan hamda sotiladigan aksiyadorlik jamiyatlari ro'yxati keltirildi, Xususan, "Kvarts" AJ aksiyalari IPO tarzida joylashtirilishi, "Shahrisabz vino-arog" AJ va "Qo'qon mexanika zavodi" AJ aksiyalari esa SPO shaklida sotilishi

²⁷<http://lex.uz/docs/2846969>

²⁸<http://lex.uz/docs/2846969>

²⁹<http://lex.uz/docs/2846969>

belgilandi hamda qaror bilan “Fond birjasida aksiyalarning birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” ham qabul qilindi³⁰.

2019 yil 14 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda bir davlat organi doirasida davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi hamda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish funksiyalarining jamlanishi tizimli muammolarning to‘planishiga olib kelganligi ta’kidlandi. Mazkur Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi va Davlat aktivlarini boshqarish markazi negizida: O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etildi, shuningdek, ushbu farmon bilan Davlat aktivlarini boshqarish agentligini, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasini hamda Kapital bozorini rivojlantirish agentligining asosiy vazifalari belgilab berildi.³¹

2016 yilning 29 avgustida “Toshkent” RFB kuzatuv kengashi raisining qarori bilan “Toshkent” respublika fond birjasida qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qoidalari tasdiqlandi. Mazkur hujjatning preambulasi (kirish qismi)da qoidalar turli yillarda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Nizomlar asosida (me‘yoriy-huquqiy asoslarning nomlari va qabul qilingan sanalari qayd etilgan holda) tuzilganligi keltirilgan. Ushbu hujjat umumiy qoidalar, “Toshkent” RFBda qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qoidalari, xususiylashtirish jarayonlariga birjaviy xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq “Toshkent” RFBda auksion va konkurs savdolarini o‘tkazish qoidalari, savdo natijalarini rasmiylashtirish, kliring va hisob-kitoblarni hamda narxlarni shakllantirish va axborotni oshkor etishni amalga oshirish tartibi, yakunlovchi qoidalar, deya nomlangan 5 ta bo‘limni o‘z ichiga olgan. Beshta bo‘lim ham 31 ta bob,

³⁰ <http://lex.uz/docs/3200313>

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-sonli Farmoni asosida tayyorlangan, <http://lex.uz/docs/4160392>

148 ta paragraf hamda ilovalardan tarkib topgan bo‘lib, “Toshkent” RFBda qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qoidalarini batafsil belgilab bergan. Shuningdek, birinchi paragrafda “Toshkent” RFBda qimmatli qog‘ozlar bilan savdolarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan 120 dan ortiq asosiy tushunchalarga izoh berilgan.³²

2018 yilning 8 oktyabrida “Toshkent” RFB kuzatuv kengashining qarori bilan ““Toshkent” RFBda birja kotirovka varag‘i to‘g‘risida Nizom” qabul qilindi. Ushbu hujjat orqali qimmatli qog‘ozlarni “Toshkent” RFB birja kotirovka varag‘iga kiritish va unda bo‘lib turish hamda “Toshkent” RFB birja kotirovka varag‘idan chiqarish tartibi belgilandi. Xususan, batafsilroq bayon qiladigan bo‘lsak, mazkur nizom umumiy qoidalar, birja kotirovka varag‘iga kiritiladigan qimmatli qog‘ozlar, birja listingini amalga oshirish tartibi, qimmatli qog‘ozlari listingga kirgan kompaniyalarga talablar, qimmatli qog‘ozlarni birja kotirovka varag‘iga kiritish uchun emitent tomonidan taqdim etiladigan hujjattar, qimmatli qog‘ozlari listingga kirgan kompaniyalarning birja kotirovka varag‘ida bo‘lib turish tartibi, qimmatli qog‘ozlarning birja kotirovka varag‘ining ma‘lum bir daraja (kategoriyasi)da bo‘lib turish shartlari, qimmatli qog‘ozlari listingga kirgan kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlarini boshqa darajadagi birja kotirovka varag‘iga o‘ztkazish va listingdan chiqarish tartibi hamda yakunlovchi qoidalarni o‘z ichiga olgan.³³

Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlari faoliyatining muhim me‘yoriy-huquqiy asoslaridan biri bo‘lib, ““Toshkent” respublika fond birjasining listing komissiyasi to‘g‘risida Nizom” hisoblanadi. Ushbu nizom orqali birja kotirovka varag‘iga kirish uchun emitentlar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarni ko‘rib chiqish, birja kotirovka varag‘ida bo‘lib (joylashib) turish hamda ularni birja kotirovka varag‘idan chiqarishda listing komissiyasi ish tartibi belgilab berilgan.³⁴

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlari faoliyatining muhim me‘yoriy-huquqiy asoslari bo‘lib “Korporativ boshqaruv kodeksi”, ““Toshkent” RFBda emitentlarning moliyaviy holatini ekspertiza qilish Tartibi”, “Birja kotirovka varag‘iga kiritilgan emitentlardan listing badallari to‘g‘risida Nizom”, “Hisob registrlarida elektron yozuvlarni saqlashni ta‘minlash tartibi to‘g‘risida Nizom” (11.12.2015y.), “Transfer-agent faoliyati to‘g‘risida Nizom” (21.11.2008y.), “Investitsiya vositachilari tomonidan emitentlarning

³² www.uzsc.uz sayti ma‘lumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi.

³³ www.uzsc.uz sayti ma‘lumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi.

³⁴ www.uzse.uz sayti ma‘lumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi..

rasmiy dileri (market-meyker) xizmatini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" (26.05.2007y.), "Ikkilamchi bozorda erkin almashtiriladigan valyutada amalga oshiriladigan qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarning hisob-kliring xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" (22.02.2008y.), "Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion maslahatchi faoliyati to'g'risida Nizom" (15.07.2005 y.), "Qimmatli qog'ozlar bilan repo bitimlarini amalga oshirish to'g'risida Nizom" (06.08.2004 y.), "Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi faoliyati to'g'risida Nizom" (13.03.2002 y.) va h.k.lar hisoblanadi³⁵.

Umuman, yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlari faoliyat yuritishi uchun etarli darajada me'yoriy-huquqiy asoslar shakllandi. Bizningcha, shakllangan me'yoriy-huquqiy asoslarga to'liq rioya etilishi hamda o'z vaqtida ijro etilishi qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlari faoliyatining yanada rivojlanishiga va takomillashuviga olib keladi.

6.4. Qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjalarining xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvi

Dunyoda kechayotgan jarayonlar moliyaviy globallashuv jarayonini kuchayganini va bunda kapitallarning erkin harakatini ta'minlovchi xalqaro miqyosda integrallashgan QQB (ayniqsa uning tashkillashgan savdo tizimlari) moliyaviy globallashuvning bosh shakllaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Bunda milliy QQSTlarini kelajakda O'zbekiston uchun maqbul bo'lgan shart-sharoitlar asosida jahon fond bozorlariga integrallashuvini izchil ta'minlovchi muqobil mexanizmni ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ushbu masalaga O'zbekistonda bir necha yil ilgari ham ahamiyat berilgan bo'lsada, hozirgi kunda ushbu muammoni hal etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ushbu masalani O'zbekiston sharoitiga mos ravishda hal etishda rivojlangan va progressiv rivojlanayotgan mamlakatlar hamda xalqaro moliya tashkilotlarning³⁶ tajribasi mamlakatimiz QQSTlarini rivojlantirish

³⁵ www.uzse.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

³⁶ Umuman olganda, xalqaro moliya tashkilotlari – bu jahon moliyasining integrallashgan faoliyat sohasini o'z ichiga olib, jahon va milliy moliya bozorlarini iqtisodiy (moliyaviy) jabhalarda jahon globallashuvi yo'lida harakatlantiruvchi moliyaviy institutlar hisoblanadi. Bunday institutlarga Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) huzuridagi Jahon banki (JB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Umumjahon savdo tashkiloti (UST), Xalqaro valyuta fondi (XVF), bundan tashqari yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETT), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro fond birjalari federatsiyasi (WFE), IOSCO va boshqalar.

uchun ahamiyatlidir. Bunda ta'kidlash joizki, xalqaro moliya institutlari faoliyati evaziga xalqaro kapitallar bozori faoliyat yuritadi va rivojlanadi. Ular davlatlarning pul- kredit, byudjet-soliq, emissiya, investitsiya va valyuta siyosatini olib borishda faol va bilvosita qatnashadilar. Shu bilan birga, ular xalqaro moliya bozori qatnashchilari va davlatlarning moliyaviy instrumentlari va resurslari bilan bog'liq operatsiyalar institutlari va ma'lum ma'noda xalqaro regulyatorlar, xalqaro moliyaviy resurslar va instrumentlar akkumulyatori hamda mos ravishda yirik investitsiyalar manbai, institutsional investor, professional emitent va vositachi sifatida faol faoliyat yuritadi. Bunday faoliyat negizida xalqaro moliya institutlari o'zaro bog'liqlikda jahon moliya bozori infratuzilmasini hosil qilib, xalqaro shartnomalar doirasida moliya bozorlari orqali milliy iqtisodiyotlarda davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan xalqaro me'yorlarga to'la mos keladigan siyosat yuritilishiga ko'maklashadi. Bu esa moliya bozorlarining risksizlilik, jalbdorlilik, barqarorlik va moliyaviy havfsizlik darajasini ta'minlagan holda investitsiyalar hajmi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham xalqaro moliya institutlari umuman jahon iqtisodiyotida, xususan moliya bozorlarida quyidagi rollarni bajaradi:

- jahonda globallashuv jarayonlari rivojlanishini ta'minlovchi va davlatlarning bozorlariga tashqi omil sifatida ta'sir ko'rsatuvchi institutlar;

- jahon moliya bozori qatnashchilari sifatida valyuta, kredit, boshqa moliyaviy instrumentlar va resurslar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha professional tarzda faoliyat yurituvchi institutlar;

- davlatlar tomonidan mamlakatda monetar (pul-kredit) va byudjet-soliq (fiskal) siyosatlarini xalqaro globallashuv qonuniyatlariga mos iqtisodiy va ijtimoiy o'sishni uyg'unlikda ta'minlashga yordam beruvchi institutlar;

- xalqaro miqyosda tartibga solinadigan (regulyativ) me'yorlarni belgilovchi institutlar;

- xalqaro darajadagi moliyaviy resurslar va instrumentlar akkumulyatori, yirik xalqaro investitsiyalar manbai;

- xalqaro darajadagi institutsional investor;

- xalqaro qimmatli qog'ozlar emitenti.

Xususan, bu borada Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) turli mamlakatlar qimmatli qog'ozlar bozori (keyingi o'rinlarda QQB) va ularning savdo tizinalari faoliyatini standartlashtirishga oid xalqaro o'ttizlik guruhi tavsiyalari muhim ahamiyatga ega. Bu tavsiyalar

asosan qimmatli qog'ozlar bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarni, savdo operatsiyalari va depozitar hisoblarni samaradorligini oshirishga va yanada ko'proq standartlashtirishga, risklar darajasini pasaytirishga yo'naltirilgan³⁷. Bundan ko'rinib turibdiki, tavsiyalar mamlakatlar QQB (jumladan savdo tizimlari) faoliyatini standartlashishi, sifati va samaradorligini oshirishga, barqarorlashtirish va o'zaro integratsiyasini ta'minlash va globallashtirish sari yo'naltirishga qaratilgan. Shu sababli, mamlakatimiz QQB va uning savdo tizimini xalqaro fond bozorlariga integratsiyasini ta'minlashda yuqorida ta'kidlab o'tilgan 20 tavsiyani ushbu bozor faoliyatida imkon darajasida amal qilishini ta'minlash zarur.

Mamlakatimiz QQB (xususan uning savdo tizimlari)ning integratsiyasi haqida gap ketganda, dastlabki bosqichda Ya.Mirkin ta'kidlaganidek³⁸, MDH davlatlari moliya bozorlarining o'zaro integratsiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiq. MDH davlatlari moliya bozorlari integratsiyasining maqsadi bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- a'zo-mamlakatlar investitsion potentsialining o'sishi, ularning moliya bozorlari likvidligining oshishi va riskining pasayishi;
- instrumentlarning diversifikatsiyasi; kapital jalb qilish harajatlarining qisqarishi;
- transmilliy mulkning rivojlanishi;

Ya.Mirkinning fikricha, Evropa Ittifoqi (EI) davlatlarining tajribasi ushbu maqsadlarning real ekanligini tasdiqlaydi: investitsiya institutlari va moliyaviy institutlar uchun «Evropa pasporti»; qimmatli qog'ozlar sohasidagi qonunchilikning uyg'unlashuvi (garmonizatsiya); mamlakatlararo kapital harakatining erkinligi; o'zaro emissiya va savdo qilish faolligi, shu bilan bog'liq holda, investitsiyalar, jalb qilingan pul mablag'lari va xalqaro moliya bozorlarida EI ulushining ortishi.

Keltirilgan fikrlarning ijobiy tomonlarini inkor etmagan holda aytish mumkinki, Elga a'zo mamlakatlarning ba'zilarida yuz bergan iqtisodiy

³⁷Ushbu tavsiyalar dastlab 1985 yilda ishlab chiqilgan bo'lib, ularning soni 9 tani tashkil etgan. Keyinchalik jahon qimmatli qog'ozlar bozorida bo'layotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda 2003 yilda 20 tavsiya ishlab chiqilgan.

³⁸ Я.М.Миркин «Интеграция финансовых рынков стран СНГ: механизм ускорения». Россия Федерация Hukumati huzuridagi Moliya Akademiyasining «Qimmatli qog'ozlar va moliya injiniringi» kafedrasini mudiri, i.f.d. YA.Mirkin o'zining yuqoridagi maqolasida MDH davlatlari moliya bozorlari integratsiyasining «O'rta muddatdagi harakat Dasturi» ni keltirib o'tgan.

noxush holatlar va buning butun EI iqtisodiyotiga salbiy ta'siri mavjud³⁹, ammo, bundan kerakli xulosalarni chiqarib, puxta o'ylangan reja asosida ularning foydali tajribalarini MDH davlatlari moliya bozorlarining integratsiyasi amaliyotida qo'llash mumkin.

Mamlakatimiz QQBSTlari integratsiyasining dastlabki elementi va katalizatori sifatida «Toshkent» Respublika fond birjasi (keying o'rinlarda RFB)ning Evroosiyo fond birjalari federatsiyasiga a'zolicini ta'kidlash lozim. Jahonda ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ushbu tashkilotning rasmiy ma'lumotlarida birja aylanmasiga oid ko'rsatkichlar bo'yicha «Toshkent» RFB tashkilot a'zolari ichida etakchi o'rinni egalladi. Ammo, ushbu tashkilot faqatgina ma'lum hududda joylashgan (kichik va o'rta) birjalarnigina o'ziga a'zo sifatida olganini inobatga olsak, «Toshkent» RFB bu bilan cheklanib qolmasligi kerak. Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish orqali mamlakatimiz QQBni rivojlantirishga (bozor kapitalizatsiyasi, indeks, ishtirokchilari va listing talablarining oshishi) erishishimiz mumkin. Bu orqali esa «Toshkent» RFBning ko'rsatkichlarini jahondagi yirik birjalarning indikatorlariga yaqinlashtirish va yaqin kelajakda JFBFga a'zo bo'lishini kutishimiz mumkin bo'ladi.

Bunda «Toshkent» RFB kelajakda JFBFga a'zo bo'lishi orqali bir qancha afzalliklarga ega bo'lishi mumkin, bular quyidagilardir:

- «Toshkent» RFBni xalqaro darajada integratsiyalashgan fond birjalar bilan bir qatorda JFBFning teng huquqli a'zosi bo'lishi;

- «Toshkent» RFBning ko'rsatkichlarini yaxshilash (birja kapitalizatsiyasi, listingi, aylanmasi, indeks va b.q) orqali horijiy investorlarning qiziqishini ortishi;

- milliy investorlarga horijiy fond birjalarda sotilayotgan qimmatli qog'ozlarni sotib olish imkoniyatini yaratish va aksincha;

- milliy fond bozorimizning xalqaro darajada nufuzining oshishi;

- mamlakatimiz iqtisodiyotiga fond birjasi orqali horijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati va h.k.

Ushbu natijalarga erishish uchun mamlakatimizda aksiyadorlik kapitali tarkibini takomillashtirish va o'zbek kompaniyalarining xalqaro integrallashgan QQSTlariga chiqishini rag'batlantirish hamda horijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini milliy fond birjasi listingiga kiritish

³⁹ Gretsiyaning ulkan qarz girdobidan qutula olmayotganligi va bundan yevropa iqtisodiyotining «lokomotiv»i hisoblangan Germaniya iqtisodiyoti ham aziyat chekayotganini ko'rsatish mumkin.

bo'yicha me'yorlarni ishlab chiqish zarur. Buning uchun berilgan tavsiya va takliflar bilan birga quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali tuzilmasi tarkibini diversifikatsiyalanishiga erishish;

- kompaniyalar faoliyatining transparentligini ta'minlash va ularni QQBdagi emission va investitsion faoliyatini rag'batlantiruvchi mexanizm yaratish;

- QQBni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadida investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltiriladigan asosiy mexanizmlardan biri sifatida rivojlantirishga erishish;

- QQBdagi tranzaksion xarajatlarni keskin kamaytirish;

- QQBda qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirish;

- milliy kompaniyalarning depozit tilxatlari va IPO orqali (mamlakat fond birjasida aksiya va obligatsiyalar bo'yicha bozor kotirovkasini olish sharti bilan) xalqaro QQSTlariga chiqishini rag'batlantirish;

- aksiyadorlik kapitali tarkibida mehnat jamoasining ulushini ishonchli boshqaruvchi (trast) institutlariga topshirish mexanizmini davlatning maxsus qarori asosida joriy qilish;

- mamlakatimiz QQB va uning savdo tizimlarini xalqaro fond bozorlariga integratsiyasini ta'minlashda yuqorida ta'kidlab o'tilgan IHTTning xalqaro o'ttizlik guruhi tomonidan ishlab chiqilgan 20 ta tavsiyasini ushbu bozor faoliyatida joriy etish va amal qilishini ta'minlash;

- «Toshkent» RFBning yaqin kelajakda JFBF (dunyo fond birjalari federatsiyasi)ga a'zo bo'lishini ta'minlash va buning asosida ushbu tashkilotdan milliy QQSTlari uchun maksimal afzallik va samaraga ega bo'lish.

Shunday qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni berilgan tavsiya va takliflar bilan birga kompleks tarzda amalga oshirilishi milliy QQB va uning savdo tizimlarini kelajakda O'zbekiston uchun maqbul bo'lgan shart-sharoitlar asosida xalqaro miqyosda integrallashgan QQSTlarga integrallashuvini ta'minlashi mumkin bo'lgan muqobil mexanizmning ishlab chiqilishiga ko'maklashadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining tashqi kapital bozorlariga integratsiyalashuv jarayoni juda murakkab jarayon hisoblanadi. Respublikamizda integratsiya va uni rivojlantirish asoslarini shakllantirish bo'yicha muayyan qadamlar qo'yildi. O'zbekistonda allaqachon mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini jahon bozorlariga olib chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu chet ellik emitentlarning

qimmatli qog'ozlari va chet ellik emitentlarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan xalqaro transmilliy tashkilotlarga a'zolik hisoblanadi. Turli nufuzli tashkilotlarning maqbul tavsiyalarini izchil bajarilishi integratsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 avgustda qabul qilingan 239-sonli "Qimmatli qog'ozlarni muomalaga kiritish kvotalari va tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorini tashqi fond bozorlariga integratsiyalashuvi muammosini hal etishga qaratilgan bo'lib, xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirish imkonini beradigan "O'zbekiston depozitar tilxati" tushunchasi kiritilgan.⁴⁰ Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan muammo doirasida, uning keyingi echimini kutib turgan bir qator savollar qolmoqda. Qarorning qabul qilinishi iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilishdagi eng muhim qadam bo'lib, uning milliy chegaralari yopilishini bartaraf etishga, mahalliy investorlarning mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini va aksincha - mahalliy investorlarning xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olishiga taqiqlarni olib tashlashga yo'naltirilgan.

O'sha paytdagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi va Koreya fond birjasi o'rtasida 2010 yil 28 dekabrda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini va 2011 yil 23 avgustda O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozorini modernizatsiya qilish to'g'risida Bosh kelishuv imzolandi. Ushbu hujjatlar doirasida Koreya fond birjasi dasturiy ta'minot, server va telekommunikatsiya uskunalari, mahalliy mutaxassislarni o'qitish va bir yil kafolatli xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan holda kamida 6 million AQSh dollari miqdoridagi O'zbekiston Respublikasi fond bozori uchun Yagona dasturiy-texnik majmuani tayyor holda yetkazib berish va amalga oshirish majburiyatini oldi. Hozirda ushbu majmua to'liq o'rnatilgan va fond bozori amaliyotida foydalanib kelinmoqda.

1995 yil sentyabr oyida "Toshkent" Respublika fond birjasi Evroosiyo fond birjalari federatsiyasiga⁴¹ (EFBF) qo'shilib, uning to'liq a'zosi bo'ldi. Evroosiyo fond birjalari federatsiyasi nodavlat, notijorat

⁴⁰<http://lex.uz/docs/-2450538>

⁴¹Evroosiyo fond birjalari federatsiyasi jahonda Federation of European and Asian Stock Exchanges (FEAS) deb nomlanadi.

tashkilot bo'lib, birjalar va hisob-kitob tashkilotlarini o'zida birlashtiradi. Federatsiya 1995 yil 16 mayda tashkil etilgan. Hozirgi kunda Janubi-Sharqiy va Janubi-G'arbiy Evropa, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Markaziy va Sharqiy Osiyoning 30 dan ortiq mamlakatlardan 40 ga yaqin kompaniyalar (birja va hisob-kitob institutlari) ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan. Federatsiyaning maqsadi, a'zo mamlakatlarning kapital bozorlarini rivojlantirish, tashkiliy tuzilmani takomillashtirish, vositachilar va dilerlar faoliyatini tartibga solish va o'zini o'zi boshqarish muammolarini hal qilish, samarali monitoringni tashkil etish, shuningdek birjalar faoliyatini yaxshilash bo'yicha tahliliy ishlarni olib borish va nashr etish.

Evroosiyo fond birjalari federatsiyasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va samarali tajriba almashishni davom ettirish ikki tomonlama hamkorlikni yangi sifat darajasiga olib chiqishga imkon beradi.

Bugungi kunda Evroosiyo fond birjalari federatsiyasi tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar qatorida xalqaro fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan barcha turdagi treninglar, seminarlar, ishchi guruhlar va mutaxassislar yig'ilishlarini kiritish mumkin.

2001 yil sentyabr oyida "Toshkent" Respublika fond birjasi 2000 yil aprel oyida Moskvada tashkil etilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari Birjalarining xalqaro assotsiatsiyasiga (MDH BXA) qo'shildi.

MDH Birjalarning xalqaro assotsiatsiyasi tarkibiga Hamdo'stlikning 10 mamlakatidagi 20 ta tashkilot kiradi, ular o'zaro moliyaviy ayirboshlash, valyuta, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Uyushmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ilg'or birja savdo texnologiyalaridan foydalangan holda yagona birja makonini shakllantirishga ko'maklashish;

- norezidentlarning birjalarda to'g'ridan-to'g'ri bitimlarni amalga oshirishlariga o'zaro ruxsat berish;

- MDH mamlakatlarida qimmatli qog'ozlar bozori uchun xalqaro standartlarni joriy etish va qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatdan o'tkazishni o'zaro tan olish;

- mexanizmlar va moliyaviy vositalarni joriy etish va boshqalar.

O'zbekistonning Markaziy depozitariysi xorijiy sheriklar bilan muhim hamkorlikni amalga oshirmoqda. MDH bozorlaridagi faoliyatining dalili shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasining Markaziy depozitariysi Evrosiyo Markaziy Depozitariylari Assotsiatsiyasi (EMDA)

asosiy ta'assischilaridan biri hisoblanadi. Evrosiyo Markaziy Depozitariylari Assotsiatsiyasi - bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarining markaziy depozitariylari assotsiatsiyasi bo'lib, uning asosiy maqsadi depozitar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish, yagona "depozitar makon"ni yaratish, MDH davlatlarining markaziy depozitariylarini qimmatli qog'ozlar savdolari (opretsiyalari) bo'yicha global hisob-kitoblar tizimiga kirish hisoblandi.

2014 yilda Markaziy Depozitariysi va Rossiyaning milliy hisob-kitob depozitariysi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga ISIN va SFI xalqaro kodlarini topshirish bo'yicha boshlangan o'zaro axborot almashinuvi ichki qimmatli qog'ozlar bozorini tashqi moliya bozorlariga integratsiyalashuvidagi muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda Rossiyaning milliy hisob-kitob depozitariysi O'zbekiston Respublikasida raqamlashtirishning o'rini bosadigan agentlik vazifasini o'tamoqda. Mazkur agentlik bu vazifani O'zbekistonning Markaziy depozitariysi xalqaro kodlarning tayinlanishini mustaqil ta'minlashga, berilgan kodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har kuni xalqaro ma'lumotlar bazasiga o'tkazishga, Milliy Raqamlash Agentliklari Assotsiatsiyasiga⁴² muntazam ravishda hisobot taqdim etishga tayyor bo'lgunga qadar bajaradi. Hozirgi kunda mazkur tashkilot Milliy Raqamlash Agentliklari Assotsiatsiyasi va O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlariga tegishli ISIN va SFI kodlarning tarqalishiga ko'maklashmoqda.

Mazkur kodlarning joriy qilinishi va keng tarqalishi bizning mamlakatimizdan tashqarida potentsial investorlar doirasini kengaytirishga imkon beradi. Belgilangan xalqaro kodlar to'g'risidagi ma'lumotni O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariy veb-saytida topish mumkin. Bularning barchasi yaqin kelajakda O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorini chet el investorlari uchun ochiq qilishi va O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish imkoniyatlarini soddalashtirishga imkon beradi.

2000 yilda O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi - O'sha paytda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi qoshidagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi⁴³

⁴²Mazkur tashkilotning xalqaro nomi Association of National Numbering Agencies bo'lib, ANNA deb qisqartirilgan holda yuritiladi.

⁴³Hozirda mazkur tashkilot O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi deb nomlanadi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkilotiga⁴⁴ a'zo bo'ldi.

Dastlab, 1974 yilda Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkiloti Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalari o'rtasida hamkorlikni tashkil qilish uchun tuzilgan. Keyinchalik (1984 yilda) u xalqaro miqyosdagi tashkilotga aylandi. Bugungi kunda tashkilotning bosh qarorgohi Ispaniyaning Madrid shahrida joylashgan.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkilotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- turli mamlakatlarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalari o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan huquqiy tartibga solish va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishning yangi usullarini joriy etish bo'yicha tajriba almashish;

- qimmatli qog'ozlar bozorida xatti-harakatlar normalari va standartlarini shakllantirish va qimmatli qog'ozlar muomalasi sohasidagi xalqaro shartnomalar ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

O'zbekistonda Xalqaro tashkilotlarning (O'ttizlik guruhi) turli mamlakatlarda fond bozori mexanizmlarini standartlashtirish bo'yicha tavsiyalarini izchil amalga oshirish borasida, xususan, aksiyalar va obligatsiyalarni to'liq nomoddiylashtirishni qonuniylashtirish, yagona registratorni yaratish, mamlakatda yagona depozitariyning tashkil etilishi bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishildi. Bularning barchasi ichki qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi (tranzaksion xarajatlarni sezilarli darajada pasayishi, hisob-kitoblarni tezlashishi) va chet el fond bozorlariga muvaffaqiyatli kirish uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratadi.

Yuqoridagi ta'kidlar O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori institutlarining qimmatli qog'ozlar savdosini tashkillashtirish bilan bog'liq xorijiy va xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etganligidan dalolat beradi. Biroq, bu qimmatli qog'ozlar bilan to'laqonli savdoni rivojlantirish, mamlakat rezidentlari va norezidentlari o'rtasida aniq bitimlar tuzish uchun etarli emas.

Turli davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorining o'zaro integratsiyasini ta'minlash murakkab masala, chunki mazkur davlatlardagi

⁴⁴ Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkiloti jahonda IOSCO (International Organization of Securities Comissions) deb nomlanadi.

iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlar turlichaligi bilan qiyinchiliklar tug'diradi. Ikki yoki undan ortiq davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorini muvaffaqiyatli integratsiya qilishning asosiy sharti ikki tomonlama yoki ko'ptomonlama hukumatlararo kelishuvlarning mavjudligi bilan bevosita bog'liq.

Shu bilan birga, ichki qimmatli qog'ozlar bozorini tashqi kapital bozorlariga qo'shilish va xorijiy kontragentlar bilan qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha real bitimlar tuzish nuqtai nazaridan quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- O'zbekiston hududida mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini xorijiy investorlarga sotish;
- ma'lum bir xorijiy davlatlar va xalqaro bozorlarga mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini olib chiqish;
- mahalliy investorlarning O'zbekistonda chet ellik emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olishi;
- horijda mahalliy investorlar tomonidan chet ellik emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish.

Yuqoridagi yo'nalishlar O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining tashqi kapital bozorlariga qo'shilish bosqichlariga (ketma-ketligiga) muvofiq bo'lishi kerak, ularni ishlab chiqishda mazkur yo'nalishlar hisobga olinishi kerak.

Dastlabki ikkita yo'nalish O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki amalda ular mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq. Shu bilan birga, birinchi yo'nalish bozor tomonidan sinab ko'rildi va deyarli to'liq o'zlashtirildi. Keyingi o'n yilliklarda sezilarli, ayniqsa so'nggi uch yillikda o'ta jadallik bilan muvaffaqiyatli rivojlanmoqda va milliy qimmatli qog'ozlar bozorini tashqi kapital bozorlariga qo'shilishning dastlabki bosqichini samarali amalga oshirish natijalariga ko'p narsa bog'liq.

Shu bilan birga, so'nggi o'n yillikda norezidentlarning mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida bitimlarga bo'lgan qiziqishining pasayishi tendentsiyasi kuzatilgan bo'lsa, oxirgi uch yilda mazkur jarayonni tubdan o'zgartirish borasida sezilarli qadamlar tashlanmoqda.

Xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishini rag'batlantirish valyuta konvertatsiyasi va uni repatriatsiyasi masalasi bilan bevosita bog'liq. So'nggi uch yilda bu masala to'liq hal qilingan.

Mahalliy qimmatli qog'ozlarni xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida sotib olinishi va sotilishiga nima to'sqinlik qiladi degan savol ko'pchilikni qiziqtiradi. Buning bir nechta sabablari mavjud. Bu qimmatli

qog'ozlarning past likvidiligi, har doim ham korxonalarining barqaror moliyaviy-iqtisodiy ahvolda emasligi, aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlarining tashqi fond bozorlarida qimmatli qog'ozlarni joylashtirish usullari to'g'risida ma'lumotga ega emasligi, kompaniyani moliyalashtirish manbalari bilan bog'liq mavjud muammolarni odatda bank krediti orqali hal qilishga harakat va chet elda qimmatli qog'ozlarni joylashtirish xarajatlari (xorijiy auditorlarga, maslahatchilarga, advokatlarga xizmat haqlarini to'lash va boshqalar) yuqoriligi.

I.L. Butikovning fikricha, milliy qimmatli qog'ozlarni xalqaro kapital bozorlariga chiqishi bo'yicha maxsus kontseptsiyani ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir, unga uzoq va qisqa muddatda quyidagilar kiradi:⁴⁵

- aksiyalarini xalqaro fond bozorlarida joylashtirish mumkin bo'lgan, samarali korporativ boshqaruv tizimiga ega bo'lgan O'zbekiston emitentlarini tanlash choralari;

- qimmatli qog'ozlari tashqi fond bozorlarida sotiladigan tanlangan mahalliy emitentlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- yaqin va uzoq xorijiy davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorida milliy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularning muomalasi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlovchi ichki qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar;

- aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining ichki standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi vazirlik, idora va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari orqali xorijiy davlatlarda mahalliy qimmatli qog'ozlarni va ichki bozorda xorijiy davlatlarning qimmatli qog'ozlarini joylashtirish imkoniyati to'g'risida hukumatlararo (ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama) bitimlarni tayyorlash va tuzish uchun tegishli ishlarni tashkil etish;

- xorijiy banklar bilan oldindan depozit tilxatlari orqali mahalliy aksiyalarni joylashtirish imkoniyatlari yuzasidan kelishuvlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar olib borish.

Bunday holda, avvalgi hujjatlarni tayyorlashda yo'li qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan loyihalardan tegishli xulosalar chiqarish va qo'shni davlatlarning tajribasini hisobga oladigan yangi harakatlar rejasini tuzish kerak. Ko'rinib turibdiki, milliy

⁴⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-napravleniya-integratsii-rynka-tsennyh-bumag-uzbekistana-v-zarubezhnye-fondovye-rynki>

fond bozorining xalqaro kapital bozoriga integratsiyalashuvida O'zbekiston emitentlarining qimmatli qog'ozlarini mamlakatimiz bilan yaqin iqtisodiy aloqalarni rivojlantirgan va ayirboshlashning katta hajmlariga erishgan yaqin xorij mamlakatlarga joylashtirishdan boshlash kerak.

Xorijiy sarmoyadorlar uchun ichki birlamchi ommaviy taklif, ya'ni IPO (Initial Public Offering)ni rivojlantirish O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorini tashqi kapital bozorlariga yanada integratsiyalash yo'lidagi navbatdagi mumkin bo'lgan qadamdir.

Mazkur jarayonni nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham amalga oshirish lozim bo'ladi, ya'ni IPO orqali tashqi bozorlarga mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini chiqarish. Biroq, tashqi bozorlarda IPO orqali qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, ichki ommaviy taklifga qaraganda ancha murakkab, chunki bu noma'lum sharoitlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan juda qimmat va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Tashqi savdo maydonchalarida aksiyalarni joylashtirish uchun mahalliy emitentlardan sezilarli darajada oldindan jamg'arishni talab qiladi. Tashqi IPO loyihalarini tayyorlash va mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini xorijiy mamlakatlarda joylashtirishni tashkil etish masalasi birgalikda hal qilinishi lozim, bo'lmasa ish besamar yakunlanadi.

O'zbekistonda "Kvarts" va "Qo'qon mexanika zavod"larida IPO va SPO (Secondary Public Offering) o'tkazildi. Hozirda "Toshkent" Respublika fond birjasida mazkur emitentlarning aksiyalari faol oldi sotdi qilinayotganini tadqiqotimizning III-bobida ko'rib chiqdik.

Keyingi bosqichlarda asosiy vazifa O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining tashqi fond bozorlariga qo'shilishi, mahalliy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini xorijiy mamlakatlarda sotishni tashkil etish va rivojlantirish bo'lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun huquqiy-meyoriy asoslar yaratildi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5630-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining vazifasi sifatida davlat ishtirokidagi korxonalarining obligatsiya va aksiyalarini chiqarish va realizatsiya qilish, shu jumladan mahalliy va xorijiy fond birjalarida IPO/SPO bo'yicha emissiyalarni joylashtirish hisobiga, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, shuningdek portfel investitsiyalarni jalb qilish hamda

Kapital bozorini rivojlantirish agentligining vazifasi sifatida kapital bozorini rivojlantirish va tartibga solish masalalari bo'yicha xorijiy va xalqaro institutlar bilan samarali hamkorlik qilish belgilandi.⁴⁶

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida milliy emitentlar aksiyalarini tashqi fond bozorlariga olib chiqishning eng maqbul usullaridan biri bu depozitar tilxatlar hisoblanadi⁴⁷. Bu ham mahalliy emitentlarning xorijiy fond bozorlariga chiqishining muhim qadami sifatida ko'rilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlangan keng miqyosda xususiyashtirishni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300 - sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda investorlarga, xususan xorijiy investorlarga sotish uchun taklif qilinayotgan korxonalarining ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlari ro'yxati, belgilangan tartibda sotiladigan davlat aktivlari ro'yxati kabilari tasdiqlandi.⁴⁸

Xalqaro kapital bozoriga integratsiyalashuv yo'lidagi muhim qadamlardan biri bu - O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini chiqarish va jahonning etakchi fond birjalari orqali savdosini tashkil etish hamda joylashtirishdan iborat.

Bu yuqori matakali mutaxassislar guruhi va tayyorgarlik talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Bu borada tegishli tayyorgarlik ishlari olib borildi va muhim hujjat ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 iyuldagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3877-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirishi belgilandi⁴⁹. Natijada, O'zbekiston tarixida birinchi marta 1 mlrd. dollarlik xalqaro obligatsiyalarni jahon fond bozorlarida joylashtirishga erishdi. Mazkur obligatsiyalarning 500 mln. dollariga 2024 yil 20 fevralgacha yillik

⁴⁶www.lex.uz/docs/4160392

⁴⁷Depozitar tilxatlarga ADR, GDR, EDR va boshqalar kiradi.

⁴⁸<http://lex.uz/docs/4312752>

⁴⁹<http://lex.uz/docs/3836474>

4,750% va qolgan 500 mln. dollariga 2029 yil 20 fevralgacha yillik 5,375% miqdorida daromadlilik, ya'ni benchmark belgilandi⁵⁰.

Bu haqda jahon jamoatchiligi, ayniqsa soha mutaxassislari O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalari muvaffaqiyatli joylashtirilganligini ta'kidlashdi. Bunda qo'shma bukrannerlar, ya'ni mazkur xalqaro obligatsiyalarni birlamchi joylashtirishda investoirlarning buyurtmasi va hisobini yurituvchi tashkilot sifatida Citygroup, Gazprombank va JP Morgan tanlab olindi. Mazkur professional va jahon moliya bozorida o'z o'rniga ega tashkilotlar yordamida ushbu loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Buning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish to'g'risida"gi PQ-4258-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan xalqaro obligatsiyalarini sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari auksion tarzda savdoni amalga oshirish orqali mamlakatimizdagi tijorat banklari depozitlariga joylashtirilishi belgilandi, natijada, tijorat banklariga 5 yillik depozitga maksimal 459,6 mln. dollar 5,25% bilan, 10 yillik depozitga maksimal 429,6 mln. dollar 5,875 % bilan joylashtirilishiga erishildi.⁵¹

Mazkur xalqaro obligatsiyalardan tushgan pul mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri loyihalarga bir qismini, asosiy qismini esa tijorat banklari depozitlariga joylashtirish yuzasidan qaror qabul qilindi. Buning sababi, hozirgi kunda respublikamiz tijorat banklarining uzoq muddatli resurs jalb qilishi masalasida muammolar mavjud. Tijorat banklarining hisob-raqamlarida mablag'lar etarli emasligi va inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan pul-kredit siyosati tufayli kreditga talabgorlarning aksariyat qismini talabi qondirilmay kelyapti. Hattoki summasi jihatdan kichik bo'lgan ta'lim kreditlarini ajratilishida ham muammolar bo'lyapti. Shuning uchun xalqaro obligatsiyalardan tushgan mablag'larni tijorat banklarining depozitlariga joylashtirish maqbul deb topildi. Chunki tijorat banklari mazkur mablag'larni ustiga ma'lum bir foiz qo'yish evaziga kredit qilib berib, qarzni belgilangan muddatda qaytaradi va o'zi ham foyda ko'radi.

Xalqaro fond bozorlariga integratsiyalashuv bo'yicha keyingi qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi

⁵⁰ <https://telegra.ph/The-Republic-of-Uzbekistan-inaugural-US1bn-Dual-Tranche-144aReg-S-Bond-Offering-02-14>; <https://www.gazeta.uz/ru/2019/02/14/eurobonds/>
⁵¹ <http://lex.uz/docs/4266910>

“Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4124-son qarorini aytib o‘tish joiz. Mazkur qarorga muvofiq, xalqaro fond birjalari va moliya institutlari talablariga muvofiq ko‘rsatkichlarning minimal talablarni amaliyotga joriy qilish, hisob yuritishda xalqaro standartlar (ISAR) tamoyillari va talablari asosida korporativ oshkoralikni joriy etish, xalqaro moliya institutlari va konsalting tashkilotlarini jalb etgan holda “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ, “Olmaliq KMK” AJ, aksiyadorlik jamiyati etib qayta tashkil etiladigan “Navoiy KMK” DK aksiyalarini mahalliy va xalqaro fond bozorlarida IPO va SPO usulida joylashtirish orqali investorlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi Kon-metallurgiya tarmog‘ining yirik korxonalarini isloh qilish va rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqish belgilandi.⁵²

Mahalliy emitentlarning qimmatli qog‘ozlaridan tashqari, kelajakda hamyurtlarimiz tashqi fond bozorlarida oldi-sotdi qilishlari mumkin. Shu munosabat bilan Qimmatli qog‘ozlar Markaziy Depozitariysi xalqaro hisob-kitob tashkilotlari EuroClear va ClearStream bilan 2017-2021 yillarda rivojlanishning 5 ta asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq mahalliy va tashqi qimmatli bozorini integratsiyalashtirish yo‘nalishida hamkorlikni boshladi.⁵³

Ushbu loyihaning ijobiy natijalari xorijiy investorlarga mahalliy bozorlarga kirish imkoniyatini beradi va fuqarolarimiz o‘z nomlariga xorijiy kompaniyalarning aksiyalarini sotib olishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, ushbu integratsiya davlatga qimmatli qog‘ozlarini tashqi bozorlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylashtirish imkonini beradi, bu esa mamlakat pul-kredit siyosatining qo‘shimcha vositasi hisoblanadi.⁵⁴

2019 yil 7 iyul kuni O‘zbekiston delegatsiyasi va Jahon banki mutaxassislari bilan o‘tgan uchrashuvda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan asosiy muammolar haqida fikr yuritildi va O‘zbekiston global qimmatli qog‘ozlar bozoriga integratsiyalashuvi mamlakatimiz uchun manfaatli ekanligi, kapital bozorini rivojlantirishda mahalliy institutsional investorlar guruhini shakllantirish bo‘yicha tomonlar umumiy fikrda ekanligi, hosilaviy qimmatli qog‘ozlarni amaliyotga joriy etishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, muomalada

⁵²<http://lex.uz/docs/4168220>

⁵³<https://nuz.uz/ekonomika-i-finansy/38612-grazhdane-uzbekistana-smogut-torgovat-na-zarubezhnyh-fondovyh-rynkah.html>

⁵⁴<https://nuz.uz/ekonomika-i-finansy/38612-grazhdane-uzbekistana-smogut-torgovat-na-zarubezhnyh-fondovyh-rynkah.html>

instrumentlar sonini ko'paytirishga erishish, Jahon banki bilan mamlakatimiz kapital bozorini yanada rivojlantirish yuzasidan hamkorlik qilish to'g'risida kelishuvga erishilishi integratsiya yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.⁵⁵

Integratsiyani ta'minlashdagi muhim yo'nalishlardan biri – bu sohani rivojlantirish bo'yicha ta'lim dasturlarini va ta'lim sohasidagi integratsiyani amalga oshirish hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining AQShga amalga oshirgan tashrifi doirasida 2019 yil 16 iyul kuni Nyu-York shahridagi Kolumbiya universiteti va Kapital bozorini rivojlantirish agentligi o'rtasida O'zbekistonning moliyaviy – iqtisodiy sohasida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning malakasini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ilk hujjat – memorandum imzolandi va joriy yildan boshlab mamlakatimizda seminar va treninglar o'tkazilishiga kelishib olindi.⁵⁶

Yuqoridagi tashrif doirasida O'zbekiston delegatsiyasi jahonning eng yirik qimmatli qog'ozlar savdo maydonchalari hisoblangan NYSE fond birjasi va NASDAQ nobirjaviy elektron savdo tizimlariga tashrif buyurishdi hamda mazkur tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

NASDAQ raisi o'rinbosari Meyer Frucherning ta'kidlashicha, fond birjada amalga oshirilayotgan savdolarini diversifikatsiya qilish va qimmatli qog'ozlar bozori infrastrukturasi xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonda kapital bozori rivojiga xizmat qiluvchi asosiy omillar hisoblanib, investorlar xorij bozoriga kirishda shu ikki mezonga alohida e'tibor qaratishadi.⁵⁷

AQSh dagi fond birja vakillari "Toshkent" fond birjasini kuzatib borish va doimiy o'rganish uchun "aqli (smart)" texnologiyalarni amaliyotda qo'llash, birjalarni texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, mahalliy kompaniyalarning jahon fond bozoriga chiqishi masalasida tegishli maslahatlar berishga tayyor ekanliklarini ta'kidlashdi va olib

⁵⁵ <https://www.cmda.gov.uz/uz/markaz-haqida/yangiliklar/75-uchrashuvlar/722-zbekiston-delegatsiyasi-a-zolarining-zha-on-banki-vakillari-bilan-uchrashuvi>

⁵⁶ <https://www.cmda.gov.uz/uz/hamkorlik/719-ivy-league>

⁵⁷ <http://xs.uz/uzkr/post/nyu-jorkdagi-eng-jirik-fond-birzhaları-ozbekistonga-komak-berishga-tayyor>

borilgan muzokaralar natijasida “Toshkent” Respublika fond birjasi hamda NASDAQ o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandumini imzolandi.⁵⁸

Ushbu tashrif davomida AQShdagi va jahondagi eng yirik fond birja hisoblangan Nyu-York fond birjasi raisi muovini Jon Tattl bilan bo‘lgan uchrashuvda O‘zbekistonda fond bozorini rivojlantirish, davlat korxonalari va rentabelligi yuqori xususiy lashtirishga jalb qilingan aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog‘ozlari, xususan aksiyalarini AQSh qimmatli qog‘ozlar bozoriga chiqarish istiqbollari muhokama qilingani, bu jarayonda Nyu-York fond birjasi vakillari har jihatdan yordam berishga tayyor ekanligini bildirishgani biz uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda mamlakatimiz professional ishtirokchilarining assotsiatsiyasi yoki o‘zini-o‘zi muvofiqlashtiruvchi organni tashkil etish qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisida shaffoflikni ta‘minlashga va savdo qoidalariga rioya etilishini samarali nazorat qilishga xizmat qiladi, bu esa xorijiy investorlarning sarmoyalarini himoya qiluvchi, uni kafolatlovchi asosiy jihatga aylanadi.

O‘zbekiston delegatsiyasining AQShga tashrifi doirasida 2019 yilning 22 iyul kuni Nyu-Yorkda birinchi marta investitsion forum tashkil etildi. “O‘zbekiston kapital bozoridagi imkoniyatlar” mavzusidagi investitsion forumda AQShning yirik investorlari, etakchi kompaniyalari vakillari qatnashib, mahalliy kompaniyalarga portfel investitsiyalarini jalb qilish yuzasidan turli muammoli masalalarni muhokama qilishdi va AQShlik investorlar bilan investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha muzokaralar olib borildi. Forum yakunida AQShlik investorlar O‘zbekiston mahalliy fond bozorida ishtirok etib, qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish va mamlakatimizda o‘zlarining korxonalari filiallarini ochishlari mumkinligini ta’kidladilar.⁵⁹

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev 2019 yil 7 oktyabr kuni qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish masalalariga oid yig‘ilish o‘tkazdi. Mazkur yig‘ilishda bir qator muammoli masalalar muhokama qilindi. Jumladan, umumiy aksiyalar qiymati 25 trln. so‘mni tashkil etib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 6 foiziga ham etmayotganligi, bu ko‘rsatkichlar boshqa davlatlarda yuqori ekanligi, fond bozoridagi professional ishtirokchilar kamligi, bozorda ishlashni osonlashtirish, turli cheklavlarni olib tashlash, aksiyalarning aksariyat qismi davlatga tegishli

⁵⁸ <http://xs.uz/uzkr/post/nyu-jorkdagi-eng-jirik-fond-birzhaları-ozbekistonga-komak-berishga-tajyor>

⁵⁹ <https://www.cmda.gov.uz/uz/hamkorlik/732-zbekiston-kapital-bozori-uoll-stritda>

ekanligi, muomalada instrumentlar soni kamligi va uni jahon amaliyotidan kelib chiqib turlarini ko'paytirish zarurligi, minoritar ya'ni kichik ulushga ega bo'lgan aksiyadorlar huquqini himoyalash, institutsional investorlar (sug'urta kompaniyalari, banklar) rolini kuchaytirish kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tildi.⁶⁰

Mazkur majlisda qo'yilgan vazifalarni bajarilishi mamlakatimiz fond bozorini rivojlantirishda tub burilish yasashi kutilmoqda. Mazkur yig'ilishda fond bozorining boshqa mamlakatlarning kapital bozorlari bilan hamkorlik qilishi va ular bilan integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladigan vazifalar ham qo'yilgan. Jumladan, xalqaro fond birjalar, investitsiya vositachilari va banklarni mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilish, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish, xalqaro moliyaviy hisobotlar va xalqaro audit standartlariga o'tish, agentlik va Toshkent moliya instituti, uning qator kafedralari bilan o'zaro hamkorlik, xorijdagi etakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar malakasini oshirish va talabalarni o'qitish, qimmatli qog'ozlar bozori haqida ko'proq ma'lumot berish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kabi masalalar yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.⁶¹

Yuqoridagi keltirib o'tilgan va soha vakillari oldiga qo'yilgan vazifalarning xalq etilishi mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozori, uning savdo tizimlarini rivojlantirishga va xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozori va uning savdo tizimlarini xalqaro kapital bozoriga integratsiyasini ta'minlash murakkab jarayon hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimiz fond bozori ko'rsatkichlarini yaxshilash, qimmatli qog'ozlar likvidililigini oshirish, davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarining aksiyalarini IPO va SPO usulida mahalliy va xorijiy investorlarga realizatsiyasini ta'minlash, bozordagi instrumentlarni diversifikatsiya qilish va turlarini ko'paytirish, mahalliy kompaniyalarning xalqaro moliyaviy hisobotlar va xalqaro audit standartlariga o'tishi, bozorni tartibga soluvchi hujjatlarni optimallashtirish, turli cheklavlarni bekor qilish va eng asosiy sohadagi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, ularning tavsiyalarini bajarilishini ta'minlash, hukumatlar yoki yirik savdo muassasalari o'rtasida o'zaro kelishuvlarga erishish, xalqaro institutsional

⁶⁰ <https://president.uz/uz/2913>

⁶¹ <https://president.uz/uz/2913>

investorlar va professional ishtirokchilarni mahalliy fond bozoriga jalb qilish, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish, xorijdagi etakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar malakasini oshirish, yoshlarni o'qitish, mazkur bozor haqida ko'proq ma'lumot berish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kabi murakkab masalalarni hal qilish lozim.

6.5 Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi tashkilotlar 2021 yil aprelgacha O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi (korporativ qimmatli qog'ozlar bo'yicha), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha) hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 apreldagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tuzilmasini maqbullashtirish va shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risida"gi PQ-5053-sonli qaroriga asosan Kapital bozorini rivojlantirish agentligini tugatish va uning barcha vazifa, funktsiya va vakolatlari Moliya vazirligiga berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 14 yanvardagi PF-5630-son Farmoni asosida shakllantirilgan edi. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat ko'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining huquqiy vorisi hisoblangan.

Avvallari Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi dastlab O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi tarkibida, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tarkibida bo'lgan. Keyinchalik mazkur markazning huquqiy vorisi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysungan. Agentlik qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanib kelgan.

Agentlikning asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

- Qimmatli qog'ozlar bozorining yagona davlat reestrini yuritish u tomonidan ro'yxatga olingan masalalar, ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar banki, qimmatli qog'ozlar bozorining tuzilishi va rivojlanishi, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish;

- Qimmatli qog'ozlar muomalasini, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish;

- qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni litsenziyalash;

- qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi, aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish va ular bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan xulosa va ko'rsatmalar berish, qoidabuzarlarga sanksiyalar qo'llash;

- milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorlarida qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi va samarali muomalasi uchun zarur huquqiy shart-sharoitlarni ta'minlovchi nizomlarni ishlab chiqish;

- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek qimmatli qog'ozlar egalarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;

- qimmatli qog'ozlar bozori holati va uning ishtirokchilari to'g'risida investorlar va jamoatchilikni keng xabardor qilish;

- samarali qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini yaratishda ishtirok etish;

- vazirliklar, idoralar, O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari, professional va professional bo'lmagan ishtirokchilar, ularning qimmatli qog'ozlar bozorida birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Kapital bozorini rivojlantirish agentligining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional va professional bo'lmagan ishtirokchilari, ularning birlashmalari, shuningdek, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun majburiy hisoblangan.

Litsenziyalash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Qonuni; "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni; "Qimmatli qog'ozlar bozorida kasbiy faoliyatni litsenziyalash to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 308, 09.07.2003y.), "Qimmatli

qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining ichki nazorati to'g'risida"gi nizomlariga (ro'yxat raqami №1899, 06.02.2009y.) ko'ra, bozorning professional ishtirokchilariga litsenziyani Kapital bozorini rivojlantirish agentligi taqdim etgan.

Litsenziya olish natijasida faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lgan yo'nalish turlari:

1. Investitsiya vositachisi (depozitariy, anderryayting, market-mayker, diler, broker);

2. Investitsiya maslahatchisi (transfer-agent);

3. Investitsiya fondi;

4. Investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi;

5. Qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi

Qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi sifatida professional faoliyat(lar)ni amalga oshirish uchun litsenziya beriladi. Yoxud litsenziya berish rad etilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga rad etishning aniq sabablari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib hujjatlarni takroran ko'rib chiqishga taqdim etishi uchun etarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya oluvchilar toifasi

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi kasbiy faoliyatni faqat yuridik shaxslar amalga oshirishlari mumkin.

Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar:

Litsenziya berish to'g'risida quyidagilar ko'rsatilgan holdagi ariza:

1. Yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzillari, bank muassasasining nomi va bank muassasasida talab qilib olinadigan depozit hisob raqami; litsenziya talabgori qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshirish niyatida bo'lgan kasbiy faoliyat.

2. Litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun litsenziya talabgori (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalaridan tashqari) tomonidan yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

3. Oxirgi hisobot sanasiga moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot bilan birgalikda buxgalteriya balansi nusxasi (talabgor oxirgi hisobot sanasidan keyin tashkil etilgan hollardan tashqari);

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq oxirgi hisobot sanasiga o'z mablag'lari (sarmoyasi) miqdori hisob-kitobi;

5. Litsenziya talabgori bo'lgan (investitsiya fondlaridan tashqari) rahbari va xodimlarining litsenziyalovchi organning malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari, shu jumladan litsenziya talabgori bo'lgan yuridik shaxsning ular doimiy asosda ishga qabul qilinganligi to'g'risidagi hujjatlarning nusxalari, shuningdek yakka holda ijro etuvchi organ funksiyasini amalga oshiruvchi shaxslarning mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari.

Investitsiya vositachisi sifatida faoliyatni amalga oshirishga litsenziya talabgori qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- depozitar operatsiyalarni amalga oshirish uchun dasturiy vositani sotgan (bergan) tashkilot bilan tuzilgan depozitar operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha dasturiy vositadan tijorat maqsadida foydalanishga mualliflik litsenziya shartnomasi nusxasi;

- depozitar operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha dasturiy ta'minotning texnik tavsifi;

- depozitar operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan texnik vositalarning tavsiflari ko'rsatilgan holdagi ro'yxati;

- dasturiy ta'minot va texnik vositalarning investitsiya vositachilarining dasturiy-texnik komplekslariga qo'yiladigan belgilangan talablarga muvofiqligi hamda qimmatli qog'ozlar bozori professional qatnashchilari, fond birjasi va Markaziy depozitariy bilan elektron o'zaro hamkorlikka tayyorligi to'g'risida Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining xulosasi;

Agar "Fond bozori axborot-resurs markazi" Davlat unitar korxonasi bilan litsenziya talabgorining Yagona dasturiy texnik kompleksidan foydalanish uchun imzolangan shartnoma nusxasi taqdim etilganda investitsiya vositachisi sifatida faoliyatni amalga oshirishga litsenziya talabgori qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi talab qilinmaydi.

Investitsiya fondi sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga litsenziya olish uchun litsenziya talabgori qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- investitsiya fondi bilan investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi o'rtasida kontrakt tuzilganligi to'g'risidagi dastlabki shartnomaning litsenziat tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

- investitsiya fondi bilan Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi o'rtasida kontrakt tuzilganligi to'g'risidagi dastlabki shartnomaning litsenziat tomonidan tasdiqlangan nusxasi.

Qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga litsenziya olish uchun litsenziya talabgori qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- mazkur dasturiy vositani sotgan (bergan) tashkilot bilan tuzilgan birjadan tashqari savdoni tashkil etish bo'yicha dasturiy vositadan tijorat maqsadida foydalanishga mualliflik litsenziya shartnomasi nusxasi;
- kliring faoliyatini amalga oshirish uchun dasturiy vositalarni tijorat maqsadida ishlatishga mazkur dasturiy vositani sotgan (bergan) tashkilot bilan tuzilgan mualliflik litsenziya shartnomasining nusxasi;
- tegishli dasturiy ta'minotning texnik tavsifi;
- qimmatli qog'ozlarni muomalaga qo'yish va muomaladan chiqarish tartibotlari, qimmatli qog'ozlar narxlari kotirovkasi to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga oluvchi qimmatli qog'ozlar savdosi qoidalari;
- kliring xizmatini amalga oshirish qoidalari;
- bank rekvizitlari ko'rsatilgan holda kliring xizmatini ko'rsatish uchun talabgorning alohida bank hisob raqami mavjudligi to'g'risidagi tijorat bankining yozma tasdiqnomasi;
- Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi va tijorat banki bilan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larida hisob-kitoblarni ta'minlash bo'yicha mos ravishda tuzilgan shartnoma nusxasi;
- indekslar hisob-kitobi metodikasi, agar mavjud bo'lsa;
- qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qatnashchilarini qo'yish tartibi;
- axborotni oshkor qilish tartibi.

Xizmat ko'rsatish muddatlari

Litsenziya da'vogarining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran yigirma kundan ko'p bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Xizmatlar ko'rsatilgandan keyin taqdim etiladigan hujjatlar

Litsenzialovchi organ tegishli qaror qabul qilingandan keyin uch kun muddatda litsenziya talabgorini qabul qilingan qarordan xabardor qiladi.

Litsenziya berish rad etilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga rad etishning aniq sabablari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib hujjatlarni takroran ko'rib chiqishga taqdim etishi uchun etarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda xabardor qilish.

Litsenziyalovchi organ va litsenziatning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilovchi litsenziya bitimni imzolash to'g'risida xabardor qilish.

To'lov miqdori va tartibi

To'lov turlari: Litsenziya talabgorining (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalaridan tashqari) litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi. To'lov naqd bo'lmagan hisob-kitob orqali amalga oshiriladi. Ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organing bank hisob raqamiga o'tkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizani rad etgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Attestatsiya jarayoni

Kapital bozorini rivojlantirish agentligi bozor professional ishtirokchilarini O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiya (qayta attestatsiya)dan o'tkazish to'g'risida"gi nizomiga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 3-martda 660-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) binoan attestatsiyadan o'tkazib kelgan.

Attestatsiyadan o'tuvchilar toifasi

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarida, fond birjalarida, valyuta birjalarining fond bo'limlarida ishlashga talabgor bo'lgan yoki ishlayotgan xamda majburiyatiga ularning nomidan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar bozorida xizmat ko'rsatish va (yoki) ishlarni amalga oshirish toifasiga kiruvchi jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

- I toifa malaka guvohnomasi — jismoniy shaxslarga beriladigan va qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va uning tuzilmaviy bo'linmalari rahbari, boshqa professional ishtirokchilarning ijro organi rahbari, fond birjasining ijroiya organi va uning tuzilmaviy bo'linmalari rahbari, valyuta birjalarining fond bo'limi rahbari lavozimini egallash huquqini beruvchi malaka guvohnomasining toifasi;

- II toifa malaka guvohnomasi — jismoniy shaxslarga beriladigan va professional ishtirokchilarda, fond birjalarda, valyuta birjalarining fond bo'limlarida mutaxassis sifatida ishlash huquqini beruvchi malaka guvohnomasining toifasi;

Attestatsiya (qayta attestatsiya)dan o'tish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati

I darajali malaka guvohnomasi uchun:

- taqdim etilayotgan hujjatlar ro'yxati, nusxalar soni, hujjatlar shakli (nusxasi yoki asli), shuningdek, xar bir taqdim etilgan hujjatlarning varaqlar soni ko'rsatilgan holda 1-namunaga muvofiq shakldagi ariza;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun - pasport yoxud chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun - yashash guvohnomasining nusxasi;

- attestatsiyalar (qayta attestatsiyalar)ni o'tkazish va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsadida, talabgorlardan vakolatli organ hisob raqamiga o'tkaziladigan belgilangan bir martalik to'lov to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjatining nusxasi;

- quyida keltirilgan yo'nalishlardan biri, ya'ni moliya - iqtisod, huquqshunoslik, matematika yoki axborot texnologiyalar bo'yicha oliy ma'lumotga egaligini tasdiqlovchi hujjatning ta'lim muassasasi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan nusxasi, shuningdek iqtisodiyot, moliya va huquqshunoslik sohalarda yoki ko'rsatilgan sohalar bo'yicha davlat boshqaruv organlarida kamida ikki yillik ish stajiga egaligini tasdiqlovchi mehnat daftarchasining yoki boshqa hujjatning notarius yoki ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

- yoxud ta'lim muassasasi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan oliy ma'lumotga egaligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi, shuningdek iqtisodiyot, moliya va huquqshunoslik sohalarda yoki ko'rsatilgan sohalar bo'yicha davlat boshqaruv organlarida kamida besh yillik ish stajiga egaligini tasdiqlovchi mehnat daftarchasining yoki boshqa hujjatning notarius yoxud ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi.

Agar, shaxslar iqtisodiy yoki huquqshunoslik sohasida ilmiy darajaga ega bo'lsa va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlansa (agarda ilmiy daraja xorijiy davlatda olingan bo'lsa, qonun hujjatlariga muvofiq nostrifikatsiyadan o'tgandan so'ng), attestatsiyaga tegishli ish stajisiz kiritiladi.

II darajali malaka guvohnomasi uchun:

- taqdim etilayotgan hujjatlar ro'yxati, nusxalar soni, hujjatlar shakli (nusxasi yoki asli), shuningdek, xar bir taqdim etilgan hujjatlarning varaqlar soni ko'rsatilgan holda 1-namunaga muvofiq shakldagi ariza;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun - pasport yoxud chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun - yashash guvohnomasining nusxasi;

- Attestatsiyalar (qayta attestatsiyalar)ni o'tkazish va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsadida, talabgorlardan vakolatli organ hisob raqamiga o'tkaziladigan belgilangan bir martalik to'lov to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjatining nusxasi.

Imtiyozli oliy ma'lumotga ega shaxslar uchun:

-2-namunaga muvofiq ariza;

-O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun — pasport yoxud xorijiy fuqaro va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun — yashash guvohnomasining nusxasi;

-ta'lim muassasasi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan oliy ma'lumot to'g'risidagi imtiyozli diplom nusxasi (bakalavrlar uchun);

-oliy o'quv yurtini imtiyozli diplom bilan tugatganligi to'g'risida tasdiqlangan oliy ma'lumot diplomining nusxasi (magistrlar uchun).

Qayd etilgan quyidagi hujjatlar, talabgorning (malaka guvohnomasi egasi) xohishiga ko'ra ulardan nusxa olish va talabgorga qaytarish uchun asl nusxada (asli) taqdim etilishi mumkin:

-ta'lim muassasasi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan oliy ma'lumot to'g'risidagi imtiyozli diplom nusxasi (bakalavrlar uchun);

-ta'lim muassasasi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan, quyida keltirilgan yo'nalishlardan biri: moliya — iqtisod, huquqshunoslik, matematika yoki axborot texnologiyalar bo'yicha oliy ma'lumotga egaligini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi, shuningdek iqtisodiyot, moliya va huquqshunoslik sohalarda yoki ko'rsatilgan sohalar bo'yicha davlat boshqaruv organlarida kamida ikki yillik ish stajiga egaligini tasdiqlovchi mehnat daftarchasining yoki boshqa hujjatning notarius yoki ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

-ta'lim muassasasi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan oliy ma'lumotga egaligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi, shuningdek iqtisodiyot, moliya va huquqshunoslik sohalarda yoki ko'rsatilgan sohalar bo'yicha davlat boshqaruv organlarida kamida besh yillik ish stajiga egaligini tasdiqlovchi mehnat daftarchasining yoki boshqa hujjatning notarius yoki ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

-FHDYo organi tomonidan berilgan tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va tuzatishlar to'g'risidagi hujjatning notarial tasdiqlangan nusxasi;

Nusxalarda nusxa olingan sana va vaqt haqida belgi qo'yiladi, shuningdek nusxa olishni amalga oshirgan vakolatli organ xodimining to'liq ismi sharifi ko'rsatiladi.

Hujjatlarni ko'rib chiqish muddatlari

Talabgorlar to'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlarni vakolatli organga attestatsiya kunidan kamida etti ish kun oldin taqdim etadi va attestatsiya kunidan ikki ish kuni oldin tasdiqlanadigan attestatsiyaga ruxsat berilgan shaxslar ro'yxatiga kiritiladi.

Imtixonsiz malaka guhonmasini olish

Istisno tariqasida, moliya-iqtisod yoki huquqshunoslik sohasida imtiyozli oliy ma'lumot diplomiga ega oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi agar oliy ma'lumotga egaligi to'g'risidagi diplom berilgan kundan 3 yildan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa attestatsiyadan o'tmasdan va belgilangan yig'imni to'lamasdan II toifa malaka guvohnomasini olishi mumkin.

Rad etish uchun asoslar

Taqdim etilgan hujjatlar nomuvofiq rasmiylashtirilgan taqdirda, hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda yoki Nizomda nazarda tutilgan boshqa hollarda vakolatli organ talabgorga attestatsiyadan o'tishga rad javobini beradi. Bunda malaka guvohnomasini olish uchun ariza bergan shaxsga arizani bergan kunidan e'tiboran 5 ish kunidan kech bo'lmagan muddatda yozma shakldagi asoslangan rad javobi yuboriladi.

To'lov miqdori va tartibi

Attestatsiyalar (qayta attestatsiyalar)ni o'tkazish va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsadida, talabgorlardan vakolatli organ hisob raqamiga o'tkaziladigan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida bir martalik yig'im undiriladi.

To'lov turlari: to'lov naqd bo'lmagan hisob-kitob yoki "Payme" tizimi orqali amalga oshiriladi. Attestatsiyadan o'tmagan shaxslarga bir martalik yig'im qaytarilmaydi. Avval attestatsiyadan o'tmagan shaxsning xar bir keyingi attestatsiyasi (qayta attestatsiyasi) tegishli bir martalik yig'imni to'lash bilan birga amalga oshiriladi. Ketma-ket ikki marta attestatsiyadan o'tishga kelmagan talabgorlar attestatsiyaga ruxsat berilgan shaxslar ro'yxatidan chiqarib tashlanadi va bir martalik to'lov qaytarilmaydi.

Xorijiy davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha vakolatli organlar bilan faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olishda hamkorlik qilish, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishning umumiy standartlari va qoidalarini ishlab chiqish uchun Vazirlar Mahkamasining 12.01.1998 yil 16-son qarori bilan, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar

xalqaro tashkilotida (IOSCO) O'zbekiston Respublikasining vakolatli vakili etib tayinlangan edi.

Hozirgi kunda 1983 yilda tashkil etilgan IOSCO (bosh qarorgohi Madrid shahrida) a'zolari 120 mamlakatning milliy fond bozori regulyatorlari hisoblanib, ular global qimmatli qog'ozlar bozorining 95 foizini nazorat qiladi.

IOSCO ning asosiy vazifalari - bu tashkilot a'zolari o'rtasida xalqaro e'tirofqa sazovor bo'lgan standartlar va qoidalarga muvofiqlikni ishlab chiqish, qo'llash va ilgari surish, investorlarning huquqlarini himoya qilish va qimmatli qog'ozlar bozorining samarali va oshkora tuzilishini ta'minlash, hamkorlikni rivojlantirish, axborot almashinuvini ta'minlash orqali investorlarning huquqlarini himoya qilish choralarini kuchaytirish. shuningdek milliy qimmatli qog'ozlar bozorini samarali tartibga solish maqsadida global va mintaqaviy miqyosda ma'lumot almashish imkoniyatini yaratadigan qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat qilish hisoblanadi.

Shuningdek, bugungi kunda Koreya Respublikasi fond birjasi (KRX), Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy tajriba almashish choralari ko'rilmogda.

IOSCO bilan hamkorlikning rivoji

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.24.2015 yildagi PF-4720-son Farmoni 21-bandi bilan tasdiqlangan korporativ boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkiloti (IOSCO) bilan respublikada korporativ boshqaruv tizimini va fond bozorini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Shu munosabat bilan Kapital bozorini rivojlantirish agentligi O'zbekiston Respublikasining maslahatlashuvlar, hamkorlik va axborot almashish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkilotining (IOSCO) ko'p tomonlama memorandumiga qo'shilishi bo'yicha ishlarini davom ettirib kelgan. 2019 yilning fevral oyida IOSCO bosh kotibi (Devid Rayt) bilan kelgusidagi hamkorlik masalasi bo'yicha muzokaralar bo'lib o'tdi.

Ikki tomonlama yozishuvlar natijasida Agentlik tomonidan memorandumga kirish uchun zarur hujjatlar yuborilgan. Hozirgi kunda IOSCO inspeksiya guruhi (verification team) O'zbekiston

Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarining ko'p tomonlama memorandum talablariga muvofiqligini o'rganmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarilishi va joylashtirilishi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat ichki va tashqi qarzi Departamenti tomonidan muvofiqlashtiriladi. Markaziy bank obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur qimmatli qog'ozlar savdosi O'zbekiston Respublika Valyuta birjasining fond bo'limi orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5073-son qaroriga asosan⁶² 2021-yil 1-maydan boshlab Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tugatildi va tugatilayotgan Kapital bozorini rivojlantirish agentligining qimmatli qog'ozlar bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini tartibga solish, shuningdek, korporativ boshqaruvni rivojlantirish hamda lotereyalarni tashkil etish faoliyati bo'yicha vazifa, funksiya va vakolatlari Moliya vazirligiga o'tkazildi.

Mazkur Qarorga binoan Moliya vazirligiga kapital bozorini rivojlantirish sohasida quyidagi vazifalar yuklatildi:

qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, tartibga solish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

qimmatli qog'ozlar amaliyoti bilan shug'ullanuvchi investorlar hamda qimmatli qog'ozlar egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

qimmatli qog'ozlar bozori, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

mahalliy kapital bozorining rivojlanish holati va uning professional qatnashchilari to'g'risida investorlar va jamoatchilikni xabardor qilish;

⁶² Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va korporativ boshqaruv sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni va 2021-yil 3-apreldagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tuzilmasini maqbullashtirish va shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risida"gi PQ-5053-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tugatildi.

qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari va qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional ishtirokchilarning faoliyatini, shuningdek, bukmekerlik va lotereyalarni tashkil etish faoliyatini tartibga solish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, professional ishtirokchilarning mutaxassislarini attestatsiyadan o'tkazish va malaka guvoynomalarini berish;

qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ro'yxatdan o'tkazish, ular yuzasidan hisobot berish hamda qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini va qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni hisobga olish reyestrini yuritish talablarini belgilash;

o'z mablag'lari yetarli darajada bo'lishiga doir majburiy normativlarni va qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklarni cheklovchi ko'rsatkichlarni o'rnatish;

qimmatli qog'ozlar bozorining holati va uning ishtirokchilari haqida, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan ma'lumotlar oshkoraligini ta'minlash orqali jamoatchilikni xabardor qilish;

kapital bozorini rivojlantirish va tartibga solish masalalari bo'yicha xorijiy va xalqaro institutlar bilan samarali hamkorlik qilish.

Tugatilayotgan Kapital bozorini rivojlantirish agentligining jami 110 nafar shtat birligi (shundan, 90 nafar boshqaruv xodimi) hisobidan Moliya vazirligining markaziy apparati tuzilmasida boshqaruv xodimlari cheklangan soni 54 nafardan (shundan, 16 nafar hududlarda faoliyat ko'rsatuvchi markaziy apparat xodimlari) iborat **Kapital bozorini rivojlantirish departamenti tashkil etildi.**

2021-yil 1-maydan boshlab quyidagi mablag'lar Moliya vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasiga yo'naltirilishi belgilab qo'yildi:

fond birjasida qimmatli qog'ozlar savdosini amalga oshirishda sotuvchi tomonidan to'lanadigan yig'im;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning dastlabki chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lanadigan yig'im;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni yiriklashtirish jarayonida ularning nominal qiymati oshirilganda emitent tomonidan to'lanadigan yig'im;

qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish va (yoki) avval ro'yxatdan o'tgan qimmatli qog'ozlarning chiqarilishiga o'zgartirishlar bo'yicha hujjatlar ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan yig'im;

lotereyalarni tashkil etish faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq yig'imlar;

qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni o'tkazish huquqini beruvchi malaka attestatini olishga talabgorlarni (jismoniy shaxslarni) attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o'tkazish uchun undiriladigan yig'im;

qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari va qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional ishtirokchilarning faoliyatini amalga oshirishi uchun litsenziya olish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish uchun undiriladigan yig'im;

belgilangan tartibda Moliya vazirligi tomonidan undiriladigan boshqa yig'imlar.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda fond birjasining vujudga kelishi tarixi
2. "Toshkent" Respublika fond birjasining tashkiliy tuzilmasi
3. "Toshkent" Respublika fond birjasida Hisob-kitob kliring palatasi vazifalari
4. "Toshkent" Respublika fond birjasida moliyaviy-iqtisodiy xizmat vazifalari
5. "Toshkent" Respublika fond birjasida yuridik byuro vazifalari
6. "Toshkent" Respublika fond birjasida listing va emitentlar bilan ishlash bo'limi vazifalari
7. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar savdo tizimlariga va birjalar faoliyatiga doir huquqiy me'yoriy hujjatlarning takomillashuvi
8. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvi masalalari
9. Fond bozorini tartibga soluvchi tashkilotlar
10. Fond bozorini muvofiqlashtirish va tartibga solishning jahon tajribasi
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning kapital bozorini rivojlantirish sohasidagi vazifalari

VII-BOB. FOND BIRJASININIG FAOLIYAT MEXANIZMI, FOND BIRJA INDEKSLARI. BIRJA AUKSIONI VA TAHLIL TURLARI.

7.1. Birja a'zoliciga qabul qilish, "Toshkent" Respublika fond birjasida a'zolikni to'xtatish va tugatish tartibi

Ushbu Tartib O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari, qonunchilikning boshqa hujjatlari, «Toshkent» RFB AJ Nizomi va «Toshkent» RFB AJning boshqa ichki hujjatlari asosida tuzilgan bo'lib, Birja A'zoliciga qabul qilish, «Toshkent» RFB AJda a'zolikni to'xtatish, tugatish tartibini belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi — qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs. «Toshkent» RFB a'zolari tarkibi - berilgan sanada «Toshkent» RFBda amal qilayotgan A'zolar ro'yxati. **Treyder** –

Birja A'zosi nomidan qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar tuzish huquqiga ega bo'lgan Birja A'zosining muxtor vakili bo'lgan, qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasiga ega va Birja tomonidan belgilangan tartibda birja savdolariga qatnashishi uchun ruxsat berilgan Birja A'zosining xodimidir. **Birja a'zosi** – Birja tomonidan belgilangan tartibda birja savdolarida qatnashish va diler, market-meyker, broker sifatida birja bitimlarini tuzish huquqini olgan yuridik shaxs.

Yuridik shaxslarni Birja a'zolicigakiritish shartlari va talablari

Birja a'zolari tarkibiga kirish uchun tegishli ariza berish huquqiga ega yuridik shaxslar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishga vakolatli davlat organi tomonidan berilgan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan investitsion vositachilar;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishga vakolatdor davlat organi tomonidan berilgan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan investitsion aktivlarning ishonchli boshqaruvchilari;
- bank faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tijorat banklari;
- sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan sug'urtachilar.

Davlat boshqaruvi va hokimiyat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek Birja xodimlari Birja A'zosi bo'lishi mumkin emas.

Birja a'zoliciga qabul qilish protsedurasining rasmiylashtirilishi

Yuridik shaxslarning Birja A'zolari tarkibiga qabul qilish Birja Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Birja a'zolari soni qonunchilikka muvofiq holda tartibga solinadi.

Birja a'zoriga qabul bo'lish uchun yuridik shaxslar Birja devonxonasiga namunali shakldagi tegishli arizani kerakli hujjatlarni ilova qilgan holda yoki Birja Boshqaruvi Raisi nomiga ERI bilan tasdiqlangan PDF formatida elektron shaklida berishi kerak, ya'ni:

- tashkilotning davlat qaydidan o'tganligi borasidagi guvohnomaning nusxasi;

- qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi sifatida faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziya nusxasi (banklar uchun – O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki litsenziyasi; sug'urtalovchilar uchun – O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi litsenziyasi).

- qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisini kamida ikkita xodimining shahodatnomasi nusxasi;

- bandida ko'rsatilgan xodimlarning qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi shtatiga asosiy ish joyiga qabul qilinishi borasidagi buyruq nusxasi.

Ariza Birja devonxonasida qayd qilinadi va Boshqaruv Raisi yoki u yo'qligida Boshqaruv Raisining o'rinbosarining qayd belgisi bilan ijro uchun Birjaning mas'ul bo'linmasiga beriladi, ushbu ariza uch kunlik muddat ichida ariza beruvchining Birja A'zolari tarkibiga kiritilishi qonuniyligi yoki sabablari ko'rsatilgan holda Birja A'zolari tarkibiga kiritish uchun rad javobini berish borasidagi xulosasini taqdim etadi. Birjaning mas'ul bo'linmasi xulosasi asosida Birja Boshqaruvi ariza beruvchining Birja a'zolari tarkibiga kiritilishi yoki sabablari ko'rsatilgan holda Birja a'zolari tarkibiga kiritish uchun rad javobini berish borasidagi qarorini chiqaradi. Birja Boshqaruvi tomonidan nomzodni Birja a'zoriga kiritish bo'yicha qabul qilingan tegishli qarorning nusxasi uch kunlik muddat ichida ariza beruvchiga jo'natiladi. Ariza beruvchi uni Birja A'zolari tarkibiga kiritilganligi haqidagi qarorning nusxasini olganidan so'ng Birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan namunali shaklga asosan «Toshkent» RFBda qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzish uchun xizmat ko'rsatish haqidagi Shartnomani (bundan buyon - Shartnoma) tuzishi kerak. Shartnoma joriy taqvim yili yoki joriy taqvim yili va keyingi taqvim yilini qamrab oladigan davr uchun tuziladi. Shartnoma muddati tugaganidan so'ng uni qaytadan tuzish yoki muddatini uzaytirish zarur. Shartnoma ikki nusxada tuziladi. Shartnoma 10 ish kuni ichida imzolanib,

Birjaga taqdim etilishi kerak. Agar 10 ish kuni davomida Shartnoma Birjaga taqdim etilmasa, Birja Birja a'zolidigini bekor qiladi va ariza beruvchining Birja A'zolari tarkibiga kiritish borasidagi qarorini kuchdan qoldiradi. Birja a'zosi tomonidan u imzolagan Shartnomaning ikki nusxasi taqdim etilganidan so'ng, Birja unga uch kun ichida taraflar imzolagan Shartnomaning bitta nusxasi va "Toshkent" RFB Birja A'zolidigiga kiritilganlik haqidagi Guvohnoma" ni beradi. Shartnomaning bitta nusxasini olganidan so'ng, Birja A'zosi Birjada "Toshkent" RFBda qimmatli qog'ozlarning birja savdosi Qoidalari'ga muvofiq brokerlik idorasining akkreditatsiyasini amalga oshiradi.

A'zolik badallari

Birja texnologiyalari, axborot va telekommunikatsion tizimlarini rivojlantirish, hamda savdo zalida Birja a'zolarining treyderlari ish o'rinlarini jihozlash, favqulodda holatlarda Birjaning xarajatlarini qoplash uchun Birja Boshqaruvi Birja a'zolarining a'zolik badallarini to'lashi borasida qaror qabul qilishi mumkin.

Birja Boshqaruvi quyidagi huquqlari mavjud:

- a'zolik badallari miqdorini belgilash;
- Birja a'zolari faoliyati samarasini oshirish va ularning xarajatlarini kamaytirish uchun Birja a'zolaridan a'zolik badallarini undirmaslik;
- Birja a'zolari faoliyatini rag'batlantirish va yangi Birja a'zolarini jalb etish maqsadida a'zolik badallari undirilishini bekor qilish (bungacha a'zolik badallarini undirish tartibi mavjud bo'lgan holatida).

A'zolik badallari miqdori quyidagilar bilan belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan eng kam ish haqqining miqdori bilan;
- O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi mutlaq kattalik bilan.

Davriyligiga qarab a'zolik badallari bo'lishi mumkin:

- muntazam;
- nomuntazam.

Muntazam a'zolik badallariga Birja A'zolari tomonidan muntazam davriylik asosida to'lanadigan badallar kiradi, ya'ni: har bir taqvimiy oy yoki chorakda. Nomuntazam a'zolik badallari bir martalik xususiyatga ega bo'lib, favqulodda moliyaviy holatlarda Birjaning xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan. Muntazam a'zolik badallari har bir kelgusi davr uchun ko'rsatilgan davrning 10 - kunidan kechiktirmay to'lanadi. Birja Boshqaruvi tomonidan to'lanishi belgilangan badallar bo'lsa, Birja a'zolari muqarrar davriylik bilan muntazam a'zolik badallarini to'lashlari zarur.

Nomuntazam a'zolik badallarining miqdori Kuzatuv Kengashi bilan kelishilgan holda Birja Boshqaruvi tomonidan belgilanadi. Nomuntazam a'zolik badallari belgilangan muddatlarda Birja Boshqaruvining tegishli qarori asosida to'lanadi.

Birjada a'zolikni to'xtatish

Birjada qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi a'ziligini quyidagi hollarda Birja to'xtatishi mumkin:

- Birja A'zosi tomonidan Shartnoma talablari ijro etilmaganda;
- a'zolik badallarini bir marta to'lanmasligi;
- qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yuritishga huquq beruvchi litsenziyaning amal qilishishini to'xtatish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishga vakolatli davlat organi bo'yrug'i bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ko'rsatmalari asosida;
- sud qaroriga asosan.

Birjada qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi a'zoligi to'xtatilishi Birja Boshqaruvining tegishli qaroriga binoan rasmiylashtirilib, qarorning nusxasi Birja a'zosiga beriladi. Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi a'ziligini Birjada tiklash ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etilganidan so'ng, shuningdek sudning qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Birjada a'zolikni tugatish

Birja Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining Birjada a'ziligini quyidagi hollarda to'xtatishi mumkin:

- Birja a'zosining arizasi (o'z xohishiga ko'ra);
- Birja a'zosi tomonidan Shartnoma shartlarining qo'pol ravishda buzilishi;
- doimiy ravishda (ketma ket ikki martadan ortiq) a'zolik badallarini to'lamaslik;
- qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yuritishga huquq beruvchi litsenziyani amal qilinishini to'xtatish yoki tugatish;
- sud qaroriga asosan.

Keltirilgan asoslar bo'yicha Birjada qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining a'ziligini tugatish birja boshqaruvining uni Birja a'zolari tarkibidan chiqarilishi haqidagi tegishli qarori bilan rasmiylashtiriladi. Birja a'zolari tarkibidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi bilan "Taraflarning pulli majburiyatlari bo'yicha o'zaro hisob – kitobni solishtirish dalolatnomasi"ga muvofiq hisob kitob qilinadi. Ilgari Birja a'zolari

tarkibidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisini Birjada tiklash faqat sud qaroriga asosan amalga oshirilishi mumkin.

Birja A'zolari tarkibidan chiqarilganga 5 ish kuni davomida quyidagi hujjatlar jo'natiladi:

- Birja a'zolari tarkibidan chiqarilganlik borasidagi Birja Boshqaruvi qarori nusxasi;

- Birja a'zolari tarkibidan chiqarilganlik borasidagi rasmiy bildirishnoma;

- Ikki nusxadagi taraflarning pulli majburiyatlari bo'yicha o'zaro hisob-kitobni solishtirish dalolatnomasi;

- rasmiy «Toshkent» RFBda qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzish uchun xizmat ko'rsatish haqidagi shartnomaning bekor qilinishi to'g'risidagi Bildirishnoma".

A'zolikdan chiqarilgan Birja a'zosi belgilangan muddat ichida Birja oldida pulli majburiyatlarini bajarmasa, Birja qonunchilikka muvofiq ravishda qarzni undirish choralarini ko'radi.

Birja A'zolarini «Toshkent» RFB tarkibidan chiqarilganda o'zaro hisob-kitob qilish tartibi

Birja A'zosi Birja A'zolari tarkibidan chiqarilganda unga ikki nusxada "Taraflarning pulli majburiyatlari bo'yicha o'zaro hisob – kitobni solishtirish dalolatnomasi" (bundan buyon – Solishtirish bayonnomasi) jo'natiladi. Unda quyidagi to'lovlar mavjud:

- qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning komission yig'implari;

- a'zolik badallari (agar nazarda tutilgan bo'lsa);

- jarimalar;

- penya va neustoykalar;

- xizmat va ishlar uchun Birja tomonidan belgilangan boshqa to'lovlar.

10 ish kuni davomida sobiq Birja a'zosi imzolangan ikki nusxadagi Solishtirish bayonnomasini Birjaga qaytaradi. Solishtirish bayonnomasi qaytarilmagan holatida Birja sobiq Birja a'zosining pulli majburiyatlarini u tomonidan bajarilishi majbur deb qabul qiladi. Birja tomonidan Solishtirish bayonnomasi imzolanganidan so'ng, Solishtirish bayonnomasining bitta nusxasi sobiq Birja a'zosiga 5 ish kuni davomida qaytariladi. Sobiq Birja a'zosi Solishtirish bayonnomasiga asosan qonunchilik bilan belgilangan muddatlarda barcha pulli majburiyatlarini bajaradi. Agar sobiq Birja a'zosi Birja oldidagi o'z pulli majburiyatlarini

bajarmasa, Birja qonunchilikka muvofiq ravishda bajarilmagan pulli majburiyatlarni undirishga haqli. Agar Birjada Solishtirish bayonnomasiga asosan sobiq Birja a'zosi oldida pulli majburiyatlari bo'lsa, Birja qonunchilik bilan belgilangan muddatlarda ularni bajaradi. O'z pulli majburiyatlarini o'zaro bajarilmagan holatda, taraflar belgilangan tartibda qarzdordan qarz summalarini sud orqali undirishga haqlidirlar.

7.2. Birja kotirovka varag'i va toifalari. Kotirovka toifalariga qo'yiladigan talablar. Listing va delisting, uni amalga oshirish tartibi

“Toshkent” RFBda 2021 yil 1 yanvargacha Birja kotirovka varag'i - tegishli «A», «B», «C» va «P» toifalari bo'yicha Birja savdolariga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxatidan iborat bo'lgan.

“Toshkent” RFBda 2021 yil 1 yanvargacha amal qilgan Birja kotirovka varag'i quyidagi toifalardan iborat bo'lgan.

✓ Birja kotirovka varag'ining **«A» toifasi** – emitentlarning birja listingidan o'tgan va mazkur toifadagi listing talablarini qanoatlantiradigan qimmatli qog'ozlari ro'yxati;

✓ birja kotirovka varag'ining **«B» toifasi** – emitentlarning birja listingidan o'tgan va mazkur toifadagi listing talablarini qanoatlantiradigan qimmatli qog'ozlari ro'yxati;

✓ birja kotirovka varag'ining **«C» toifasi** – emitentlarning birja listingidan o'tgan va mazkur toifadagi listing talablarini qanoatlantiradigan qimmatli qog'ozlari ro'yxati;

✓ birja kotirovka varag'ining **«P» toifasi** – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va/yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq birja savdolariga qo'yiladigan, birja listingidan o'tgan davlat aksiyalari va qimmatli qog'ozlari ro'yxati (agar emitent va uning qimmatli qog'ozlari ilgari «A» yoki «B» yoki «C» toifalariga kiritilmagan bo'lsa).

“Toshkent” Respublika fond birjasi Kuzatuv kengashining 2020 yil 9 iyuldagi qaroriga asosan “Toshkent” Respublika fond birjasining birja kotirovka varag'i to'g'risidagi Nizom (keying o'rinlarda Nizom) qabul qilindi. Mazkur nizomga ko'ra listing toifalarida A, B, C va P toifalar o'rniga Premium va Standart toifalari joriy qilindi. Ushbu toifalarga qo'yilgan talablar haqida quyiroqda to'xtalib o'tamiz.

Birja kotirovka varag'iga kiritiladigan qimmatli qog'ozlar

Birja kotirovkasi - birja savdolariga qabul qilingan ma'lum turdagi qimmatli qog'ozlar ro'yxati bo'lib, dastlabki tekshirishni talab qilmaydigan hamda ularning sifat ko'rsatkichlari o'zgarimasligi va birja bitimlari tuzilishining barqarorligi bilan tavsiflangan bo'ladi.

Birja kotirovkalari ro'yxatiga qonun hujjatlarida chiqarilishi uchun tan olingan quyidagi qimmatli qog'ozlar kiritilishi mumkin:

a) O'zbekiston Respublikasi rezidentlari emitentlarining qimmatli qog'ozlari, shu jumladan:

- aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari (oddiy va imtiyozli);
- korporativ va infratuzilma obligatsiyalari;
- aksiyalari birja kotirovkalari ro'yxatining eng yuqori toifasiga kiritilgan emitentlarning birjada sotiladigan obligatsiyalari;
- hosilaviy qimmatli qog'ozlar;
- depozit sertifikatlari;

b) davlat qimmatli qog'ozlari, shu jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqarilgan munitsipal obligatsiyalar;

v) qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan kvotalar doirasida berilgan depozitar tilxatlar;
- xalqaro moliya tashkilotlarining qimmatli qog'ozlari;

• Qimmatli qog'ozlar xalqaro komissiyalari tashkiloti a'zo - mamlakatlari emitentlarining qimmatli qog'ozlari.

Birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilganida, qimmatli qog'ozlar Yagona dasturiy texnik kompleksi (keyingi o'rinlarda YDTK) savdo tizimining tuzilishiga muvofiq quyidagi segmentlarda (modullarda) namoyish etiladi:

I. Aksiyalar bozori «Stock Market»:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining aksiyalari;

II. Obligatsiya bozori «Bond Market»:

a) AJning korporativ obligatsiyalari

b) MChJ korporativ obligatsiyalari;

v) infratuzilma obligatsiyalari;

- d) birja obligatsiyalari;
- e) depozit sertifikatlari;
- f) xalqaro moliyaviy tashkilotlarning obligatsiyalari;

III. Davlat qimmatli qog'ozlar bozori «Government securities market»:

- a) davlat xazina majburiyatlari;
- b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar;
- v) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking obligatsiyalari;
- d) mahalliy obligatsiyalar;

IV. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori «Derivatives»:

- a) fyucherslar;
- b) opsiolar;
- c) o'zbek depozitar tilxatlari (UDR);
- d) ETF;
- e) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa hosilaviy qimmatli qog'ozlar.

«Stock Market» modulidagi aksiyalar, qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatiga va ushbu Nizomda belgilangan boshqa talablarga qarab, quyidagi toifalarga bo'linadi: **“Premium”** va **“Standart”**.

“Premium” toifasi – “Standart” toifasiga nisbatan ancha qat'iy talablar qo'yiladigan aksiyalar uchun birja kotirovkalari ro'yxatining eng yuqori toifasi bo'lib hisoblanadi.

Obligatsiya bozoridagi qimmatli qog'ozlar «Bond Market», davlat qimmatli qog'ozlari bozori «Government securities market» va hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozoridagi «Derivatives» toifalashsiz birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan.

Aksiyalar listingida 2021 yil 1 yanvardan boshlab A, B, C, P toifa o'miga joriy qilingan Premium va Standart toifalari hamda boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan listing talablari bilan tanishib o'tamiz.

Qimmatli qog'ozlar listing prosedurasi

Qimmatli qog'ozlarning listingi “Toshkent” Respublika fond birjasining birja kotirovka varag'i to'g'risidagi Nizomi (keyingi o'rinlarda Nizom) talablari asosida amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning listingini yuritish tartibi to'liq va soddalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Bunda qimmatli qog'ozlarni listingni yuritishning soddalashtirilgan tartibi davlat qimmatli qog'ozlari, halqaro moliya tashkilotlarining

obligatsiyalari, hosilaviy qimmatli qog'ozlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan davlat ulushi savdoga qo'yilayotgan aksiyadorlik jamiyatlariing atsiyalari uchun ham qo'llaniladi.

Qimmatli qog'ozlarni listingini yuritishning to'liq prosedurasi boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olishga nisbatan qo'llaniladi.

Qimmatli qog'ozlarni listingini yuritishning to'liq protsedurasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) qimmatli qog'ozlarni birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish uchun dastlabki xulosani berish to'g'risidagi arizani va ushbu Nizomda belgilangan hujjatlarni Birja tomonidan qabul qilish;

b) birja listing bo'limi tomonidan emitentning moliyaviy holati va qimmatli qog'ozlarning likvidligini baholash bilan qimmatli qog'ozlar emitentining boshqa hujjatlari va arizani ko'rib chiqish;

c) emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish yoki rad etish to'g'risidagi tavsiyanomasi bilan birja kengashiga xulosa tayyorlash va listing birligi tomonidan tayyorlangan materiallarni emitentning iltimosiga binoan Birja Listing komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish;

d) birja Boshqaruvi tomonidan emitentning qimmatli qog'ozlarining birja listing talablariga muvofiqligi yoki emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatiga asosli sabablar bilan kiritishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish va chiqarish;

e) birja Boshqaruvi qarori asosida Nizomning 26-bandida ko'rsatilgan talablar bajarilishi sharti bilan emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish.

Qimmatli qog'ozlarning har bir chiqarilishi yuqorida keltirilgan tartiblar asosida majburiy tartibda listingdan o'tkaziladi istisno tariqasida ushbu tartibning 8-bandning ikkinchi xatboshisida keltirilgan emitentning qo'shimcha emissiya qilingan aksiyalarini kotirovka listingiga kiritish uning avvalgi kotirovka listingiga kiritilgan aksiyalari qatoriga avtomatik ravishda borib qo'shiladi.

Emitent birjaga o'z qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish uchun Nizomda ko'rsatilgan 1-ilovaga muvofiq murojaat qiladi, hamda qimmatli qog'ozlar turiga qarab Nizomda keltirilgan 2-ilovada ko'rsatilgan Zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etadi.

Hujjatlar emitent tomonidan yozma ravishda muhr bilan (mavjud bo'lsa) va "rasmiy nusxasi" muhri ko'rsatilgan tegishli rasmiy shaxsning

imzosi bilan yoki elektron shaklda Birja rasmiy web-saytining maxsus bo'limi orqali taqdim etiladi.

Ushbu hujjatlarni elektron shaklda yuborish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda elektron raqamli imzodan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Emitent u taqdim etgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'liqligi va to'g'riligi uchun javobgardir.

Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan talab qilinadigan hujjatlar noto'g'ri va / yoki to'liq berilmagan taqdirda, emitent ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilmaguncha, Birja taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqmaydi, Birja bu haqda emitentga hujjatlarni qabul qilgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida yozma ravishda (elektron xabarnoma yuborish orqali) xabar beradi.

Birja listingi bo'limi o'z qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish uchun emitentdan to'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlarning to'liq to'plamini olgan kundan boshlab 5 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda quyidagi tartiblarni amalga oshiradi:

- taqdim etilgan hujjatlar asosida birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Emitentlarning moliyaviy holatini ekspertizadan o'tkazish tartibi"ga muvofiq emitentning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini hisoblaydi (baholaydi) va belgilaydi ularning belgilangan listing talablariga muvofiqligi;

- qimmatli qog'ozlarning likvidligini "Qachonki qimmatli qog'ozlar likvidligini baholash uslubiyati" ga muvofiq baholaydi va ularni "Toshkent" RFBning birja kotirovkalari ro'yxatida kiritiladi va ularni ro'yxatda bo'lishini ta'minlaydi;

- emitent ko'rsatkichlarining Nizomning 3, 3-1, 3-2-ilovalarida ko'rsatilgan listing talablariga muvofiqligini tekshiradi;

- amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risidagi hisobotni Birjaning Listing komissiyasi ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Listing komissiyasi 2 ish kuni ichida hujjatlar to'plamini, shuningdek, Birja listing bo'limining hisobotini ko'rib chiqib, birja kengashiga xulosasini chiqaradi, uning segmentini ko'rsatgan holda birja kotirovkalari ro'yxatiga emitentning qimmatli qog'ozlarini kiritish to'g'risida va toifasi (agar aksiyalar kiritilgan bo'lsa) yoki qimmatli qog'ozlarni birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risida xulosa kiritadi.

Listing komissiyasining yig'ilishi protokol bilan tuziladi, unga majlisda qatnashgan barcha komissiya a'zolari imzo chekishadi.

Birja бoшқаруви Listing komissiyasi yig'ilishidan boshlab 2 ish kuni ichida emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatiga uning segmenti va toifasini (agar aksiyalar kiritilgan bo'lsa) yoki 1 ish kuni ichida emitentning elektron pochta manzili va yuridik manziliga yuborilgan birja kotirovkalari ro'yxatiga emitentning qimmatli qog'ozlarini kiritishni rad etish to'g'risidagi axborotni jo'natadi.

Ijoiy qaror qabul qilingan taqdirda, emitentga "Emitentning qimmatli qog'ozlarini "Toshkent" RFB birjalar kotirovkalari ro'yxatiga kiritish va mavjudligi to'g'risida" Shartnomaning (keyingi o'rinlarda Shartnoma) ikki nusxasi bilan ham tuzish uchun yuboriladi. Emitent Nizomning 9-ilovasiga muvofiq yillik listing bo'jini to'lash uchun hisob-fakturani, emitentning qimmatli qog'ozlarini kiritish imkoniyati to'g'risida Boshqaruv qarorida ko'rsatilgan va ushbu xavfsizlik turi va listing toifasiga qarab, Nizomning 5-ilovasiga muvofiq belgilangan.

Soddalashtirilgan listing tartibiga ko'ra, Birja kengashi emitentdan qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish uchun to'liq rasmiylashtirilgan hujjatlar to'plamini olgandan keyin 5 ish kuni ichida elektron shaklda qabul qiladi va emitentga yuboradi, emitentning qimmatli qog'ozlarini uning segmentini ko'rsatgan holda birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish imkoniyati to'g'risida qaror va toifalar (agar aksiyalar kiritilgan bo'lsa), shuningdek, shartnomaning ikki nusxasi yillik listing to'lovini to'lash uchun hisob-fakturani o'z ichiga olgan.

Davlat ulushi birja savdolarida sotilishi kerak bo'lgan emitentning aksiyalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Aksiyalar bozori «Stock Market» segmentining «Standart» toifasiga kiritilgan.

Aksiyalar bozori "Stock Market" Premium toifasining LISTING TALABLARI

No	Talab nomi	O'rnatilgan talab
1	Xususiy kapital	Hujjat topshirish paytida 15 mlrd. so'm va undan yuqori
2	Aksiyadorlik jamiyati sifatidagi faoliyati	5 yildan yuqori
3	Free float (erkin muomaladagi aksiyalar)	15 dan boshlab
4	Auditorlik tashkiloti	Ichki audit mavjudligi
5	Korporativ boshqaruv bo'limi	majburiy

6	Moliyaviy hisobot standartlari	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) yoki GAAP va auditning xalqaro standartlari (AXS) asosida moliyaviy hisobot yuritish va audit o'tkazish
7	Emitentning aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan korporativ boshqaruv kodeksining mavjudligi	majburiy
8	Aksiyadorlar soni	300 aksiyadordan kam bo'lmagan
9	Korporativ veb-sayt mavjudligi	majburiy
10	Sof foyda	Ustav kapitalining 10 foizidan kam bo'lmagan (har yili)
11	Dividend to'lovi	dividend to'lovidagi barqarorlik - so'nggi 3 yil uchun yillik sof foydadan 30 foizdan kam bo'lmagan miqdorida
12	Kuzatuv kengashda mustaqil a'zoning mavjudligi	majburiy
13	Qimmatli qog'ozlar likvidlitigi	Market-meykerning mavjudligi yoki o'tgan yil uchun mazkur qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar tuzilgan savdo kunlari soni jami o'tkazilgan savdo kunlari sonining 70 foizidan kam bo'lmagan miqdorda

**Aksiyalar bozori "Stock Market" Standart toifasining
LISTING TALABLARI**

№	Talab nomi	O'rnatilgan talab
1	Ustav kapital	Hujjat topshirish paytida 500 mln. so'm va undan yuqori
2	Aksiyadorlik jamiyati sifatidagi faoliyati	Emitentning faoliyat ko'rsatish muddati belgilanmagan. Mazkur toifaga kirishda Birjaga ko'rib chiqish uchun hujjatlar: - agar emitent 2 yilda ortiq vaqt

		<p>mobaynida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2 yil uchun tayyorlangan;</p> <p>- agar emitent 2 yildan kam vaqt mobaynida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, so'nggi yakunlangan moliyaviy yil uchun tayyorlangan;</p> <p>- agar emitent 1 yildan kam vaqt mobaynida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, so'nggi kvartal uchun tayyorlangan hujjatlarni taqdim etadi.</p>
3	Ijobiy moliyaviy natija	<p>- faoliyat muddati 2 yildan kam bo'lgan emitentlar uchun so'nggi yakunlangan moliyaviy yil uchun ijobiy moliyaviy natija va ijobiy auditorlik xulosasi;</p> <p>- faoliyat muddati 1 yildan kam bo'lgan emitentlar uchun so'nggi yakunlangan kvartal uchun ijobiy moliyaviy natija.</p>
4	Aksiyadorlar soni	50 aksiyadordan kam bo'lmagan
5	Korporativ veb-sayt mavjudligi	majburiy

**Obligatsiyalar bozori "Bond Market"ning
LISTING TALABLARI**

№	Talab nomi	O'rnatilgan talab
1	Xususiy kapital miqdori	500 mln. so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
2	Jamiyatning faoliyat ko'rsatayotgan muddati	3 yildan kam bo'lmagan muddatda
3	Moliyaviy ko'rsatkichlar	So'nggi 3 yil uchun ijobiy moliyaviy natija
4	Emitentda ilgari chiqargan obligatsiyalari bo'yicha defolt holatlari yo'qligi	So'nggi 3 chiqariluv mobaynida
5	Korporativ reytingning mavjudligi	majburiy

Qimmatli qog'ozlarni Birja kotirovka varag'ida bo'lib turish shartlari

Qimmatli qog'ozlarni birja kotirovkalari ro'yxatira joylashtirish shartlari nisbatan qo'yiladigan talablar Nizomning 4, 4-1-ilovalarida ko'rsatilgan.

Emitent navbatdagi choraklik moliyaviy hisobotni taqdim etgan kundan boshlab o'n ish kuni mobaynida birjaning mas'ul bo'limi emitentning moliyaviy holati ko'rsatkichlarini hisoblab chiqadi va emitentning qimmatli qog'ozlarining likvidligini baholaydi hamda emitentning birja kotirovkalari ro'yxatining tegishli toifasiga ushbu Nizomlarda belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlaydi.

Agar kalendar yil davomida 4, 4-1-ilovalarda ko'rsatilgan belgilangan talablar bajarilmasa, Birja emitentning qimmatli qog'ozlarini boshqa toifaga o'tkazish masalasini ko'rib chiqish yoki emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatidan chiqarib tashlash to'g'risida huquqiga ega.

Davlat ulushi birja savdolarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va (yoki) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan sotilishi kerak bo'lgan emitentlarning aksiyalariga uni sotishdan oldin, 4, 4-1-ilovalarda ko'rsatilgan "Standart" toifasida qimmatli qog'ozlarni topish shartlari qo'llanilmaydi.

Birja listing kompaniyalarining aksiyalarini "Premium" toifasidan birja kotirovkalari ro'yxatining "Standart" toifasiga quyidagi hollarda o'tkazadi:

- "Premium" toifasidagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga qo'yiladigan talablarning bajarilmasligiga olib keladigan moliyaviy-xo'jalik faoliyati emitentning ko'rsatkichlari o'zgarganida;

- Nizomda "Premium" toifalari uchun belgilangan talablarga rioya qilmaganda.

Birja kotirovkalari ro'yxatining "Standart" toifasidan "Premium" toifasiga o'tish birja kengashining tegishli qarori asosida amalga oshiriladi, listing komissiyasining xulosasi asosida emitentni xabardor qilgan holda qabul qilinadi.

Listing qilingan kompaniyaning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalari ro'yxatining bir toifasidan ikkinchi toifasiga o'tkazish to'g'risida xabarnoma birja kengashi qarori qabul qilingan kundan boshlab bir ish kuni ichida emitentga yuboriladi.

**Qimmatli qog'ozlarni Birja kotirovka varag'ida bo'lib turish shartlari
Aksiyalar bozori "Stock Market" Premium toifasi**

№	Talab nomi	O'rnatilgan talab
1	Qimmatli qog'ozlar likvidiligi	Market-meykerning mavjudligi yoki o'tgan yil uchun mazkur qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar tuzilgan savdo kunlari soni jami o'tkazilgan savdo kunlari sonining 70 foizidan kam bo'lmagan miqdorda
2	Sof tushumning emitentning barcha aktivlariga nisbati	Har bir kalendar yil uchun 0,5 % ko'rsatkichdan kam bo'lmashligi lozim
3	Emitentlar tomonidan dividendlarning so'zsiz hisoblanishini ta'minlash	Sof foydaning 30 foizidan kam bo'lmagan miqdorda
4	Har kalendar yili uchun free-float hajmi	Emitent tomonidan chiqarilgan aksiyalarning 15 % dan kam bo'lmagan miqdorda
5	Ustav kapital miqdoriga nisbatan bitim hajmi	Bir yil uchun eng kamida 0,5 %

**Qimmatli qog'ozlarni Birja kotirovka varag'ida bo'lib turish shartlari
Aksiyalar bozori "Stock Market" Standart toifasi**

№	Talab nomi	O'rnatilgan talab
1	Har bir kalendar yil uchun listing kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari bilan birja bitimlarining umumiy soni	100 tadan kam bo'lmagan miqdorda
2	Sof tushumning emitentning barcha aktivlariga nisbati	Har bir kalendar yil uchun 0,2 % ko'rsatkichdan kam bo'lmashligi lozim
3	Har kalendar yili uchun free-float hajmi	Emitent tomonidan chiqarilgan aksiyalarning 5 % dan kam bo'lmagan miqdorda

Qimmatli qog'ozlarning delistingi.

Birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlarini delistingi Birja tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

➤ Nizomda belgilangan birja kotirovkalari ro'yxatida qimmatli qog'ozlarning mavjud ligishartlari va talablarining bajarilmaganda;

➤ ketma-ket 12 kalendar oy davomida axborotni oshkor qilish talablarini 10 va undan ortiq marta buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa;

➤ Nizomning 58-bandida nazarda tutilgan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki boshqa yuqori boshqaruv organining qarori bilan emitentdan o'z qimmatli qog'ozlarini ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan chiqarilishi to'g'risida ariza berishi;

➤ qonun hujjatlarida belgilangan holatlar yuzaga kelganda, qimmatli qog'ozlar delistinggi uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

➤ iqtisodiy sudning tegishli qarori (qarori) bilan tasdiqlangan emitentning bankrotlik belgilarining mavjudligi;

➤ emitentning muomaladagi qimmatli qog'ozlarini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan bekor qilinishi;

➤ yillik listing to'lovini o'z vaqtida to'lamaganligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan davlat ulushi bo'lgan aksiyalar paketi sotilishi belgilangan jamiyatlarning "Standart" kategoriyasiga kiritilgan aksiyalarini delistingi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

• qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan ushbu emitent aksiyalarining chiqarilishini bekor qilish yoki bekor deb topish;

• davlat aksiyalarining barcha to'plami davlat aktivlarini boshqarish bo'yicha vakolatli organning tegishli buyrug'i asosida birja savdolaridan chiqarilganda;

• O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va (yoki) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan fosh etilgan davlat aksiyalar paketi sotilgan hisobot choragi natijalariga ko'ra, Nizomda belgilangan birja kotirovkalari ro'yxatida qimmatli qog'ozlarni bo'lib turish shartlari va talablariga javob bermasa.

Qimmatli qog'ozlar emitentlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarori yoki boshqa yuqori boshqaruv organi bo'lgan taqdirda o'zlarining qimmatli qog'ozlarini ixtiyoriy ravishda delistingi to'g'risida ariza yuborishlari mumkin, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida

e'lon qilinganidan keyin emitentning rasmiy web-saytlarida va agar birja emitentning qimmatli qog'ozlarini egalaridan emitentning qayta sotib olish to'g'risidagi so'rovlari kelib tushgan taqdirda, birjada ular bilan amalga oshirilgan so'nggi bitim bahosi bo'yicha o'zlarining qimmatli qog'ozlarini qayta sotib olish to'g'risida yoki o'zlariga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarning bir qismi, bu to'lovni qoplash talablari qabul qilingan davrni ko'rsatadi.

Bunday holda, ixtiyoriy ravishda delisting bo'lgan taqdirda ularning qimmatli qog'ozlarini sotib olish to'g'risidagi so'rovlar qabul qilinishi davomida e'londa belgilangan kundan boshlab 90 kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak.

Delisting to'g'risida qaror Birja Boshqaruvi tomonidan Listing komissiyasining tegishli xulosasi asosida qabul qilinadi.

Bunda qimmatli qog'ozning delistingi amalga oshirilgan sana oxirgi ish kuni hisoblanadi va keyingi kuni birjadan tashqari savdolari tashkil etuvchi tashkilotga ushbu qimmatli qog'oz birja kotirovka listingidan chiqarilganligi (delisting) va birja operatsiyalarini amalga oshirilmasligi to'g'risida tegishli xabarnoma jo'natiladi.

Birja kengashi delisting to'g'risida qaror qabul qilgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kunidan ko'p bo'lmagan muddat ichida birja emitentga qabul qilingan qaror to'g'risida xabar beradi.

Eslatma: Birja listingi – qimmatli qog'ozlarni, ularni birja kotirovka varag'iga kiritgan holda qimmatli qog'ozlar birja savdosiga qo'yish protsedurasi. Delisting – emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovka varag'idan chiqarish protsedurasi. Relisting – delisting qilingan qimmatli qog'ozlarni qaytadan kotirovka varag'iga kiritishiva birjada savdolarga qo'yish protsedurasi. Listing kompaniyalari – qimmatli qog'ozlari birja kotirovka varag'iga kiritilgan emitentlar. Listing komissiyasi – Birjaning qimmatli qog'ozlar birja listingi va delistingini amalga oshiradigan komissiyasi.

7.3. Fond birja indeksleri, ularning turlari va tavsifi⁶³

Fond indeksi – bu qimmatli qog'ozlar bozori holatini baholash ko'rsatkichi bo'lib, sodir bo'layotgan makroiqtisodiy jarayonlarni kompleks ifodalaydi. Iqtisodiyotda inqirozlar sodir bo'lsa, uning miqdori pasayadi. Iqtisodiy o'sish davrida esa uning miqdori ortib boradi. Shuning uchun fond indekslarini barcha mamlakatlarda iqtisodiyot holatini

⁶³Mazkur paragrafni tayyorlashda Sh.Shoxa'zamiyning "Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar" darsligidan foydalanildi.

umumlashgan miqdoriy ko'rsatkichlari deb qabul qilingan. Ya'ni fond indeksi qanday-dir ma'lum bir son bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorining holati sifatini tavsiflaydi (ifodalaydi). Ushbu sonni qandaydir bir vaqtda hosil bo'luvchi oddiy bir son deb qaralsa, unda bu son mazmunan o'zida hech qanday aytarliq muhim axborotni mujassamlashtirmaydi. Muhimi sonning mazmunida emas, balki uning avvalgi davrlardagi miqdorlarini bir-birlari bilan solishtirma baholashdan hosil bo'ladigan natijalardadir. Bu natijalar ketma-ketligi asosida qiziqtirgan vaqt oralig'ida qimmatli qog'ozlar bozori holatini ijobiy yoki salbiy ekanligi to'g'risida aniq miqdoriy tasavvurga ega bo'lish mumkin. Lekin bu sonni hosil qiluvchi qonuniyatning matematik shakliga qaralsa, u holda uni ma'lum bir mazmun-mohiyatdan kelib chiqishini, demak ma'nosiz oddiy sondan farqliligini, ko'rish mumkin. Shunday qilib fond indeksi bir tomondan mazmunan ob'ektni – fond bozoridagi qiziqtirgan ko'satkichlarini bir-bir bilan bog'likligi qonuniyatini matematik shaklda ifodalaydi, ikkinchi tomondan esa uning bir necha vaqt cheraralari uchun hisoblab topilgan qiymatlarini bir-biri bilan solishtirilganda ob'ektdagi hodisalarni qiziqtirgan vaqt oraliqlarida o'zgarishi tendentsiyalari dinamikasini namoyon qiladi. Aynan shuning uchun ham fond indekslari iqtisodiyot uchun ahamiyatlidir.

Fond indeksi quyidagi asosiy maqsadlarga javob berishi lozim:

- fond bozoridagi holatni aniq va o'z vaqtida ifodalashi;
- bozor tendentsiyasi yo'nalishini prognoz qitish, taxnik tahlil usullari yordamida bozor holatini bashorat qilish uchun qulay va yaxshi vosita bo'lishi;
- turli milliy fond bozorlarida yirik strategik investitsiyalar qilish bilan shug'ullanadigan investorlarga aynan qaysi bir mamlakat bozoriga qaysi vaqtda o'z sarmoyalarini yo'naltirishi mumkinligi to'g'risida tegishli qaror qabul qilishi uchun yordam berishi;
- risklarni na faqat bozor doirasida, balki uning alohida ko'rsatkichlari (masalan, foiz stavkalari) bo'yicha xedjirlash maqsadida fyuchers va opsiyon shartnomalar uchun vosita bo'lib hizmat qilishi;
- "ishonchlilik-daromadlilik" toifalarida qimmatli qog'ozlarning optimal portfelini shakllantirish va samarali boshqarishda qaror qabul qilish uchun asos bo'lib hizmat qilishi;
- indeks yordamida ifodalanuvchi fond boyligi bilan yoki ularning o'hshash (korrelyatsiyalanuvchi) bozorida ishlovchi treyder (yoki portfel boshqaruvchisi va h.k.) olishi lozim bo'lgan daromadning minimal bazaviy miqdorini ko'rsatishi;

- muayyan kompaniyalar boshqaruvchilarining ish sifatini tarmoqlar va umuman bozor bo'yicha o'rtacha qiymatlari sifati bilan solishtirma baholash vositasi bo'lib hizmat qilishi;

- indeks portfelida keltirilgan instrumentlar muomalada bo'luvchi mamlakat bozorida uni tartiblashtiruvchi organlar faoliyatini tavsiflashi, iqtisodiy holat va investitsion muhitni aks etishi kerak.

Fond indeksleri ularni birjada yoki birjadan tashqari (nobirjaviy) bozorda qo'llanilishiga qarab, mos ravishda birja indeksleri va birjadan tashqari bozor indeksleri bo'lishi mumkin.

Indeksler qimmatli qog'ozlar turini tanlashga bog'liq bo'lgan, ularni hisoblab topishda qo'llaniladigan ma'lumot bo'yicha, umuman qimmatli qog'ozlar bozori, qimmatli qog'ozlar turlarining guruhlari bozori, iqtisodiyotning qandaydir tarmog'iga oid qimmatli qog'ozlar bozori holatini ifodalashi mumkin. Bu indeksler tendentsiyasi dinamikasini solishtirish u yoki bu tarmoq holatini umuman iqtisodiyotga nisbatan qanday o'zgarishini ko'rsatishi mumkin.

Indeksler axborot agaentliklari va fond birjalari tomonidan hisoblab topiladi va muntazam ochiq ravishda chop etilib boriladi.

Indeksler moliyaviy instrumentlarning turli hillari uchun ishlab chiqilgan, masalan, aksiyalarga, qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlarga, horijiy valyutalarga va h.k. Ularning ichida aksiya indeksleri eng keng tarqalgani hisoblanadi.

Fond indekslarining ko'p qismi ikki guruhdan biriga, ya'ni kapitalizatsiyalashgan va narhli indekslarga, mansubdir.

Kapitalizatsiyalashgan indeksler kompaniyalarning umumiy kapitalizatsiya darajasini o'lcaydi. Ularni hisoblab topishda kompaniyalarning aksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar qo'llaniladi. Indeksning hisoblab topilgan qiymatlari ma'lum bir bazaviy sanaga nisbatan me'yoriylashtiriladi.

Ta'kidlash joizki, kompaniyaning kapitalizatsiyasi deganda, uning muomaladagi aksiyalari sonini bozor bahosiga ko'paytmasi tushuniladi.

Kapitalizatsiyalashgan indekslarga *Standard and Poor's (S&P-500, S&P-400)*, Nyu-York fond birjasining yig'ma va boshqa shu kabi indeksleri kiradi. G'arb mamlakatlari qimmatli qog'ozlari bozorining ko'pchilik indeksleri shu toifaga mansub.

Narhli indeksler, yoki boshqacha qilib aytganda, narhga mutanosib vaznlashtirilgan indeksler. Ular indeksning bazaviy ro'yhatiga kirgan kompaniya-lar aksiyalarining o'rta arifmetik bahosi ko'rinishidagi formula asosida hisoblanib topiladi. Bunday indekslarga, masalan, Dou Djons

(Dow Jones) sanoat va boshqa turdagi indeksleri, indeks Tokio fond birjasi indeksi – *Nikkei-225* va shularga o‘hshash boshqa indekslar.

Hozirda indekslar derivativlar uchun bazis aktiv sifatida qo‘llanilmoqda. Bunday bazisli derivativlar qimmatli qog‘ozlar bozori qatnashchilariga turli investitsion strategiyalarni amalga oshirish, operatsiyalarni xedjirlash, spekulativ o‘yinlarda faol ishtirok etish va h.k. imkoniyatlarini beradi.

Indeksni hisoblash metodologiyasi

Qimmatli qog‘ozlar bozori indekslarini hisoblash metodologiyasini ko‘rishda quyidagi savollarga javob topish lozim:

- fond indeksleri qaysi formulalar yordamida hisoblanib topiladi;
- fond indekslarini hisoblashda foydalaniladigan informatsiya qanday talablarga javob beradi;
- informatsiya tarkibi o‘zgarganda yoki qandaydir korporativ voqealar sodir bo‘lganda fond indekslarini hisoblash formulalariga qanday qilib tuzatishlar kiritiladi.

Indeks “modelini” qurishning umumiy va tan olingan metodikasi quyidagicha:

1. Bozor tanlab olinadi. Bozor sifatida odatda alohida olingan savdo maydonchasi (tizimi) yoki qandaydir region (mamlakat) bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar to‘plami qabul qilinadi.

2. Indeks listingiga kiritish uchun qimmatli qog‘ozlar saralab olinadi. Indeks egasi bo‘lgan indeks-kompaniya bozorning nufuzlilikini (reprezentativlilikini) ifodalovchi ahamiyatga sazovor bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni saralab olishni maqsad qilib qo‘yadi. Bunda qimmatli qog‘ozlarning boshqa parametrlari ham hisobga olinadi, masalan, ularning ichida eng asosiysi saralangan qog‘ozlarning likvidiligi darajasi. Odatda tanlab olingan savdo tizimining indeksi listingiga ushbu savdo maydonchasida muomalada bo‘luvchi barcha qog‘ozlar kiritiladi.

3. Indeksni hisoblash uchun kerak bo‘lgan parametrlarni yetkazib beruvchi informatsion sheriklar tanlanadi. Odatda savdo maydonchalari yoki real bitimlar bo‘yicha axborot agentliklarining ma‘lumotlari ishlatiladi.

4. U yoki u qimmatli qog‘ozlarni indeksga qilgan ta‘sirini aniqlash uchun qimmatli qog‘ozlarni “mutanosib vaznlashtiriladi”. Odatda metodika sifatida bozor kapitalizatsiyasining mutanosiblik tamoyili (printsipi) qo‘llaniladi. Bu printsipga asosan, qimmatli qog‘oz bozor uchun shunchalik ahamiyatliki, qachonki uning jami bozor kapitalazatsiyasi darajasi yuqori bo‘lsa, va aksincha – past bo‘lsa.

5. Indeksni bevosita ikki metodikaga asosan hisoblash mumkin.

1) "*Bevosita hisoblash metodikasi*". Ushbu metodika bo'yicha indeks vaqtning har bir davridagi (momentidagi) kotirovkalardan shu vaqtning momentida (davrida) kelib chiqqan funksiyaning natijasiga teng. Masalan, bazaviy formula sifatida o'rtacha vaznlashtirilgan arifmetik qiymat tanlab olinsa, vaqtning har bir momentidagi indeks = summa R_xV /summa V . Bunda: R – indeks listingiga kiritilgan barcha aksiyalar narhi; V – ularning (aksiyalarning) vazn koeffitsienti; x – ko'paytiruv belgisi; $/$ - bo'luv belgisi.

Agar vazn koeffitsientlari 1 (birga) teng bo'lsa, unda Dou Djons indekslarini hisoblash bilan bog'liq holatni ko'rishimiz mumkin, ya'ni bunda indeks listingga kiritilgan barcha aksiyalar narxlari summasini listingdagi aksiyalar soniga bo'lgan bo'linmasiga teng. Indeks hisoblanganidan keyin ko'pincha uni muvofiqlashtiruvchi koeffitsientga ko'paytiriladi (yoki bo'linadi).

2) "*Indeksli hisoblash metodikasi*". Ushbu metodika bo'yicha vaqtning har bir davridagi (momentidagi) virtual portfelning jami bahosi aksiyalar kotirovkalaridan shu vaqtning momentida (davrida) kelib chiqqan funksiyasi deb hisoblanadi. Olingan qiymatni shunga o'hshab indeksni hisoblashning boshlang'ich vaqtiga bo'lgan davrga olingan virtual portfel bahosiga bo'linadi va uni oldingi qiymatiga ko'paytiriladi (yoki portfelning oldingi qiymatiga bo'linadi va indeksning oldingi qiymatiga ko'paytiriladi). Indeksning qiymatini muvofiqlashtirish uchun shunga o'xshash metodika qo'llaniladi.

Indikator qaysi metodika bo'yicha hisoblanishidan qat'iy nazar, agar u mavjud fond indeksleri ta'riflarga to'g'ri kelsa, unda u fond indeksi deb nomlanishi lozim.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda shakllangan indeks xisoblanishining umumiy metodikasi uning boshlanishida taklif etilgan metodikadan kam farqlanadi. Biroq barcha indekslar o'zlariga xos bo'lgan xususiyatlarga ega.

Turli mamlakatlarda u yoki bu indekslarni hisoblab chiqarishning o'ziga xos usullari ishlab chiqilgan, biroq ularning hammasi u yoki bu darajada iqtisodiyot ahvolining ko'rsatkichlari – indikatorlaridir. Indeksning hisoblab chiqilgan mutlaq kattaliklarining o'zi, fond bozori qatnashchilariga hech narsa bermaydi. Indeksning ayrim ko'rsatkichlarini bazaviy yoki oldingi kattaliklarga qiyoslangan vaqtdagina bozordagi vaziyatning o'zgarish yo'nalishlarini aniqlab olish mumkin. Agar indeks egri chizigi yuqoriga ko'tarilib borsa, bu davlat iqtisodiyotida

jonlanish yoki ko'tarilish yuz berayotganidan dalolat beradi, agar, aksincha indeks egri chizigi pastga qarab yo'nalgan bo'lsa, bu – davlat iqtisodiyotida ishlab chiqarishning pasayishi va tanglikning aniq belgisidir.

Indekslarni hisoblash qimmatli qog'ozlar, odatda, ko'p sonli kompaniyalarning aksiyalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar indekslarini hisoblashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularning ichida eng ko'p tarkalgani har bir kompaniya chiqargan qimmatli qog'ozlar (aksiyalar)ning sonini ularning narxiga ko'paytirib, keyin hisoblash uchun ajratib olingan qimmatli qog'ozlar umumiy soniga bo'lishdan iboratdir. O'rtacha ko'rsatkichlarga xos bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun, indekslarni hisoblash vaqtida aniq statistik formulalardan foydalaniladi. Indekslar fond birjalari, investitsiya muassasalari, maxsus agentliklar va nashriyotlar, shu jumladan, davlat muassasalari tomonidan hisoblanadi.

So'nggi yillarda g'arb mamlakatlarida va AQShda bozorning tarmoq, hududiy belgilar va shu kabi ayrim segmentlarida (birjada yoki birjadan tashqarida) muomalada yuradigan qimmatli qog'ozlar, moliya vositalarining ayrim turlari asosida tuziladigan subindekslar deb atalgan o'rtacha ko'rsatkichlarning katta miqdori yuzaga keldi. Ayrim indekslar arbitraj bitimlarda opsiyonlar va fyucherslar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar vaqtida foydalaniladi. Indeks bitimlar texnologiyasi shunga asoslanadiki, indeks kattaligining ijobiy yoki salbiy o'zgarishi pul koeffitsientiga ko'paytiriladi. Olingan summa ishtirok etuvchi tomonlarning biriga tulanadi. Indeks fyucherslari va opsiyonlar Qimmatli qog'ozlarning qandaydir etkazilib berilishini ko'zda tutmaydi, bitim indeksning yuqoriga yoki pastga qarab yo'nalishi harakatidan hosil bo'lgan farqni to'lash orqaligina yopiladi. Bunda fyucherslarda bu bozor belgisi yordamida yuz beradi, ya'ni bitim natijasi kontrakt tugatilayotgan vaqtda tomonlarning marja mavqelari bilan ifodalanadi. Indeks opsiyonlari bozordagi umumiy vaziyat beqaror bo'lib qolgan vaqtda diversifikatsiyalangan portfellarga nisbatan himoyalash va sug'urtalovchi operatsiyalarni o'tkazishga, fyucherslarga qaraganda, ko'proq darajada yordam beradi. Ko'plab mutaxassislarning fikricha, har qanday portfelga ushbu fyucherslar va opsiyonlarni qo'shish uning o'rtacha daromadlilikini o'zgartirmaydi, lekin xatar darajasini talaygina pasaytiradi.

AQSh fond bozorining indekslari

Dow Jones Indexes

1884 yil 3 iyul kuni ilk bor Charlz Dou tomonidan "*Wall Street Journal*" jurnalida birja indeksi sifatida taklif etilgan bo'lib, *Dow Jones*

Railroad Average deb atalgan va hisoblashda o'z ichiga 9 temir yo'l va 2 sanoat kompaniyalari aksiyalarini olgan. Uni hisoblash metodikasi juda sodda, ya'ni 11 kompaniya aksiyalari narhining o'rtacha arifmetik qiymati hisoblangan. Bunda birinchi savdo kunining yopilishi paytidagi indeks ko'rsatkichi 69,93 punktni tashkil etgan bo'lib, O'sha kuni unga kirgan aksiyalarning jami summasi 769,23 punktni tashkil qilgan.

1896 yil 26 may kundan boshlab, bu indeksning "o'rtacha sanoat" indeksi, ya'ni *Dow Jones Industrial Average (DJIA, DJA)* deb nomlangan yana bir turi kiritilgan. Bu indeks ham avvalgisiga o'hshash hisoblanib topilgan bo'lib, o'z ichiga sanoat kompaniyalari aksiyalarini olgan.

1928 yilda indeksni hisoblash metodikasiga o'zgartirishlar kiritildi, ya'ni mahsus ko'paytma (joriy vaqtdagi bo'luvchi – *current divisor*) kiritildi. Bu o'zgartirish yangi aksiyalar emissiyasi, aksiyalarni maydalash yoki yiriklashtirish (konsolidatsiyalashtirish), dividendlar to'lash, kompaniyalar ro'yhatini (listingini) o'zgartirishi va shu kabi h.k. jarayonlar tufayli yuzaga kelgan indeks ishorasining o'zgarishini oldini olish uchun yuzaga keldi.

1929 yildan boshlab muomalaga 20 kommunal hizmat kompaniyalari aksiyalari kiritilganidan keyin, *Dow Jones Utility Average* indeksi kiritildi. Keyinchalik bu kompaniyalarning soni 15-taga qisqartirilgan. Undan keyin bu indeks o'zgarib turgan.

1970 yilda eng birinchi indeks bo'lgan *Dow Jones Railroad Average* indeksi nomi "transport", ya'ni *Dow Jones 20 Transportations Average*, indeksi deb nomlana boshlagan. Bunga sabab, listinga temir yo'l, yuk tashuvchi va aviakompaniyalar kiritilgan.

Hozirda har bir uch indeksning shoh supasida *Dow Jones Composite Average* indeksi turadi. Unga *Dow Jones* indeksi oilasining boshqa indekslariga kiruvchi va Nyu York fond birjasida savdo qilinuvchi avval 65 yirik kompaniya aksiyalari kirgan. Nyu York fond birjasining umumlashtirilgan (yig'ma) indeksi – *NYSE Composite* birjaning asosiy indeksi bo'lib hizmat qiladi. Bu indeks birja listingidan o'tkazilgan 2300 kompaniya aksiyalarini narhi bo'yicha o'Ichaydi. *NYSE Composite* indeksi mohiyatan birjadagi aksiyalarning o'rtacha qiymatini ifodalab keladi va Dou Djons indeksi oilasidagi indekslardan farqli ravishda punktda emas, balki dollarda o'Ichaydi. *NYSE Composite* indeksi bo'yicha fyucherslar birjaning o'zida savdo qilinadi, fyuchers shartnomalari birjaning opsiyonlar bo'linmasi bo'lgan fyucherslar birjasida sotiladi.

1988 yildan beri Dou Djons indeksini 700 kompaniya aksiyalar bo'yicha Nyu York fond birjasida hisoblanib kelinmoqda. Shu bilan birga

transport va kommunal xizmat kompaniyalari aksiyalari hamda 40 kompaniya obligatsiyalari bo'yicha ham indekslar hisoblanmoqda.

Biroq uzoq vaqt davomida birja listingiga kirgan aksiyalar bir necha marta o'zgartirishga qaramasdan, indekslarning hisoblash metodologiyasi deyarli o'zgarmagan. Indeksning tarkibi unga kirgan aksiyalarning barqarorligi o'zgarib turgan, masalan, ba'zi kompaniyalarning aksiyalari unga bir kirib bir chiqib turgan, *General Electric* kompaniyasi aksiyalari esa ba'zida butunlay bozorda yo'q bo'lib ketish va yana paydo bo'lishi hollari ham bo'lgan. Ta'kidlash joizki, indeksga "yangi iqtisodiyot" kompaniyalari aksiyalari uzoq muddat davomida kiritilmay kelgan (masalan, *Microsoft* kompaniyasi) va ularni keyinchalik kiritilishi indeksning ahamiyatiga bir muncha qiyinchi-liklar keltirib chiqargan. Lekin, bunga qaramasdan, bunday kompaniyalar aksiyalarining indeksga kiritilishi uning ahamiyatini yanada oshirdi va AQSh fond bozoridagi kuchlarni real (ob'ektiv) taqsimlanishiga olib keldi.

Hozirda *Dow Jones* indeksiga Chikago birjasida (*Chicago Mercantile Exchange*) fyucherslar savdolari amalga oshirilmoqda. *Dow Jones* indeksidan tashqari AQSh fond bozorida boshqa indekslar ham mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

AMEX Indexes

American Stock Exchange – Amerika fond birjasi uchta indeks bilan ishlaydi. Birinchisi, *AMEX Major Market Index* indeksi bo'lib, unga 20 yirik sanoat kompaniyalari aksiyalari kiradi. Bu birja listingiga kirgan kompaniyalar aksiyalari Nyu York fond birjasida ham sotiladi.

Ikkinchisi, *AMEX Market Value Index* indeksi (1973 yilga kiritilgan) bo'lib, unga birja listingidan o'tgan 800-dan ziyod turli tarmoqlarga oid kompaniyalar aksiyalari kirgan. Birja muomalasiga depozitar guvohnomalar (tilhatlar) va obuna sertifikatlari ham kiritilgan. Aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanishi bilan bog'liq reinvestitsiya hisob-kitobini amalga oshirish birjaning o'ziga hos xususiyatidir. Birjada ushbu indeks bo'yicha opsiyonlar ham sotiladi.

Uchinchisi, *AMEX Composite*, indeksi (1995 yilning 29 dekabr kundan kiritilgan) bo'lib, birjada sotiladigan qimmatli qog'ozlarning barcha turlarini umumlashtirilgan kompozit indeksidir.

NASDAQ Indexes

1971 yil 8 fevral kuni dunyodagi birinchi qimmatli qog'ozlarning elektron savdosi bozori – *National Association of Dealers Automated Quotation (NASDAQ)* ishga tushdi. 1994 yilda *NASDAQ* bozorining

o'rtacha yillik aylanmasi (oboroti) hajmi Nyu York fond birjasinikidan oshib ketdi.

1998 yilda *NASDAQ* va *AMEX* o'zaro birlashib, yagona *NASDAQ AMEX Market Group* tashkil topdi. *NASDAQ* indeklari guruhiga quyidagilar kiradi:

1. *NASDAQ Composite* (ko'p hollarda uni *NASDAQ* deb atashadi) umum-lashgan (yig'ma) indeks (kapitalizatsiya bo'yicha mutanosib vaznlashtirilgan) bo'lib, listingdan o'tgan 4381 amerika va horijiy kompaniyalar (umumiy kapitalizatsiyasi 6000 mlrd. dollar bo'lgan) aksiyalari holatini hisobga oladi. Bu bozorda asosan (ko'p jihatdan) "yangi iqtisodiyot" kompaniyalari, ya'ni yangi texnologiyalar va texnika ishlab chiqaruvchi kompaniyalar qimmatli qog'ozlari muomalada bo'ladi. Bunda horijiy kompaniyalarning salmog'i Nyu York fond birjasi va Amerika fond birjasidagi kompaniyalarning jamidan ham ko'p.

2. *NASDAQ National Market Composite* indeksi – Amerika milliy bozori birja tizimi qismining listingi bo'yicha *NASDAQ* bosh indeksi analogi. Bu indeks o'zida 4013 kompaniya aksiyalari bo'yicha quyidagi indeklarni qamragan: sanoat indeksini (2860 kompaniya aksiyalari), bank aksiyalari indeksini (224 bank), sug'urta kompaniyalari indeksini (106), transport kompaniyalari indeksi (65) va boshqa indeklarni.

3. *NASDAQ-100* indeksi, unga tarmoqlar bo'yicha guruhlangan 100 "yangi iqtisodiyot" kompaniyalariga oidlari kiradi. Indeksda 1998 yildan boshlab har bir kompaniya aksiyasi bo'yicha na faqat "kapitalizatsiya bo'yicha mutanosib vaznlashtiriladi", balki og'irlik koeffitsientiga har chorakda qo'shimcha tarzda aniqliqlashtirishlar kiritiladi. Bunday holat indeks tendentsiyasida qo'shimcha noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Lekin metodikani ishlab chiqqan mutahassislar bunday holatni foydili deb fikr bildirganlar.

4. *NASDAQ* indeksi tarmoqlar bo'yicha farqlanib hisoblanadi, buda quyidagi indeklarni misol qilib ko'rsatish mumkin: *NASDAQ Financial-100*, *NASDAQ Industrial*, *NASDAQ Transportation*, *NASDAQ Bank*, *NASDAQ Telecommunications*, *NASDAQ Insurance*, *NASDAQ Computer*, *NASDAQ Other Finance*, *NASDAQ Biotechnology*. Bu indeklar Amerika iqtisodiyoti tarmoqlaridagi holatni aks ettiradi, lekin *Off-shore* foydalanuvchilar uchun qiziqish uo'g'otmaydi. *NASDAQ* indeklariga fyuchers va opsiyonlar Chikago birjasida (*Chicago Mercantile Exchange*) savdo qilinadi.

Standard & Poor's (S & P) Indexes

Yirik reyting agentliklaridan bo'lmish *Standard & Poor's* tomonidan hisoblab chiqiladigan indikatorlar dunyodagi eng tarqalgan indekslardir. Ularning tarixi 1941-1943 yillarga borib taqalib, asosiyarlari quyidagilar:

1. *Standard & Poor's 500* – 500 yirik (kapitalizatsiya darajasi yuqori bo'lgan) amerika kompaniyalari bo'yicha hisoblanadigan bosh indeks bo'lib, unda “kapitalizatsiya bo'yicha mutanosib vaznlashtirish” texnologiyasi (metodikasi) qo'llaniladi. Hozirda bu indeks o'z ichiga quyidagi tarmoqlar bo'yicha kompaniyalar sonini o'z ichiga oladi: 400 sanoat, 20 transport, 40 kommunal ho'jalik va 40 moliya kompaniyalarini. Bu indeksda Nyu York fond birjasi savdosidagi kompaniyalarning 80 foizidan ziyod aksiyalari hisobga olinadi, unga *AMEX* va birjadan tashqari oborotda (muomalada) bo'lgan aksiyalar ham kiradi. Ushbu indeks real sektor bilan bog'liq bo'lgan treyder va menejerlar o'rtasida eng ko'p qo'llaniladigan indekslardan hisoblanadi.

2. *Standard & Poor's 100* – 100 yirik amerika kompaniyalari (Chikago tovar birjasida ular bo'yicha opsiyonlar mavjud bo'lganlari) bo'yicha hisoblanadigan indeks bo'lib, unda “kapitalizatsiya bo'yicha mutanosib vaznlashtirish” metodikasi qo'llaniladi. Bu indeksga asosan sanoat kompaniyalari aksiyalari kiradi.

3. *Standard & Poor's tarmoqlar bo'yicha indeksleri* – AQSh iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini ifodalovchi 90-ga yaqin indeks.

4. *Standard & Poor's* agentligi tomonidan hisoblab topiladigan boshqa ko'p sonli indekslar ham mavjud. Geografik nuqtai nazardan *Standard & Poor's* indeksleri dunyoning regionlarining ko'p qismini qamraydi. Kompaniyalarni kapitalizatsiya hajmi bo'yicha guruhlashtiruvchi indeksleri ham mavjud. Bunday indekslar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: *S&P Europe 350, S&P Latin America 40, S&P Asia Pacific 100, S&P MidCap 400, S&P SmallCap 600, S&P REIT Composite, S&P/BARRA Growth & Value, S&P/TOPLX 150, S&P/TSE 60, S&P/TSE Canadian MidCap, S&P/TSE Canadian SmallCap.*

Barcha *S&P* indeksleri umumiy metodologiyaga asoslanganligi uchun ularni o'zaro solishtirish oson kechadi.

S&P indekslariga chiqariladigan fyuchers va opsiyonlar Chikago tovar birjasi (*Chicago Mercantile Exchange*) savdolariga kiritilgan.

Russel Indexes

Frank Russel Company (Tacoma, WA) kompaniyasi tomonidan chop etiladigan indekslar kapitalizatsiya miqdori belgisi bo'yicha tanlab olingan kompaniyalar holatini aks ettiradi. Kompaniyaning indeksni hisoblashdagi

bu yangiligi (yangi yondashuvi) iqtisodiyotni yirik va kichik biznesga alohida ta'sirini aniqroq baholash imkonini beradi.

1. *Russel 1000 Index* Amerikaning 1000-ta kapitalizatsiya darajasi ayniqsa yuqori bo'lgan kompaniyalarining holatini ifodalaydi.

2. *Russel 2000 Index* kapitalizatsiya darajasi kichik bo'lgan kompaniyalarning (*Smallcap companies* – kapitalizatsiyasi 380 mln. dollardan kam bo'lgan kompaniyalar) holatini ifodalaydi.

Wilshire 5000 Indexes

Fond bozorining eng yirik indekslaridan bo'lib, o'zida Nyu York fond birjasi (*NYSE*), Amerika fond birjasi (*AMEX*) va *NASDAQ* tizimi listingiga kirgan 5000 kompaniya holatini ifodalaydi.

Goldman Sachs Technology Indexes (GSTI)

GSTI indeksi oilasi o'zining tipik hisoblash metodikasi va ma'lum bir tarmoqqa yo'naltirilganligi bilan mutahassislar uchun qulaydir. Orasida qiziqish qozongan. Bu oilaga quyidagi indekslarni kiritish mumkin: *GSTI Hardware Index (GHA)*, *GSTI Internet Index (GIN)*, *GSTI Multimedia Networking Index (GIP)*, *GSTI Semiconductor Index (GSM)*, *GSTI Software Index (GSO)*, *GSTI Services Index (GCV)*.

Value Line Indexes

Bu indekslar o'zining hisoblash metodikasini xususiyatlari bilan mutahassislarda qiziqish uyg'otgan, bo'lib, *Value Line* kompaniyasi tomonidan ikki turi bo'yicha (*Value Line Composite (Arithmetic) Index* va *Value Line Composite (Geometric) Index*) hisoblanib chop etilib boriladi. Ushbu indekslar 1700-dan ortiq kompaniyalar aksiyalarini qamrab olgan. Indeksni hisoblashda qo'llaniladigan metodika fond bozoridagi holatni yaxshi aks ettirmaydi, lekin bozordagi dinamik spekulyantlar uchun juda foydali.

Moody's o'rtacha indeksi sanoat, temir yo'l transportiva kommunal xizmatlar kompaniyalari holatini aks ettiradi.

Boshqa horij mamlakatlari fond bozorlari indeksleri

Boshqa mamlakatlar fond bozorlari indeksleri soni AQSh fond indekslariga miqdoriga qaraganda ancha kam, *Off-shore* foydalanuvchilariga uchun esa ularning faqat bittasi qiziqish uo'g'otishi mumkin. Uning sababi juda oddiy, birinchidan, bu bozorlarda AQSh bozoriga qaraganda kompaniya-larning kapitalizatsiya darajasi ancha kam, ikkinchidan, regional kompaniya-larning boshqa boshqa bozolarga ko'rsatadigan ta'siri unchalik kuchli emas. Shuning uchun boshqa mamlakatlar fond indekslarini regional indekslar deb yuritish mumkin. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

FTSE Indexes

Dunyoda birinchilardan va kattaligi bo'yicha uchinchi bo'lgan bu fond indeksi oilasiga bir nechta indekslar kiradi. *Financial Times* agentligi tomonidan joriy etilgan Buyuk Britaniyadagi eng qadimiy indeks *Financial Times Industrial Ordinary Share Index* nomi bilan yuritiladi. Uning qisqartmasi *FTSE-100 (FTSE-30)* ko'rinishda ishlatiladi. Bugungi kunda eng keng tarqalgan mashhur indeks bu *FTSE-100 (Footsie)*. Bu indekslarning hisobi va nashri bilan *FTSE International* kompaniyasi shug'ullanadi.

FT-30 (FTSE-30) yirik sanoat va savdo kompaniyalarini qamrab olgan bo'lib, o'rta geometrik formula asosida (listingga kiruvchi aksiya kurslari ko'paytmasidan 30-chi darajadagi ildizi) hisoblanadi.

FTSE-100 listingga 100 kompaniyaning aksiyalari kirgan bo'lib, sanoat va savdo kompaniyalari bilan cheklanmaydi. Listingga aksiyalarning tanlanishi mutahassislar tomonidan amalga oshiriladi, ularning orasida *Financial Times* gazetasining vakillari ham bor. Hozirgi vaqtda mazkur listingga kirgan kompaniyalarning kapitalizatsiyasi Buyuk Britaniya fond bozorining 70 foizi kapitalizatsiyasini ifodalaydi. Indeksni hisoblash 1984 yilning 3 yanvaridan boshlab (bu vaqtda indeks miqdori 1000 punktga teng bo'lgan) kompaniyalar aksiyalari kurslarini bozor kapitalizatsiyasi bo'yicha bir vaznga mutanosiblashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

FTSE Mid 250 listingga kompaniyalarning birinchi yuzligidan keyin Buyuk Britaniyaning 250-ta kompaniyasi (bozor kapitalizatsiyasi bo'yicha) kiradi. Bu indeks 1985 yildan beri hisoblanib kelinadi, shu vaqtda uning miqdori 100 punktga teng bo'lgan. Ushbu indeks Buyuk Britaniya iqtisodiyotining 20 foizini tashkil etuvchi o'rta hol kompaniyalar aksiyalari bozorini ifodalaydi.

FTSE-All Share – boshqa indekslarga o'hshash, barcha aksiyalardan tanlab olinganlarini o'z ichiga oladi.

DAX Indexes

Germaniyadagi biznes faolligini ifodalovchi indekslar bo'lib, Frankfurt fond birjasi ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblanadilar. Ularning ichidan quyidagilarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

DAX30 – Germaniyaning asosiy, muhim va eng nufuzli indeksi bo'lib, eng yirik kompaniyalar aksiyalari bo'yicha hisoblanadi. Ularning kotirovkasi kapitalizatsiia bo'yicha mutanosib vaznlashtiriladi.

XETRA DAX – ko'p jihatdan *DAX30* bilan mos keluvchi indeks, lekin undan farqli odatdagidan davomiyroq bo'lgan elektron sessiya ma'lumotlari bo'yicha hisoblanadi.

DAX100 – listingiga aksiyalarning kata qismi kirishini inobatga olinmasa, *DAX30* indeksining analogi. *CDAX* – kompozit indeks bo'lib, o'z ichiga 320 kompaniyaning aksiyalarini oladi.

CAC Indexes

Fransiyadagi biznes faolligini ifodalovchi indekslar bo'lib, Parij fond birjasi va Fransiya birjalari jamiyati tomonidan 1987 yil 31 dekabrdan beri hisoblanadilar. Asoiy indekslar – bu *CAC-40* (boshlanishda uning miqdori 1000 punkttni tashkil etgan) va *CAC GeneralCAC-40*. Bu indekslar o'z listinglariga mos ravishda 40 va 250 kompaniyaning aksiyalarini kiritgan.

Nikkei Indexes

Nikkei-225 (Nikkei Dow Jones Averege) listingiga Nyu York fond birjasi va Tokio fond birjasida muomalada bo'lgan 225 kompaniyaning aksiyalari kirgan. Bu indeksni hisoblash metodikasi *Dow Jones Industrial Averege* metodikasi bilan to'liq mos kelib, 1950 yildan beri chop etiladi.

Topix Index – 1968 yildan beri chop etilib kelayotgan yapon indeksi bo'lib, listingi uchun baza sifatida Tokio fond birjasining birinchi sektsiyasida sotiladigan barcha aksiyalar olingan. Bu indeks “muomalaga chiqarilgan aksiyalarning soni bo'yicha mutanosib vaznlashtirish” usuli bo'yicha hisoblanib topiladi.

Japan bond-10. Yaponiyaning Tokio fond birjasida muomalada bo'lgan obligatsiyalar bozori indeksi. Bu indeks “muomalaga chiqarilgan obligatsiyalarning soni bo'yicha mutanosib vaznlashtirish” usuli bo'yicha hisoblanib topiladi.

TSE Indexes

Kanada iqtisodiyotining 14 sektorini ifodalovchi *TSE300* indeksi bo'lib, uni Toronto birjasi o'zida sotiladigan 300 kompaniyaning aksiyalari bo'yicha (kapitalizatsiya bo'yicha mutanosib vaznlashtirish usuli asosida) hisoblaydi. Bu indeks 1975 yildan beri hisoblanadi (boshlanishda uning miqdori 1000 punkttni tashkil etgan).

IPC Index

Meksika fond birjasi tomonidan 1978 yil 30 oktyabrdan beri kapitalizatsiya bo'yicha mutanosib vaznlashtirish usuli asosida hisoblanadi (boshlanishda uning miqdori 0,78 punktga teng bo'lgan). Uning listingiga 35 yirik kompaniyalar qimmatli qog'ozlari kirgan. Indeks listingi har ikki oyda qayta ko'rib chiqiladi.

Bovespa

San-Paulu (Braziliya) birjasining indeksi bo'lib, o'z listingiga kiritilgan eng likvid bo'lgan aksiyalar bo'yicha hisoblab topiladi.

Hang Seng

Gonkong fond birjasi ma'lumotlari bo'yicha 1964 yildan beri hisoblanadigan etakchi Osiyo indeksi (boshlanishda uning miqdori 100 punktga teng bo'lgan). Bu indeks bozorning asosan besh sektori holatini (ishlab chiqarish, kommertiya, moliya, kommunal hizmat va er egaligi) ifodalab, listingiga 33 kompaniyaning aksiyalari kirgan. Listinga kirgan aksiyalar bozorning tahminan 70 foizi kapitalizatsiyasini tashkil etadi.

Malaysia KLSE. Kual Lumpur (Malayziya) fond birjasining indeksi bo'lib, o'z listingiga kiritilgan eng likvid bo'lgan aksiyalar bo'yicha hisoblab topiladi. Bu indeks "muomalaga chiqarilgan aksiyalarning soni bo'yicha mutanosib vaznlashtirish" usuli bo'yicha hisoblanib topiladi.

Turkey ISE National-100. Stambul (Turkiya) fond birjasining indeksi bo'lib, o'z listingiga kiritilgan 100 eng likvid bo'lgan aksiyalar bo'yicha hisoblab topiladi.

Hungary BUX. Budapesht (Vengriya) fond birjasining indeksi.

Greece General Share. Gretsiya fond birjasining indeksi.

Singapore Straits Times. Singapur fond birjasining indeksi.

Korean Seoul Comp. Seul (Janubiy Koreya) fond birjasining indeksi.

Argentina MerVal. Argentina fond birjasining indeksi.

Spain Madrid General. Madrid (Ispaniya) fond birjasining indeksi.

Austria ATX. Avstriya fond birjasining indeksi.

Shanghai comp. Shanxay (Hitoy) fond birjasining indeksi.

Rossiya fond bozori indeklari. Rossiya qimmatli qog'ozlari bozorining yoshligiga qaramasdan Rossiya kompaniyalari indeklari yaratish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishishgan va ular bugungi kunda ularning miqdori va turli yondoshuvlari bilan fahrlanishi mumkin. Ularning ichidagi eng hayotiyarlari Rossiya qimmatli qog'ozlari bozori holatini ifodalamoqda. Rossiyada birinchi bo'lib *CS First Boston* Investitsiya bankining *ROS-30* indeksi va *Skeyt Press* agentligining indeksi joriy qilingan, bir muncha kechroq esa bozorga *AK&M* agentligining bir talay indeklari seriyasi, *RTS* va *The Moscow Times Index (MTMS)* indeklari chiqqan. Hozirda Rossiya fond bozorining asosiy indeklari quyidagilar.

AK&M Indexes

AK&M indeklari oilasiga quyidagilar kiradi.

Birlashtirilgan (jamiylashtirilgan) *AK&M* indeksi 1993 yil 1 sentyabdan joriy qilingan bo'lib (boshlanishda uning miqdori 1000 punktga teng bo'lgan), u butun bozorni tavsiflash uchun xizmat qiladi. 2001 yil 1 mart kunida uning listingiga 50 kompaniyaning aksiyalari kirgan.

Sanoat kompaniyalari aksiyalarining *AK&M* indeksi 1993 yil 1 sentyabdan joriy qilingan bo'lib (boshlanishda uning miqdori 1000 punktga teng bo'lgan), u sanoat kompaniyalari holatini ifodalash uchun xizmat qiladi. 2001 yil 1 mart kunida uning listingiga 35 kompaniyaning aksiyalari kirgan.

AK&M "ikkinchi eshelon" aksiyalarining indeksi 1997 yil 15 oktyabrdan joriy qilingan bo'lib (boshlanishda uning miqdori 1000 punktga teng bo'lgan), o'z listingida "ikkinchi eshelon" aksiyalarini qamrab olgan. 2001 yil 1 mart kunida uning listingiga 40 kompaniya aksiyalari ("ikkinchi eshelon") kirgan.

*AK&M*ning tarmoq indeksleri - bu banklar, sanoat kompaniyalari, neftgaz tarmog'i, aloqa, neftximiya, rangli metallurgiya, qora metallurgiya, energetika, transport, kimyo sanoati, mashinasozlik tarmoqlari kompaniyalari aksiyalari bo'yicha hisoblanadigan indekslar.

ADR bo'yicha *AK&M* indeksi - listingi depozitar tilxatlar chiqargan kompaniyalar aksiyalarini qamrab olgan bo'lib, 1997 yil 17 noyabrda joriy qilingan (boshlanishda uning miqdori 1000 punktga teng bo'lgan). 2001 yil 1 mart kuniga kelib uning listingiga 40 kompaniyaning aksiyalar kirgan edi.

*AK&M*ning barcha fond indeksleri bir xil usul bo'yicha hisoblanadi. Uning negizida listingning kompaniyalar kapitalizatsiyasi yig'indisini o'zgarishiga nisbatan aniqlash usuli yotadi. Bundan emitentlarning xorijiy fond bozorlarida aylanadigan qimmatli qog'ozlarini hisobga oluvchi *ADR* indeksi mustasnodir.

AK&M indeksleri listingi juda kengdir va ba'zida likvidligi juda past bo'lgan aksiyalarni ham qamrab oladi. Ularni hisoblash kotirovka qilingan narxlar asosida olib boriladi.

Listingga kiritish emitentlar qimmatli qog'ozlarining bozorga ta'sir etish tamoyili asosida olib boriladi. Bunday ta'sirning miqdorini bilgilab beruvchi asosiy omillari sifatida aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi va likvidligi qabul qilingan.

RTS Indexes

RTS indekslar oilasiga *RTSI* va *RTST* indekslar kiradi. Ular *RTS* indeks agentligi bo'lmish *RUX* Interfaks indeks tomonidan hisoblab topiladi.

RTC indeksleri kapitalizatsion indekslar toifasidan bo'lib, ularni hisoblash aksiyalarning jami bozor kapitalizatsiyasini boshlang'ich sana holatidagi O'sha aksiyalarning jami bozor kapitalizatsiyasiga nisbatini indeksning boshlang'ich sanasidagi qiymatiga ko'paytmasi formulasi asosida amalga oshiriladi.

Bozor kapitalizatsiyasining hisoblash aksiyalar narxi va emitent tomonidan chiqarilgan aksiyalar miqdori haqidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Xar bir indeksni hisoblashning davriyligi va aksiya narxini hisoblash metodi ularning o'ziga xos bo'lgan hususiyatidir.

RTSI –*RTS* indeksi *RTS* fond birjasining yagona rasmiy indikator bo'lib xisoblanadi. Indeksning dastlabki qiymati 1995 yil 1 sentyabrda 100 punkt bo'lgan.

RTST –*RTS* fond birjasining texnik indeksi savdo sessiyasi davomida (11:00 dan 18:00 gacha) bir minutda bir marotaba xisoblanadi. Indeksning dastlabki qiymati 1997 yil 31 dekabrda bo'lgan holatda (18:00) 396,858 punktni tashkil etgan.

RUX –(avval *RTS*-Interfaksning yig'ma indeksi deb nomlangan edi) *RTS*-Interfaks indeks agentligi tomonidan rubl va valyuta (dollar) qiymatida hisoblab chiqiladi.

RUX indeksini hisoblashda *RTS* fond birjasidagi bitimlarda tasdiqlangan narxlar va Moskva fond birjasida amalga oshirilgan "Gazprom" kompaniyasi aksiyalari bo'yicha bitimlardagi narxlar haqidagi ma'lumotlar ishlatiladi. Ma'lumot olish manbalari bo'lib "RTS fond birjasi" va Moskva fond birjasi hisoblanadi. Indeksning dastlabki ko'rsatkichi qilib 1998 yil 5 yanvarga bo'lgan xolatdagi 100 punkt olingan.

RBC Composite Index

RBC Composite Index "Rosbizneskonsalting" agentligi tomonidan 1 sentyabr 1997 yildan hisoblanadi va nashr etiladi (uning boshlang'ich miqdori 100 punkt bo'lgan). Uni hisoblash uchun mumtoz metodologiya qabul qilingan. Indeksni hisoblash uchta savdo maydonchasidan kelib tushgan (MMVB, *RTS* va MFB) kotirovkalarni bir vaznga mutanosiblashtirishning o'rtacha geometrik usuliga asoslangan. Hozirgi vaqtda Rossiya aksiyalari bozorining "cho'qqisini" tashkil etgan 14 kompaniyaning aksiyalari indeksga kiritilgan. Bu aksiyalar ekspertlar

komissiyasi tomonidan tanlab olingan. Indekslar turi: jamlantirilgan *RBK* indeksi, *RBK-neft*, *RBK-energetika*, *RBK-aloqa* va h.k.

Real Index RosCapital

Rossiya real indeksi misoliga *Real Index RosCapital* indeksini keltirsa bo'ladi. U muntazam ravishda 2000 yil 28 avgustdan boshlab hisoblanib keladi. Indeksning egasi OAJ "Bazoviy indeks kapitala" (*Basic Index Capital, Corp.*) indeks fondi 2000 yil 25 mayda ro'yxatga olingan.

Hozirda Rossiya bozorining ishtirokchisida ham bozorning bir qismini sotib olish imkoniyati paydo bo'lgan.

Metodologiya sohasida "Roskapital"ning real indeksida muhim farqlar mavjud:

- Rossiyaning tashkillashgan bozorlarida muomaladagi va o'rnatilgan miqdordan kam bo'lmagan likvidlikka ega bo'lgan barcha fond boyliklari listingga (portfelga) kiritiladi. Shuning uchun hisoblashda oddiy aksiyalar bilan bir qatorda imtiyozli aksiya va obligatsiyalarning narxлари hamda shuningdek xususiy va davlat majburiyatlari ishtirok etadi.

- Birlik sifatida indeksga kiritilish uchun kompaniya emas, balki qimmatli qog'oz turi ko'riladi. Mutanosib vaznlashtirishda aynan shundan kelib chiqiladi.

- "RosKapital"ning real indeksi OAJ "Bazoviy indeks kapitala" (*Basic Index Capital, Corp.*) indeks fondi aksiyalari bahosining hosilasidan kelib chiqadigan kattalikdir (o'zgaruvchandir).

Rossiyada keltirilgan indekslar bilan bir qatorda quyidagi indekslar ham mavjud: "Praym-TASS" agentligi indekslari (umumiy va tarmoqiy: *Praym-Djeneral*, *Praym-Top*, *Praym-Pref*, *Praym-Nelikvid*, *Praym-Neft*, *Praym-Svyaz*, *Praym-Elektro*, *Praym-Metall*, *Praym-Ximiya*); "Kommersanta" fond indeksi, Moskva banklararo valyuta birjasi (MMVB) indeksi va h.k.

Rossiya fond bozorining barcha asosiy indekslari kapitalizatsion indekslar (mutanosib vaznlashtirilgan o'rta arifmetik qiymat ko'rinishida) bo'lib, bir biri bilan yaxshi bog'liq (korrelyatsiyalanadi).

"Toshkent" Respublika fond birjasining "UCI" indeksi

"UCI" (inglizcha qisqartmasi – Uzbekistan Composite Index) indeksi – bu Koreya fond birjasi (KRX) ko'magida ishlab chiqilgan, Yagona dasturiy – texnik kompleks (YaDTK) texnologiyasidan foydalangan holda "Toshkent" Respublika fond birjasi listing kompaniyalarining tomonidan tuzilgan birja bitimlari asosida hisoblangan "UCI" jamlanma fond indeksi.

Dow Jones indekslarini hisoblash formulalari

Qimmatli qog'ozlar indekslarini hisoblashda quyidagi yondashuvlar mavjud.

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich. Ushbu indeks quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$I_t = b \sum_{j=1}^N P_{j,t},$$

bu yerda, I_t – fond indeksining t vaqtdagi qiymati $P_{j,t}$ – t vaqtdagi aksiyalari indeksi hisoblanayotgan j kompaniya aksiyasining bozor qiymati, N – fond indeksi hisoblanayotgan kompaniyalar miqdori; b – mvofiqlashtiruvchi koeffitsient ($b=1/\eta$).

bu formula Dou Djons indeksining sanoat o'rtachasini hisoblashda foydalaniladi.

tortilgan o'rtacha arifmetik indeks. ushbu holatda formulani hisoblash metodikasi tortilish bilan farqlanadi.

1) aktsiya narxi bo'yicha tortilgan Indeks quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$I_t = \frac{\sum_{j=1}^N P_{j,t}}{\sum_{j=1}^N P_{j,0}} \mu,$$

bu yerda, $P_{j,0}$ – Dou Djons indeksi hisoblab chiqishda foydalanilayotgan j kompaniya aksiyasining davr boshidagi kursi, μ - indeksning davr boshidagi boshlang'ich qiymati.

2) qiymat tanlovi bo'yicha tortilgan Indeks hisob-kitobi quyidagi fomula bilan hisoblanadi,

$$I_t = \frac{\sum_{j=1}^N P_{j,t} n_{j,t}}{\sum_{j=1}^N P_{j,0} n_{j,0}} \mu,$$

bu yerda, $n_{j,t}$ va $n_{j,0}$ – j kompaniyaning indeksni hisoblab chiqishda foydalanilgan qimmatli qog'ozlarining t davrdagi soni (davr boshida $t=0$ deb hisoblanadi)

bunday yondashuv natijasida indeksni hisoblab chiqish jarayonida yirik kompaniyalar aksiyalari kurs tebranishi kichik kompaniyalar aksiyalari kurs tebranishiga nisbatan sezilarli ta'sir ko'rsatadi. bu formula S&P-500 indeksini ham isoblashda qo'llaniladi va davr boshi sifatida 1941

va 1943 yillar oralig'ini olinadi hamda indeksning bazaviy o'lchami 10 ga teng deb qabul qilinadi.

3) kompaniyalar aksiyalari salmog'ini tenglashtirilgan holdagi Indeks hisob kitobi quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$I_t = \frac{\sum_{j=1}^N \frac{P_{j,t} - P_{j,0}}{P_{j,0}}}{\sum_{j=1}^N n_{j,t}} \cdot 100.$$

tortilmagan o'rtacha geometrik indeks quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$I_t = \sqrt[N]{\prod_{j=1}^N P_{j,t}}.$$

bu formula orqali Buyukbritaniyaning eng qadimiy indekslaridan hisoblanadigan va 1935 yildan chop etila boshlagan FT-30 (FT-30 Share Index, Financial Times International Ordinary Index) indeksi hisob-kitob qilinadi.

tortilgan o'rtacha geometrik indeks quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$I_t = \sqrt[N]{\prod_{j=1}^N \frac{P_{j,t}}{P_{j,t-1}}}.$$

Bu yerda, $P_{j,t-1}$ – j kompaniyaning fond indeksi hisob kitob qilishda foydalaniladigan aksiyalarining savdo kundan bir kun oldin qayd etilgan kursi.

bunday formula orqali AQSh fond bozorida foydalaniladigan « Value Line» (Value Line Composite Average) kompozit indeksi hisob kitob qilinadi.

7.4 Qimmatli qog'ozlar reytingi. Reytingning ahamiyati.

Qimmatli qog'ozlar reytingi deganda, mustaqil tashkilotlar tomonidan qimmatli qog'ozlarning sifatini tavsiflaydigan qiyosiy baholash darajasini belgilash tushuniladi. Odatda, eng yuqori sifatlilari qimmatli qog'ozlar A harfi (simvoli) bilan, o'rtacha yuqori sifatlilari – V, eng past sifatlilari esa – S va D harflari bilan belgilanadi. Qimmatli qog'ozlarning dastlabki reytingi 1909 yili amerikalik Djon (Jon) Mudi tomonidan chop etilgan, u O'sha yilda qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishning potentsial imkoniyatlarini tadqiq etgan bo'lib, mashxur reyting kompaniyalaridan biri uning nomi bilan "Moodu's Investors Services, Inc." deb atalgan. Hozirgi yilda AQSh qimmatli qog'ozlar va fond birjalari komissiyasi to'rtta reyting kompaniyasini, xususan: "Moodu's Investors

Services", "Standard & Roor's Somporation", "Fitch Publishing Compani" va "Duff & Phelps" kompaniyalarini tan oladi. To'rttala kompaniya obligatsiyalar reytingiga ixtisoslashmoqda, " Standard & Roor's Somporation " kompaniyasi esa, bundan tashqari, aksiyalar reytingini ham amalga oshiradi. Qayd etish lozimki, reytinglar berilishi, tabiiyki, ko'pgina kompaniyalarda, reyting yuqori bo'lmagani tufayli, salbiy fikmi yuzaga keltiradi.

Reytinglarning ahamiyati

Ko'pchilik sarmoyadorlar o'zlarining qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishda reytinglardan foydalanadi. Hatgo o'zlarining xususiy tahlilchilariga ega bo'lgan yirik qonsalting tashkilotlari ham o'zlarida olingan reyting baholari natijalarini qiyoslash va shu yo'l bilan u yoki bu kompaniyaga nisbatan o'z xulosalarining nechog'li to'g'riligini tekshirish uchun reytinglarga murojaat qilishadi. Diler – brokerlar investitsiyalarni amalga oshirish, shuningdek o'z mijozlariga maslaxatlar berish jarayonida reytinglardan foydalanadi. AQSh qimmatli qog'ozlar va fond birjalari komissiyasi diler–brokerlarning obligatsiya aktivlarini baholash uchun yuqorida sanab o'tilgan bir necha agentliklarning reytinglaridan foydalanadi. Reyting ma'lumotlar to'plami (spravochniklar) narxi juda qimmatligiga qaramasdan, ular to'g'risidagi ma'lumotlar keng jamoatchilik mulki bo'lib qoladi,

Shu bilan birga, reytinglarning ahamiyatini o'ta yuqori baholab yubormaslik kerak. Reytinglar qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari xayotiga singib kirib borgan bo'lishiga qaramasdan, ular sub'ektiv baholarga asoslanadi va ularning ahamiyati mullaq emas, balki extimoliy, taxminiy kattaliklar sifatida qaralishi mumkin. Ularni u yoki bu qimmatli qog'ozlarni sotib olish yilida berilayotgan tavsiyalar sifatida baholamaslik kerak. Odatda, ularni aniqlashda kurslar hisobga olinmaydi. Reyting kompaniyalari qimmatli qog'ozlar emitentlarining katta soniga reyting berishi tufayli, ushbu kattalikdagi massiv sifatli ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin emas, degan fikrlar ham bor. Masalan, "Moody's" kompaniyasi qimmatli qog'ozlarning 5000 dan ortiq,, " Standard & Roor's " – 2000 dan ortiq, " Duff & Phelps " – 1287 nomiga reyting beradi. Yana shuni ham qayd etish kerakki, reytinglar ko'proq emitentning o'tgan davrdagi ahvolini baholaydigan statistik ma'lumotlarga asoslanadi.

Masalan, ma'lumki, o'tgan davrda anchayin salmoqli va ko'p foyda ko'rgan bir qancha kompaniyalar bugungi kunda unchalik barqaror bo'lmagan ahvolga tushib qolgan. Va aksincha, hozirgi yilda eng istiqbolli bo'lgan tarmoqlarning kelib chiqishi aniq emas.

Qimmatli qog'ozlar reytingini belgilash yuzasidan ish olib borish jarayonida reyting kompaniyalari an'anaviy materiallar: emitentlarning yillik va choraklik hisobotlari, qimmatli qog'ozlarni boshqarish organlaridagi mavjud ma'lumotlar, shuningdek, qonfidentsial (yashirin, maxfiy) yo'llar bilan olinib, faqat ularning o'zigagina ma'lum bo'lgan ayrim manbaalardan foydalanadi. Ko'pgina reyting firmalarining, standart (andoza) formulalar bo'yicha hisoblangan reytinglar – to'g'ri bo'lmasligi mumkin, degan fikrlari reytinglar – sof mexanik usul bilan olinadigan baho emas, deb hisoblash uchun asos bo'la oladi. Ularni aniqlash yilida uzoq muddatli tarmoq yo'nalishlari e'tiborga olinadi, emitentning mo'shyaviy amaliyoti va siyosati, tarmoq davriy o'zgarishlari oraliridagi tebranishlarda o'rganiladi, litsenziyalar va patentlar mavjudligi, emitentlar bilan sarmoyadorlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar mazmuni ham hisobga olinadi.

Qimmatli qog'ozlar reytingini aniqlash yilida kompaniyaning joriy yilgi daromadi va o'tgan yillardagi daromadlari, turli moliyaviy koeffitsientlar, kompaniya rentabelligi istiqbollari, kompaniya va u ishlab chiqarayotgan mahsulotning mashhurligi, tarmoq xususiyatlari, uning daromadlari statistikasi, maxsulot sotilishi sohasidagi yo'nalishlar kabi ko'rsatkichlardan ko'proq foydalaniladi.

Qimmatli qog'ozlar reytinglari ahamiyati yana shundan iboratki, ular tajribasiz sarmoyadorga dastlabki bosqichda pullarni qimmatli qog'ozlarga qo'yilma qilishni mo'ljallab olish uchun imkoy beradi, Reytinglar sarmoyadorlarga emitentning moliyaviy xisob botini jiddiy tahliliy tadqiqotlar o'tkazmay turib, tanlovny amalga oshirishiga yordam beradi. Agar kompaniya reytingi yomoy bo'lmasa, sarmoyador, odatda, o'z qo'yilmalarini etarlicha ishonchly deb hisoblaydi, chunki u mazkur reytingni belgilagan taniqli kompaniyalarga ishonadi.

Reyting – nafaqat emitentning qarzni to'lash qobiliyati belgisi (indikatoridir). To'lovga qobillik reytingi obligatsiyalarning yangi kursiga kirishga ta'sir ko'rsatadi. Obligatsiya reytingy qanchalik yuqori bo'lsa, dividend shunchalik past bo'ladi. Yuqori reytingli obligatsiyalar emitentlariga o'ta yuqori foizlar taklif etish talab qilinmaydi, chunki ularning to'lovga qobilligi o'z-o'zidan sarmoyadorlarni jalb etadi. Past reytingli obligatsiyalar emitentlariga esa, o'rtacha darajadan yuqoriroq foizlar to'lashga to'g'ri keladi.

Dunyodagi kompaniyalarning aksariyat qismi o'z qimmatli qog'ozlarining reytingini nihoyatda katta e'tibor bilan kuzatib boradi.

Eng yirik reyting agentliklarini kredit reyting ko'rsatkichlari⁶⁴

Qarz majburiyati emitentini ishonchlilik darajasi	Moody's	S&P	Fitch IBC	Reyting darajasining raqamdagi ifodasi
Eng yuqori ishonchlilik daraja	Aaa	AAA	AAA	100
Yuqori daraja	Aa1	AA+	AA+	95
	Aa2	AA	AA	90
	Aa3	AA-	AA-	85
Yuqori o'rta daraja	A1	A+	A+	80
	A2	A	A	75
	A3	A-	A-	70
Past o'rta daraja	Baa1	BBB+	BBB+	65
	Baa2	BBB	BBB	60
	Baa3	BBB-	BBB-	55
Spekulyativli daraja	Ba1	BB+	BB+	50
	Ba2	BB	BB	45
	Ba3	BB-	BB-	40
Yuqori spekulyativli daraja	B1	B+	B+	35
	B2	B	B	30
	B3	B-	B-	25
Katta riskka ega	Caa1	CCC+	CCC	20
Juda yuqori spekulyativli daraja	Caa2	CCC		15
Defolt holat: biroz sog'lomlashtirish umidi mavjud	Caa3	CCC-		10
	Ca	CC		
	C	C		5
Defolt holat	/	D	DDD	0

⁶⁴ Mamadiyarov Z.T. Xalqaro reyting agentliklari va ularning tijorat banklari faoliyatini baholash ko'rsatkichlari. // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2017. - №1. - B. 21.

7.5 Fond birja savdolari mexanizmi. Birja auksioni turlari

Fond birja savdosi mexanizmi birja ustavida alohida belgilanadi. Fond birja ustavida savdo qoidalari keng yoritiladi va savdoni amalga oshirish tartib qoidalari ko'rsatiladi. Odatda, savdo mexanizmi qoidalari birja tomonidan mustaqil yoki chetdan mutaxassislar yoki ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilgan holda ishlab chiqilishi mumkin.

Fond birja savdo qoidalarini ishlab chiqishda birja xodimlaridan ishchi guruhi tuziladi hamda boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar mutaxassislarini shartnoma asosida jalb qiladi. Savdo mexanizmi qoidalarini ishlab chiqish jarayonida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi vakillari ishtirok etishi talab qilinadi. Savdo mexanizmi qoidalarini ishlab chiqishda birjaning yuridik xizmati, birja savdolarini o'tkazishga hamda birja savdo tizimi dasturiy-texnik majmuasi qatnashadi.

Fond birjasi savdo mexanizmini ishlab chiqish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- savdo mexanizmi qoidalari matnini ishlab chiqish;
- savdo mexanizmi qoidalarini birja a'zolari yig'ilishida kelishishi;
- savdo mexanizmi qoidalarining birja Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi;
- birja savdolari elektron tizimining dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;
- birjaning ichki me'yoriy hujjatlariga tegishli o'zgartishlar kiritish.

Birja savdosi mexanizmi qoidalarida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- birjada amalga oshiriladigan birja bitimlarining turlari;
- birja bitimlari qatnashchilarining tarkibi va ularga nisbatan qo'yiladigan talablar yig'indisi;
- birja savdolarini amalga oshirish va ularning natijalarini ro'yxatga olish tartibi;
- birja bitimlari va ularning rasmiylashtirish tartibi;
- qimmatli qog'ozlarni kotirovka qilish tartibi;
- qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishni amalga oshirish tartibi (listing);
- birja bitimlari ishtirokchilari o'rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;
- birja savdosida muomalada bo'lgan standart kontraktlarning ta'rifi;
- savdo maydonchalari va seksiyalarining ro'yxati va nomlari, agar ular birja tomonidan tashkil etilgan bo'lsa;

- birja savdolarini o'tkazish tartibi;
- birja a'zolariga axborot xizmati ko'rsatish tartibi;
- birjada narx-navoning yuzaga kelish jarayoni ustidan nazorat qilish tartibi;
- birjadagi nizolarni hal etish tartibi;
- birja savdolari qoidalarini buzganligi uchun birja a'zolari va xodimlarining javobgarligi to'g'risidagi qoidalar.

Ishlab chiqilgan fond birjasi savdo mexanizmi qoidalari birja a'zolarining umumiy yig'ilishida kelishilib, birjaning Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng qabul qilinishi lozim. Birja a'zolarining umumiy yig'ilishida qoidalar kelishiladi va fond birja kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi. Agar fond birja savdo mexanizmi qoidalarining matni birja a'zolari bilan keliishish yoki Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanish jarayonida qabul qilinmasa, qoidalarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganidan so'ng kelishish va tasdiqlash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fond birja savdolarida ishtirok etishga ruxsat quyidagi talablar bajarilganda beriladi:

- qimmatli qog'ozlar prospekti ro'yxatga olinishi;
- emissiya natijalari hisobotini davlat ro'yxatidan o'tish;
- qimmatli qog'ozlar emitenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" qonunining to'liq bajarilishi.

Savdoni tashkillashtiruvchi savdoni birja nizomi talabi va hujjatlariga binoan tashkil etishi lozim. Savdoni o'tkazish vaqti savdo tashkilotchisi tomonidan erkin belgilanishi mumkin, lekin savdoni o'tkazish qoidalari bo'yicha savdoni o'tkazish vaqti asosiy savdo sessiyasi mobaynida belgilanishi kerak. Savdolar qo'shimcha savdo sessiyalarda ham o'tkazilishi mumkin, kun tartibidagi savdolarga kiritilgan qimmatli qog'ozlar savdosi asosiy savdo sessiyasiga kiritilishi talab etiladi.

Savdolar amalga oshishi va bajarilishi tartibi tegishli talablar bajarilganidan keyin savdoni tashkil etuvchi tomonidan belgilanadi. Savdolarda bitimlar kelib tushgan arizalar asosida kelishiladi. Kliring tashkiloti tomonidan amalga oshgan bitimlar natijalarini aniqlashtirish savdoni tashkil etuvchi majburiyatlari bo'yicha amalga oshadi.

Savdoda qatnashuvchi nomi yozilmagan arizalar bo'yicha bitimlar tuzish market meyker tomonidan qilinadi.

Fond birja savdolari turli shakllarda tashkil etilishi mumkin.

O'tkazish shakli bo'yicha savdolar:

- a) doimiy va sessiya shaklida;

b) kontakt (an'anaviy) va kontaktsiz (elektron).

Amalga oshish shakli bo'yicha:

a) ishonchnoma asosida birja savdosi (brokerlar);

b) mustaqil birja savdolari (dilerlar).

Tashkil etish shakli bo'yicha savdo auksionlari oddiy va murakkab auksionlarga bo'linadi.

Oddiy auksion yo xaridorlardan kelib tushgan arizalarni qabul qilgan sotuvchi tomonidan (sotuvchi auksioni) yoki potensial sotuvchilardan manfaatli takliflar qidirayotgan xaridor tomonidan (xaridor auksioni) tashkil etilishi mumkin.

Oddiy auksionning bir necha turlari mavjud.

Xususan ingliz auksioni – sotuvchilar savdo boshlanishidan oldin fond instrumentlarini boshlang'ich narxda sotish uchun arizalar beradi. Ular kotirovka byulletenida kelishtirilib, birja savdo ishtirokchilariga tarqatiladi. Auksion davomida agar xaridorlar raqobati mavjud bo'lsa, moliyaviy instrument narxi oshib boradi va natijada auksion aktivi taklif etilgan eng yuqori narxda bitta xaridorga sotiladi.

Golland auksioni –sotuvchining boshlang'ich narxi yuqori va qachonki xaridor narxni ma'qullamagunicha auksionni olib boruvchi mutaxassis narxni pasaytirib boradi. Bunday holatda qimmatli qog'ozlar narxiga rozi bo'lgan xaridor tomonidan sotib olinadi.

Qorong'u auksion –barcha xaridorlar bir paytda qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun o'zlarining narxlarini taklif qilishadi va eng yuqori narx taklif qilgan shaxs qimmatli qog'ozlarni sotib oladi. Ayrim rivojlangan mamlakatlar qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini – uch oyli, olti oyli, bir yillik – “qorong'i” auksion orqali joylashtiradi.

Murakkab auksion (uzluksiz, “chaqiriqli” yoki “olomonli”). Auksionning bunday turi sotuvchilar va xaridorlar raqobatining yuqori bo'lishini taqozo etadi. Birja savdosini tashkil etish shakli sifatida murakkab auksionlar fond bozori xususiyatiga boshqa auksionlarga nisbatan mos ravishligi bilan ajralib turadi.

Murakkab auksionlar quyidagicha farqlanadi.

Chaqiriqli bozor (on call market). Fond bozorida bitimlar kamdan kam tuzilsa, sotuvchi va xaridor narxlari o'rtasida katta farq yuzaga keladi va u birja kotirovkasida spread, deb nomlanadi. Buning natijasida, bitimlardagi narxlar tebranishi yuqori va muntazam xarakterga bo'ladi, bunday bozor likvid emas, birja savdolari uzluksiz auksion shaklida tashkil etilishi umuman, murakkab hisoblanadi. Chaqiriqli bozorda birja savdosini tashkil etilishi kam kuzatiladi, bozor likvidligi past bo'lganligi sababli,

qimmatli qog'ozlar savdosida qatnashish uchun arizalar tushish muddati uzaytiriladi va tashkil etilgan birja savdosida deyarli barcha qimmatli qog'ozlar savdosi bo'lib o'tadi.

Uzluksiz auksion. Broker muqaddam bergan arizasini o'zgartirishi mumkin emas, shuning uchun vaqt mezoni yozma auksionda muhim element hisoblanadi. Natijada, qimmatli qog'ozning kliring narxi aniqlanadi va shu narxda sotuvchi va xaridorlar bitim tuzadilar. Shunday holat bozorni katta hajmda yig'ilib qolgan moliyaviy aktivlarga bo'lgan buyurtmalarni barobariga sotib turadi. Likvid bozorda bunday "barobariga sotishlar" bir birja kunida bir necha marotaba sodir bo'lib turadi. Jahonda barobariga sotish amaliyotidan keng foydalanadigan yirik bozorlar – Avstriya, Belgiya, Germaniya va Isroil davlati birjalaridir. Bunday barobariga sotish savdolari – qimmatli qog'ozlarga doimiy talab va taklif, bozor likvidligi, uzluksiz auksionga o'tish imkoniyati mavjudligini bildiradi. O'z navbatida, uzluksiz auksion uch turga ega.

Birinchi turi – *buyurtmalar kitobidan foydalanish*, unga brokerlardan kelib tushgan og'zaki arizalar kiritiladi, keyin klerk (birja vakili) arizalarni kelib tushish muddati va qimmatli qog'ozlarni sotib olish hajmi bo'yicha ajratadi.

Ikkinchi turi – *tablo*, unda qimmatli qog'ozlarga nisbatan tanlangan eng yaxshi ikkita narx (eng yuqori – sotib olish uchun va eng past – sotish uchun narxlar) ko'rsatiladi. Makler kelib tushgan arizalarni narxlar bo'yicha guruhlaydi va har bir qimmatli qog'ozga kurs taklifini belgilaydi. Ushbu narxlar broker ish joyi ekraniga yoki tabloga chiqariladi. Misol uchun, Nyu York fond birjasida biror bir korporatsiya aksiyalari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi "17 va 3/8 17 va 3/4 nisbatan" yoki "3/8, 3/4". Bu 17 va 3/8 – talabning eng yaxshi narxi, 17 va 3/4 – taklifning eng yaxshi narxini bildiradi. Bunday narxlar birja savdosi jarayonida savdo o'yinlari strategiyasini belgilash va arizalar korrektilirovkasini qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Vaziyatni tahlil qilib, savdo zalidagi treyderlar ko'rish uchun brokerlar o'zlari tabloga aktivlar narxini chiqaradi. Buyurtmalar tabloga xronologik tarzda joylashtiriladi shuning uchun vaqt omili hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Agar o'xshash buyurtmalar xuddi shunday narxlarda avvalroq kelib tushsa va bozorning qarshi tomonidagi buyurtmalar bajarilishiga yo'l qo'ymasa, buyurtmalar bajarilmaydi. Ushbu buyurtmaning bajarilmaslik sababi aksiyaga "avvalroq" ariza kelib tushgani bo'lishi mumkin. Agar "avvalroq" arizalarning narxlari diapazoni bozor taklif qilinayotgan narxlar bilan keskin farq qilsa, savdo jarayonida makler "avvalroq" kelib tushgan arizalarni chiqarib tashlab, birja

savdosiga korrektirovkalar kiritishi mumkin. Birja savdosi tashkil etilishining o'zi chegaraviy spred o'rnatish yo'li orqali bozor likvidligini oshirishga imkon beradi.

Uzluksiz auktsionning uchinchi turi – *olomon*. Treyderlar faqat savdoga kelib tushayotgan aksiyalarni e'lon qiluvchi klerk (birja vakili) atrofida to'planishadi va kontragentga o'zlari taklif qilayotgan narxlarni ovoza qilishadi. "Olomon"dagi savdolar turli narxlarda amalga oshadi va ko'p hollarda bitta xaridor aniq narxni belgilamagan holda bir nechta sotuvchilar bilan turli narxlarda aksiyalarni xarid qiladi. Zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlangan yirik birjalarda "olomon" shaklida birja savdosi tashkil qilinishini tasavvur qilish qiyin, ayniqsa, jahon yirik kompaniyalar tomonidan aktiv emissiyalar oshirilganda. Lekin, bunday uzluksiz birja savdosining yarim ijobiy jihatlari mavjud, qarz bozoridagi buyurtmalarni birlashtiradi va shu orqali ushbu bozorni qimmatli qog'ozlardan "tozalab" bajarilayotgan buyurtmalar sonini maksimal darajaga ko'taradi.

Birjada savdolarini tashkil qilish uchun operatsion zalga alohida talablar belgilanadi:

- har bir savdo ishtirokchisi uchun zarur sharoitlar yaratib berish;
- har bir savdo tovari uchun alohida zal, unda xona tagi amfiteatr shaklida bo'lishi kerak. Shuning uchun, bitimlar amalga oshadigan joyni "pol", "chuqurlik" yoki "birja xalqasi" deyiladi;
- zal markazida, balandlikda joylashgan maxsus joyda savdoni olib boruvchilar, operatsiya va narxlarni ro'yxatga oluvchilar bo'lishi darkor;
- zal atrofida (400 gacha ... 500) birja savdolarida qatnashish huquqi mavjud bo'lgan, maxsus jihozlangan kabinalarda brokerlar joyi bo'ladi;
- axborot tablo mavjudligi;
- axborot agentliklar vakillari uchun maxsus ish joylari tashkil etish;
- birja zali yonida axborotlari ro'yxatga olish va ombor xodimlari uchun bo'limlar bo'lishi darkor.

7.6. Fundamental va texnik tahlil.

Investitsion jarayonning asosiy masalalaridan biri – bu qimmatli qog'ozlar tahlili (security analysis) hisoblanib, o'z ichiga qimmatli qog'ozlarning alohida turlarini (yoki guruhlarini) va ularning bozorlarini o'rganadi. Bunday tahlilning investitsion jarayondagi asosiy maqsadlaridan biri – bu vaqtning tanlab olingan joriy momentida noto'g'ri baholangan qimmatli qog'ozlarni aniqlash.

Xorijiy amaliyotda moliya bozori bo'yicha fundamental (fundamental analysis) va texnik (technical analysis) tahlil keng qo'llaniladi. Fundamental tahlil ham, texnik tahlil ham, shuningdek boshqa tahlil usullari ham o'ziga xos afzalliklarga va kamchiliklarga ega. Bunga moliya bozorlarining o'zaro farqli jihatlari, tartibga solish mexanizmlari, ichki va tashqi omillar ta'siri kabilarni sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

Qimmatli qog'oz tahlilida uni real (fundamental usulga asoslangan) yoki bozor (texnik usulga asoslangan) bahosi hamda uning real va bozor daromadlilikgi ko'rsatkichlari baholanadi, chunki ular fond bozori qatnashchilarini ko'proq qiziqtiradi. Yuqoridagi misoldan kelib chiqib, na texnik va na fundamental, na aralash usul ushbu ko'rsatkichlarning obyektiv bahosini bera olmasligini tushunish qiyin emas.

Chunki qimmatli qog'ozning o'z bazisiga ekvivalentlilik darajasi har ikkala usulda har doim aytilgan mezonlar talabiga mos to'liq namoyon bo'lavermaydi, demak, ularning yordamida hisoblangan ko'rsatkichlar bahosi obyektiv bo'lmaydi. Ushbu qonuniyatni ko'rish uchun quyidagi nazariy fikr-mulohazalarni keltirish mumkin.

Ma'lumki, aksiyaning real bahosi fundamental usul yordamida emitentning moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlari asosida hisoblanib, aksiyani joriy ichki (balans) bahosini ifodalaydi. Lekin aksiyaning bozordagi talab va taklif (bozor konyunkturasi) asosida shakllanuvchi bozor narxi aksiyaning real bahosidan qandaydir mavhumligi bilan farq qilishi mumkin, chunki bozor narxi ko'pincha ko'zga tashlanmaydigan spekuliyativ bozorda vujudga keluvchi sirli tendensiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Bunday tendensiyalar odatda spekuliyativ bozorning oldindan har doim ham to'liq idrok qilib bo'lmaydigan jarayonlarni risklar va turli omillar (jumladan spekuliyativ savdo qatnashchilarining subyektiv tarzda xohish va imkoniyatlarining ehtimoliy o'zgarishi, ya'ni refleksivlik nazariyasiga asosan) ta'siri ostida kechishi evaziga hosil bo'ladi. Demak, aksiyaning o'z bazisiga ekvivalentlilik darajasi asosida obyektiv bahosini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bularning barchasi va boshqa vaqtinchalik idrok qilinishi murakkab bo'lgan omil va jarayonlar tahlil amaliyotining mavjud usullari uzluksiz takomillashuv jarayonida yoki ularning asosida yangilari paydo bo'lib kelmoqda. Bu jarayonning obyektiv mahsuli sifatida qimmatli qog'ozlarni sekyurimetrik tahlili usulini alohida ko'rish maqsadga muvofiq, chunki u yuqorida keltirilgan ba'zi holatlarni bartaraf qilishning ozmi ko'pmi imkonini berishi mumkin.

Fundamental tahlil

Fundamental tahlilda qimmatli qog'ozlarni bozor narxlari bilan taqqoslash uchun qimmatli qog'ozlarning obyektiv ravishda asoslangan ichki qiymatini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Aktivlar narx darajasining o'sishi, pasayishi yoki ularning barqaror holatiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash fundamental tahlil tadqiqotlarining mavzusi hisoblanadi.

Fundamental yondashuvni amalga oshirish natijasi moliyaviy aktivlar narxiga va butun moliya bozoriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadigan omillarni aniqlash va monitoring qilish hisoblanadi. Bu aktivning ichki yoki haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida bajariladi. "Ichki qiymat" aksariyat holatlarda fond bozoridagi talab va taklif nisbati bilan belgilanadigan kompaniya aksiyalari narxi bilan mos kelmaydi.

O'z faoliyatida fundamental tahlildan foydalanadigan investorlarni birinchi navbatda kompaniya aksiyalarining "ichki qiymati" aksiyalarning birjadagi narxdan katta bo'ladigan vaziyat qiziqtiradi. Bunday aksiyalar **yetarlicha (munosib) baho berilmagan** aksiyalar sanaladi va potensial investitsiya obyektlari hisoblanadi. Yetarlicha (munosib) baho berilmagan aksiyalar xarid qilishda investorlar bozor samaradorligi sharoitlarida aksiyalarning fond bozoridagi narxi "ichki qiymat"ga qarab intilishi, ya'ni aksiyalar yetarlicha (munosib) baho berilmagan hollarda – o'sishidan umid qiladi.

Fundamental tahlil – mamlakat va tarmoq iqtisodiyotining fundamental omillarini, kompaniya faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilishga asoslangan, aktivning bozor qiymatini aniqlash va bashorat qilish usullari tizimi.

Fundamental tahlil mazmunan har qanday moliyaviy aktivning "haqiqiy" (yoki ichki real) bahosi kelajakda aktiv egasi olishi mumkin bo'lgan barcha naqd pul oqimlarining keltirilgan bahosiga teng degan fikrdan kelib chiqadi. Shunga mos ravishda tahlilchi (analitik)-"fundamentalchi" naqd pul oqimlari miqdorini va uni tushum vaqtini aniqlashga intiladi, keyin esa unga mos diskontlash stavkasini qo'llab ularning keltirilgan bahosini hisoblaydi.

Aniqroq aytilsa, analitik nafaqat diskontlash stavkasini baholaydi, balki kelajakda aksiya bo'yicha to'lanadigan dividendlar miqdorini ham prognoz qilishi lozim. Dividendlar miqdorini prognoz qilish kompaniyaning foyda ko'rsatkichlarini bir aksiyaga va dividendlar to'lash

koeffitsiyentiga nisbatan hisoblashga ekvivalent bo'lib, bir vaqtning o'zida diskontlash stavkasiga ham baho berishni taqozo etadi.

Kompaniya aksiyasining ichki bahosi aniqlanganidan so'ng bu baho aksiyalarning joriy bozor kursi bilan solishtiriladi. Bundan maqsad bozorda aksiya to'g'ri baholanganligini aniqlashdan iborat. Agar aksiyaning ichki bahosi joriy bozor kursidan past bo'lsa, unday aksiya oshirilib baholangan deyiladi, aksincha bo'lsa – past baholangan aksiya deyiladi.

Bunda aksiyaning ichki va joriy bozor kursi orasidagi tafovut to'g'risidagi informatsiya tahlilchi uchun muhim ahamiyatga ega. Analitik-fundamentalchilarning fikricha: aksiyani noto'g'ri baholani-shining har qanday holati keyinchalik bozor tomonidan to'g'rilanadi: past baholangan aksiyalar kursi tezroq oshadi, oshirilib baholangan aksiyalarning kursi esa o'rtacha bozor kursiga qaraganda sekinroq o'sadi.

Fundamental tahlilga ta'sir e'tuvchi omillarni keltirib o'tamiz:

- iqtisodiy omillar;
- siyosiy omillar;
- turli mish-mishlar va kutilishlar;
- fors-major holatlari.

Fundamental tahlil quyidagi yo'nalishlar doirasida amalga oshiriladi:

1. Makroiqtisodiy tahlil, bunda quyidagi omillarni hisobga olingan holda iqtisodiyot va moliya bozorining holati baholanadi:

- YAIM, bandlik, inflyatsiya, foiz stavkasi, valyuta kurslari va h.k.;
- monetar va fiskal siyosat, ularning bozorga va investitsiya muhitiga

ta'siri ko'rib chiqiladi;

2. Industrial tahlil, bunda iqtisodiyotdagi faollik sikli (davri), uning indikatorlari hamda tarmoqlarni faollik darajasiga nisbatan va rivojlanish davrlari bo'yicha tasniflash amalga oshiriladi, umuman olganda tarmoqlarning parametrlarni bozor konyunkturasi trendidan og'ishlari tahlil qilinadi va prognozi amalga oshiriladi, tarmoq rivojlanishining sifati tahlil qilinadi;

3. Aniq bir kompaniya tahlili, bunda kompaniyadagi korporativ boshqaruv holati va rivojlanishi istiqbollari, tashkiliy va biznes faoliyati sharoitlari, moliyaviy ko'rsatkichlari, biznes bahosi, bozordagi nufuzi va boshqa ko'rsatkichlari tahliliy baholanadi;

4. Qimmatli qog'ozlar bahosini va ularning portfelini modellash-tirish. Qimmatli qog'ozlar bahosini modellashtirishda fond bozorining tuzilmasi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning kichik miqdori bilan bog'liq bitishuvlar har kuni amalga oshiriladigan tor bozor ularning

sezilarsiz miqdoriga o'ta sezgir bo'lganligi uchun narxlar bunday bozorda boshqarilishi mumkin, ya'ni bir nechta bitishuvlarni amalga oshirish hisobiga kursning kutilgan darajadagi oshishi yoki pasayishiga erishish mumkin. Keng bozorda esa yirik bitishuvlar ham undagi narxlarga unchalik ta'sir ko'rsatmaydi, chunki bunday bitishuvlar har kuni amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, fundamental tahlil usulidan 1974 yilga kelib Benjamin Grexem va Djeyms Ri voz kechib, yangicha yondashuvni ishlab chiqqanlar.⁶⁵ Ularning fikricha, fond bozori samarali bo'lganligi sababli, noeffektiv qismlari kamayib bormoqda, bu esa o'z navbatida aniqlanishi mumkin bo'lgan ba'zi samarasiz kompaniyalar aksiyalari bilan bog'liq. Shu maqsadda ular bunday kompaniyalarni aniqlash uchun ma'lum mezonlar to'plamini taklif qildilar.

Grexem-Ri yondashuvini texnik tarzda qo'llash mumkin, chunki kompaniyaning joriy moliyaviy holatini formal tekshirish va moliyaviy hisobotlaridan olingan ba'zi ko'rsatkichlarni kompaniyaning aksiyalarini joriy kursi va daromadlilikini obligatsiyalarning AAA reytingi bilan solishtirishdan iborat. Bunda quyidagi 10-ta sodda savolga "ha yoki yo'q" degan javob berish talab qilinadi 5-jadvalda keltirilgan.

Korxonalarining joriy moliyaviy holati fundamental tahlili

<i>A. Moddiy rag'bat</i>	<i>B. Risk</i>
<p>1. "Narx-daromad" nisbati AAA reytingli obligatsiyalar daromadlilikining teskari yarim miqdoridan kammi? Masalan, AAA reytingli obligatsiyalar daromadlilikigi 12 foiz bo'lsa, unda teskari miqdori $1/0,12=8,33$, undan yarmisi esa 4,16. Shunday qilib, bu aksiya uchun savolga javob "ha" bo'lishi holatida uning "narx-daromad" nisbati miqdori 4,16-dan kam bo'lishi kerak.</p>	<p>6. "Qarz-kapital" nisbati 1 (birdan) kammi? Bu nisbat – umumiy qarzni balans hisobotiga mos keluvchi aksiyadorlik kapitaliga bo'linmasi.</p>

⁶⁵ Paul Blustein, "Ben Graham's Last Will and Testament", Forbes (August 1, 1997), P.43-45; and James B.Rea, "Remembering Benjamin Graham-Teacher and Friend", Journal of Portfolio Management, 3, no.4 (Summer 1997), P. 62-72; Шапн У., АлександерГ., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. М.: Инфра М, 1999. С. 579-580.

<p>2. "Narx-daromad" nisbati miqdori oxirgi besh yil uchun "narx-daromad" nisbatining "o'rtacha" eng katta miqdoridan 40 foiz kammi? Bunda aksiya uchun bir yildagi "narx-daromad" nisbatining "o'rtachasi" – bu aksiyaning o'rtacha yillik narxini shu yil uchun aksiya bo'yicha daromad miqdoriga bo'linmasiga teng.</p>	<p>7. Joriy nisbat 2 (ikkidan) kattami? Bu nisbat – joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga bo'linmasi.</p>
<p>3. Aksiya bo'yicha dividend daromadlilikligi AAA obligatsiyalar bo'yicha daromadlilikning 2/3 qismidan kam bo'lmagan miqdoriga tengmi?</p>	<p>8. Umumiy qarz joriy aktivlarning sof bahosini ikkiga ko'paytirilgan miqdoridan kammi? Bunda joriy aktivlarning sof bahosi – bu joriy aktivlar va umumiy qarz ayirmasi.</p>
<p>4. Aksiya narxi bir aksiyaga hisoblangan real balans bahosining 2/3 qismidan kammi? Bunda bir aksiyaga hisoblangan real balans bahosi – bu jami aktivlar va umumiy qarz ayirmasini muomaladagi aksiyalar-ning umumiy miqdoriga bo'linganiga teng.</p>	<p>9. oxirgi 10 yilda bir aksiyaga daromadlar o'sishi sur'ati yiliga o'rtacha 7 foizdan kam emasmi? Bunda g o'sish sur'ati $Ye_0 = Ye_{10}(1+g)^{10}$ formuladan topiladi (Ye_0 – oxirgi yil uchun bir aksiya bo'yicha daromadlar, Ye_{10} – 10 yildan tugaganidan keyingi yil uchun bir aksiyaga daromadlar). Agar savolga "ha" javobini olish kerak bo'lsa, unda g 7 foizdan kam bo'lmasligi lozim.</p>
<p>5. Aksiya narxi bir aksiyaga hisoblangan joriy aktivlarning sof bahosining 2/3 qismidan kammi? Bu baho joriy aktivlar va umumiy qarz ayirmasini muomaladagi aksiyalar-ning umumiy miqdoriga bo'linganiga teng.</p>	<p>10. 9-chi savoldagi vaqt muddatida (ya'ni 8 yoki undan ko'p yilda) g 5 foizga tengmi yoki kammi? Bunda daromadlilikning yillik o'sish sur'atini 10ta ko'rsatkichlarini aniqlash kerak, keyin ularning kamida ikkitasi 5 foizdan ko'p bo'lishini tekshirish lozim, masalan, 4 foizga tengligini.</p>

Savollarning birinchi 5 tasi moliyaviy rag'batga, qolgan 5tasi esa riskka bag'ishlangan. Bu savollarga javob topishdan maqsad eng katta "rag'bat-risk" nisbatiga ega aksiyalarni topishdir. Grexem-Ri bo'yicha aksiyani sotib olishni taklif qilish uchun barcha savollarga ijobiy javob

berishi shart emas. Masalan, avval 6-chi savol bo'yicha salbiy javob olingan aksiyalarni hisobdan chiqariladi. Keyin 1, 3 yoki 5-chi savolga "yo'q" degan javob olingan aksiyalar inobatga olishmaydi. Qolgan aksiyalar esa sotib olish uchun nomzod bo'ladilar.

Qaysi aksiyalarni sotish kerak degan qarorga investor Grexem-Ri yondashuviga asosan kelmoqchi bo'lsa, ikki hol ko'rsatiladi: aksiyalar kursi 50 foizga ko'tarilganida yoki ularni sotib olinganidan ikki yil o'tsa (bu holatlarning qaysi biri oldinroq sodir bo'lsa) sotib yuborishi lozim bo'ladi. Agarda bu ikki hol ham sodir bo'lmasa, aksiyalar dividend bermasa yoki ko'rsatilgan savollarga "yo'q" degan javob bo'lsa, unda aksiyalar tezdand sotilishi shart bo'ladi.

Fundamental tahlilining *afzalligi* quyidagilardan iborat:

- kompaniya-emitent aksiyasining bozordagi haqiqiy kursini belgilaydi;
- portfel tarkibidagi "nedootsenenniy" va "pereotsenenniy" aksiyalar aniqlanadi, portfel riski kamaytiriladi va daromadlik oiriladi;
- yuqori daromad keltiruvchi va mablag'lar xavfsizligini ta'minlovchi optimal portfel shakllantiriladi.

Aksiyalarning fundamental tahlilida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- **P/E - (Price to Earnings)** – aksiyaning bozor qiymatini bitta aksiyaga to'g'ri keladigan sof foydaga nisbati.
- **P/B (Price to Book)** - aksiyaning bozor qiymatini bitta aksiyaga to'g'ri keladigan aktivlar qiymatiga nisbati.
- **P/S (Price to Sales)** - aksiyaning bozor qiymatini bitta aksiyaga to'g'ri keladigan tushumga nisbati.
- **TR (Total Return)** – investor uchun aksiyaning umumiy daromadliligi (dividend va kurs farqi daromadlarini hisoblagan holda). Hisobot yili oxirida bahoning yil boshi va yil oxiri o'rtasidagi farqi aniqlanadi hamda shu yili olingan dividendlar bilan qo'shiladi va bu summa yil boshidagi aksiya bahosiga bo'linadi.
- **DY (Dividend Yield)** – dividend daromadligi, yillik foizda.
- **ROE (Return on sommon Equity)** – aksiyadorlik kapitalni (oddiy aksiya) yillik foizdagi daromadliligi. Yillik sof foydani oddiy aksiya egalariiga tegishli kapital miqdoriga nisbati. Aksiyadorlik kapitalning daromadlilik normasi (ROE) = Soliqlar va foizlar to'langandan keyingi daromad / Aksiyadorlik kapital.
- **ROA (Return on total Assets)** – jami aktivlarni yillik foizdagi daromadliligi. Sof foydani hisobot yilidagi jami aktivlar summasiga

nisbati. Aktivlar daromadlilik normasi (ROA) = Soliqlar va foizlar to'langandan keyingi daromad / Jami aktivlar. Bu koeffitsiyent aksiyadorlik jamiyati jami aktivlarini I so'm daromad keltirishdagi daromadlilik ulushini yoki normasini ko'rsatadi.

➤ **ROS (Return on Sales yoki Profit Margin)** – mahsulot realizatsiyasi hajmiga nisbati bo'yicha daromadlilik yoki rentabellik, yillik foizda. Sof foydaning yillik mahsulot realizatsiyasi hajmiga nisbati.

➤ **TAT (Total Assets Turnover)** – korxonaning jami aktivlari aylanuvchanligi. Jami mavjud aktivlarning ekspluatatsiya tezligini tavsiflaydi. Yillik mahsulot realizatsiyasi hajmini jami aktivlar summasiga nisbati sifatida hisoblanadi.

➤ **D/A (Debt to Assets)** – Jaib etilgan mablag'lar ulushi. Kreditorlik qarzdorlikni jami aktivlarga nisbati.

➤ **REE (Revenue per Employee)** – bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum. Korxonani mehnat unumdorligi tomonidan tavsiflaydi. Bitta tarmoqqa tegishli korxonalarni taqqoslash uchun qo'llaniladi.

➤ **REQ (Revenue per dollar of Equity)** – bitta aksiyadorlik kapitaliga (so'm, dollar) to'g'ri keladigan yillik mahsulot realizatsiyasidan tushum. Bitta tarmoqqa tegishli korxonalarni umumiy ishlab chiqarish hajmi va samarali boshqarilishi bo'yicha taqqoslash uchun qo'llaniladi.

➤ **BV (Book Value per Share)** – bitta aksiyaga to'g'ri keladigan korxonaning o'zlik aktivlari qiymati.

➤ **RG (Revenue Growth)** – mahsulot realizatsiyasi hajmining o'sishi, yillik foizda.

➤ **EG (Earnings per Share Growth)** - bitta aksiyaga to'g'ri keladigan sof foydaning o'sishi, yillik foizda.

➤ **EBIT (Earnings Before Interest and Tax)** – foizlar va soliqlar to'langunga qadar foyda.

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini fundamental tahlilida asosiy koeffitsiyentlar sifatida **EPS (Earning Per Share)** va **DPS (Dividends Per Share)** qo'llaniladi.

➤ **EPS** – bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda (daromad)

➤ **DPS** – bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend

➤ **EPS** = soliqlar to'langandan keyin qoladigan sof foyda / muomaladagi aksiyalar soni

➤ **DPS** = oddiy aksiyalarga to'langan dividendlar summasi / muomaladagi aksiyalar soni

Fundamental tahlilda qo'llaniladigan moliyaviy koeffitsiyentlarni bir necha turlari mavjud:

Likvidlilik – bu aksiyadorlik jamiyatni belgilangan muddatlarda majburiyatlari bo'yicha to'lash qobiliyati va ishlab chiqarish xarajatlarini amalga oshirishdir.

➤ **Qoplash koeffitsiyenti** = Aylanma aktivlar / Joriy majburiyatlar

➤ **Likvidlilik koeffitsiyenti** = (Aylanma aktivlar - tugallanmagan ishlab chiqarish-TMZ) / Joriy majburiyatlar

➤ Ishbilarmonlik faolligi ko'rsatkichi aktivlarni samarali foydalanganligini o'lchaydi.

➤ **Tovar-moddiy zaxiralarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti** = Sotilgan maxsulotning yillik tushumi / Tovar-moddiy zaxiralar.

➤ **Inkassatsiya o'rtacha muddati** = Debitorlik qarzdorlik / (Sotilgan mahsulot uchun yillik tushum)*360

➤ **Jami aktivlarni qoplash koeffitsiyenti** = Sotilgan maxsulot uchun yillik tushum / Jami aktivlar

Bu koeffitsiyent aksiyadorlik jamiyatlarning sotilgan maxsulot uchun yillik tushumi qanday muddatlarda jamiyat aktivlari qiymatini qoplay olishini ko'rsatadi.

Foydalilik ko'rsatkichlari aksiyadorlik kapital aktivlarini samarali foydalanishini baholashda zarurdir.

Rentabellik normasi = Sotiqalar va foizlar to'langandan keyingi daromad / Jami tushum

Bu koeffitsiyent aksiyadorlik jamiyatning har bir so'mi qanchalik daromad keltirishini ko'rsatadi.

Texnik tahlil

Texnik tahlil – bu fond bozori holatini o'rganishga qaratilgan tahlildir. Texnik tahlil o'tgan savdo narxlarini o'rganish maqsadida, ularning kelajakdagi ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Joriy narxlar dinamikasi o'tgan savdo narxlarini dinamikasi bilan solishtiriladi va shu orqali narxlarning kelajakdagi o'zgarishi prognoz qilinadi.

Shuning uchun, texnik tahlil bilan shug'ullanuvchi tahlilchi bozorga ta'sir etuvchi tashqi omillarni e'tiborga olmasdan, faqat uning dinamikasi ko'rsatkichlarini o'rganadi.


Texnik tahlilning boshqacha nazariy asosi shundaki, bozorning o'tgan savdo holatlari davriy takrorlanadi. Shu bilan birga, investorning vazifasi shundan iboratki, bozorning o'tgan savdo dinamikasini o'rganish asosida, uni keyingi o'zgarish dinamikasini aniqlash. Bozor konyunkturasi talab va taklifning o'zaro harakatlanishiga bog'liq.

Texnik tahlil talab va taklifning o'zaro to'g'ri kelmaslik momentini aniqlaydi va moliyaviy instrumentni qachon sotib olish va sotish mumkin degan savollarga javob beradi.


Texnik tahlilchi asosan bozorning qisqa muddatli dinamikasini prognoz qilishga harakat qiladi.

Tahlil mobaynida investor qimmatli qog'oz dinamikasi va narx trendi yo'nalishi haqida ma'lumot beruvchi **grafiklardan foydalanadi**. Ularning asosiy turlari quyidagilar:

- ustunli diagrammalar;
- narx harakati grafiklari;
- x-o diagrammalari




Texnik tahlil tamoyillari



Ustunli diagramma

Diagrammadagi har bir ustun o'tgan savdo kunidagi aksiya narxining tebranishini ifodalaydi. Ustunning yuqori nuqtasi savdo kunidagi eng yuqori narxni ifodalasa, pastki nuqtasi savdo kunidagi eng past narxni ifodalaydi. Yopilish bahosini ifodalash uchun esa ustunga perpendikulyar chiziqcha o'tkaziladi.



Aksiya narxi trendi yo'nalishi

Tahlilchi narx har bir o'zgarishini qayd qilib boradi. Agar narx bir pog'ona o'ssa, u holda diagrammaga X belgisi qo'yiladi. Keyingi narx o'sishida yuqoriga yana bir X belgisi qayd qilinadi. Agar narx bir pog'ona pasaysa, u holda o'ng tomondan yangi ustun ochiladi va shu ustundan 0 belgisi bilan belgilanadi.

Texnik tahlil mazmunan har qanday moliyaviy aktivning bozor narxini moliya bozori obyektiv baholaydi, degan fikrdan kelib chiqadi. Bu usul umuman olganda aksiyalar bozori kurslari konyunkturasini konkret kompaniya aksiyalari kurslari dinamikasiga prognoz berish uchun o'rganadi. Bunda avval kurslar dinamikasida sikllar (davrlar) yoki qaytariladigan tendensiyalarni aniqlash maqsadida oldingi davrlar uchun bozor kurslari tadqiq qilinadi. Keyin esa avvalgi davrlarda aniqlangan tendensiyalarga o'xshash joriy tendensiyalarni aniqlash maqsadida vaqtning oxirgi davri uchun aksiyalar kurslari tahlil qilinadi. Tahlilning oxirida hozirgi mavjud va avvalgi aniqlangan aksiyalar kurslari tendensiyalari o'zaro solishtiriladi. Bunda narx trendlari davriy qaytariladi deb qabul qilinadi. Shunday qilib, analitik ko'rilayotgan aksiyalar bo'yicha avvalgi va joriy bozor tendensiyalarini aniqlagan holda, kurslarning kelajakdagi dinamikasini yetarlicha aniq prognoz qilishga ishongan holda tahlil qiladi.

2
Texnik tahlil yordamida fond bozorida narxlar dinamikasini iqtisodiy hodisalarning mazmuniga kirmasdan tadqiqini amalga oshirsa bo'ladi. Uni yana grafik tahlil (grafiklar, gistogrammalar, nuqtali diagrammalar, narxlar harakati, indekslar usuli) ham deyiladi. Bunda fond indeksleri bozor holatini yaxshiroq ifodalaydi.

Texnik tahlilni amalga oshirishga quyidagi muhim tahminlarga asoslaniladi:

- tashqi omillarning har qanday o'zgarishlari qimmatli qog'ozlarni bozor narxleri (kurslari) dinamikasida o'z aksini topadi;
- fond bozorida narxlar dinamikasi oldindan idrok qilinadigan ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi, bunday qonuniyatlar barqaror bo'lishi mumkin;
- qimmatli qog'ozlar kurslarining avvalgi va joriy bozor tendensiyalarini o'rganish asosida ularning kelajakdagi o'zgarish dinamikasini prognoz qilish mumkin.

Grafik tahlil quyidagi uch asosiy masalani yechishda qo'llaniladi – fond bozorida narxlar darajasini prognoz qilish; qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish vaqtining optimal momentini topish; fundamental tahlil natijalarining to'liqligi va to'g'riligini tekshirish.

Hozirda har ikkala usul bir-birida farqlansada, o'zlarida bir-birlarining u yoki bu komponentlarini qo'llaydilar. Bundan tashqari ular boshqa tahlil nazariyalari unsurlarini ham o'z ichiga olishgan, masalan, "effektiv bozor" modellarini, "ehtimoliy asosda behosdan qilingan tanlov" konsepsiyasini. Bunga qaramasdan har ikkala usul ham hozirda fond bozorlarini tahlil qilishda bosh mavqega ega bo'lib kelmoqda. Lekin, bu usullar yangi yondashuvlarni paydo bo'lishi evaziga takomillashib bormoqda. Masalan, I.Fisherning foiz stavkalar nazariyasini, Uilyamsning kapital aktivlarni baholash nazariyasini, Naytning aniq bo'lmagan omillar va risklarni sifat tahlili metodini, Markovichning (keyinchalik Sharp, Tobin, Lintner, Mossin, Blek, Shoulzlarning) optimal portfelnı tanlash nazariyasini, SARM modellarini, Elliotning to'liqlar nazariyasini, Sorosning refleksiv nazariyasini, Rossning ART modellarini, Molilyani va Millerning nazariyalarini, va h.k. nazariyalarni keltirish mumkin.

Ta'kidlash joizki, texnik tahlil usuli barcha mutaxassislar tomonidan oson qo'llanilishi mumkin, fundamental tahlil usulini esa har qanday mutahassis tomonidan oson qo'llashi qiyinroq kechadi. Chunki fundamental tahlil ancha qiyin ish bo'lib, yetarli ma'lumotlar bazasini shakllantirishni va mos ravishda moliyalashtirilishni talab qiladi.

Sekyurimetrik tahlil yordamida bozordagi qimmatli qog'ozlarning ekvivalentlilik potentsiali darajalari asosida fond bozorining potentsialini baholash mumkin. Bunda ekvivalentlilik potentsialini natijaviy vektorning miqdoriga (natijaviy yo'naltirilgan kuch sifatida) ko'paytmasi qimmatli qog'ozning quvvati kuchini, bu quvvatlarning yig'indisi esa qimmatli qog'ozlar bozori muhitining quvvati kuchini bildiradi.

7.7 Trend turlari va shakllari. Yapon shamlari turlari va modellari

Qimmatli qog'ozlar bozorida turli xildagi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshiriladi. Operatsiyalar chog'ida qimmatli qog'ozlarning narxlar doimo o'zgaruvchan tendentsiyaga ega bo'ladi. Narxlarning o'zgarishi natijasida trendlar hosil bo'ladi.


Trend – bu baholarning, ya'ni fond bozorida qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisida belgilanadigan baholarning muayyan yo'nalishlar bo'yicha o'zgarishidir.

Trendlar davom etish muddatiga ko'ra:

1. Uzoq muddatli (birlamchi) trend, ya'ni bunda qimmatli qog'ozlar narxi uzoq muddat (1 yil xatto undan ortiq) o'zgarishi kuzatiladi.
2. Yonlanma (ikkilamchi) trend – bozorining asosiy tendentsiyasi harakatini to'g'irlovchi (korrektiruyushchiy) trend hisoblanadi.
3. Kichik trendlar – narxlarning kunlik o'zgarishi, tebranishdir.

Trendlar narxlarning harakati yo'nalishiga ko'ra:

- 1) O'suvchi yoki "buqalar" lar trendi.
 - 2) Pasayuvchi yoki "ayiqalar" trendi.
 - 3) Gorizontall trendyoki flet.
1. O'suvchi yoki "buqalar" trendi (uptrend, upward, bullish trend) shunisi bilan xarakterlanadiki, bozordagi tebranishlarning past narxlari ko'tarila boshlaydi.




Ko'tariluvchi (o'suvchi) trendda bizga pastdan chegara belgilashimiz juda muhimdir, chunki bunday holatda stavkalar narxlarning ko'tarilishiga qo'yiladi.

Narxni pastda chegaralovchi chiziqni kesishuvi, narxlar ko'tarilgandagi trend so'nayapti yoki umuman yo'nalishini o'zgartirmoqda deb signal beradi.

Narxlarni pastdan chegaralab turuvchi to'g'ri chiziq qo'llab-quvvatlovchi chiziq deb ataladi. (support line)

2. Pasayuvchi yoki "ayiqalar" trendi (downtrend, downward, bearish trend) bozorda maksimal tebranuvchi narxlar pasaya boshlashidan vujudga keladi. Quyidagi rasmda ifodalangan.




Pasayuvchi yoki "ayiqalar" trendi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, McDonalds kompaniyasi aksiyalarining bozordagi kursi 6 oy davomida o'suvchi trendga ega bo'lgan, lekin avgust oyida narxlardagi burilish pasayuvchi tendentsiyaga o'zgargan va bozorda "ayiqalar" trendi xukmron. Investor esa, McDonalds kompaniyasi aksiyalarini avgust oyida sotishi kerak, aks holda katta zarar ko'rishi mumkin.

Pasayuvchi trendda narxlarni yuqoridan chegaralab turuvchi to'g'ri chiziq qarshilik chizig'i (liniya soprotivlenie, resistance line) deb ataladi.


"Ayiqalar" bozorida biz narxlarning pasayishiga qo'yamiz, chunki biz uchun narxlarni yuqoridan chegaralab turuvchi to'g'ri chiziq muhimdir. Qarshilik (soprotivlenie) to'g'ri chizig'ining pasayishi, kesishuvi trend bilan o'zgarayotganidan dalolat beradi.



Qo'llab-quvvatlash va qarshilik to'g'ri chizig'iga ega bo'lgan trend.


Bir vaqtning o'zida aniq qo'llab-quvvatlash to'g'ri chizig'iga hamda qarshilik to'g'ri chizig'iga ega bo'lgan trend ko'plab qiziqishlar uyg'otadi (rasmga qarang). Bu trendda narxlarning ham yuqori ham past darajalarini prognozlashtirishga imkon bo'ladi.

3. Uchinchi trend turi – gorizontaal trend (trendning mavjud emasligi). Bu trendda narxlar gorizontaal diapazonda tebranadi. (sideways, Flat market, trendless). Bu trendning qo'llab-quvvatlash yoki qarshilik chiziqlari bo'ladi, lekin narxlarning yuqoriga yoki pastga harakatining aniq tasviri bo'lmaydi. Quyidagi rasmga keltirilgan.




Gorizontaal trend

Bundan tashqari, trendlarni shakli bo'yicha tasniflashimiz mumkin. Fond bozori savdolarida eng ko'p uchraydigan trend shakllaridan biri, bu "bosh" va "elka" trendidir. Quyidagi rasmda "bosh" va "yelka" trend shaklini ko'rishimiz mumkin.




“Bosh” va “yelka” trend shakli

Bu chizmada narxlarni o‘zgarishi natijasida “bosh” va “elka” trend turlari o‘z aksini topgan. Bunda savdo boshlangandagi ochilish bahosidan boshlab narxlar ko‘tarilib boradi va eng yuqori nuqtaga etib, pastga o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradi. Agar biz bu nuqtalarni tutashtirib chiqsak, bosh va elka tasvirlarni hosil bo‘ladi. Bundan tashqari, trendlarning quyidagi shakllari mavjud:



“Ikki qoya” va “Ikki jarlik”

“Ikki qoya” trendida narxlar faqat 2 marta maksimal nuqtaga erishadi. Bu holda A nuqtada qimmatli qog‘ozlarni albatta sotib yuborish kerak. “Ikki jarlikda” esa buning aksi. Quyidagi rasmda “ikki qoya” trend shaklini RTS indeksi dinamikasida ko‘rishimiz mumkin.




Ko'p uchraydigan "Ikki qoya" trend shaklini RTS indeksi orqali tasvirlanishi


Bu rasmda ko'rishimiz mumkinki, RTS indeksining fond bozoridagi dinamikasi orqali 10 oy ichida "Ikki qoya" trend shakli hosil bo'lgan. Trendning ikkinchi maksimum nuqtasi narxlarning qayrilishini, burilishini ifodalab, bozorda RTS indeksi trendi tendentsiyasining o'zgarishini anglatadi, ya'ni "buqalar" trnididan "ayiqlar" trendiga. Investor uchun bu trend shaklining ahamiyati shundaki, ikkichi maksimum nuqta RTS indeksining keyingi savdolarda pasayishini ogoh qiladi.

Yapon shamlari turlari va modellari

Bozorning grafikli tahliliga tayanib ish ko'ruvchi deyarli har bir treyder yoki investor o'zining ish faoliyatida yapon shamlaridan foydalanadi. Bozordagi savdolarning kechishi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq, ko'rgazmali va tushunarli tarzda yetkazib bera olish xususiyatiga ega ekanligi yapon shamlarining bozor ishtirokchilarining ishonchini qozonishiga sabab bo'lgan. Shamlar savdodagi narx grafiklarining o'zgarish prognozlarini tuzishning ilg'or vositasi bo'lib xizmat qilish bilan birga, bozorning kayfiyati va psixologiyasini ochib berishga yordam beradi.



Yapon shamlari – narx chiziqlarining, intervalli grafiklarning bir turi bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar, valyuta, hosilaviy moliyaviy instrumentlar, energotashuvchilar, xomashyo va boshqa tovarlar narxлари kotirovkalarining tebranishlarini o‘ziga xos grafik shaklida aks ettirishda qo‘llaniladi.




Shuningdek, yapon shamlari ko‘rinishidagi grafik (*Japanese Candlestick*) chiziqli va intervalli grafiklar yig‘indisi bo‘lib, uning har bir elementi muayyan vaqt oralig‘ida narxlarning tebranish diapozonini

ko'rsatadi. Yapon shamlarining tahlili bozorning texnik tahlilida ham keng qo'llaniladi.

Oddiy qilib aytganda, yapon shamlari – bozor instrumentlari narxlarining harakatini yoki o'zgarishini aks ettirishning qulay usuli bo'lib, ular grafiklarda shamni eslatuvchi, tepa va past tarafida shoxchasi (dumchasi) bo'lgan uzunchoq to'g'ri to'rtburchaklardir. Har bir sham kotirovkalar o'zgarishi sodir bo'ladigan muayyan vaqt oralig'iga mos keladi. Shamlar kombinatsiyasining tahlili turli murakkab matematik texnik indikatorlarni qo'llamasdan turib ham bozordagi holat va harakatni bashorat qilish imkonini beradi.

Shamli tahlilning oddiy standart chiziqli tahlildan farq qiladigan muhim jihati shundaki, unda birgina element (yoki shamning shakli) bir vaqtning o'zida to'rtta ko'rsatkichni o'zida mujassamlashtiradi.



Volchok - bu o'z o'qi atrofida aylanuvchi o'yinchoq. Grafikdagi holat aynan shu o'yinchoq ko'rinishini eslatganligi sababli shunday nomlangan.

Shamning qora yoki oq tanasiga birrov nazar tashlashning o'zidayoq aksiya savdolarining pozitiv yoki negativ to'lqinda tugallanganligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Savdolar grafiklarini soatlab sinchiklab kuzatib o'tiradigan insonlar, vaqt o'tishi bilan yapon shamlari ko'zni u qadar charchatmasligi bilan birga, turli xil ustunli grafik-chiziqlarda ham ilg'ab bo'lmaydigan aniq signallarni berishi mumkinligini tushunib etadilar.


Yapon shamlari kombinatsiyalari, agar ular to'g'ri talqin qilinsa, savdodagi juda foydali bitimlar qilinishiga olib keladi.

Shamlarning ko'rinishi grafikni uzoq o'rganib o'tirmasdan oq undagi takrorlanuvchi grafik tarzidagi patternlarni (muayyan qonuniyat asosida takrorlanish) aniqlash imkonini beradi va bozordagi pozitsiyalarni ochishda qo'llaniladi. Shu asnoda bozordagi grafiklarning ma'lumot yetkazib berish darajasi oshadi, bu esa bozorni kompleks tahlil qilish jarayonini osonlashtiradi.

Bundan tashqari, shamning tuzilishi savdo-sotiqning juda muhim jihati bo'lgan bozor psixologiyasini ilg'ab olish imkonini beradi. Yapon shamlari yordamidagi grafikli tahlil bozor ishtirokchilarining o'ziga xos qonuniyat ostidagi xatti-harakatlarini aniqlash va muayyan voqea-hodisalarga bozorning kelgusidagi reaksiyasini (munosabatini) bashorat qilishda qo'l keladi.

Shamlarning texnik tahlilida shamlar va ularning kombinatsiyasi bozorning qulay va noqulay darajalarini, qo'l kelishi mumkin bo'lgan yoki qarshilikka uchrash mumkin bo'lgan nuqtalarini aniqlash mumkin. Savdo terminalidagi har qanday taym freym (time-frame)da ⁶⁶ tanlab olingan davrga ko'ra har bir sham 1, 5, 15, 30 minutga, 1 soatga va hokazo 1 oyga yoki 1 yilga teng bo'ladi.

Yapon shamlari grafikda nimani ko'rsatadi?



⁶⁶ time-frame — savdolar davri — narx grafigi elementlarining tuzilishida kotirovkalarni guruhlash uchun olinadigan vaqt oralig'i. Tanlab olingan savdolar davri ichida kotirovkalar tarixidan faqatgina ochilish, eng yuqori, eng past, yopilish (ingl. open, high, low, close, volume) narxlari olinadi, shu bilan birga, bitimlarning umumiy hajmi, masalan, shu davrda sotilgan aksiyalarning soni hisoblanadi. Chiziqli grafikda esa narxning tanlab olingan faqat bitta parametri (odatda, yopilish narxi) ishlatiladi.

Shamning tanasi ochilish va yopilish narxlar bilan chegaralangan oq (yashil) yoki qora (qizil) to'g'ri to'rtburchakdan iborat. To'rtburchakning tepa va past qismidagi vertikal chiziqchalar yuqori va quyi "soyalar" deb ataladi.

- agar to'rtburchak oq rangda bo'lsa, demak, aksiyalar savdosida ularning yopilish narxi ochilish narxiga qaraganda yuqori bo'lgan;

- agar qora bo'lsa - yopilish narxi ochilish narxiga qaraganda past bo'lgan.


Ayrim hollarda shamning tanasi bo'lmaydi. Bu holat doji (Doji) deb ataladi. "Doji" - yakka sham shaklidagi kombinatsiya namunasi bo'lib, aksiyaning ochilish va yopilish narxi bir xil bo'lgandagi holatni aks ettiradi. Xaridorlar aksiyalarning yopilish narxi ularning ochilish narxidan yuqori bo'lishi uchun sotuvchilarga yetarli darajada bosim o'tkazolmagan, sotuvchilar esa aksiya narxining ochilish narxidan siljitishni uddalay olmagan taqdirda, shamning "doji" holati bozor ishtirokchilari ongida hukm surayotgan beqarorlik, jur'atsizlikni aks ettiradi.

Professional treyderlar endi bozorga kirib kelayotgan o'yinchilarga bozorning tahlili uchun murakkab chizikli grafiklarni emas, aynan yapon shamlarini tavsiya qiladilar, chunki shamlarni vizual ilg'ash va olinadigan ma'lumotlarni tushunish osonroqdir.

Yapon shamlarini qanday "o'qish" kerak? Yapon shamlarini tahlil qilish bozordagi kelgusi tebranishlarni oldindan bashorat qilishga yordam beruvchi muayyan modellarni aniqlashni nazarda tutadi. Shartli ravishda barcha modellarni trendning ortga qaytish kombinatsiyasi va trendni davom ettirish kombinatsiyasi modellariga ajratish mumkin. Ular treyderlar (savdoda ishtirok etuvchilar) orasida yetarli darajada yuqori aniqlikda signal berishi bilan juda ommalashgan. Bunday patternlar(modellar)ning soni birmuncha ko'p va har biri o'ziga xos nomga ega: Doji, Bolg'a va Dorga osilgan odam, Tonggi yulduz, Tungggi yulduz, Uchayotgan yulduz, Qora bulut pardasi, Xarami va Xarami Xochi, Buterbrod, Tashlandiq bola.

Har bir model alohida ahamiyatga ega bo'lib, treyderga bitimlarni ochishda foydalanish mumkin bo'lgan bozor o'zgarishlaridan dalolat beradi.

Yapon shamlari tahlilining muhim jihatlari.



Bozor tahlilining bir qator boshqa turlari kabi, shamli grafiklar noyob xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bilish va tushunish vaqt va kuchni, oxir-oqibat esa pulni tejash uchun zarurdir.

Sham tahlili kunlik grafikda (D1) o'zini juda yaxshi namoyon qiladi. Signallarning ishonchlilik darajasi vaqt oralig'ining kamayishiga proporsional ravishda pasayadi. Soatlik (HI) intervaldan past bo'lgan taymfreym ishonchsiz sanaladi.

Umumiy uzoq muddatli tendentsiyalarni aniqlash uchun katta vaqt intervalidagi (MN – oylik, W1 – haftalik) tahlillardan foydalaniladi.

Shamlar kombinatsiyasidan iborat modellar har doim ham bozordagi o'zgarishlarni aniq aks ettirmaydi. Ko'p hollarda shamlarning shakllangan modelidan so'ng yuzaga kelgan tendentsiyaning korrektsiya qilinishi yoki bozorning flet (narxlar muayyan diapozonda aniq chegaralanmagan yo'nalishda harakat qiladigan bozor holati) harakati sodir bo'ladi.

Gep⁶⁷ (ingl. – gap, narxlar grafigida narx ko'rsatkichlarining uzilishi, odatda moliya bozoridagi savdolar sessiyalari orasida savdo amalga oshirilmagan vaqt yuzaga keladi va bu vaqt davomida kelib tushgan ma'lumot bozorlar yopiq bo'lgani uchun ishtirokchilar tomonidan kotirovkaga kiritilmay qoladi, natijada navbatdagi sessiyadagi ochilish narxi o'tgan sessiyadagi yopilish narxidan farq qilib qoladi va narx grafigida gep yuzaga keladi) bilan kuzatiluvchi modellar birmuncha ishonchli hisoblanadi. Ayrim patternlarda (narxlar grafigining ma'lum vaqt oralig'i) narxlardagi uzilish sodir bo'lib turadi, ammo Forex bozori haqida gap ketganda gep holatiga ahamiyat berilmaydi, chunki valyuta bozorlarida gep holati ko'p uchramaydi.


Har bir shamli model o'z tasdig'ini topishi kerak. Masalan, "ayiqli" kombinatsiya yuzaga kelsa, bundan keyin keluvchi sham bozorning nimaga taraddud ko'rayotganligini ko'rsatishi kerak.

Shamli grafiklar qanday shakllanadi: bozor psixologiyasi. Yapon shamlarining ko'rinishi va tuzilishi sotuvchilar va xaridorlarning xatti-harakatini aks ettiradi va treyderlar ommasining o'zini qanday tutishini tushunib olish uchun yordam beradi. Shamlar grafigini "o'qish" ko'nikmasiga an'anaviy sham modellarini o'rganmasdan turib ham ega bo'lish mumkin.

⁶⁷

<https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/gepy-na-rynke-otkuda-na-grafike-poiavliaiutsia-razryvy-i-kak-ispol-zovat-ikh-v-torgovle>

Shamning tanasi.



Ko'rib chiqilayotgan birinchi parametr – shamning kattaligi, ya'ni o'lchami. Bir shamning tanasi boshqalarga nisbatan qanchalik uzun bo'lsa, sotuvchilar yoki xaridorlar tomonidan bozorga ko'rsatilayotgan bosim shunchalik ko'lamli va kuchli bo'lganini ko'rish mumkin. Katta oq tanali sham bozorda "buqa kayfiyati"ning ustun bo'lganligini, ya'ni savdolar davri yakunida xaridorlar birmuncha faol bo'lganini ko'rsatadi. Agar sham qora rangda bo'lsa, yopilish chog'ida sotuvchilar hukmronlik qilganini anglash mumkin bo'ladi.

Bordiyu shamlarning tanasi qisqa bo'lsa, tendentsiyadan qaytish shakllanayotganidan yoki "flet" holati yuzaga kelayotganidan dalolat beradi. Bunday holat buqalar va ayiqlarning kuchlari taxminan tenglashayotganini ko'rsatadi va bozorning kelgusidagi kotirovkalar yo'nalishidagi beqaror holatini ifodalaydi.

Shunday qilib, shamning nisbiy holati alohida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Davomli pasayish tendentsiyasidan keyin yuzaga kelgan uzun buqa shami sotuvchilarning holi qolmaganligini va savdolar yuqorilab ketishi mumkinligini ko'rsatadi. Va bunday sham qarshilik darajasidan yuqori yopilganda, bu bozorning yangi narx darajasida mustahkamlanishini ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, shamning shakllanish bosqichida nimalar sodir bo'lganligi to'g'risida to'liq ishonch hosil qilib bo'lmaydi. Ochilish davri darajasidan yopilish davrigacha bo'lgan yo'l yetarlicha to'g'ri chiziqli bo'lgan bo'lishi, ammo, harakatlanish davomida juda ko'p ikkilanishlar, tebranishlar sodir bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Davrning qanday kechganini bilish uchun esa terminalda 1-2 taymfreym pastroqqa qayta o'tib ko'rish lozim.

Shamning "dumi". Shamning tomonlaridan biridagi uzun dum shamning shakllanish jarayonida bozorning kayfiyatini namoyish qiladi. Treyderlarning tilida (jargonida) bunday sham "pin-bar" deb yuritiladi. "Pin-bar" haddan tashqari holatni aks ettiradi va ko'p hollarda bozorning

bir holatining boshqa holatiga kekin o'zgarayotganligidan yoki uzoq muddat saqlanib turgan tendentsiyaning tegishli tuzatishlardan so'ng harakatidan dalolat beradi.

Buqalar va ayiqlarning maksimal darajadagi qarama-qarshiliklari davrida narxlar grafigida juda uzun dumli dojilar paydo bo'ladi. Bunday shamlar bozordagi beqarorlikni: savdolar yuqori faollikda olib borilayotgan bo'lsada, bu sezilarli natija bermayotganligini ko'rsatadi.

Shamning kayfiyati.

Shamning xarakterini birmuncha aniq belgilash imkoniga ega bo'lish uchun, «*Price Action*» uslubiyoti bo'yicha mutaxassis Lens Begs⁶⁸ "shamning xakeri" nomli tushunchani taklif etgan. Bunday yondashuvning umume'tirof etilgan shamli tasniflashga nisbatan o'ziga xos afzalliklari mavjud.

Shamning kayfiyati nafaqat uning rangida, balki narxlar harakatining xarakterida ham aks etadi. Bu borada L. Begs sham kayfiyatining uchta turidan foydalangan:

- neytral kayfiyati;
- ayiq kayfiyati;
- buqa kayfiyati;


Har bir turi shuningdek, yana uch toifaga: past, o'rta, yuqori toifaga bo'linadi.

Yopilish chog'ida shamning holati eng maksimal darajada bo'lsa, bu uning buqa kayfiyatini, o'z navbatida, savdo davri avvalgi eng kam darajadan ham past yopilgan bo'la, shamning ayiq kayfiyatini anglatadi. Boshqacha aytganda, shamning kayfiyati bozorning yopilish davridagi narxlarning holatini o'zida aks ettiradi. Agar shamning holati avvalgi yopishish diapozonida bo'lsa, demak shamning holati neytral bo'ladi. Shunday qilib, yopilishdan so'ng joriy sham avvalgi holatiga nisbatan yuqorida ta'kidlangan uchta toifadan birining holatiga tushadi.


Keyingi bosqichda sham kayfiyatining darajasi aniqlanadi. Buning uchun shamning yopilish sohasi belgilanadi, u past, o'rta yoki yuqori darajada bo'lishi mumkin. Joriy shamning darajasini aniqlash uchun uni uchta zonaga bo'lish lozim. Shamning kayfiyati yopilish chog'ida diapozonning qismiga bog'liq bo'ladi.

⁶⁸ Lens Begs sobiq harbiy uchuvchi bo'lgan. Bugungi kunda u valyutalar, indekslar, neft fyucherslari savdosining orqasidan katta daromad va boylik orttirgan treyder hisoblanadi. Lensning o'zi aytishicha, aynan harbiy tajriba, aniqroq aytganda, harbiy xizmatda orttirgan inson psixologiyasining nozik jihatlarini tushunish ko'nikmasi unga muvaffaqiyatga erishishga yordam bergan.


Shamning yuqori darajadagi yopilishi:



Shamning o'rtadagi yopilishi:



Shamning past darajadagi yopilishi:



Yapon shamlari grafigi tablili

Yapon treydlari uchun shamning tanasi uning soyasi(dumi)ga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega, ya'ni ular uchun davrning ochilishi va yopilishidagi narxlar darajasi birinchi o'rinda turadi, eng past yoki eng baland darajalar esa ahamiyati jihatidan ikkinchi o'ringa o'tadi. Soyalar bozordagi shovqin-suron, savdolar atrofidagi ajiotajni ko'rsatadi, ammo, bu ham alohida ahamiyat berish lozim bo'lgan holat hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shamli tahlilda bir qancha bazaviy tamoyillar qo'llaniladi.

Uzun tanalar va qisqa soyalar – bu trendni yaratadigan shamlar. Bunday elementlar rangiga ko'ra (oq yoki qora, qizil yoki yashil) yo buqalarning, yoki ayiqlarning kuchli ustunligini namoyish qiladi. Eng uzun tanali shamlar trend to'lqinining boshida va oxirida joylashadi. Bundan keyingi holatni eslab qolish kerak: agar davomli yuksalish impulsidan so'ng uzun tanali shamlar shakllansa, bitimni tugatish (yopish) zarur.


Uzun soyali (dumli) qisqa tanali shamlar savdolarida shakllangan tendentsiyaning burilishi, o'zgarishida paydo bo'ladi. Birinchi navbatda

bunday holat shamning bir tarafidagi soyasi uning boshqa soyasidan hamda tananing o'zidan ancha uzun bo'lgan holati bo'lib, shartli ravishda muvaffaqiyatsiz shamlar shunday ko'rinish oladi. Shamning bu holatda ko'rinishi bir yo'nalishda savdo qiluvchi treyderlar muayyan ustunlikka ega bo'lib tursalarda, qarama-qarshi yo'nalishni tanlagan bozor ishtirokchilari tomonidan savdolarning kechishi sindirilganligini ko'ratadi.

Kalta tanalar va yonbosh trendlarda hosil bo'luvchi soyalar. Ular qisqa "stop-losslar"⁶⁹ bilan pozitsiyalarni ochish imkonini beradi.

Bozorlardagi narxlarining o'zgarishini aks ettiruvchi hech qanday grafiklar ko'rgazmalilik va soddalik darajasi jihatidan yapon shamlari bilan raqobatlasha olmaydi. Yapon savdogarlari tomonidan ishlab chiqilgan bu tahliliy vosita bozor ishtirokchilarining ustuvor kayfiyati va uning o'zgarishini aniq ko'rsata oladigan eng oqilona uslub hisoblanadi va savdolarning mazmun-mohiyati va kechishini yaqqol tushunishga yordam beradi.

Yapon shamlarining va ular kombinatsiyalarining asosiy turlari:



Shamli tahlilning afzalliklari va kamchiliklari.

⁶⁹ Stop-loss (ingl. stop loss) zararlarni to'xtatish ma'nosini anglatadi, brokerga aksiyalar kotirovkasi ma'lum darajaga tushib ketgan paytda ularni avtomatik ravishda sotib yuborish to'g'risidagi topshiriqni anglatadi, zararlarni chegaralash vositasi.

Bozor tahlilining boshqa har qanday turlari kabi, shamli tahlil ham bir qator afzalliklarga ega bo'lish bilan birga, kamchiliklardan ham holi emas. Afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish o'rinli:

1. **Ishonchlilik.** Yapon shamlari, boshqa har qanday texnik indikatorlardan farqli o'laroq, turli xil matematik hisob-kitoblar natijasini emas, narxning o'zining xatti-harakatini tahlil qilish imkonini beradi. Bozorning eng oqilona indikator – undagi narx-navo ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, yapon shamllarining bu xususiyati nihoyatda muhimdir.

2. **Universallik.** Moliyaviy grafiklarning shamli tahlilini har qanday bozor – valyuta bozori, muddatli bozor, tovar-xomashyo bozori, fond bozori va boshqalar uchun qo'llash mumkinligi bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

3. **Qo'llash uchun qulaylik va keng tarqalganlik.** Shamlar ko'rinishidagi grafik rejimi har qanday savdo terminalarida ko'zda tutilgan bo'lib, alohida soft o'rnatilishini talab qilmaydi.

Kamchiligi sifatida faqatgina uni o'zlashtirib olish uchun murakkabligini ta'kidlash mumkin. Shamli tahlilni bozor tahlilining oddiy turlari tarkibiga kiritish to'g'ri bo'lmaydi, treyderga uni o'rganish va amaliyotda qo'llash uchun ancha vaqt va e'tibor talab etiladi. Ammo, qunt bilan o'rganish natijasida shamli oraliqlar xotirada yaxshi o'rnatilgan qoladi va treyderning faoliyatida avtomatik tarzda ish beradi.

Yapon shamlari paydo bo'lishining qisqacha tarixi. Yapon shamlari va shamli tahlil to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar XVII asrga borib taqaladi. 1730 yilda Yaponiyadagi Guruch birjasi **Tokugava Yosimune**⁷⁰ tomonidan isloh qilinadi va yangi qoidalar kiritiladi. Uning farmoni bilan Osakoda "*Dodzima*" va Tokioda "*Kuromae*" deb nomlangan guruch birjalari ochiladi.

Tarixiy yilnomalarda yozilishicha, birinchi shamli grafikni guruch savdogari **Xomma Munexisa**⁷¹ shakllantirgan. U ma'lum vaqt oralig'ida o'zining tovariga bo'lgan narxlar tebranishini, narx-navoning eng kam va eng ko'p darajasini ko'rgazmali aks ettirish usulini ishlab chiqdi. Bundan ko'zlangan yana bir maqsad birjada savdolarning ochilishi va yopilishidagi narxlarni aks ettirish edi. Keyinchalik Munexisa tomonidan ishlab chiqilgan narxlarning tebranishini aks ettirishning shamli usuli tovarlarning kelgusidagi narxini bashoratlash uchun juda qulay usul bo'lib

⁷⁰ Yapon provintsiyasining egasi, tarixda guruch islohotlari bilan nom qozongan iste'dodli siyosatchi (1716—1745).


⁷¹ Yapon guruch savdogari va moliyaviy tadbirkori, Yapon shamllarini ixtiro qilgan shaxs sifatida tarixda qolgan.

qoldi. Uning yondashuvi, har bitta elementning, boshqa grafiklar tizimidan farqli ravishda, bir vaqtning o'zida bir emas, birvarakayiga to'rtta ko'rsatkichni aks ettirish xususiyati bilan dovrug' qozondi.

Savdogarlar shamli grafiklarda shamlarning takrorlanuvchi shakllariga qarab turib narxlarning istiqboldagi talab va taklifning yetarlicha aniqlikdagi prognozlarini tuzish mumkinligini payqadilar va o'z savdogarlik faoliyatlarida ulardan muvaffaqiyatli foydalana boshladilar.

Yapon shamlari tahliliga bag'ishlangan birinchi kitobni ingliz tilida **Seyki Shimizu**⁷² nashr qildirgan. Ammo, G'arbda yapon shamlari boshqa kitob – **Stiv Nisonning "Yapon shamlari. Grafikli tahlil"** (*Steve Nison «Japanese Candlestick. Charting Techniques»*) nomli qo'llanmaning dunyo yuzini ko'rishi bilan yanada ommalashdi. Bugungi kunda ushbu kitob endi ish boshlayotgan va tajribali treyderlar uchun klassik qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Bu muallifning yana bir mashhur kitobi "*Beyond Candlestick*" deb nomlanadi va yapon shamlari to'g'risida to'liq ma'lumot beruvchi juda zalvorli manba bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilikka ma'lum bo'lgan Price Action savdo texnikasi aynan Nisonning samarali ishlanmalariga asoslangan.

Sham chizig'i ochilish va yopilish bahosi, maksimal va minimal ko'tarilish baholariga bog'liq holda turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.



1. Bozorda «ayiqalarning» juda kuchli namoyon bo'lishi
2. Bozorda «buqalarning» juda kuchli namoyon bo'lishi.
- 3., 4. Bozorda «ayiqalarning» namoyon bo'lishi.
- 5., 6. Bozorda «buqalarning» namoyon bo'lishi.
- 7., 8. Neytral bozor.

⁷² Yapon yozuvchisi

9.,10. «Buqalar» trendining tushayotgani; «Ayiqlar» trendining ko'tarilayotgani.

11. Ko'tarilayotgan trendning tugashi.
12. Trendning o'zgarish nuqtasi.
13. Tushayotgan trendning tugashi.
14. Trendning o'zgarish nuqtasi.
15. Trendning ehtimolli o'zgarish nuqtasi.

Yapon shamlarining modellari (batafsil kombinatsiyasi)


Yapon shamlari tahlili bozordagi kelajak tebranishlarini bashorat qiluvchi ba'zi modellarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Shartli ravishda barcha modellarni orqaga buriluvchi va davom etuvchi trendlarga bo'lish mumkin. Signallarning yetarlicha yuqori aniqligiga ega bo'lganligi sababli ular treyderlar orasida keng qo'llanadigan va juda mashhurdir.

Endilikda barcha asosiy yapon shamlari modellari (kombinatsiyalari)ni ko'rib chiqamiz:

1. Doji
2. Bolg'a va osilgan
3. Yutib yuborish
4. Yulduzlar
5. Tong yulduzi
6. Oqshom yulduzi
7. Qulayotgan yulduz
8. Qora bulutlar pardasi
9. Harami va Xoch Harami
10. Buterbrod
11. Tashlab ketilgan bola
12. Belbogdan ushlab
13. Uch qora qarg'a
14. Ikki parvoz boshlagan qarg'a
15. Tatamida ushlab turish

Shamning tanasi ochiq va yopiq narxlar bilan chegaralangan oq (yashil) yoki qora (qizil) to'g'ri to'rtburchak ko'rinishga ega. Yuqori va pastki qismdagi vertikal chiziqlar yuqori va pastki "soyalar" deb nomlanadi.

Agar to'g'ri to'rtburchaklar oq bo'lsa, demak u aksiyalar ochilish narxidan yuqoriroq yopilgan bo'ladi.




Agar qora bo'lsa, unda yopilish narxi ochilish narxidan past bo'ladi. Shamning oq yoki qora tanasiga bir qarashni o'zidayoq, aksiyalar savdosi ijobiy yoki salbiy to'qinda yopilganligini tushunish mumkin. Bir necha soatlarni jadvalga tikilib o'tiradiganlar, oxir-oqibat shamlar nafaqat ko'zlarni charchatmasligini, balki ko'p hollarda ustunli-jadvallarda unchalik sezilmaydigan aniq signallar berilishini tushunadilar.

Muhim yapon shamlar kombinatsiyalari, agar ular to'g'ri talqin qilinsa, foydali savdolariga olib keladi.

Doji

Doji yagona sham kombinatsiyasining namunasidir. Bunday sham turi, aksiya bir xil narxda ochilganda va yopilganda, doji deyiladi.

Doji holatida shamning tanasi yo'q. Xaridorlar sotuvchilarga ochilish narxidan yuqoriroq yopilishi uchun yetarlicha bosim o'tkaza olmaganliklari va sotuvchilar aksiyalarni ochilish narxidan pastroqqa siljitishga qodir emasliklari sababli, ushbu sham bozor ishtirokchilari ongida hukm surayotgan qarorsizlik holatini aks ettiradi.




Itimos, dojni eslab qoling. Bu juda muhim shamdir, chunki u joriy trenddagi o'zgarishlarini va hattoki uning orqaga burilishini ko'pincha bashorat qiladi.

-An'anaga ko'ra, doji bir xil narxda ochiladi va yopiladi. Ammo ochilish va yopilish narxlarini o'ndan bir darajaga farq qiladigan "deyarli doji" bo'lsa ham, sham baribir muhim signalni o'zida aks ettiradi.

-Yonlama harakat (konsolidatsiya) paytida boshqa "doji" va kalta tanali shamlar bilan birgalikda paydo bo'ladigan "Doji", katta o'zgarishlar dalili emasligini anglatadi. Kuchli orqaga burilish signalini berish uchun bunday sham grafik narxlar modelining yuqori yoki pastki qismida paydo bo'lishi kerak.

-“Doji” tushish trendining pastki qismiga qaraganda, aksiyalar kotirovkasi yoki indeks qiymatining ko'tarilish trendining yuqori qismida kuchliroq signal sifatida qabul qilinadi. Bu, ayniqsa, “doji oqshom yulduzi” kombinatsiyasida bo'lgani kabi, oldindan uzun oq sham bo'lganda to'g'ri bo'ladi. Esingizda bo'lsin: uzun oq sham kuchli buqa kayfiyatini bildiradi. Songra, bozor ishtirokchilarining qat'iyatsizligi va yuqori narxni to'lashga tayyor emasliklarini anglatuvchi “doji” paydo bo'ladi. Natija qanday? Ehtimol, tez orada orqaga qaytish va daromadni qayd qilish boshlanadi.

-“Doji” ko'p marotaba trendning yuqori yoki pastki qismini tasdiqlovchi, qo'llab-quvvatlash va qarshilik ko'rsatish sohasiga aylanadi.



Aksiyalar yoki boshqa aktivlar o'sish trendi davomida qo'llab-quvvatlash pog'onasiga orqaga qaytib, keyin doji hosil qilsa, bu uning orqaga burilishiga va o'sishda davom etishga tayyorligini bildiradi. Pastga

7
tushish trendida ham xuddi shunday: agar aksiyalar qarshilik darajasiga sakrab, keyin doji paydo bo'lsa, bu ularning pasayishi davom etishini ko'rsatishi mumkin. "Mumkin" degan so'zga e'tibor bering. Har doim narxlar harakatining yo'nalishini tasdiqlaydigan keyingi shamni kuting.

"Uzun oyoqli doji" shamining yuqori va pastki soyalari uzun va ularning tashqi ko'rinishi ehtimol e'tiboringizni jalb qiladi. Ochilish va yopilish narxi "doji" ning o'rtasida bo'lsa, u "ricksha" deb ataladi.

Agar siz bunday shamlarning paydo bo'lishi uchun nima sodir bo'lishi kerakligini o'ylab ko'rsangiz, ularning tashqi ko'rinishi nima uchun juda muhimligini tushunasiz. Tasavvur qiling, aksiyalar ma'lum bir narxda ochilgan, masalan, 50 dollar. Xaridorlarning bosimi ularni yanada yuqoriga ko'tarib yubordi, keyin sotuvchilar bosimi ularni ancha pasaytirdi. Shunga qaramay, sessiya ochilish narxida, ya'ni \$ 50 da yopildi. Xulosa qanday? **Umumiy noaniqlik.** Buqalar ham, ayiqlar ham kotirovkalarni yuqoriga ko'tarish yoki ochilish narxidan pastga tushirish uchun yetarlicha kuchga ega emas. Bu holat buqalarni foyda olishni istagini paydo qilib, har ehtimolga keyingi savdo sessiyasida daromadni qayd qilish mumkinligini tushunasizmi? Esingizda bo'lsin, bozor noaniqlikni yoqtirmaydi.

"Doji qabr toshi" ko'tarilish trendida shakllanib borayotganini ko'rsangiz, sizda esa ushbu aksiyalar bo'yicha uzun pozitsiya ochiq bo'lsa, darhol daromadning bir qismini qayd qiling. Yoki hech bo'lmaganda, stop-lossni torting.

Stiv Nison o'zining "Yapon shamlari: moliyaviy bozorlarning grafik tahlili" kitobida shunday yozadi: "Biz texnik tahlil bilan bog'liq bo'lgan ko'plab yapon atamalari harbiy o'xshashliklarga asoslanganligini muhokama qilgan edik va shu nuqtai nazardan "doji qabr toshi" ham buqalar yoki ayiqlarni o'z hududlarini himoya qilish paytida qurbon bo'lgan qabrlarini eslatadi.


"Doji qabr toshi" kunning eng past narxida ochiladi va yopiladi. Agar narxlar yangi yuqori darajaga ko'tarilsa, uzun yuqori soyani chizadigan bo'lsa, bu buqalarni ayniqsa pessimistik kayfiyatga solishi kerak. Izoh quyidagicha: buqalar takliflarning barcha hajmini tanlagan bo'lishidan qat'iy nazar, ayiqlar narxlarni qaytadan minimal darajaga tushirgan va savdolar bu narxda yopilgan. Savdo sessiyasi tugagan belgining o'zi juda muhim signal ekanligini unutmang.

Bolg'a va osilgan

Bolg'a va osilgan shami orqaga burilish kombinatsiyalardir. Bu qo'llab-quvvatlashning muhim darajalarida paydo bo'ladi va pasayish harakati nihoyasiga yetayotganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Bolg'a ko'plab treyderlarga Pin-Bar nomi bilan ham tanilgan.

Bunday holda, shamning tanasi oq yoki qora bo'lishi mumkin, ammo u kalta bo'lishi shart. Pastki soya tanadan ikki baravar uzunroq. Yuqori soya, qoida tariqasida, juda qisqa yoki umuman yo'q: ular bunday shamning "kesilgan cho'qqi" deb aytishadi.

Agar pastga tushish trendi paytida "Bolg'a" kombinatsiyasini ko'rsangiz, bu trend sekinlashishi va yo'nalishni o'zgartirishini anglatishi mumkin, yon tomonlama harakat yoki ko'tarilish trendiga o'zgarishi kuzatiladi. Ammo, esda tutingki, "Bolg'a" tasdiqqa muhtoj. Bu haqiqiy orqaga burilish signalimi yoki yo'qmi, keyingi shamlar kombinatsiyasidan aniq bo'ladi.



Bolg'a buqa yoki ayiq shami (**osilgan**) bo'lishi mumkin. Agar "osilgan" ko'tarilish trendi paytida paydo bo'lsa, mazmuni darhol aniq bo'ladi. Biroq, ushbu signalni sharhlashdan oldin keyingi sham shakllanishini kutishingiz kerak bo'ladi. Qachonki / agar keyingi sham "osilgan"ning to'g'riligini tasdiqlasa, foydaning hammasini yoki bir qismini qayd qiling, chunki narx tushishi mumkin.


Nima uchun Bolg'a burilish yasovchi modeldir? Shamlarni tahlil qilish va bozor psixologiyasini yaxshi biladigan professional treyderlar buni sotuvchilar narxni sezilarli darajada pasaytirishga urinish qilganliklari bilan izohlaydilar (bunga pastki uzun soya dalildir). Biroq, xaridorlar vaziyatni o'zgartira olishdi. Shuning uchun Bolg'aning oxirida kichik tanasi hosil bo'ladi.

Jadvalda odatiy va teskari yapon shamdonlari kombinatsiyalari paydo bo'lishi mumkin. Ushbu shakl, shuningdek, qo'llab-quvvatlash darajasida shakllanadi va bozorning teskari yo'nalishini ko'rsatadi. Teskari

Bolg'a yuqori qismida katta soya va pastki qismida kichik tanasi bilan tavsiflanadi.

Yutib yuborish

Yapon shamlarining **Yutib yuborish** kombinatsiyasi ikkita shamdan iborat bo'lib, ular har xil ranglarda bo'lishi kerak. Ikkinchi shamning tanasi birinchisining tanasini to'liq "yutib yuborishi" kerak. Ikkinchi shamning ochilish narxi birinchisining yopilish narxidan pastroq bo'lishi kerak, ikkinchisining yopilish narxi esa birinchisining yopilish narxidan yuqori bo'lishi kerak. Ushbu kombinatsiya "**buqaning yutib yuborishi**" deb nomlanadi. Uning aksi "**ayiqning yutib yuborishi**" deb ataladi.



Diagrammada bunday signalni izlashda bir qoidani yodda tutish kerak - shamlarning aynan tanalari yutib yuborilishi kerak. Ya'ni chap sham tanasi o'ng tanasi chegarasida bo'lishi kerak.

Ushbu modelning muhim afzalliklaridan biri shundaki, u jadvalda tez-tez uchraydi. Darhaqiqat, agar ko'pgina moliyaviy vositalarning kotirovkalarini ko'rib chiqilsa, ushbu kombinatsiyani ko'pincha qo'llab-quvvatlash va qarshilik darajasida uchratish mumkin.

Bunday pattern (shakl)ni aynan shunday darajalarda izlash yaxshiroqdir. Buning uchun narx kanali indikatorlari kabi ko'plab indikatorlardan foydalanish mumkin. Yoki diagrammani to'g'ri chizish va barcha muhim darajalarini qo'lda aniqlash mumkin.

Bunday pattern (shakl) paydo bo'lishining mantiqiy asoslari nimada? Aytaylik, aksiya qiymati oshib bormoqda. Bir kuni narx to'satdan katta farq bilan ochilib, keyin pasayishni boshlaydi. Bozordagi kayfiyat o'zgaradi va sham avvalgi buqa ochilishidan pastroq yopiladi. Bunday holda, ayiqning yutib yuborishi haqida gapiramiz.

Yutib yuborish modeli paydo bo'lganda, tasdiqni kutish lozim. Ikkinchi shamning yopilishi tasdiq uchun xizmat qiladi. Bu sodir bo'lgach va nihoyat pattern shakllangandan so'ng, pattern ko'rsatgan yo'nalishda

bitimni ochish mumkin. Tabiiyki, biron bir indikatoridan foydalanish ortiqcha bo'lmaydi.

Yulduzlar

Quyidagi kombinatsiyalar uchta shamdan iborat, shu jumladan "Yulduzlar"dan ham. "Yulduz" kuchli va ahamiyatli burilish yasovchi signalni ifodalaydi.

"Yulduz" deb hisoblash uchun sham ko'tarilish (tushish) trendining yuqori qismida (pastki qismida) paydo bo'lishi, qisqa tanaga ega bo'lishi va oldingi shamga qaraganda gep (savdo bo'lmagan paytda kotirovkaga ma'lumot kirmaganligi uchun yopilish va ochilish narxida farq yuzaga keladi va bu gep deyiladi) bilan ochilishi (ko'tarilish trendi uchun yuqoriga va tushish trendi uchun pastga bo'lishi) kerak.

"Yulduz"ga yonma-yon bo'lgan shamlar: ko'tarilish trendida birinchi shamning tanasi uzun va oq, uchinchisining tanasi uzun va qora, birinchisining tanasi bilan bir xil bo'lishi kerak. Pastga tushish trendida birinchi shamning tanasi uzun va qora bo'lib, keyin "yulduz" paydo bo'ladi. Va nihoyat, birinchi qora rangning o'lchamiga teng bo'lgan uchinchi uzun oq sham paydo bo'ladi.


Yaponlar birinchi kombinatsiyani "Oqshom yulduzi", ikkinchisini – "Tong yulduzi" deb atashadi. "Yulduz" "Doji"ga aylanganda, bu yaqinlashib kelayotgan burilish yasovchi haqida yanada jiddiy ogohlantirishni anglatadi.

Tong yulduzi

Tong yulduzi - bu burilish yasovchi patterni (shakli) hisoblanadi. Ushbu model Bolg'a yoki qulayotgan yulduzga qaraganda biroz murakkabroq, chunki uni uchta sham hosil qiladi. Tong yulduzi qo'llab-quvvatlash darajasida paydo bo'ladi va bozorning yuqoriga tomon burilayotganligini anglatadi.

Bunday modelning asosiy parametrlari qanday? Avvalo, tong yulduzidan oldin ayiq shami hosil bo'ladi. So'ng kotirovkalarda uzilish va kichkina tanasi va kichik soyasi bo'lgan kichik sham paydo bo'ladi. Undan keyin, odatda, uzilish bilan buqa shami ham paydo bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, agar kichkina sham doji bo'lsa, unda u doji-tong yulduzi" deb nomlanadi. Biroq, bu modelning mohiyatiga ta'sir bermaydi, chunki ikkala holatda ham bozorni o'zgartirish haqida gap bo'ladi.




Ushbu modelning izohi qanday? Hammasi juda oson. Birinchi sham bozorda ayiqlar ustunlikka ega bo'lishga harakat qilayotganini anglatadi. Ikkinchi sham o'z uzilishi bilan, go'yo ayiqlarning imkoniyati borligini ko'rsatadi. Biroq, bu sham narxni juda buzadi.

"Yulduz" ning o'zi kichkina bo'lib, bozorda kurash ketayotganini anglatadi. So'ngra ayiqlar narxni qo'yib yuboradilar va xaridorlar ustunlik qila boshlaydilar. Buning ustiga, pattern dan ko'rinib turadiki, bu erda mutlaqo teskari dinamika va narxlar o'sish tezligi kuzatiladi. Bu esa ayiqlarning mag'lubiyatga uchraganligini ko'rsatadi.

Afsuski, "Tong yulduzi" patterni jadvalda ko'p uchramaydi. Ko'pincha, narxning orqaga burilishi Bolg'a yoki teskari Bolg'aning paydo bo'lishi bilan sodir bo'ladi. Ammo, agar Tong yulduzi shakllanayotgan bo'lsa, unda bozorda haqiqatan ham burilish sodir bo'ladi.

Oqshom yulduzi

Oqshom yulduzi patterni tong yulduzi bilan taqqoslaganda aksi hisoblanadi. U bozorni pastga burilishini bashorat qiladi. Ushbu model uchta shamni o'z ichiga oladi. Birinchisi buqa, ikkinchisi doji, uchinchisi ayiq shamlari.



Ushbu model shakllanishining zaruriy sharti bo'lib shamlar orasidagi "gep"lar hisoblanadi. Buqa va doji o'rtasida albatta narxlarining farqi mavjud. Xuddi shunday doji va ayiq shamlariga ham tegishli.

Ushbu pattern qanday shakllanadi? Barchasi juda oson. Avval, xaridorlarning qiziqishini ko'rsatuvchi buqa shami paydo bo'ladi. Aslida, birinchi va ikkinchi shamlar orasidagi narxlar farqi ham bundan darak beradi. Investorlar ko'proq sotib olishga moyil bo'ladilar. Ammo ikkinchi sham shakllanishi jarayonida kurash sodir bo'ladi hamda juda kichik Doji shami paydo bo'ladi.

So'ng sotuvchilar tashabbusni to'liq o'z qo'llariga olishadi, narxlarining yana bir farqi paydo bo'ladi va pasayish trendi boshlanadi, aytish joizki bu juda kuchli pasayish trendi hisoblanadi. Shuni esda tutish kerakki, uchinchi sham birinchisining markazidan pastroq yopilishi kerak. Aks holda, signal zaif bo'ladi.

Ushbu pattern bilan bog'liq yana bir muhim holat mavjud. Bu faqat narxlar bo'yicha farqlar paydo bo'lganda ishlaydi. Agar farqlar bo'lmasa, gap oqshom yulduzi haqida ketmaydi. Garchi bu holatda ham ko'pincha burilishlar sodir bo'ladi. Ammo patternga uning hech qanday aloqasi yo'q.

Boshqa ko'plab yapon sham modellari singari, oqshom yulduzi qarshilik darajasida shakllanadi. Bundan tashqari, ko'pincha, ikkinchi sham narxlar farqi tufayli qarshilikdan yuqori bo'lib, keyin esa ikkinchi narxlar farqi tufayli narx yana pastroq bo'ladi.

Qulayotgan Yulduz

Qulayotgan yulduz patterni orqaga burilish modeliga ta'alluqlidir. Bu qarshilik darajasida paydo bo'ladi va ko'tarilish trendi nihoyasiga yetayotganidan dalolat beradi. Qulayotgan yulduz buqa yoki ayiq shami bo'lishi mumkin. Bu hech qanday ahamiyatga ega emas. U beradigan signal - tepadan pastga qarab burilishdir.

Jadvalda qulayotgan yulduz quyidagicha ko'rinadi - u kichkina tanaga va yuqoriga yo'nalgan juda uzun soyaga ega.


qulayotgan yulduz


Diagrammada bunday patternni aniqlash juda oson. Darajalarni oldindan belgilash lozim va agar qarshilik yaqinida juda uzun soyali va kichkina tanasi bo'lgan model paydo bo'lsa, demak gap qulayotgan yulduz haqida ketayotganini anglaymiz. Aytgancha, qulayotgan yulduzining pastki soyasi umuman yo'q yoki juda kalta ekanligini ta'kidlash kerak.

Ushbu hodisani qanday izohlash mumkin? Gap shundaki, xaridorlar qarshilikni yorib o'tib, narxni yanada oshirishga harakat qiladilar. Agar ular buni uddalasa, qulayotgan yulduz shakllanmaydi. Ammo xaridorlar muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, juda uzun soyali va tanasi kalta bo'lgan pattern paydo bo'ladi. Sotuvchilar asta-sekin tashabbusni o'z qo'llariga olishadi.

v) davlat aksiyalar paketi oldi-sotdi shartnomasi summasining 15%idan kam bo'lmagan miqdorda texnologik asbob-uskunalar va litsenzion texnologiyalar yetkazib berish yo'li bilan to'lov shartida davlat

aksiyalari oldi-sotdi bitimlarini ro'yxatga olish bo'yicha savdo maydonchasida – zamonaviy texnologik asbob-uskunalar yetkazib berish yo'li bilan to'lov shartida davlat aksiyalar paketi oldi-sotdi shartnomasi summasining kamida 15%i miqdorida.

Xorijiy valyutani deponentlash, undan qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar uchun, jumladan, davlat aksiyalarini sotishda foydalanish tartibi va shartlari ushbu Qoidalar va qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

YaDTK Savdo tizimida birja bitimlarini amalga oshirishda pul mablag'larini deponentlash shartlari

YaDTK Savdo tizimida emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar amshish uchun majburiy shartlar quyidagilar hisoblanadi:

YaDTK savdo tizimida operatsiyalarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar xaridori tomonidan Birja a'zosining tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida hisob-kitob depozit hisobvarag'iga to'liq miqdorda deponentlash;

xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga komission mukofot to'lovlarini hisobga olgan holda to'liq summada T+2 kodida hisob-kitob shartlarida xaridor tomonidan bitimning majburiy qoplanishi.

Mijozning pul mablag'larini deponentlash uchun Birja a'zosi TIF Milliy bankda milliy va xorijiy valyutada shaxsiy va mijoz hisobvarag'ini ochadi.

Birja a'zosining TIF Milliy bankdagi shaxsiy hisobvarag'ida brokerning o'z mablag'lari, jumladan, fond birjasida dilerlik operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan mablag'lari aks ettiriladi.

Birja a'zosining TIF Milliy bankdagi mijoz hisobvarag'ida broker bilan brokerlik va depozitar xizmatlar ko'rsatishga tuzilgan shartnomaga muvofiq fond birjasida brokerlik operatsiyalari o'tkazish uchun mijoz tomonidan o'tkazilgan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Bitimni amalga oshirish imkoni bo'lmagan hollarda deponentlangan pul mablag'lari mijozning talabi uning xizmat ko'rsatuvchi bankidagi joriy hisobvarag'iga qaytariladi.

Birja Savdo tizimida birja bitimlari bo'yicha hisob-kitoblar tartibi va muddatlari

Birja bitimi ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng Birja a'zosining mijozlari bitim bo'yicha mablag'lar to'liq summasini, shu jumladan, bitim summasi va birja savdosiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar komission yig'imlarini

vakolatli bankda Birja HKKP hisobraqamiga ushbu qoidalarda belgilangan muddatlarda o'tkazishi shart.

Davlat aksiyalarini xorijiy valyutaga sotish bo'yicha bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar muddat va tartibi davlat aksiyalarini milliy valyutaga sotishdagi bilan bir xil.

Birjada oldi-sotdi bitimlari tuzishda ular bo'yicha hisob-kitoblar muddati ushbu Qoidalar bilan belgilanadi. Belgilangan muddatlar buzilgan holatda O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasiga muvofiq, bitim haqiqiy emas deb topiladi.

Tuzilgan birja bitimlari bo'yicha mablag'lar to'liq miqdorini to'lash bitim qatnashchilari tomonidan Birja HKKP vakolatli bankdagi hisobraqamiga quyidagi miqdorda amalga oshiriladi:

1. Maxsus joylashtirish shartlari bilan korporativ qimmatli qog'ozlar sotish sektsiyasi № 1:

a) imtiyozli huquqdan foydalangan holda korporativ qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha savdo maydonchasida – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

b) «yopiq aukcion» texnologiyasidan foydalangan holda korporativ qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5);

v) yopiq obuna bo'yicha xususiy joylashtirish huquqidan foydalangan holda korporativ qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha savdo maydonchasida – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0).

2. Banklar depozit sertifikatlarini sotish sektsiyasi № 2:

a) depozit sertifikatlarini joylashtirish bo'yicha savdo maydonchasida – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

b) depozit sertifikatlari muomalasi bo'yicha savdo maydonchasida – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0).

3. IPO № 3 amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining emissiyalarini joylashtirish sektsiyasida – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

4. Listing kompaniyalar aksiyalarini joylashtirish va muomala sektsiyasi № 4:

a) listing kompaniyalari aksiyalarini joylashtirish bo'yicha savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5);

b) listing kompaniyalari aksiyalari muomalada bo'ladigan savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5).

5. Korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirish va muomala seksiyasi № 5:

a) korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirish bo'yicha savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5);

b) korporativ va infratuzilma obligatsiyalar muomalada bo'ladigan savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5);

6. Qimmatli qog'ozlar paketlarini sotish seksiyasi (blok-treyding) № 6:

a) aksiyalar paketlarini sotish bo'yicha savdo maydonchasida (blok-treyding) - qimmatli qog'ozlar sotuvchisining qo'yish summasi (taklif narxi) 100%i miqdorida;

b) korporativ va infratuzilma obligatsiyalari sotish bo'yicha savdo maydonchasida - qimmatli qog'ozlar sotuvchisining qo'yish summasi (taklif narxi) 100%i miqdorida;

7. Qayta sotib olish (repo) sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari bo'yicha seksiya № 7:

a) repo bitimining I-bosqichi savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5);

b) repo bitimining II-bosqichi savdo maydonchasida – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

8. Hosila moliyaviy vositalar (derivativlar) sotish bo'yicha seksiya №8:

a) qimmatli qog'ozlarga opsiyonlar sotish bo'yicha savdo maydonchasida:

opsion xarid qilishda (joylashtirish va qayta sotishda) – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

opsion emitenti tomonidan xaridga (koll) opsiyon ijro etishda – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

b) qimmatli qog'ozlarga fyucherslar sotish bo'yicha savdo maydonchasida:

- xaridor (oluvchi) tomonidan fyuchersni xarid qilishda (joylashtirish va qayta sotishda) – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

- fyuchers xaridori tomonidan sotuvga fyuchers ijrosida (fyuchers emitenti tomonidan qimmatli qog'ozlar yetkazib berishda) – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

- fyuchers emitenti tomonidan xaridga fyuchers ijrosida - bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0).

9. Maxsus hisob-kitob shartlari bilan korporativ qimmatli qog'ozlarni sotish sektsiyasi № 9:

a) xorijiy valyutaga korporativ qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha savdo maydonchasida – bitim amalga oshirilgan kun (hisob-kitob kodi T+0);

b) jismoniy shaxslar uchun korporativ qimmatli qog'ozlar sotish bo'yicha savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5);

v) baholash tashkiloti tomonidan oldindan baholanishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar sotish bo'yicha savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5).

Xususiylashtirish jarayonlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bitimlar bo'yicha mablag'lar to'liq miqdorini to'lash bitim qatnashchilari tomonidan Birja HKKP vakolatli bankdagi hisobraqamiga quyidagi miqdorda amalga oshiriladi:

1. Davlat aksiyalarini sotuv bo'yicha sektsiya № 10;

a) davlat aksiyalarini pulini bo'lib to'lash shartlarisiz yetkazib berish sharti bilan sotish bo'yicha savdo maydonchasida – 10 bank kuni (hisob-kitob kodi T+10);

b) davlat aksiyalarini pulini bo'lib to'lash shartlarida yetkazib berish sharti bilan sotish bo'yicha savdo maydonchasida – 2 yildan ortiq emas (24 oy - 730 kalendar kuni) – (hisob-kitob kodi T+R2);

Izoh: R2 – kalendar kunlar soni, 11 dan 730 gacha bo'lgan to'liq qiymatga ega bo'ladi.

2. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik jamiyatlari qo'shimcha emissiyalari aksiyalarini joylashtirish sektsiyasi № 11:

a) aksiyadorlik jamiyatlari qo'shimcha emissiyalari aksiyalarini pulini bo'lib to'lash shartlarisiz joylashtirish bo'yicha savdo maydonchasida – 5 bank kuni (hisob-kitob kodi T+5);

b) aksiyadorlik jamiyatlari qo'shimcha emissiyalari aksiyalarini pulini bo'lib to'lash shartlari bilan joylashtirish bo'yicha savdo maydonchasida (to'lov bitim ro'yxatga olingan kundan emissiya prospektiga muvofiq joylashtirish muddati davomida) – 1 yildan ortiq emas (hisob-kitob kodi T+R1).

Izoh:

1. 350 kalendar kuni hisobga olinadi (axborotni ochib berish uchun 365-15 kalendar kuni).

2. Pulini bo'lib to'lash muddati qimmatli qog'ozlar emissiyasini davlat ro'yxatidan o'tkazishda qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi

tegishli qaror bilan tasdiqlangan qimmatli qog'ozlarni joylashtirishning oxirgi sanasidan oshishi mumkin emas.

R1- kalendar kunlar soni, 6 dan 350 gacha bo'lgan to'liq qiymatga ega bo'ladi.

3. Investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan davlat aksiyalarini sotish sektsiyasi № 12:

a) 10 bank kuniga teng to'lov muddati va investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan kechiktirilgan to'lovsiz davlat aksiyalarini sotish bo'yicha savdo maydonchasida (hisob-kitob kodi T+10);

b) 2 yilga teng to'lov muddati va investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan kechiktirilgan to'lovsiz davlat aksiyalarini sotish bo'yicha savdo maydonchasida – 2 yildan ortiq emas (24 oy - 730 kalendar kuni) – (hisob-kitob kodi T+R2);

4. Konkursli savdolar va to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijalari bo'yicha bitimlarni ro'yxatga olish sektsiyasi № 13:

a) Davlat tender komissiyasi (DTK) tomonidan o'tkaziladigan konkursli savdolarda tuzilgan bitimlarni ro'yxatga olish bo'yicha savdo maydonchasida – 2 yildan ortiq emas (24 oy - 730 kalendar kuni) – (hisob-kitob kodi T+R2);

b) to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijalari bo'yicha tuzilgan davlat aksiyalari oldi-sotdi bitimlarini ro'yxatga olish bo'yicha savdo maydonchasida – 2 yildan ortiq emas (24 oy - 730 kalendar kuni) – (hisob-kitob kodi T+R2);

c) texnologik asbob-uskunalar va litsenzion texnologiyalar yetkazib berish yo'li bilan to'lov shartida davlat aksiyalari oldi-sotdi bitimlarini ro'yxatga olish bo'yicha savdo maydonchasida – 2 yildan ortiq emas (24 oy - 730 kalendar kuni) – (hisob-kitob kodi T+R2).

Qimmatli qog'ozlar qiymatini to'lash uchun pul mablag'lari o'tkazish Birja HKKP orqali quyidagicha amalga oshiriladi:

- pul mablag'lari deponentlangan xorijiy valyutada – qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan holatlarda, bu brokerlik va depozitar xizmatlar ko'rsatish haqida shartnomada yoki Birja a'zosining talabnomasida ko'rsatiladi;

- O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida – boshqa holatlarda.

Pul mablag'larini Birja HKKP hisobraqamlari bo'yicha o'tkazish tartibi «Toshkent» RFBda hisob-kitob-kliring operatsiyalari o'tkazish Qoidalari»ga muvofiq belgilanadi.

Davlat aksiyalar paketini sotishda xaridor (xaridorning vositachisi) tomonidan to'lov muddati buzilgan taqdirda bitim Birjada bekor qilinadi. Bunda Birja HKKP xaridor deponentlagan pul mablag'laridan sotuvchi foydasiga belgilangan tartibda taqsimlanadigan bitim summasinig 5% miqdorida jarima, shuningdek, birja savdolariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun komission yig'imlar ushlab qoladi va qolgan pul mablag'larini xaridorning hisobvarag'iga qaytaradi.

Xaridorning to'lov muddatini buzganligi haqida Birja HKKPda qayd qilinadi va Birja Boshqarmasiga xabar qilinadi.

Birja Boshqarmasi Birja HKKPning xabari asosida o'n kun davomida tegishli qaror qabul qiladi va uni besh kun davomida manfaatdor shaxslarga etkazadi.

YaDTK Savdo tizimida birja bitimlari bo'yicha hisob-kitoblar tartibi va muddatlari.

Birja bitimi YaDTK Savdo tizimida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng Birja a'zosi bitim bo'yicha mablag'lar to'liq miqdorini «T+2» hisob-kitob kodiga muvofiq qat'iy «T+2» kun, ya'ni bank ikkinchi ishchi kuni («T+0» bitim amalga oshirilgan kun hisobga olinmaydi) Birja HKKPning vakolatli bankdagi hisob raqamiga, jumladan, bitim summasi va birja savdolariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning komission yig'imlarini o'tkazishga majbur.

Agar Birja a'zosi mijozlar topshirig'i bilan ikki taraflama bitim (bitta Birja a'zosining xaridor va sotuvchini ifodalaydigan ikkita treyderi) amalga oshiradigan bo'lsa, bitim bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun u T+2 kuni faqat bitim bo'yicha savdo tashkilotchilarining komission xarajatlarini to'laydi.

YaDTK savdo tizimida «T+0» yoki «T+1» kuni bo'yicha bitimni qoplash uchun Birja a'zosi tomonidan pul mablag'larini o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Pul mablag'lari ko'rsatilgan kunlarda o'tkazilgan holatda ular Birja HKKP tomonidan Birja a'zosining hisob raqamiga qaytarilishi lozim.

Torgovoy sisteme YaDTK Savdo tizimida oldi-sotdi bitimlari tuzishda ular bo'yicha hisob-kitoblar muddati ushbu Qoidalar bilan «T+2» hisob-kitob kodiga muvofiq belgilanadi. Belgilangan muddatlar buzilgan holatlarda O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonunga muvofiq (16-modda «Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish hamda ro'yxatdan o'tkazish») bitim haqiqiy emas deb topiladi.

Birja Savdo tizimida tuzilgan bitimlar bo'yicha qimmatli qog'ozlar yetkazib berish tartibi.

Har bir savdo sessiyasi yakunlari bo'yicha Birja Makleriati Birja HKKPga Savdo tizimining tegishli sektsiyalarida ro'yxatdan o'tkazilgan bitimlar haqida ma'lumot beradi.

Birja HKKP Birja Makleriati taqdim etgan ma'lumotlar asosida tuzilgan bitimlar bo'yicha tomonlarning majburiyatlari hisob-kitobini amalga oshiradi va Markaziy depozitariyga topshiriq - qimmatli qog'ozlar bo'yicha majburiyatlar vedomosti beradi.

Birja va Markaziy depozitariy o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibi qonun bilan va Markaziy depozitariy bilan Birja o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnomasiga muvofiq ularning o'zaro munosabatlar tartibi bilan belgilanadi.

Markaziy depozitariy qonun hujjatlarida belgilangan tartibda birja bitimlari yakunlari bo'yicha qimmatli qog'ozlar yetkazib berishni ta'minlaydi.

Birja bitimlari bo'yicha qimmatli qog'ozlar yetkazib berish quyidagicha amalga oshiriladi:

- davlat aksiyalarini milliy va xorijiy valyutaga sotish bitimlari bo'yicha – bitim to'liq to'langan kundan boshlab ko'pi bilan besh ish kuni;
- boshqa bitimlar bo'yicha – bitim to'liq to'langan kundan boshlab ko'pi bilan besh ish kuni.

T+R1 yoki T+R2 hisob-kitob kodlari bilan pulini bo'lib to'lash shartida sotilgan qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysida sotuvchining depo schetida «yetkazib berish bloklangan» bo'limida hisobga olinadi.

Qimmatli qog'ozlarni xaridorning hisobvarag'iga o'tkazish Birja HKKP topshirig'i asosida, bitim bo'yicha to'lov to'liq bajarilganidan so'ng amalga oshiriladi.

YaDTK Savdo tizimida tuzilgan bitimlar bo'yicha qimmatli qog'ozlar yetkazib berish tartibi

Birja HKKPda har bir savdo sessiyasi yakunlari bo'yicha Savdo tizimidan YaDTK Savdo tizimining tegishli sektsiyalarida ro'yxatdan o'tkazilgan bitimlar haqida ma'lumotlar avtomatik rejimda kelib tushadi.

Birja HKKP tuzilgan bitimlar reestri asosida tomonlarning pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar bo'yicha tuzilgan bitimlar bo'yicha majburiyatlari hisob-kitobini amalga oshiradi.

Birja savdolari yakunlari bo'yicha Birja HKKP bitimlar nettingi asosida qimmatli qog'ozlar bo'yicha tomonlar majburiyatlarini va «T+2»

hisob-kitob kodiga muvofiq belgilangan miqdordagi qimmatli qog'ozlar yetkazib berishni ta'minlashi shart bo'lgan bitim tomonini belgilab beradi.

Qimmatli qog'ozlar yetkazib berish «T+2» hisob-kitob kodiga muvofiq, Birja a'zosi bo'lgan xaridorning hisobvarag'iga avtomatik rejimda amalga oshiriladigan va uning balansida aks etadigan «T+2» kunda netting natijalari bo'yicha ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlar to'lovi to'liq to'langanidan so'ng amalga oshiriladi.

Birja Savdo tizimida tuzilgan bitim bo'yicha Birjaga komission yig'imlar to'lash tartibi.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha komission yig'imlar Birja tomonidan, ushbu Qoidalar va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan holatlarni istisno qilgan holda, bitimda ishtirok etuvchi har bir tomondan (xaridor va sotuvchidan) undiriladi. Agar oldi-sotdi shartnomasida ko'zda tutilgan bo'lsa, komission yig'imlarni bitimda ishtirok etuvchi ikkala tomon uchun to'lashga ruxsat etiladi.

Birja bitimlarini tuzishda narxlar darajasini, qimmatli qog'ozlarga talab va taklifni qo'llab-quvvatlash uchun, qonun hujjatlariga muvofiq, market-meyker Birjaga, qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy Bankga yig'imlar va boshqa to'lovlardan ozod qilinadi.

Birjaga komission yig'im to'lash ushbu Qoidalar bilan belgilangan muddatda va Birja Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan miqdorda Birjaning hisob raqamiga (talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga) pul mablag'lari o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Birjaga, shuningdek, xususiylashtirish jarayonlariga xizmat ko'rsatuvchi sektsiyalarda pulini bo'lib to'lash shartidagi to'lov sharti bilan bitimlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga komission yig'imlar to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) HKKP oldindan deponentlangan pul mablag'lari miqdoridan (bitim miqdorining kamida 15%i):

1) xaridordan Birjaga, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga komission yig'imlar miqdorini ushlab qoladi;

2) shundan keyin HKKP sotuvchi tomonidan uning hisob raqamiga Birjaga, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga komission yig'imlar miqdorini o'tkazadi;

3) HKKP sotuvchining hisob raqamidan Birjaga, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga komission yig'imlar miqdorini ushlab qoladi;

b) xaridor tomonidan to'lov muddati buzilgan hollarda barcha ushlab qolingan komission yig'imlar miqdori qaytarilmaydi va o'rni to'ldirilmaydi.

Komission yig'imlar miqdori Birja Kuzatuv kengashi tomonidan, lekin bitimda ishtirok etuvchi tomonlarning har biridan (xaridor va sotuvchidan) olinadigan bitim qiymatining 1%idan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Birjaga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha komission yig'imlar to'lash Birja a'zolari tomonidan bitim ro'yxatdan o'tkazilgach quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi (bitim ro'yxatdan o'tkazilgan kun to'lov muddatiga kiritilmaydi):

- besh bank kuni ichida – hisob-kitob kodi **T+0 va T+5, T+R1** bo'lgan bitimlar uchun;

- o'n bank kuni ichida – davlat aksiyalarini milliy valyutada sotish bo'yicha bitimlar uchun (hisob-kitob kodi **T+10, T+ R2**);

- o'n ikki bank kuni ichida – davlat aksiyalarini xorijiy valyutada sotish bo'yicha bitimlar uchun (hisob-kitob kodi **T+10, T+ R2**) va plyus ikki bank kuni o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun).

Birjaga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha komission yig'imlar quyidagi hollarda o'z muddatida amalga oshirilgan hisoblanadi:

- to'lov Birja HKKP orkali amalga oshirilganda – agar pul mablag'lari Birja HKKP hisobvarag'iga ushbu Qoidalar bilan belgilangan to'lov muddati uchun so'nggi bank kuni soat 24.00 gacha kelib tushgan bo'lsa;

- to'lov Birja HKKP chetlab o'tilgan holda, bevosita Birjaning banklar depozit sertifikatlari bilan bitimlar bo'yicha hisob raqamiga (talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga) amalga oshirilganda – agar pul mablag'lari Birja HKKP hisobvarag'iga ushbu Qoidalar bilan belgilangan to'lov muddati uchun so'nggi bank kuni soat 24.00 gacha kelib tushgan bo'lsa.

- Birja a'zosi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha komission yig'im to'lash muddatini buzgan hollarda ushbu Qoidalar bilan belgilangan miqdorda penya hisoblanadi.

Ushbu Qoidalar bilan belgilangan Birja komission yig'imlari va Bitim bo'yicha to'lov muddati buzilgan hollarda Birja xaridorning deponentlarngan pul mablag'laridan bitimda ishtirok etuvchi ikkala tomon uchun komission yig'imlarni aktseptsiz tartibda undirib oladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bitim tomonlari sifatida ishtirok etadigan milliy valyutadagi qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar

bo'yicha komission yig'imler O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida to'lanadi.

Sotuvchi sifatida Davlat raqobat qo'mitasi, xaridor sifatida O'zbekiston Respublikasi norezidenti ishtirok etadigan davlat aksiyalarini xorijiy valyutada sotish bo'yicha bitimlar bo'yicha Birjaga komission yig'imler O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yoki xorijiy valyutada to'lanadi.

Xaridor sifatida O'zbekiston Respublikasi norezidenti ishtirok etadigan, xorijiy valyutada to'lov shartlaridagi qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar bo'yicha Birjaga komission yig'imler O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yoki xorijiy valyutada to'lanadi.

YaDTK Savdo tizimida tuzilgan bitim bo'yicha Birjaga komission yig'imler to'lash tartibi.

YaDTK Savdo tizimida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha komission yig'imler Birja tomonidan, ushbu Qoidalar va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarni istisno qilganda, bitimda ishtirok etuvchi tomonlarning har biridan (xaridor va sotuvchidan) olinadi. Agar oldi-sotdi shartnomasida va repo-bitimda ko'zda tutilgan bo'lsa, komission yig'imlarni bitimda ishtirok etuvchi ikkala tomon uchun to'lashga ruxsat etiladi.

Birja bitimlarini tuzishda narxlar darajasini, qimmatli qog'ozlarga talab va taklifni qo'llab-quvvatlash uchun, qonun hujjatlariga muvofiq, market-meyker Birjaga, qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy Bankga yig'imler va boshqa to'lovlardan ozod qilinadi.

Komission yig'imler miqdori Birja Kuzatuv kengashi tomonidan, lekin bitimda ishtirokchi etuvchi tomonlarning har biridan (xaridor va sotuvchidan) olinadigan bitim qiymatining 1%idan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Birja komission yig'imi «T+2» hisob-kitob kodiga muvofiq, Birja a'zosi bo'lgan xaridor tomonidan bitimni qoplash uchun Birjaning kliring operatsiyalari uchun mo'ljallangan hisob raqamiga o'tkazishda undiriladi.

Pul mablag'lari kelib tushganidan so'ng kliring tizimi avtomatik rejimda sotuvchidan va xaridordan undiriladigan komission yig'imler miqdorini aniqlaydi va ushlab qolib, Birjaning asosiy hisob raqamiga o'tkazadi.

Bitim tomonlari sifatida O'zbekiston Respublikasi rezidentlari ishtirok etadigan «**Stock Market**» aksiyalar bozori va «**Bond Market**» obligatsiyalar bozor moduli sektsiyalarida tuzilgan milliy valyutadagi

qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar bo'yicha Birjaga komission yig'imler O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida to'lanadi.

Xaridor sifatida O'zbekiston Respublikasi norezidentlari ishtirok etadigan «FTCMarket» qimmatli qog'ozlar bozori moduli seksiyalarida tuzilgan milliy valyutadagi qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar bo'yicha Birjaga komission yig'imler bitim tuzilgan xorijiy vayutada to'lanadi.

Ushbu Qoidalar bilan belgilangan Birja komission yig'imlari va Bitim bo'yicha to'lov muddati buzilgan hollarda Birja xaridorning deponentlangan pul mablag'laridan bitimda ishtirok etuvchi ikkala tomon uchun komission yig'imlarni aktseptsiz tartibda undirib oladi.

Birja a'zosi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha komission yig'im to'lash muddatini buzgan hollarda ushbu Qoidalar bilan belgilangan miqdorda penya hisoblanadi.

Birja a'zosi-xaridor tomonidan bitimni qoplash uchun kliring operatsiyasi komission birja yig'imi Birjaning hisob raqamiga T+2 kodi bilan undiriladi.

Pul mablag'lari kelib tushganidan keyin kliring tizimi avtomatik ravishda xaridor va sotuvchidan olinadigan komission yig'imler miqdorini aniqlab ushlab qoladi va Birjaning hisobraqamiga o'tkazadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining aksiyalar «Stock Market» va obligatsiyalar bozori «Bond Market» moduli seksiyalarida O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan milliy valyutada operatsiyalar amalga oshirilganda Birja komission yig'imlari milliy valyutada undiriladi.

Birjaning savdo tizimida amalga oshirilgan bitimlarni bekor qilish va haqiqiy emas deb topish natijasida Birjaga komission yig'imler va boshqa to'lovlarni to'lash tartibi.

Bitimni bekor qilish va haqiqiy emas deb topish Birja a'zosi va uning mijozlarini ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan holatlarni istisno qilganda, Birja komission yig'imlarini to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi.

Bitimni bekor qilish (davlat aksiyalari bilan bitimlar bundan mustasno) faqat ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan to'lov muddati doirasida, xaridor va sotuvchining Birjada belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan, bitimni bekor qilish to'g'risidagi kelishuv shaklida rasmiylashtirilgan yozma o'zaro roziligi mavjud bo'lgan taqdirda ruxsat etiladi.

Bitim tomonlardan ikkalasining o'zaro roziligi bo'yicha bekor qilinganda komission yig'im Birjaga bitim tomonlarining ikkalasi yoki

tomonlar kelishuviga binoan ikkala tomon uchun bittasi tomonidan to'lanadi.

Davlat aksiyalarini sotishda to'lov muddati xaridorning aybi bilan buzilgan holatda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi Davlat raqobat qo'mitasiga taqdim etilgan bitimni bekor qilish uchun asos sanalgan hujjatni Birja tomonidan ro'yxatdan o'tkazgan holda bekor qilinadi.

Davlat aksiyalari oldi-sotdi shartnomasi bekor qilinganda Birja HKKP xaridor deponentlagan mablag'lar miqdoridan sotuvchi foydasiga bitim miqdorining 5%ini, shuningdek, birja savdolariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun komission yig'img'lar ushlab qoladi va qolgan pul mablag'larini xaridorning hisobvarag'iga qaytaradi.

Komission yig'img'lar bo'yicha penyani Birjaga ushbu Qoidalarda belgilangan miqdorda aybdor tomon (tomonlar) to'laydi.

Bitim tomonlardan ikkalasining roziligi bilan bekor qilinganda Birja a'zolari Birjaga bitimni bekor qilish haqida kelishuvni uch nusxada ularning mijozlari tomonidan imzolangan (yuridik shaxslar uchun – ularning rahbarlari tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan) ushbu kelishuv tuzilgan kundan boshlab Birja a'zolari imzolagan ilova xati bilan birga uch kun ichida taqdim etadi.

Bitimni bekor qilish haqidagi kelishuv asosida Birja Boshqarmasi tegishli qaror qabul qiladi, qarorning ikki nusxasi bitimni bekor qilish haqida kelishuvning iki nusxasi bilan birga Birja HKKPga ko'rsatilgan hujjatlarning bitta nusxasini Markaziy depozitariyaga berish uchun yuboriladi.

Bitim bo'yicha to'lov muddatlari buzilgan xollarda O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasi asosida bitim haqiqiy emas deb topiladi.

Birja HKKP Birja Boshqarmasini bitim bo'yicha to'lov muddatining buzilganligi haqida yozma ravishda ogohlantiradi. Birja Boshqarmasi bitim bch to'lov muddatining buzilganligi haqida materiallarni Birja Nazorat komissiyasiga ko'rib chiqish uchun yuboradi.

Birja HKKPdan bitim bo'yicha tulov muddatining buzilganligi haqida xabar olgan kundan uch ish kuni davomida Birja bitim imzolagan Birja a'zolarini to'lov muddatining buzilganligi haqida materiallar Birjaning Nazorat komissiyasiga ko'rib chiqishga berilgani haqida xabardor qiladi.

Birjadan xabar olgan kundan boshlab uch kun davomida Birja a'zolari, agar belgilangan muddatda Birja a'zolari tomonidan bitimning bekor qilinganligi haqida kelishuv taqdim etilmagan bo'lsa, ularning

mijozlari tomonidan tuzilgan va imzolangan (yuridik shaxslar uchun – ularning rahbarlari tomonidan imzolangan va muhri bilan tasdiqlangan) bitimning haqiqiy emasligi va haqiqiy emasligining tan olingan oqibatlari haqida bitimni taqdim etadi.

Nazorat komissiyasining qarori asosida Birja Boshqarmasi tegishli qaror qabul qiladi va manfaatdor shaxslarga etkazadi.

Birja a'zolari belgilangan muddatda hujjatlar takdim etmagan hollarda Birja qimmatli qog'ozlar bozori haqida qonun hujjatlari buzilganligi haqida xabardor qilish va bitim bo'yicha to'lovlar muddati buzilganligi haqida materiallarni tegishli qarorlar qabul qilish uchun qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organga yuborish huquqiga ega.

To'lov muddati buzilganligi sababli bitim bo'yicha da'volar mavjud bo'lgan holatda bitim sud tartibida ko'rib chiqiladi.

Bitim haqiqiy emas deb topilganda komission yig'im Birjaga bitim tomonlarining ikkalasi tomonidan, yoki bitimni haqiqiy emas deb topish va bitimning haqiqiy emasligi tan olingan oqibatlari haqida kelishuvda yoki bitimni bekor qilish haqida kelishuvda ko'rsatilgan tomonlardan biri tomonidan ikkala tomon uchun to'lanadi.

Bitim sud qarori bilan haqiqiy emas deb topilganda yoki bekor qilinganda Birjaga komission yig'imlar va penya, agar sud qaror bilan tomon (tomonlar) ularni to'lashdan ozod qilingan bo'lmasa, Birja Boshqarmasining qarori asosida undiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari va ushbu Qoidalar buzilganligi sababdan Birja bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad qilgan hollarda Birjaga komission yig'imlar va penya uning harakatlari bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad qilishga olib kelgan Birja a'zosidan ikkala tomon uchun undiriladi. Birja Boshqarmasining bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad qilish haqida tegishli qarori Birjaga komission yig'imlar va penya undirish uchun asos hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bo'yin tovlash sababli Birja bitimini ro'yxatdan o'tkazish imkonsiz bo'lgan hollarda Birjaga komission yig'imlar va penya uning harakatlari bitimni ro'yxatdan o'tkazish imkonsiz bo'lishiga olib kelgan Birja a'zosidan ikkala tomon uchun undiriladi. Bu holatda Birja Boshqarmasining bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad qilish to'g'risida tegishli qarori Birjaga komission yig'imlar va penya undirish uchun asos hisoblanadi.

Ikkala tomon qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bo'yin tovlagani sababli Birja bitimni ro'yxatdan o'tkazish

imkoniga ega bo'lmagan hollarda Birjaga komission yig'imlar va penya ushbu Qoidalar bilan belgilangan tartibda ikkala tomondan undiriladi.

Birja a'zosining treyderi bitim tuzishda texnik xatoga yo'l qo'yan taqdirda Birja a'zosi bitimning ikkala tomoni uchun Birjaga komission yig'imlar va penya to'lashga majbur. Texnik xatolarni aniqlash reglamenti Birja Boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Bitim Savdo tizimiga talabnoma parametrlarini kiritishda xatoga yo'l qo'yan Birja Maklerlari mas'ul mutaxassisining aybi bilan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda Birja a'zolariga Birja komission yig'implari va penya hisoblanmaydi va undirilmaydi.

Savdo tizimida tuzilgan bitimlarni bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda Birjaga komission yig'imlar va boshqa to'lovlarni to'lash tartibi.

Qonun hujjatlarining buzilishi yoki qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy emas deb topilgan holatda YaDTK Savdo tizimida bitimni bekor qilish (kuchdan qoldirish), shuningdek, tomonlardan ikkalasining roziligi bilan bitimni buzgan holda bekor qilish (kuchdan qoldirish), ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan holatlarni istisno qilganda, Birja a'zolari va ularning mijozlarini Birjaga komission yig'implardan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi.

Qonun hujjatlarining buzilganligi tufayli Birja bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad qilgan holatda bitimni bekor qilish (kuchdan qoldirish) holatida bitim bo'yicha aybdor tomon ikkala tomon uchun Birja komission yig'implarini to'ashi lozim. birja Boshqarmasining bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad qilish haqida tegishli qarori Birja komission yig'implari va penya undirish uchun asos hisoblanadi.

Bitimni bekor qilishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

- xaridor va sotuvchi o'rtasida Birjada belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bitimni bekor qilish kelishuvi ko'rinishida yozma shaklda rasmiylashtirilgan ikka taraflama rozilik mavjudligida «T+2» hisob-kitob kodi bilan ko'zda tutilgan to'lov muddati doirasida;

- xaridor va sotuvchi o'rtasida Birjada belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bitimni bekor qilish kelishuvi ko'rinishida yozma shaklda rasmiylashtirilgan ikka taraflama rozilik mavjudligida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi me'yorlariga muvofiq to'lov muddatidan tashqari;

- sud qarori bilan to'lov muddatidan tashqari.

To'lov muddati doirasida tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra bitim bekor qilinganda komission yig'im Birjaga bitimning ikkala

tomonidan yoki tomonlarning kelishuviga ko'ra tomonlardan biri ikkala tomon uchun to'lanadi.

To'lov muddatidan tashqarida tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra bitim bekor qilinganda, bitim tomonlari komission yig'implarni to'lab qo'ygan bo'lsa, Birja komission yig'implariga to'langan pul mablag'lari qaytarilmaydi va o'rni to'ldirilmaydi.

To'lov muddatidan tashqarida sud qarori bilan bitim bekor qilinganda, agar sud qarori bilan o'zgacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, bitim tomonlari komission yig'implarni to'lab qo'ygan bo'lsa, Birja komission yig'implariga to'langan pul mablag'lari qaytarilmaydi va o'rni to'ldirilmaydi.

1580-7. Tomonlardan birining tashabbusi bilan bitim bekor qilingan va kuchdan qoldirilganda bitim ishtirokchisi bo'lgan ikkala tomon Birja HKKPni xabardor qilishi hamda bitimni bekor qilish haqida murosa kelishuvi tuzib, bir nusxasini Birja HKKPga tegishli kliring operatsiyalari amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish uchun berilishi lozim. Bunda bitim bo'yicha aybdor tomon ikkala tomon uchun ham Birja komission yig'implarini to'lashi lozim.

Bitim bo'yicha to'lov muddatlari buzilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonunining 16-moddasi asosida bunday bitim haqiqiy emas deb topiladi.

Birja HKKP bitim bo'yicha to'lov muddati buzilganligi haqida Birja Boshqarmasini yozma ravishda xabardor qiladi. Birja Boshqarmasi bitim bo'yicha to'lov muddati buzilganligi holati haqida materiallarni Birja Nazorat komissiyasiga ko'rib chiqishga yuboradi.

Birja HKKPdan bitim bo'yicha to'lov muddati buzilganligi holati xabar olingan kundan boshlab uch kun davomida Birja bitim tuzgan Birja a'zolarini to'lov muddati buzilganligi holati bo'yicha materiallar Birja Nazorat komissiyasiga ko'rib chiqishga berilgani haqida xabardor qiladi.

Birjadan xabar olgan kundan boshlab uch kun davomida Birja az'olari, agar belgilangan muddatda Birja a'zolari tomonidan bitimning bekor qilinganligi haqida kelishuv taqdim etilmagan bo'lsa, ularning mijozlari tomonidan tuzilgan va imzolangan (yuridik shaxslar uchun – ularning rahbarlari tomonidan imzolangan va muhri bilan tasdiqlangan) bitimning haqiqiy emasligi va haqiqiy emasligining tan olingan oqibatlari haqida bitimni taqdim etadi.

Nazorat komissiyasining qarori asosida Birja Boshqarmasi tegishli qaror qabul qiladi va u manfaatdor shaxslarga etkaziladi.

Birja a'zolari belgilangan muddatda hujjatlar takdim etmagan hollarda Birja qimmatli qog'ozlar bozori haqida qonun hujjatlari buzilganligi haqida xabardor qilish va bitim bo'yicha to'lovlar muddati buzilganligi haqida materiallarni tegishli qarorlar qabul qilish uchun qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organga yuborish huquqiga ega.

To'lov muddati buzilganligi sababli bitim bo'yicha da'volar mavjud bo'lgan holatda bitim sud tartibida ko'rib chiqiladi.

Bitim haqiqiy emas deb topilganda komission yig'im Birjaga bitim tomonlarining ikkalasi tomonidan, yoki bitimni haqiqiy emas deb topish va bitimning haqiqiy emasligi tan olingan oqibatlar haqida kelishuvda yoki bitimni bekor qilish haqida kelishuvda ko'rsatilgan tomonlardan biri tomonidan ikkala tomon uchun to'lanadi.

Bitim sud qarori bilan haqiqiy emas deb topilganda yoki bekor qilinganda Birjaga komission yig'implar va penya, agar sud qaror bilan tomon (tomonlar) ularni to'lashdan ozod qilingan bo'lmasa, Birja Boshqarmasining qarori asosida undiriladi.

Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasi yoki repo-bitimini imzolashdan bo'yin tovlash sababli Birja bitimni ro'yxatdan o'tkazish imkoniga ega bo'lmagan hollarda Birjaga komission yig'implar va penya uning harakatlari bitimni ro'yxatdan o'tkazish imkonini yo'qligiga olib kelgan Birja a'zosidan ikkala tomon uchun undiriladi. Birja Boshqarmasining bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad qilish haqida tegishli qarori Birjaga komission yig'implar va penya undirish uchun asos hisoblanadi.

Ikkala tomon qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bo'yin tovlagan sababli Birja bitimni ro'yxatdan o'tkazish imkoniga ega bo'lmagan hollarda Birjaga komission yig'implar va penya ushbu Qoidalar bilan belgilangan tartibda ikkala tomondan undiriladi.

Birja a'zosining treyderi talabnoma kiritishda bitim tuzilishiga olib kelgan texnik xatoga yo'l qo'ygan yoki bitimning YaDTK Savdo tizimi tomonidan qayd qilinishiga olib kelgan taqdirda aybdor Birja a'zosi bitimning ikkala tomoni uchun Birjaga komission yig'implar va penya to'lashga majbur.

YaDTK Savdo tizimini sozlashda yoki Savdo tizimiga talabnoma parametrlarini kiritishda xatoga yo'l qo'ygan Birja Makleriati mas'ul mutaxassisining aybi bilan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda Birja a'zolariga Birja komission yig'implari va penya hisoblanmaydi va undirilmaydi.

Nazorat savollari

1. Birja a'zoliciga qabul qilish tartibi
2. "Toshkent" Respublika fond birjasida a'zolikni to'xtatish va tugatish tartibi
3. Birja A'zolarini «Toshkent» RFB tarkibidan chiqarilganda o'zaro hisob-kitob qilish tartibi
4. Birja kotirovka varag'i va toifalari
5. Kotirovka toifalariga qo'yiladigan talablar
6. Birja kotirovka varag'iga kiritiladigan qimmatli qog'ozlar
7. Listing va delisting, uni amalga oshirish tartibi
8. Listing komissiyalariga qo'yiladigan talablar
9. Qimmatli qog'ozlarni birja kotirovka varag'iga kiritish uchun emitentlar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar
10. Listing kompaniyalari qimmatli qog'ozlarining birja kotirovka varag'ida bo'lish tartibi
11. Qimmatli qog'ozlarning birja kotirovka varag'ining muayyan toifalarida bo'lishi tartibi
12. Listing kompaniyalarining qimmatli qog'ozlarini birja kotirovka varag'ining boshqa toifasiga o'tkazish va delistinglash
13. Fond birja indeksleri, ularning turlari va tavsifi
14. AQSh fond bozorining indeksleri
15. "Toshkent" Respublika fond birjasining "UCI" indeksi
16. Qimmatli qog'ozlar reytingi va uning ahamiyati
17. Fundamental tahlil
18. Texnik tahlil
19. Trend turlari va shakllari
20. Yapon shamlari turlari va modellari
21. Birja kotirovkasi
22. Birjada kliringni amalga oshirish

VIII боб. ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ФОНД БИРЖАЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА ЛИСТИНГ ТАЛАБЛАРИ

8.1. London fond birjasi

Evropaning eng qadimiy va eng katta fond bozorlaridan biri London Stock Exchange - London fond birjasi hisoblanadi. Savdo maydonchasi Buyuk Britaniyaning poytaxti Londonda joylashgan bo'lib, hozirgi vaqtda ro'yxatga kiritilgan 4 mingga yaqin aksiyalarni o'z ichiga oladi, bu kapitalizatsiya qiymati 6 trln dollardan ortiq bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, dunyoning 46 ta rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida joylashgan 1000 ga yaqin kompaniya aksiyalari London fond birjasida ishtirok etmoqda. Shuning uchun London fond birjasi butun dunyo bo'ylab treyderlar va investorlar orasida juda mashhur.

London fond birjasi:

- o kapitallashuv darajasi yuqori bo'lib, ushbu mezon bo'yicha dunyo miqyosida uchinchi o'rinda turadi (NYSE va NASDAQ dan keyin);
- o xorijiy kompaniyalar aksiyalariga yo'l ochgan holda baynalmilal hisoblanadi;
- o listingda keng kompaniyalar ro'yxatini qamrab oladi;
- o amerika va evropa fond bozorlaridan mustaqil.


London Stock Exchange tarixi

Garchi London fond birjasi 1801 yil rasmiy tashkil etilgan deb hisoblansada, uning tarixi 1571 yildan boshlanadi. 1571 yil Britaniya qirollik moliyachisi Tomas Greshem qirolichadan uning fikriga ko'ra, savdo ishlari va munosabatlarini rivojlantirishda albatta ishtirok etishi shart bo'lgan birja savdo maydonchasi qurilishi uchun ruxsat olishga erishdi. Dastlab moliyaviy maslahatchi ishbilarmonlar va qo'y juni bilan savdo qiluvchilarni birlashtirishni rejalashtirgandi, lekin keyinchalik birja maydonchasida xilma-xil tovarlar sotuvchilari paydo bo'ldi. Shunisi e'tiborga loyiqki, tashabbuskor Britaniya qiroolidan bir chaqa ham so'ramagan va fond birjasini o'z mablag'idan qurdirgan. Albatta, Gresham Angliya birinchi fond birjasining asoschisi yoki kashf etuvchisi emas, chunki O'sha vaqtda Antverpenda Xofstraat ko'chasida, dengizchilar va olmos qazib oluvchilar va boshqalar to'planardi.

Uzoq vaqt davomida birja maydonchasida faqat tovar pozitsiyasi brokerlari joylashgan va faqat 1695 yildan boshlab davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar muomalada paydo bo'lgan.

Greshemning fond birjasiga faqat saroy mulozimlari va zodagonlar vakillari kirish huquqiga ega bo'lgan, oddiy savdogarlar va olibsotlarlar dilerlar ushbu fond birjasida savdo qila olmagandar. Shunda zoti past

savdogarlar tuz, porox, lola va boshqa mahsulotlar sotish uchun shartnoma tuzish maqsadida birjadan narida joylashgan kofe do'koniga yig'ila boshladilar. Nyu-Yorkda NYSE birjasini tashkil qilishda ham xuddi shunday holat kuzatilgan. Britaniyalik ishbilarmonlar Jonathans Coffee House qahvaxonasida to'planishardi.



1697 yil Buyuk Britaniya hukumati birjadagi savdogarlar sonini yuz kishigacha qisqartirish va litsenziyasiz ishlayotgan treyderlar uchun katta jarima solishga qaror qildi. Tabiiyki, bu rasmiy birjada savdolarning pasayishiga olib keldi, chunki maklerlarning katta qismi Exchange Alley savdo alleyasiga ko'chib o'tgandi. Asta-sekin bu kafe va xiyobon kabi joylar ko'payib ketdi va tobora ko'plab savdogarlar, sanoat va ishlab chiqarish vakillari rasmiy fond maydonchasiga qaraganda ochiq, tartibga solinmagan fond birjalari maydonchalarida to'plana boshlashdi. 1773 yil Sviting xiyobonida yana bir fond birjaci tashkil qilindi va qirolichaning taqiqlashiga qaramay, treyderlar 1801 yil birja uchun bino qurdilar. Aynan shu sana, aniqrog'i, 1801 yil 3 mart kuni London fond birjasi faoliyat ko'rsata boshlagan sana hisoblanadi va aynan shu bino birja uyiga aylandi.

Bundan tashqari, 1801 yilda barcha brokerlarning rasmiy ro'yxatdan o'tishi e'lon qilindi va bu London fond birjasini Evropadagi birinchi mahalliyashtirilgan tartibga solingan bozorlardan biriga aylantirdi. Endi birjada nazorat yo'liga qo'yilgan bo'lib, avvalgidek, a'zolik badalini to'lamagan har bir shaxs emas, balki faqat ro'yxatga olingan ishtirokchilar bitim tuzishi mumkin bo'di. 1812 yilga birjaning rasmiy reglamenti tayorlanib, unda birja bitimi qatnashchilarining majburiyatlari va kafolatlari, ilgari o'rnatilgan barcha qoidalar batafsil tasvirlan. Xususi

vakillar bitimlarni faqatgina brokerlik agentliklari orqali amalga oshirishlari mumkin edi.

XIX asrning keyingi yillari London fond birjasi uchun dastlabki ko'tarilish davri bo'ldi, chunki bu davrda po'lat eritish, temir yo'l, tog'-kon sanoati va qayta ishlash kompaniyalari, qurilish, moliya va sug'urta sektori konglomeratlari jadal rivojlanib borgan. Shunga ko'ra, ushbu kompaniyalar aksiyalarni sotish va qo'shimcha daromad olish uchun fond birjasiga murojaat qildilar. Bunday shov-shuv, texnik jihatdan birjaning tegishli rivojlanishlarini talab qildi, bu esa ko'p xarajatlarga olib keldi. Biroq menejment bu vazifani muvaffaqiyatli bajarib, zamonaviy telegraflar o'rnatildi, AQSh va Evropa fond birjalari bilan aloqa o'rnatildi va savdo maydonchalarining soni ortdi. 1900-yillar boshlarida London Fond birjasi Evropada eng ommaviy va talabchan birjalardan biriga aylandi, uning maydonchalari listingiga 3 mingdan ortiq kompaniya kirgan.

Biroq, o'sish davri tez orada Evropada Birinchi jahon urushi boshlanganligi sababli tushkunlik davri bilan almashldi. 1914 yil yozidan beri London fond birjasi deyarli yarim yilga yopildi va 1915 yil boshida mumkin bo'lgan yo'qotishlarni cheklash maqsadida London fond birjasi tashkilotchilari valyuta operatsiyalarining barcha ishtirokchilari uchun juda ko'p cheklov choralarini kiritdilar. Urush oqibatida Evropada umumiy ahvolga tushib qolgan vaziyat bilan birgalikda bunday tadbirlar ishtirokchilarning va, shunga ko'ra, birja bo'yicha kapitalning kuchli chiqib ketishiga olib keldi. Analitik hisob-kitoblarga ko'ra, aynan shu paytda London fond birjasi jahon fond bozoridagi eng nufuzli mavqeiini yo'qotgan.



Evropada Ikkinchi Jahon urushining boshlanishi, London fond birjasi faoliyatiga ham ta'sir qildi - savdo 1939 yil 1 sentyabrdan 7 sentyabrigacha to'xtatildi. Urushdan keyingi yillarda birja tashkilotchilari 60-yillarning o'rtalarida amalga oshirilgan savdo maydonchasi hajmini va rivojlanishini faollashtirish dasturini boshladi. Shu davrdan boshlab birja yana faol reklama rivojlanishni boshladi va 1972 yilga kelib 2.1 ming kvadrat metr maydonga ega bo'lgan yana bir bino barpo etildi. Shuningdek, bu yil ular birja jarayonlarini avtomatlashtirishni amalga oshira oldilar va 1973 yilda London fond birjasiga Shotlandiya va Irlandiyadagi 11 ta birja qo'shildi.

1986 yil 27 oktyabr LFB tarixida Buyuk portlash yoki Portlovchi dushanba sifatida belgilandi. O'sha kuni London fond birjasida brokerlar, dilerlar va maklerlar uchun aukcion o'tkazish shartlari sezilarli darajada o'zgartirildi, komissiya to'lovlari tartibi qayta ko'rib chiqildi va elektron savdolarga o'tildi.

Angliya birja maydonchasining yanada faol rivojlanishi shakllanishning ikkinchi bosqichi bo'ldi va bu holat okeanorti raqobatchilari tomonidan ham qayd etildi. Shiddat bilan o'sib borgan amerika fond maydonchasi NASDAQ o'z xoldingi tarkibiga LFB qo'shib olish istagini bildirdi va uni 2.4 milliard funt sterlingga baholadi. LFB bu pulni juda kam hisoblab, ushbu taklifni rad etdi. Amerikaliklar bunga javoban London birjasi aksiyalarini chetdan faol sotib ola boshladilar. 2007 yilgacha NASDAQ LFB aksiyalarining 28,7%ini to'pladi, biroq yakunda birja aksiyalari paketini BAA birjasi Borse Dubai ga sotdi. LFB o'z navbatida, bozordagi pozitsiyasini kuchaytirish uchun qator harakatlarni amalga oshirdi, masalan, boshqa birjalar bilan bir nechta M&A bitimlari tuzib, Italif fond birjasi bilan birlashdi. Bunday harakatlar natijasida London birjasi rasman London Stock Exchange Group nomli kompaniyaga aylandi

LSE zamonaviy birjasi

Hozirgi vaqtda London fond birjasi ro'yxatida 4000 dan ortiq kompaniya mavjud. Ulardan ba'zilari 46 davlatdan kelgan xorijiy kompaniyalardir. Bu London fond birjasini Evropaning eng yirik fond bozori va kapitallashuv, aylanma mablag'lar va ro'yxatga olish bo'yicha dunyodagi 3-o'rinni egallashiga olib keldi. U butun dunyodagi eng yirik konglomeratlar uyushmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan xalqaro maydonchadir. Bundan tashqari, London fond birjasi Evropada dervativlar va obligatsiyalar uchun eng yirik bozor hisoblanadi.

LSE birjasi aksiyadorlik korporatsiyasi hisoblanadi va uning aksiyalari o'z listingida xarid qilish uchun ochiq. Birja hamjamiyati a'zolari 400 dan ortiq birlashtirilgan kompaniyalar bo'lib, ularning orasida kliring kompaniyalari, brokerlar, dilerlar, market-meykerlar, investitsiya banklari va boshqalar mavjud.



Birja maydonchasidan foydalanish uchun emitent kompaniya birja tomonidan o'rnatilgan bir qator mezonlarga javob berishi kerak - har biri kamida 700 ming funt sterlingga ega bo'lishi, barcha boshlang'ich buxgalteriya, moliyaviy va tijorat hisobotlarini to'liq oshkor etishi, aksiyadorlarning maksimal og'irligi 30 foizdan oshmasligi va aksiyalarning kamida 25 foizi tashqi investorlar qo'lida to'plangan.

London fond birjasida savdo va muomala uchun 4 ta bozor sektsiyasi mavjud:

- premium – Premium Listed Main Market – listingdagi eng yirik kompaniyalar aksiyalari ochiq bo'lgan asosiy bozor.
- muqobil – Alternative Investment Market – kapitallashuv kichik bo'lgan kompaniyalar bozori.
- depozitar tilxatlar va qarz qimmatli qog'ozlari bozori – Professional Securities Market.
- institutsional mutaxassislar bozori – Specialist Fund Market.

Qoidaga ko'ra, tahlilchilar, investorlar va treyderlar bozorlar haqida gapirganda faqat PLMM va AIM ikkita sektsiyani ajratib ko'rsatadi, chunki qolganlar oddiy mijozlar uchun ochiq emas.

LSE fond bozori ish kunlari grinvich bo'yicha soat 8 dan 16-30 gacha ishlaydi. Bundan tashqari, savdo sessiyasida bir qator o'ziga xos va

qo'shimcha farqlar mavjud. Masalan, 07-15 dan 07-30 gacha kompaniyalar hisoboti informingi ro'y beradi, 07-50 dan 08-00 gacha auksion ochiladi va orderlar savdo terminalarida bajariladi, 8 dan 16-30 gacha asosiy savdo sessiyasi bo'lib o'tadi, 16-30 dan 16-35 ga qadar indekslar qayta hisoblab chiqiladi va bitimlar 16-35 dan 17-00 gacha belgilangan narxlarda amalga oshiriladi, mablag'larni depozit qilish va olish uchun arizalar olinadi va 17-00 dan 17-15 gacha bo'lgan vaqtda kompaniya hisobotlari reklama qilinadi.

Oldin hamma savdo operatsiyalari TradElect savdo maydonchasi orqali amalga oshirilgan, biroq yaqinda birja qatnashchilari foydalanuvchilar uchun intuitiv tushunarli va tezkor sanalgan yangilangan Millenium Exchange yangilangan platformasiga o'tildi.

London fond birjasi Financial Times bosma moliyaviy sharhlovchilar bilan birga bir nechta birja indekslarini hisoblab chiqdi. Ularning eng mashhurlari 100 ta eng yirik britan kompaniyalar kotirovkasini birlashtirgan va Angliya iqtisodiyotining ahvoli ko'rsatkichi hisoblangan FTSE-100 sanaladi. Shuningdek, birinchi yuztalikdan keyingi 250 ta yirik kompaniya indekslari FTSE-250 va FTSE Small Cap Index kichik kapitallashuv kompaniyalar indeksleri ommaviydir.

London fond birjasida 1 mlrd. dollar miqdorida O'zbekiston evrobondlarini joylashtirdi.

London fond birjasida O'zbekiston umumiy miqdori 5 va 10 yil bo'lgan ilk davlat xalqaro obligatsiyalarini joylashtirdi. Talab 150 investordan 3,8 mlrd. dollarni tashkil qildi, xaber beradi Moliya vazirligi matbuot xizmati birja hisobotiga havola qilgan holda.

5 yillik qimmatli qog'ozlar daromadliligi yillik 4,75%ni, 10 yillik qimmatli qog'ozlar daromadliligi yillik 5,375%ni tashkil qildi.

Geografik taqsimot nuqtai nazaridan, Buyuk Britaniya investorlari 5 va 10 yillik transhlarda mos ravishda 39% va 32% ulushni oldilar. AQSh investorlari ulushi 23% va 31%, kontinental Evropa ulushi 32% va 27%; Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika investorlari mos ravishda 6% va 10% ga ega bo'ldi.

Investorlar kesimida, mablag'larning 75%i va 78%i boshqaruvchi aksiyalar va fondlar, 20%i va 16%i sug'urtachilar, pensiya fondlari va suveren fondlar tomonidan olindi. Banklar ulushi 5% va 6%ni tashkil qildi.

«Evrobobligatsiyalarni ilk chiqarish muvaffaqiyati investorlarning O'zbekistonda kuchli iqtisodiy islohotlariga bo'lgan, shuningdek, qarzlarni boshqarish bo'yicha strategiyasiga bo'lgan ishonchni aks ettiradi», - deyiladi birja xabarida.


Birja quyidagi asosiy tezislarni keltirib o‘tadi:

- evroobligatsiyalar bozoriga joylashtirish juda muvaffaqiyatli bo‘ldi;
- O‘zbekistonning davlat korxonalari va boshqa korporatsiyalar va moliyaviy institutlar tomonidan kelgusida evrobondlarni joylashtirish uchun mustahkam poydevor yaratildi;
- 2019 yilda suveren obligatsiyalarni joylashtirish MDH davlatlari orasida birinchi bo‘ldi.

8.2 Nyu-York fond birjasi

Nyu-York fond birjasi (NYSE) – savdo aylanmasi va uning listingiga kiradigan aksiyalar bozor qiymati bo‘yicha dunyodagi eng yirik birja. 1792 yil asos solingan, Uoll-stritda joylashgan (Nyu-York, AQSh).

Birjada 2800 dan ortiq kompaniya aksiyalari, asosan, havo rang fishkalar va tez rivojlanayotgan kompaniyalar aksiyalari muomalada bo‘ladi. Nyu-York fond birjasida savdo qilish uchun emitentlar qat’iy lsiting talablariga javob berishi lozim, chunki birja nufuzini ta’minlash maqsadida kotirovka ro‘yxatiga ishonchli qimmatli qog‘ozlar kiritiladi.



Korporatsiyalar aksiyalari Nyu-York fond birjasida kotirovka qilinishi uchun u quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim:

- oxirgi yil uchun soliqqa tortishgacha bo‘lgan foyda kamida 2,7 mln dollar;
- so‘nggi ikki yil uchun sof foyda 3 mln dollardar ortiq;
- baholash paytida moddiy aktivlar sof qiymati 18 mln dolidan ortiq;
- aksiyalar kurs qiymati 19 mln dolldan ortiq bo‘lishi lozim;
- erkin muomaladagi aksiyalar umumiy qiymati 1,1 mln dolldan ortiq bo‘lishi lozim;

- oxirgi yarim yillik davomida aksiyalar bilan o'rtacha oylik savdo hajmi kamida 100 ming dollar bulishi kerak.

XX asr o'rtalarigacha savdolar uzluksiz auksion shaklida tashkil qilingan, bu erda treyderlar operatsiyalarni investorlar nomidan amalga oshirishi mumkin bo'lgan. 1956 yildan boshlab hozirgi kungacha bitimlar elektron maydonchalardan foydalangan holda amalga oshirilmogda, hozirgi kunda Nyu-York fond birjasidagi aksiyalarni dunyoning istalgan nuktasidan turib sotish va sotib olish mumkin.

Nyu-York fond birjasi (NYSE) – eng yirik savdo maydonchalari guruhi: NYSE - Nyu-York fond birjasi – dunyodagi eng dastlabki va kapitallashuv darajasi bo'yicha yirik birjalardan biridir, NYSE Euronext – Evropadagi eng yirik qimmatli qog'ozlar birjasi va NYSE Alternext – rivojlanayotgan mamlakatlar Evropa fond bozori. Nyu-York fond birjasi tarixi 200 yildan ortiqni tashkil qiladi. U 1792 yil 24 ta Nyu-york brokerlari tomonidan tashkil qilingan. Shundan buyon Nyu-York fond birjasi faqat ommaviylashib bormogda. Birja faoliyatidagi so'nggi tendentsiyalar boshqa fond birjalarini qo'shib olish va birlashtirishga yo'naltirilmogda.



2005 yilning aprelida NYSE rahbariyati eng yirik elektron savdo tarmoqlaridan biri (ECN) va o'z raqobatchisi Archipelago ni sotib olish istagini ma'lum qildi. 2006 yil dekabrda NYSE rahbariyati Archipelago sotib olishga ovoz berdi, shundan keyin NYSE eng ommaviy tijorat tashkilotiga aylandi. Bir yildan ortiqroq vaqt o'tgach, NYSE Group Parijda joylashgan Euronext maydonchasini sotib oldi (Evropa fond birjasi) va uni o'zining ilk transatlantika fond birjasigaa ylantirdi. So'nggi yillarda esa MDH mamlakatlari bilan ishlayotgan NYSE brokerlari soni ham o'sdi. Dunyodagi aksiyalar bilan savdo qilish bo'yicha etakchi birja sifatida

rahbariyat NYSE da samarali savdo texnologiyalarini kuzatib, doimiy takomillashtirib bormoqda.

2007 yil 24 yanvarda NYSE birjasida gibrid bozor joriy qilindi, mutaxassislar roli esa minimum holatga keltirildi. Barcha aksiyalar bo'yicha bitimlar elektron tizim orqali amalga oshirila boshladi (kam sonli juda qimmat aksiyalarni istisno qilganda). Hozirgi paytda mijozar orderlarining katta qismi elektron tizim bilan qayta ishlanmoqda. Hozirgi kunda MDH mamlakatlarida NYSE birjasida savdo tobora ommaviylashib bormoqda, ulkan vositalar, likvidlik va ishonchlilik jalb qilmoqda. Shuningdek, treyderlar, NYSE aksiyalari bilan savdo uchun brokerlar soni o'smoqda.



NYSE Arca birja investitsiya mahsulotlari bilan savdo hajmi va listing bo'yicha amerika birjalari orasida etakchi pozitsiya egallaydi. U orqali Adobe, Apple, Dell kabi AT-bozor grandlari savdo qiladi. Saxo Bank «Dunyo birjalari» loyihasini davom ettiradi. 2013 yil boshida NYSE Euronext uning NYSE Arca bo'linmasi – to'liq avtomatlashtirilgan rejimda ishlaydigan va offlayn savdo amalga oshirmaydigan elektron birja maydonchasi birja investitsiya mahsulotlari bilan savdo hajmi va listing bo'yicha amerika birjalari orasida etakchi pozitsiya egallashini e'lon qildi.

2012 yil bu erda qariyb 150 ta yangi ETP listingdan o'tli, ular orasida 116 ta ETF (Exchange Traded Funds - birja investitsiya fondlari, yoki boshqacha aytganda birja XIF), 23 ta ETN (Exchange Traded Note - birja indeks notalari) va 8 ta ETV (Exchange Traded Vehicles - birja indeks vositalari). NYSE Arca orqali masalan, Adobe Systems Inc., Apple, Cisco Systems, Dell, Hewlett-Packard, IBM, Microsoft, Nokia, Oracle kabi axborot texnologiyalari bozori grandlari savdo qiladi.

NYSE da ishlash afzalliklari

Bu fond birjasining faol treyderlar va treyding uchun afzalliklari yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

-jahon iqtisodiyotining mingdan ortiq etakchi kompaniyalari juda likvidli aksiyalari ulkan soni, bundan har kuni o'nlab kompaniyalar

deytreyderlarga ham, investorlarga ham treydingda pul ishlab olishga imkon beradigan kuchli va aniq harakatlar namoyish etadi;

- buyurtmalarni bajarishning eng rivojlangan va kuchli tizimi, bir onda istalgan hajmda internet-treyding amalga oshirish imkonini bergan;

- eng rivojlangan axborot infratuzilmasi. Kompaniyaning choraklik hisobotlari, statistika ma'lumotlari qat'iy jadval asosida chiqariladi va maxsus saytlarda bepul e'lon qilinadi (saytning o'ng tomonida, «Moliyaviy portallar» ro'yxati), kompaniya bo'yicha eng muhim yangiliklarni kuzatish mumkin, choraklik hisobotlar asosiy savdo sessiyasi ochilishidan oldin yoki yopilganidan keyin chiqariladi; shu tariqa treyder bozor ochilmasidan turib qaysi aksiyalarga faol savdo va kuchli harakatlar bo'lishini, qaysi aksiyalar bilan ishlashini biladi;

- ma'lumotlar va yangiliklar qat'iy jadvalga rioya qilgan holda chiqarilishi treyder pozitsiyasini kutilmagan yangiliklar bilan g'afatda qoldirish riskini minimallashtiradi. Bundan tashqari, har bir kompaniya va tarmoq bo'yicha ko'plab moliyaviy portallarda so'nggi yangiliklar, grafiklar va batafsil axborot olish mumkin;

- o'nlab turli xil strategiyalarni qo'llash imkoniyati: bir necha soniya ichida pozitsiyalarni ushlab turish, darajadan savdolashish, kuchli harakatlar bilan savdo qilish, bir necha kun davomida o'z pozitsiyalarini ushlab turish, juftliklar savdosi va boshqalar.

Nyu-York fond birjasida listing

Nyu-York fond birjasida 2800 dan ortiq kompaniya listingdan o'tgan, shundan 450 tasi – 53 mamlakatdan xorijiy kompaniyalardir. Listingdan o'tgan kompaniyalar «havorang fishka» deb ataladigan ishonchli, barqaror kompaniyalardan ham, yosh va jadal rivojlanayotgan kompaniyalardan ham iboratdir. Yangi kompaniyalar birjada o'z aksiyalarini ommaviy joylashtirishgandan (initial public offering - IPO) keyin kotirovka varaqlariga kiritiladi. Listingdan o'tish uchun kompaniyalar birjaning qat'iy moliyaviy va huquqiy talablariga javob berishi lozim. Listingdan o'tgan kompaniyalar a'zolik badallari to'lashi lozim. Hozirgi paytda NYSE kotirovka varag'i ko'p jihatdan xorijiy kompaniyalar aksiyalari hisobiga to'ldiriladi.

Qimmatli qog'ozlar listingi

Amerikalik kompaniya NYSE da muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tishi uchun uning moddiy aktivlari 18 mln. dollardan ortiq, oxirgi yil uchun daromad 2,5 mln dollardan ortiq, kamida 1,1 mln dona aksiyasi hamda har biri yuztadan ortiq aksiyaga ega bo'lgan kamida 2 mingta aksiyadori

bo'lishi kerak. yuztadan ortiq aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar soni 1200 kishigacha kamayganda yoki 600 mingdan kam aksiyasi qolganda, yoki aksiyalarning umumiy bozor qiymati 5 mln dollardan tushib ketganda kompaniya aksiyalar qayta listing jarayondan o'tkaziladi. To'g'ri, ayrim holatlarda bu ko'rsatkichlarga tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Kompaniyaning aksiyalari bir vaqtning o'zida bir nechta birjada kotirovka qilinishi mumkin. Ba'zi hollarda NYSE da ro'yxatga olinmagan kompaniyalarning aksiyalari, agarda ular boshqa fond birjalarida listingdan o'tgan bo'lsa, sotilishi mumkin. Xususan, bu ba'zi xorijiy kompaniyalar bo'lishi mumkin. Ular bo'yicha asosiy savdo xorijiy birjada, qo'shimcha savdolar NYSE da bo'lib o'tadi.

NYSE birjasi «havo rang fishkalari»

1817 yilga kelib, Nyu-York Fond Birjasida 30 ta kompaniya aksiyalari bilan savdo qilina boshladi. Direktorlar kengashi raisi har kuni savdo qilinadigan aksiyalar to'liq ro'yxatini e'lon qilardi. Savdolar ochilishi bilan brokerlar ularning har biri uchun alohida ajratilgan joydan, birjaning operatsion zalidagi o'rnidan sotish va sotib olish narxlarini ma'lum qilardi. Hozirgi kunda esa 1366 ta o'ringning katta qismi ko'plab yirik firmalar va mutaxassislar mulki hisoblanadi. Uzoq 1800 yil bitta o'rin 25 dollar turgan, ikki yuz yildan keyin esa – 2 mln dollardan ortiqni tashkil qiladi. 1999 yil dekabrda bu ko'rsatkich 2,6 mln. dollarga etdi.



«Havo rang fishkalar» tushunchasi

NYSE ameikaning ko'p yillik moliyaviy an'analari saqlovchisi ekanligiga qaramay, birja zamon bilan hamnafas bo'lib, savdo aroitlarini investoerlar va ommaviy kompaniyalar talablariga moslashtirmoqda. Aynan

shu sababli savdo maydonchasi hozirgi vaqtda savdo qilinadigan aksiyalar bo'yicha dunyoda etakchi hisoblanadi.

NYSE birjasi ishini tartibga solish

Vijdonsiz bozor qatnashchilarini aniqlash - bu o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilot sifatida birjaning vazifalaridan biridir. Hech kim fond bozori kabi o'zini qattiq va yaxshilab tartibga solmaydi. Professional ishtirokchilar uchun qat'iy talablar va standartlar, keng ko'lamli tartibga soluvchi xizmat tizimi - bular ishtirokchilarning faoliyatini nazorat qilish choralari hisoblanadi. Bozorning yaxlitligini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash fond bozorida tartibga soluvchi piramida deb nomlangan to'rtta asosiy guruhning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali erishiladi. U quyidagi tashkilotlardan iborat:

- AQSh Kongressi. Kongress Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasiga a'zolar taklif etadi va uning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun javob beradi. Shuningdek, u qimmatli qog'ozlar bozorida qonuniy faoliyat uchun va qimmatli qog'ozlar bozorida yangi tashkilotlarni shakllantirish, masalan, «Fond bozorida investorlarni himoya qilish tashkiloti» uchun mas'uldir;

- qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiya. 1934 yilgi Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunga binoan tashkil etilgan Federal agentlik. Qonunda aksiyalarning yangi emissiyalarini majburiy tarzda o'z vaqtida va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish belgilab qo'yilgan. Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiya barcha milliy investitsiya kompaniyalari, brokerlik firmalari va qimmatli qog'ozlar bozorida ishlaydigan boshqa tashkilotlar ustida nazorat qiluvchi organ hisoblanadi. Komissiya Kongressga fond bozorini tartibga solish va himoya qilishga qaratilgan yangi qonun hujjatlari qabul qilishni tavsiya qiladi. Komissiya qoidalari va standartlarini buzganlar qattiq jazolanadi - jarima solinadi, litsenziyadan mahrum etiladi, shuningdek, birja a'zolidan chiqariladi;

- NYSE va boshqa o'zini-o'zi tartibga soladigan tashkilotlar. Nyu-York fond birjasi bu - o'zini-o'zi tartibga soladigan tashkilot bo'lib, xodimlarining uchdan bir qismidan ortig'i aynan qimmatli qog'ozlar bozorini standartlashtirish va tartibga solish masalalari bilan shug'ullanadi. NYSE 1000 sahifadan ortiq qoida va standartlar ishlab chiqqan va e'lon qilgan bo'lib, ular NYSE barcha savdo qatnashchilari tomonidan bajariladi;

- individual brokerlik firmalari. Piramidaning bu pog'onasi NYSE a'zosi bo'lgan 400 dan ortiq brokerlik firmasidan iborat. Bu firmalar

standartlarga qat'iy muvofiqlik va o'z xodimlari yuqori professional darajasini kafolatlab, butun dunyo bo'ylab aksiyalar sotish va sotib olish bilan shug'ullanadi.

8.3. Tokio fond birjasi

Tokio fond birjasi (TFB) Yaponiyaning asosiy fond birjasi va dunyodagi eng yirik fond birjalaridan biri hisoblanadi. Mohiyatan, Tokio fond birjasi 1878 yil 1 iyunda asos solingan Yaponiyadagi birinchi fond birjasining avlodi hisoblanadi. Birja strukturasi ko'p marta o'zgargan, lekin savdolar muntazam olib borilgan, Nagasaki atom bombardimonidan keyin oq ro'y bergan kichik tanaffusni istisno qilganda. Hozirgi – Tokio fond birjasi – nomi ostida Yaponiya fond bozori 63 yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqda. Hozir unda 2271 ta yapon va 31 ta xorijiy kompaniya ifodalangan.



TOKYO STOCK EXCHANGE

1983 yildan 1990 yilgacha Tokio fond birjasi hayratda qoldiradigan darajada ko'tarilib, qimmatli qog'ozlar global bozori kapitallashuvining 60%dan ortig'ini o'zida mujassam etgan. Keyinchalik «sovun pufagi iqtisodiyoti» deb atalgan bu bosqichni «yapon mo''jizasi»ning yakuni deb hisoblash mumkin. Mamlakat er va ko'chmas mulk bilan savdo qiladigan kompaniyalar aksiyalari olibsotarligi bilan ommaviy ravishda shug'ullana boshladi. Narxlar xuddi achitqi qo'shilganday o'sa boshladi. Banki o'ngga ham, so'liga ham kreditlarni saxiylik bilan tarqatardi. Yaponlar chet eldan villa, kartina, qimmatbaho narsalar sotib olib, ochiqchasiga pul sovura boshladi... Hammasi shu bilan yakun topdiki, pufak yorildi. Narxlar keskin tushib ketdi, mamlakat bo'ylab bankrot kasali tarqaldi, kreditlar qaytarilmadi va «mo''jiza» o'rnini urushdan keyingi davrdagi eng uzoq davom etgan iqtisodiy inqiroz egalladi.

U 90-yillar mobaynida davom etib, atigi bir necha yil oldin tugadi. Lekin ayrim noxushliklar hamon davom etmoqda, lekin ular asosan texnik xarakterga ega. Masalan, 2005 yil 1 noyabrda yangi kompyuter qurilmasi o'rnatilgach, birjada tarixdagi eng jiddiy tizimli uzilish ro'y berdi. Fujitsu

kompaniyasining «Osilib qolgan» operatsion tizimi to'rt yarim soatni savdoni to'xtatib qo'ydi.

2



Ikkinchi kulfat bir oydan so'ng ro'y berdi va birja oliy rahbariyatining to'liq almashtirilishiga olib keldi. 2005 yil 8 dekabrda Tokio fond birjasida qiymati 610 ming yena (5000 dollardan ortiq) bo'lgan jda qimmat aksiyalarga ega bo'lgan J-Com rekruting kompaniyasi sahnaga chiqdi. Biroq ko'rsatilgan summaga firmaning bitta aksiyasini taklif qilish o'rniga brokerlik kompaniyasi xodimi kompyuter tugmasini noto'g'ri bosish oqibatida 610 mingga aksiyani har birini 1 yena (0,8 tsent) narxda sotuvga qo'ydi. Ular bir zunda sotilib ketdi, bunda sotilgan aksiyalar soni ularning real sonida 42 baravar ko'p edi (14,5 mingta). Xato darhol sezilmadi, lekin u aniqlangandan keyin ham operatsiyani bekor qilishda texnik qiyinchiliklar vujudga keldi. Natijada barcha aksiyalar paketini uning haqiqiy qiymatiga sotib olishga to'g'ri keldi. Achinarli xato kompaniyaga 347 million dollarga tushdi. Bechora broker bilan keyin nima bo'lgani haqida tarix hikoya qilmaydi, lekin investorlar ishonchini tiklash uchun birja prezidenti va yana uchta top-menejer kompyuter tizimi mukammal emasligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olib, iste'fo berishiga to'g'ri kelgan. Nima ham derdik, bunday holat hattoki Yaponiyada ham bo'lib turarkan!

Tokio birjasining korporativ falsafasi

Tokio fond birjasi dunyo maydonchalarida ishonchga va nufuzga ega. Yaponlar aksiyalarga investitsiyalar bilan faolroq shug'ullanadi, ulardan aksiyalarni afzal ko'radigan xorijiy investorlar ham ortda

qolmaydi. Shunday qilib, Tokiodagi asosiy ofis va butun Yaponiya bo'ylab tarqalgan birja filiallari talab katta bo'lgan aksiyalar bilan savdo qiladi.

Tokio fond birjasining dunyo miqyosida muvaffaqiyatga erishishida asosiy sabab uning korporativ falsafasi hisoblanadi. Birjaning korporativ falsafasi birja va TFB guruhi o'z biznesini amalga oshirish jarayonida rioya qiladigan qoidalar to'plamini ifodalaydi. Qaror qabul qilish jarayoni va birjani boshqarish tizimini rivojlantirish rejalarini hayotga tatbiq etiga qo'shimcha ravishda korporativ falsafa TFB barcha ishchi va xizmatchilari uchun ularning o'z professional majburiyatlarini amalga oshirish jarayonidagi xalq-atvor asoslarini o'z ichiga oladi. Jamiyat bilan eng do'stona hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va jamiyat oldida ijtimoiy javobgarlikka ega bo'lish uchun TFB korporativ falsafasi doirasida korporativ etikaga asoslangan korporativ xulq-atvor qoidalari ishlab chiqildi. TFBning barcha ishchi va xizmatchilari ishlab chiqilgan qoidalarga rioya qilish va bajarishi, jamiyatga foyda keltirishi va tashkilotning rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak.



8.4 Frankfurt fond birjasi

Frankfurt - na - Maynedagi birja XVI asrda vujudga keldi. Hozirgi vaqtda Frankfurt fond birjasi nafaqat Germaniyaning, balki butun Evropa mintaqasining moliyaviy markazi hisoblanadi. Frankfurt fond birjasi kattaligi jihatdan jahonda yuqori o'rinlarda turadi. Savdolarga qo'yilish bir qancha kompaniyalarning va korxonaning aksiyalariga ruxsat etilgan. Savdolarga ruxsat etilgan a'zolari birja ishtirokchilari, banklar, kurs maklerlari, erkin maklerlardan iborat.

Birja aksiyadorlik jamiyati ko'rinishida tashkil etilgan. Germaniyaning barcha aksiyadorlik jamiyatlari singari u ham "Aksiyalar to'g'risida"gi Qonunning qoidalariga bo'ysunadi. Birjani boshqarish organi bo'lib Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Kuzatuvchi kengash va Boshqaruv hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining o'z mablag'lari 84

million markani tashkil etadi. Birjaning aksiyadorlari birjaning a'zolari hisoblanishadi. Aksiyalarning 79 foizi nemis banklariga, 10 foizi chet el banklariga, 5 foizi kurs maklerlariga va 6 foizi erkin maklerlarga tegishli. Chiqarilgan aksiyalar egasining nomi yozilgan aksiyalar bo'lib, ular uchinchi shaxslarga faqat birja aksiyadorlari umumiy yig'ilishining roziligi bilan o'tkazilishi mumkin. Bir aksiyador sarmoyaning 15 foizdan ko'piga egalik qilishi mumkin emas. Birjada 110 nafar xodim ishlaydi. Ko'pchilik boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, nemis birjalarida a'zolarining soni chegaralanmaydi. Birjaga azo bo'lish uchun birja to'g'risidagi qonunning talablarini bajarish va tariflar haqidagi nizomda belgilangan azolik badallarini to'lash lozim.

Aksiyalarning birja savdolariga quyilishi uchun ularning emitentlari yig'implarni to'lashi zarur. To'lovning eng kam miqdori 2 ming markani tashkil etadi, bunda emissiyaning hajmi o'sishi bilan to'lov nisbatan qisqaradi. Qimmatli qog'ozlarning savdolarga ko'yilishi uchun to'lov faqat ularga birinchi marta ruxsat etilayotgan vaqtda undiriladi. Boshqa mamlakatlarda tez-tez uchrab turadigan har yilda takrorlanadigan to'lovlar (Annual Listing Fee) Germaniyada mavjud emas. Savdolarga ruxsat etish haqidagi ariza emitent tegishli kredit muassasasi bilan birga topshiradi. Arizaga emitent va uning qimmatli qog'ozlari haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun sarmoyadorlarga zarur bo'lgan to'liq axborotni o'z ichiga olgan prospekt ilova qilinishi kerak. Prospekt birja byulletenida e'lon qilinishi lozim. Qimmatli qog'ozlarni kotirovkaga ruxsat etish to'g'risidagi qarorni birjaning maxsus komissiyasi chiqaradi.

Qimmatli qog'ozlarni kotirovkaga ruxsat etish bo'yicha komissiyalar birjada bir-biri bilan va Evropa hamjamiyatiga a'zo bo'lgan boshqa davlatlarning tegishli birja tashkilotlari bilan o'z vazifalari hamda vakolatlari doirasida o'zaro hamkorlik qiladi. Ular ushbu maqsadlar uchun zarur bo'lgan axborotni bir-biriga beradilar. Evropa hamjamiyatidagi tegishli organ tomonidan bir marta ruxsat olgan prospekt, agar uning boshqa birjaga kiritilishi to'g'risida ariza uch oy ichida berilsa, takror tekshirilishi shart emas.

Nemis birja huquqi tartibga solinuvchi bozorga taalluqli bo'lgan farmoyishlarni o'z ichiga oladi. Uni birjaning segmenti sifatida boshqa ikki segment: rasmiy savdo va birjadan tashqari bozor (norasmiy savdo) o'rtasida oraliq mavqega qo'yish mumkin.

U rasmiy savdo tomonidan oldinga suriladigan talablarga javob bermaydigan, lekin o'z aksiyalarining kotirovkasini qonun bilan tartibga solinadigan bozorda birjaning nazorati ostida ochiqcha ta'minlashni

xohlovchi o'rta korxonalarining birjaga kirishini osonlashtirishga da'vat etilgan. Tartibga solinadigan bozor aksiyadorlik jamiyatlariga rasmiy bozorning boshlang'ich nuqtasi bulib xizmat qiladi. Rasmiy savdo bilan taqqoslaganda u ancha engillashtirilgan qoidalari va unga kirishning pasaytirilgan yig'implari bilan farq qiladi. Masalan, tartibga solinadigan bozorda boryo'g'i bir yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan firma o'z aksiyalari taqdim etishi mumkin (rasmiy bozorda bu muddat 3 yilni tashkil etadi). Dastlabki emissiya vaqtida tartibga solinadigan bozor uchun 0.5 mln. nemis markasi miqdorida kutilayotgan kurs narxi etarli bo'ladi. Rasmiy bozor uchun esa, bu ko'rsatkich 2,5 mln. nemis markasini tashkil etadi. Savdolarga kiritiladigan aksiyalarning soni bu bozorda 10000 tani, rasmiy bozorda esa, 50000 tani tashkil etadi. O'z navbatida chop qilish uchun talab etiladigan materiallarning hajmi ham rasmiy savdolardagiga qaraganda kam bo'ladi.

Birjada ishtirok etish uchun faqat muayyan shaxslar doirasi: professional bank tijoratchilari, maklerlar, yordamchi xodimlar va matbuot vakillariga ruxsat etiladi.

Kurslarni rasmiy belgilash birja maklerlari tomonidan amalga oshiriladi, ular savdolarda va narxlarni belgilashda betaraf organlar hisoblanishadi. Maklerlar birja ixtiyoriga likvidli mablag'larni taqdim etishadi. Birjani qarz mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xatarlardan xolos etish uchun maklerlar 50000 nemis markasi miqdorida moliyaviy kafolatni kiritishi kerak. Lavozimga kirishishdan oldin ular o'z majburiyatlarini halol va sodiqlik bilan bajarish uchun qasamyod qabul qilishadi. Maklerlar kundalik daftarlarini yuritishi zarur. Birja rasmiy va Shtatdan tashqari maklerlar federal er hokimiyatining tegishli organi tomonidan tekshirilishi lozim.

8.5. Jahondagi yirik fond birjalarning listing talablari

Listing (ingliz tilida - ro'yxat) – qimmatli qog'ozlarni birja ro'yxatiga (Birja savdosida ishtirok etish uchun ruxsat berilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxati) kiritish bilan bog'liq xatti-harakatlar jamlamasi va birja tomonidan belgilangan shart va talablarga qimmatli qog'ozlarning muvofiqligini nazorat qilishdir. Ko'p holatlarda birja ro'yxatini ham listing deb nomlashadi. Hujjatlar ko'rib chiqilgach, birinchi yoki ikkinchi darajali kotirovkali ro'yxatga qimmatli qog'ozlar kiritilgandan keyin ular mazkur protseduradan o'tgan deb e'tirof etiladi.

Ro'yxatga olish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- qimmatli qog'ozlarni listing protsedurasi va ularni ikkinchi darajali kotirovka ro'yxatiga qo'shish to'g'risidagi ariza, shuningdek,

ro'yxatdan tashqari qimmatli qog'ozlarni savdo tashkilotchisi orqali aylanmada ishtirok etishga ruxsat berish to'g'risida ariza. Qimmatli qog'ozlar listingi protsedurasi to'g'risida ariza va ularni birinchi darajali kotirovkali varaqqa kiritishni faqat ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlarning emitenti takdim qila oladi;

- ekspertlibaholashni o'tkazish uchun fond birjasi bilan shartnoma tuzish;

- emitentning moliyaviy va xo'jalik faoliyatiga oid ahamiyatli faktlarga tegishli ma'lumotlarni ochib berish;

- emitent faoliyatining rentabelligi, likvidlilik koeffitsienti ko'rsatkichlari va hokazo asosida qimmatli qog'ozlarni ekspertizadan o'tkazish;

- qimmatli qog'ozlarni birjada ishtirok etishga ruxsat berish komissiyasida yoki emitentlar, ularning vositachilari, birjaning mutaxassislari ishtirokida kotirovkali komissiyasida ekspertiza natijalarini ko'rib chiqish. Emitent qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi natijalari to'g'risidagi hisobot tegishli davlatlar qonunlariga va Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtiruvchi organning normativ hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Listingni o'tkazish maqsadlari:

- qimmatli qog'ozlar bozorining holati to'g'risida savdo ishtirokchilarining xabardorligini oshirish;

- qimmatli qog'ozlarning ishonchlilik darajasini aniqlash;

- qimmatli qog'ozlar egalarining manfaatlarini himoya qilish va ularning ishonch darajasini oshirish;

- fond birjasida ishtirok etish talabga javob beradigan qimmatli qog'ozlarga ruxsat berish va qimmatli qog'ozlar aylanishiga doir ekspertizaning unifikatsiyalangan qoidalarini yaratish.

Listingdan o'tish uchun tanlash mezonlari:

- emitentning sof daromadi;

- emitent aktivlarining qiymati;

- qimmatli qog'ozlarni chiqarish hajmi;

- emitent xarajatlari.

Muayyan emitentga tegishli qimmatli qog'ozlarni fond birjasining kotirovka ro'yxatidan chiqarib tashlash delisting deb ataladi.

Listing talablari.

Listing talablari – ingl. *Listing Requirements*, birja ishtirokchilarini nazorat qilish uchun fond birjalari tomonidan o'rnatilgan turli standartlar

hisoblanadi ⁷³. Muayyan fond birjasida o'z aksiyalarini sotuvga chiqarmoqchi bo'lgan kompaniyalar listing talablarini bajarishi va aksiyalar darajasini birjada saqlab turishi lozim.

Shu bilan birga listingning ba'zi shartlari turli birjalarda turlicha bo'lishi mumkin. Shartnoma talablarining ikki asosiy toifasi mavjud: kompaniya hajmi (bu yillik daromad va bozor kapitallashuvi bilan belgilanadi) va aksiyalar likvidiligi (muayyan miqdordagi aksiyalar allaqachon bozorda muomalada bo'lishi kerak).

Quyida konkret fond birjalar listing talablarini ko'rib chiqamiz.

Nyu-York fond birjasida listingga kirish uchun kompaniyaning ko'rsatkichlari quyidagilardan past bo'lmashligi kerak ⁷⁴:

- soliqlar to'lagunga qadar so'nggi yildagi daromad - 2,7 mln. doll;
- o'tgan ikki yil davomida olingan daromad - 3,0 mln. doll;
- moddiy aktivlarning sof qiymati - 18,0 mln. doll;
- ommaviy egalikdagi aksiyalar miqdori - 1,1 mln. doll;
- aksiyalarining bozor qiymati - 19,0 mln. doll;

- 100 yoki undan ortiq aksiyaga egalik qiluvchi aksiyadorlarning eng kam miqdori 2000 tani tashkil etishi;

- oxirgi 6 oyda ushbu emitentning aksiyalari bo'yicha o'rtacha oylik savdo hajmi kamida 100 ming doll.ni tashkil etishi kerak.

London fond birjasida kotirovka yoki listing olish uchun kompaniya tijorat, moliyaviy va boshqaruv ma'lumotlarini oshkor etishi va quyidagi shartlarga javob berishi kerak ⁷⁵:

- bozor kapitalizatsiyasi kamida 700 000 funt sterlingni tashkil etishi;
- chiqarilgan aksiyalar erkin muomalada bo'lishi;
- aksiyalarning kamida 25 foizi tashkilotning rahbarlari bo'lmagan aksiyadorlarga tegishli bo'lishi;
- aksiyadorlarning hech biri 30 foizdan ortiq ovozga ega bo'lmashligi kerak.

Frankfurt fond birjasi etakchi kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari listingi butun dunyoga mashhur. Ular listingga kiritilishi uchun

⁷³ Mazkur dissertatsiyaning 3-ilovasida ba'zi fond birjalarning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan oldingi davrdagi listing talablari keltirilgan. Hozirda bu talablarda o'zgarishlar mavjud.

⁷⁴ <https://ru.wikipedia.org> va www.nyse.com sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

⁷⁵ <https://ru.wikipedia.org> va www.londonstockexchange.com sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

kerak bo'lgan barcha qat'iy talablarga javob bera oladi. Ro'yxatga olishning quyidagi talablari mavjud⁷⁶:

- o'z faoliyatlarida maksimal ravishda shaffof bo'lgan emitentlar (Prime standard) joylashgan bozor segmentida talabgor kompaniya bo'lishi;

- aksiyalarining kamida 10 foizi erkin savdoda bo'lishi;

- kompaniyaning bosh ofisi Germaniyada joylashgan bo'lishi;

- kompaniya qimmatli qog'ozlarini sotuvga chiqarishning minimal miqdori – 10 000 aksiyani tashkil etishi;

- kompaniyaning minimal bozor kapitalizatsiyasi – 1,25 mln. evroni tashkil etishi;

- erkin aylanishdagi aksiyalarning dastlabki ulushi minimum 25 foizni tashkil etishi lozim (istisnolar bo'lishi mumkin);

Fransiya fond birjasi listingi talablari quyidagilar hisoblanadi⁷⁷:

- o'z mablag'lari 1,5 mln. evro birja kapitalizatsiyasini tashkil etishi;

- keng aholi qatlamiga sotilgan eng kam qimmatli qog'ozlar soni - 4,5 mln. evro qiymatidagi 100 000 ta qimmatli qog'ozni tashkil etishi;

- birja listingiga kirish uchun taqdim etiladigan majburiy ma'lumotlar – korxonani rivojlantirish loyihasi bo'lishi lozim.

Tokio fond birjasi 3000 dan ortiq mahalliy kompaniyalar vako'plab transmilliy korporatsiyalarning aksiyalari bilan savdo qiladi. Bir yildagi yalpi daromad 3 trln. doll.ni tashkil qiladi. Savdoga qo'yilgan aktivlarning umumiy qiymati 5 trilliondan oshadi. Ular orasida Honda, Mazda, Mitsubishi, Toyota, Suzuki kabi sanoat gigantlari mavjud. Tokio fond birjasi listingi juda shaffof va ayni paytda talabi yuqori hisoblanadi.

Tokio fond birjasi so'nggi davrdagi moliyaviy ko'rsatkichlar hisobotini, yil davomida o'tkazilgan audit natijalarini, aksiyalar qiymatining ko'rsatkichlarini, daromadlarni va kafillarning mavjud bo'lishini talab qiladi. Malakali marketmeyker, investor yoki investitsion bank kafolatchi vazifasini bajarishi mumkin.

Mazkur fond birjasida treyder uchun juda qattiq talablar qo'yiladi. Fond birja savdosida ishtirok etish uchun treyder bergan arizani birja tomonidan tuzilgan komissiya ko'rib chiqishi lozim. Komissiya tomonidan arizani ko'rib chiqib, tegishli ruxsat berish jarayonini treyder hattoki bir necha oy ham kutishi mumkin. Tokio fond birjasi mazkur birjaga a'zo

⁷⁶<https://investingnotes.trade/frankfurtskaya-fondovaya-birzha.html> sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

⁷⁷www.euronext.com sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

bo'lmoqchi bo'lgan nomzodlar haqida ma'lumot so'rash huquqiga ega. Bunday tablalar bozor barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liqdir.

Tokio fond birjasining listing talablari quyidagilar hisoblanadi⁷⁸:

- aksiyadorlar soni - 2200 va undan ortiqni tashkil etishi;
- savdodagi aksiyalar soni – 20 000 va undan ortiq bo'lishi;
- savdodagi aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi 1 mlrd. ien (10 mln. doll.) va undan ortiq bo'lishi;
- savdodagi aksiyalarning listingdagi aksiyalarga nisbati 35 foiz va undan baland bo'lishi;
- listing ro'yxatidagi aksiya aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi 25 mlrd. ien (250 mln. doll.) va undan ortiq bo'lishi;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan muddati – 3 va undan ortiq yilni tashkil etishi;
- aksiyadorlik (o'zlik) kapitali – 1 mlrd. ien (10 mln. doll.) va undan katta bo'lishi;
- foyda miqdori – so'nggi 2 moliyaviy yilda umumiy 500 mln. ien (5 mln. doll.)

Gonkong fond birjasining asosiy ro'yxatiga joylashtirish uchun tablalar keltirilgan:

- joylashtirish ro'yxatiga mos kelishi - asosiy ro'yxatga kiritish uchun moliyaviy talablarga javob beradigan yirik va barqaror kompaniyalar bo'lishi;
- faoliyatning minimal davri - uch moliyaviy yil bo'lishi;
- asosiy va qo'shimcha ro'yxatlar uchun moliyaviy talablar - listing paytida bozor kapitallashuvi kamida 100 mln. Gonkong dollariga (13 mln. AQSh doll.) teng bo'lishi, o'tgan ikki moliyaviy yil davomida kamida 20 million Gonkong dollariga (2,6 mln. AQSh doll.) tengbo'lgan operatsion faoliyatdan kelgan pul oqimining mavjudligi;
- bozor kapitalizatsiyasining eng kam miqdori – aksiya va depozitar tilxatlar uchun listing vaqtida kamida 200 million Gonkong dollari (26 mln. AQSh doll), opsiyon va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun listing vaqtida 10 million Gonkong dollari (1,3 mln. AQSh doll);
- ommaviy joylashtirishning eng kam miqdori - har doim xususiy investorlarga tegishli bo'lgan, 50 mln. Gonkong dollari (6,4 mln. AQSh

⁷⁸ <http://www.jpex.co.jp/english/equities/listing-on-tse/new/basic/01.html> va <https://equity.today/tokyo-stock-exchange.html> saytlari ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

doll.)dan kam bo'lmagan miqdorda, emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning kamida 25 foizi bo'lishi lozim;

- aksiyadorlarning taqsimlanishi – qimmatli qog'ozlar kamida 300 nafar vaqtincha ushlab turuvchi (saqlovchi)lar va 1000 ta qimmatli qog'ozlar egalari (aksiyadorlar) orasida taqsimlanishi kerak;

Shanxay fond birjasida listing shartlari. Birjadagi har qanday kompaniyaning aksiyalarini savdoga chiqarish uchun mazkur kompaniya birjaning “ro'yxati”ga kiritilishi kerak. Kompaniyaning ro'yxatga kiritilishi emitent aksiyalarining birjada sotilayotgan vaqtida uning aksiyalari tekshiruvdan o'tganligini hamda birja va moliyaviy regulyatorning to'liq nazorati ostida ekanligidan dalolat beradi.

Shanxay fond birjasida listing shartlari quyidagilardan iborat⁷⁹:

- Xitoy qimmatli qog'ozlari bo'yicha Komissiyaning (CSRS) ruxsatnomasi;

- ariza beruvchi kompaniyaning kapitali – 50 mln. yuan (6,5 mln. doll.)ni tashkil etishi;

- fond birjadagi erkin muomaladagi aksiyalar – umumiy aksiyalarning 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorini, kapitalizatsiya miqdori 400 mln. yuanni tashkil etganda umumiy aksiyalarning 10 foizidan kam bo'lmagan miqdorini tashkil etishi;

- kompaniya kamida 3 yil davomida foyda bilan samarali faoliyat ko'rsatib kelayotgan va bu davrda moliyaviy huquqbuzarliklarga aralashib qolmagan yoki o'zi sodir etmagan bo'lishi lozim.

Toronto fond birjasi listing talablari (Listing talablari neft va gaz tarmog'i korxonalari misolida ko'rib chiqiladi) quyidagilar hisoblanadi:

- moliyaviy holatga bo'lgan talablar – so'nggi moliya yili uchun joriy faoliyatidan soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan foyda – 0,3 mln. Kanada dollarini tashkil etishi;

- so'nggi moliyaviy yil uchun soliqqa tortilgunga qadar pul oqimi miqdori - 0,7 mln. Kanada dollari yoki so'nggi ikki moliya yili uchun o'rtacha 0,5 Kanada dollarini tashkil etishi;

- aktivlarga egalik qilish huquqlariga qo'yiladigan talabalar – “istisno” tegishli bo'lgan kompaniyalar – 7,5 mln. Kanada dollariga teng miqdorda isbotlangan ishlab chiqilgan zaxiralar, “istisno qilinishi mumkin bo'lmagan” kompaniyalar – 3 mln. Kanada dollariga teng miqdorda isbotlangan ishlab chiqilgan zaxiralar, “istisno qilinishi mumkin

⁷⁹ sse.com.cn/listed/company/ sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

bo'lmagan" kompaniyalar - 500 mln. Kanada dollariga teng bo'lgan shartli resurslarga ega bo'lishi;

- eng kam miqdorda joylashtiriladigan aksiyalar miqdori – bozor qiymati eng kamida 4 mln. Kanada dollari miqdorida bo'lgan bozorda erkin muomalada bo'lgan 1 mln. dona aksiyalar;

- listingga kiritish uchun chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning eng kam miqdori – 200 mln. Kanada dollarini tashkil etishi lozim.

Moskva fond birjasi uchun quyidagi listing talablari mavjud:

- oddiy aksiyalarda: emitentning bozor kapitalizatsiyasi 60 mlrd. rubldan ortiq bo'lsa mos ravishda 3 mlrd. rubldan kam bo'lmagan miqdorda va chiqarilgan barcha oddiy aksiyalarning eng kamida 10 foizi; emitentning bozor kapitalizatsiyasi 60 mlrd. rubl va undan kam bo'lsa 3 mlrd. rubllik qimmatli qog'oz;

- imtiyozli aksiyalarda: chiqarilgan imtiyozli aksiyalar eng kamida 1 mlrd. rublni tashkil etsa va kamida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning 50 foizi, chiqarilgan imtiyozli aksiyalar eng kamida 500 mln. rublni tashkil etsa va mos ravishda chiqarilgan imtiyozli aksiyalarning 50 foizi muomalada bo'lishi;

- emitent yoki yuridik shaxsning amal qilish muddati: a) emitentni qayta tashkil etish natijasida uning yuzaga kelishi; b) Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma'lumotlariga qaraganda emitent kirgan biznes guruhining kamida 50 foizi biznes tashkil etgan bitta yoki undan ko'p miqdordagi biznes ustidan nazorat olib borishi;

- emitentning faoliyat ko'rsatish muddati – kamida 3 yil;

- MHXS bo'yicha audit tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisobotni tuzish va oshkor qilish – so'nggi yakunlangan 3 yil.

Yuqorida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining listing talablari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra fond birjalarining listing talablari bir-biridan keskin farq qilishini ko'rdik. Rivojlangan mamlakatlar listing talablari tahlili mamlakatimiz fond bozori uchun ularning listing talablari juda kuchlilikini, bunga bosiqchma-bosqich borish zarurligi, ammo, listing toifalaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatdi.

8.6. Fond bozorini muvofiqlashtirish va tartibga solishning jahon tajribasi. O'zini-o'zi muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirishning jahon amaliyoti fond bozorini muvofiqlashtirish va fond qonunchiligi ijrosini nazorat qilinishi tizimi bo'yicha tashkillashtirish modellarining turliligini ko'rsatadi (9.1 va 9.3

paragraflarga qaralsin). Jahon amaliyotida eng ko'zga ko'ringan ba'zi regulyatorlarni ko'rish bilan chegaralanamiz, chunki boshqa ko'pchiligi ularning u yoki bu jihatlarni o'z ichiga olgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish tajribasi

Jahon amaliyotida mumtoz hisoblangan AQSh modeli hozirda boshqa mamlakatlardagi tartiblashtirish tizimi modellariga qaraganda nisbatan samaralilaridan bo'lib kelmoqda.

AQSh modeliga ko'ra, "Qimmatli qog'ozlar muomalasi to'g'risidagi" qonunga binoan 1934 yilda tuzilgan "Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiya" (quyida qisqacha Komissiya deb yuritamiz) fond bozorining bosh regulyatori hisoblanadi. Komissiya bir vaqtning o'zida ham nazorat va ham qonuniy tartib-qoidalarni o'rnatuvchi davlat organi funksiyasini bajaradi.

Bundan tashqari Komissiya federal sudlarni maslahatchisi hamdir.

Komissiya har yili Kongressga qimmatli qog'ozlarga oid qonunlarni bajarilishi to'g'risida hisobotiy ma'ruza taqdim etadi.

Komissiya rahbariyati 5 kishidan iborat bo'lib, ularning har biri 5 yillik muddatga AQSh Prezidenti tomonidan Senat bilan kelishilgan holda tayinlanadi. Komissiya raisi Prezident tomonidan tayinlanadi. Komissiya a'zolarining vakolati bir muddatda (kunda va yilda) tugamaydi, balki har birining vakolat muddati boshqalarinikiga nisbatan bir yil oraliq bilan yilning 5 iyunida tugaydi, ya'ni 5 yil o'tishi bilan oq (ohirgi yilning 5 iyunida) bir a'zoning vakolati tugaydi. Komissiyaning uch a'zosidan ko'pi bir siyosiy partiyaga taaluqli bo'lishi mumkin emas. Komissiyaning shtati bo'lim va boshqarmalardan (jumladan, 11 regional va okrug boshqarmalaridan) iborat bo'lib, boshliqlari Rais tomonidan tayinlanadi. Shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan.

Yaponiya qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish tajribasi

1948 yilda "Qimmatli qog'ozlar va birjalar to'g'risidagi" qonunga binoan AQSh modeliga o'xshash Moliya vazirligi huzurida, lekin ma'lum darajada undan holis va hukumat organi maqomiga ega bo'lgan "Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissi" tashkil etilgan.

1964 yilda komissiya negizida Moliya vazirligi tarkibida mahsus Byuro tashkil etilib, uning ichiga quyidagi olti bo'lim kirgan: Muvofiqlashtiruvchi, kapitallar bozori, aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi, qimmatli qog'ozlar savdosi bozorlari, fond faoliyati, nazorat bo'limlari. Bulardan tashqari Byuro tarkibida nisbatan mustaqil bo'lgan quyidagi

tuzilmalar faoliyat yuritgan: fond bozori bo'yicha Kengash, buxgalterlik hisob bo'yicha Kengash, sertifikatсион davlat imtihoni Komissiyasi.

Joylarda nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi 9 moliyaviy byuro, 40 moliya bo'limlari va Okinavani rivojlantirish Agentligining umumiy byurosi bo'lgan.

1992 yilda Byuroning o'rniga makroregulyator sifatida moliyaviy xizmatlar bo'yicha Agentlik tuzilgan.

Buyuk Britaniya qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish tajribasi

1980-1990 yillarda tartiblashtirish tizimini isloh qilinishi natijasida avval 1986 yilda "Moliyaviy xizmatlar to'g'risidagi" qonunga binoan "super-o'zini o'zi muvofiqlashtirish tashkiloti" tuzilib, keyinchalik "kvazi-hukumat", lekin nodavlat, makroregulyatori tuzilgan. Makroregulyatorning bosh va asosiy tashkiloti (organi) moliyaviy xizmatlar bo'yicha Kengash hisoblanadi. Bu organ hozirda moliya bozorining barcha qatnashchilari va segmentlarini tartiblashtiradi, Davlat G'aznachiligi orqali yillik hisobotlarni Parlamentga beradi. Makroregulyatorning Kengashiga 2001 yil dekabrda "Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risidagi" qonunga binoan barcha regulyativ vakolat va funksiyalar berilgan bo'lib, uning faoliyati davlat byudjetidan moliyalashtirilmaydi, balki uning harajatlari moliya bozori qatnashchilari tomonidan qoplanadi.

Germaniya qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish tajribasi

1995 yilda "Moliya bozorini rivojlantirishga ko'maklashish to'g'risidagi" qonunga binoan federal regulyativ organ bo'lgan "Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiya" tuzilgan. Bu organga parallel holda Frankfurt fond birjasida "Stats-komissariat" tashkil etilgan bo'lib (bu organni stats-komissar boshqaradi), bu organ birjalar faoliyatini tartiblashiradi (shunga o'hshash organ Lyuksemburgda "Birjaviy kuzatuv kengash" bo'lib, u yagona va bosh regulyator hisoblanadi). Bunga qaramasdan, Komissiya rasmiy ravishda bosh regulyator hisoblanadi.

Ammo, Germaniyada bozorning professional qatnashchilari banklar bo'lgani uchun, bozorni tartiblashtirishda asosiy rolni "Banklar ustidan Federal nazorat palatasi" o'ynaydi. Aynan shu federal organ fond bozorining barcha qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Shunga o'hshash banklarning regulyativ organi (Bank inspeksiyasi) Shvetsiyada mavjud bo'lib, bu organ qimmatli qog'ozlar bozorida yagona va bosh regulyator hisoblanadi.

Shunday qilib, Germaniyada biramasiga bir nechta regulyator mavjud.

Singapur qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish tajribasi

5

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish biramasiga bir nechta regulyator tomonidan amalga oshiriladi. Brinchisi – Singapurning valyuta boshqarmasi, ikkinchisi – qimmatli qog'ozlar bo'yicha Kengash, uchinchisi – fond birjasi.

Avstraliyada regulyator bo'lib "Milliy kompaniyalar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissi", *Belgiyada* – Bryusselning birjasi bo'yicha va birjalar bo'yicha Milliy komissiya, *Kanadada* – shatatlar hukumatlari huzuridagi organlar, *Shveysariyada* – qimmatli qog'ozlar bo'yicha Kantonal komissiya, *Janubiy Koreyada* – qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiya hamda Moliya vazirligi, *Polshada*– hukumatning markaziy organi sifatida qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiya (shunga o'hshash *Vengriyada* hukumat qoshidagi qimmatli qog'ozlar ustidan Davlat nazorati inspeksiyasi).

Aytish joizki, har bir mamlakatda davlat va O'O'M tashkilotlari (jumladan, fond birjalari) o'rtasida regulyativ funksiyalar turlicha taqsimlanishi mumkin. Ba'zi mutahassislar fond birjasi qimmatli qog'ozlar bozorini hukumatga qaraganda yahshiroq tartiblashtirishini ta'kidlaydilar⁸⁰. Ularning fikricha, fond birjasi tartib-qoidalari bozorni tartiblashtirish shart-sharoitlariga ko'proq mos keladi. Bunga misol tariqasida dunyoning eng yirik London, Nyu York, Frankfurt va boshqa mamlakatlar fond birjalarining mavqei ila regulyativ funksiyalari keltiriladi⁸¹.

Hozirda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya va ba'zi boshqa davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish organlari vakillari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar ustidan nazorat qilish bo'yicha millatlararo organ tuzish masalasi ko'rilmogda, ajab emas yaqin kelajakda bunday halqaro regulyator paydo bo'ladi.

Bunda IOSCO tashkiloti tomonidan tavsiya qilingan regulyatorlarning ikkilamchi bozorlarga nisbatan qo'yiladigan talablarini keltirish o'rinli⁸². Bu talablarni tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan.

⁸⁰ Paul G. Mahoney. The Exchange As Regulator, Symposium: The Allocation of Government Authority, Commentary 83 "Virginia law review" 1453 (1997); Marcel Kahan. Some Problems With Stock Exchange-Based Securities Regulation, Symposium: The Allocation of Government Authority, Commentary 83 "Virginia law review" 1509, 1510, 1516-18 (1997).

⁸¹ A. Pot, A. Zaharov, B. Zlatkis, Y. Mirkin, B. Born, P. Bernard, P. Barenboym, A. Xit. *Osnovy gosudarstvennogo regulirovaniya finansovogo rynka*.-M.: Iuridicheskii Dom «Iustitsinform», 2003.-66.281-316.

⁸² Objectives and Principles of Securities Regulation. A Report of IOSCO, September 1998, <http://www.iosco.org>; A. Pot, A. Zaharov, B. Zlatkis, Y. Mirkin, B. Born, P. Bernard, P. Barenboym, A. Xit. *Osnovy gosudarstvennogo regulirovaniya finansovogo rynka*.-M.: Iuridicheskii Dom «Iustitsinform», 2003.-66.277-280.

Talablar ob'ekti	Bozorga talablar	Regulyator bilan munosabatlar
Kompetentlik	Savdo tizimi operatori (savdoni tashkillashtiruvchi) kompetent bo'lishi shart. Operatorning kompetentligi uzluksiz rioya qilinuvchi talab bo'lishi lozim.	Regulyator tomonidan kompetentlikni majburiy baholanishi
Savdo tizimi operatori ustidan nazorat	Agar savdo tizimi operatori operatsiyalar risklarini o'z zimmasiga olsa, unda u bunday risklarni chegaralovchi prudentsial va boshqa talablarga javob berishi lozim	Operator regulyatorga hisobotdor bo'ladi va regulyator tomonidan nazorat qilinadi
Mahsulotlarni savdo tizimiga kiritilishi. Savdo tartiblari	Qimmatli qog'ozlar tegishli dizayni va ular bilansavdo tartiblari bozorni sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi kritik aspektlar hisoblanadi	Regulyator bozorda so-tiladigan mahsulotlar turlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Regulyator savdo tartiblari va tamoyillarini, mahsulotlardizayni va turlarini tasdiqlashi kerak.
Qatnashchilarni savdo tizimiga kiritilishi	Savdo tizimiga ob'ektiv va adolatli kirish	Regulyator tomonidan bozorga kirish mezonlari va tartiblarini nazorat qilish
Treyding informatsiyasi bilanta'minlash	Barcha qatnashchilar savdo to'g'risidagi informatsiyaga teng xuquqli ega bo'lishi lozim.	Informatsiya tenglik asosida ega bo'lishlik regulyator tomonidan solishtirib tekshirib (verifikatsiyalanib) boriladi.
Orderlarni kiritish	Orderlarni kiritish barcha qatnashchilarga nisbatan adolatli va regulyativ tartib-qoidalarga rioya qilingan bo'lishi lozim.	Orderlarni savdo tizimiga kiritilishi regulyator va qatnashchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

Savdo bitishuvlari ijrosi	Orderlarni ijrosi barcha qatnashchilarga nisbatan adolatli qo'llanilishi lozim.	Orderlarni ijrosi regulyator va qatnashchilar uchun aniq va tushunarli ochib berilishi kerak.
Savdo nati-jasi bo'yicha hisobot va chop etiladigan informatsiya	Bozorning barcha qatnashchilari savdo to'g'risidagi informatsiya bilan tenglik asosida ta'minlanishi lozim.	
Savdoni tashkillashtiruvchi tomonidan bozor tizimi va qatnashchilari ustidan nazorat	Savdo operatori barcha qatnashchilar tomonidan savdo jarayonini monitoring qilish, nazorat qilib borish, nizolarni hal qilish, appelyatsiya qilish, operatsiyalar bajarish va h.k. mexanizmlarini yaratishi lozim.	Regulyator barcha mexa-nizmlarni ishonchli ishlashini baholaydi va nazorat qiladi.
Bozorning uzulishlari	Bitishuvlarni buzilishi va to'htatilishi tartiblari o'ratilishi lozim.	Bozorni uzulishlarida qo'llaniladigan harakatlar regulyatorga taqdim qilinadi.
Bozorni uzluksiz nazorat qilish	Savdo tizimlari va bozor informatsiyalari ustidan uzluksiz nazorat qilinishi lozim.	Savdo tartiblarini har qanday o'zgarishlari regulyatorga qaror qabul qilish uchun taqdim etiladi.
Treydingning shaffofligi	Bozor qatnashchilari real vaqt mobaynida savdoga oid (savdooldi, savdo vaqti va savdoorti bosqichlarida) barcha ma'lumotlar bilan ta'minlanishi lozim.	Regulyatorlar treyding shaffofligi to'g'risida to'liq informatsiyaga ega bo'ladi.
Manipulyatsiya va boshqa zararli amallarni ma'n etish	Savdolarda har qanday manipulyatsiya va zararli amallarni oldini olish va ma'n etish bo'yicha tartib-qoidalar mavjud bo'lishi lozim.	

Bozor va kliring tizimi risklarini nazorat qilish	Risklar to'g'risidagi informa-tsiyaga ega bo'lish bo'yicha tartib-qoidalar mavjud bo'lishi lozim.	Regulyator quyida ekspozitsiya qilinadiganlar to'g'risidagi informa-tsiyaga ega bo'ladi: risk-ka, bozorni uzluksiz monitoringiga, pozitsiyani yopishga majburlash-ga, kiritiladigan mar-jani oshirishga, mud-datli bitishuvlarni chegaralashga va h.k.
Hisob-kitob-lar va kliring	Barcha qatnashchilar uchun ochiq bo'lgan va regulyatorga hisobotlar berilishini ta'minlaydigan hisob-kitoblar va kliring bo'yicha tegishli tartib-qoidalar va operatsion tartiblar o'rnatilishi lozim.	Regulyatorlar hisob-kitoblar va kliring tizimi usidan to'g'ridan to'g'ri nazorat o'rnatadi.
Bitishuvlarni solishtirib tekshirish (verifikatsiya)	Hisob-kitoblar va kliring tizimlari sodir etilgan operatsiyalarni kliring to'g'risidagi informatsiya asosida tezkor (real vaqtga yaqinlashtirilgan tarzda avtomatlashtirilgan ravishda) verifikatsiyalashtirishi lozim.	
Hisob-kitob va kliring tizim-lari risklari	Uzluksiz informatsiya olish, monitoring o'tkazish, identifikatsiya qilish va risklarni pasaytirish uchun tartiblar o'rnatilishi lozim. Risklarni pasaytirishda quyidagi instrumentlar qo'llanilishi mumkin: marjalarga talablar, avtomatik uzishlar, pozitsiyalarning limitlari, savdolarini to'htatish, kapitalni etarligi talablari, risklarni boshqarish tizimlari, operatsion standartlar, kreditlash limitlari, sug'urtaviy qoplash, dubl tizimlar va kafolat fondlari.	
Marjalarga talablar	Tizimda riskka ekspozitsiyani kuchsizlashtirish darajasida marja talablarini o'rnatish lozim.	
Qimmatli qog'ozlar bo'yi-cha qisqa sotuv-lar va ssudalar berilishi	Agar bozorda qisqa savdolar ruhsat berilgan bo'lsa, manipulyativ amaliyotni cheklash zarur. Bunda qimmatli qog'ozlar bilan ssuda berishga ruhsat berilishi mumkin (narhlarni pasaytirish bo'yicha o'yin uchun qo'llaniladi). Regulyatorga egallangan qisqa pozitsiyalar va ssudalar to'g'risida hisobotlar beriladi (sababi- riska bozor ekspozitsiyasini chegaralash).	

Ko'rinib turibdiki, bu talablarning barchasi savdo tizimlarida transparentlik, samaralilik, ishonchlilik va risksizlilik darajasini oshirishga qaratilgan.

Nazorat savollari

1. Jahondagi yirik fond birjalarning listing talablari
2. Xalqaro fond birjalari faoliyatidagi umumiy va asosiy farqli jihatlar.
3. Kapitallashuv darajasi eng yuqori fond birjalari.
4. London fond birjasi faoliyat mexanizmi va listing talablari.
5. Nyu-York fond birjasi faoliyat mexanizmi va listing talablari.
6. Tokio fond birjasi faoliyat mexanizmi va listing talablari
7. Frankfurt fond birjasining faoliyat mexanizmi va listing talablari
8. Mintaqaviy fond birjalaridagi listing talablari.
9. Xorijiy amaliyotda fond bozorini tartibga solish mexanizmlari.
10. Fond bozorida o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlari.
11. Fond bozorini makroregulyator vositasida tartibga solish.

IX 606. VALUTA BIRJALARI FAOLIYATI. XORIJIY MAMLAKATLAR VALUTA BIRJALARI

9.1. O'zbekiston Respublikasi valuta birjasining umumiy tavsifi, faoliyati yo'nalishlari va tarkibiy tuzilishi.

2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonning 3-bandiga ko'ra etakchi xorijiy kompaniyalarda boshqaruvni tashkil etish tizimini chuqur o'rganish asosida ishlab chiqilgan aksiyadorlik jamiyatining namunaviy tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, boshqa manfaatdor idoralar va aksiyadorlik jamiyatlarining kuzatuv kengashlari uch oy muddatda aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasini ularning tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda, namunaviy tuzilmaga muvofiqlashtirishni ta'minlashlari kerakligi belgilangan.

Yuqorida keltirilganlarga hamda namunaviy tashkiliy tuzilmaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi (keying o'rinlarda O'zRVB)ning tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi. Yangi tahrirdagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasiga ko'ra jamiyatning tashkiliy tuzilmasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Birja faoliyatining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- birja tovarlari bozorini tashkil etilishi va tartibga solinishini hamda talab va taklif asosida birja tovarlarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirilishini ta'minlash;

- birja va uning aksiyadorlari manfaatlarida tijorat tashkiloti sifatida moliyaviy-xo'jalik faoliyatdan foyda olish;


- barcha savdo ishtirokchilari uchun birja savdolarida ishtirok etishda teng shart-sharoitlar yaratish, narxlar shakllanishining erkinligini va birja savdolarining oshkoraligini ta'minlash;

- savdo ishtirokchilariga samarali va ishonchli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Birja infratuzilmasini rivojlantirish.

Birja o'z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini (yo'nalishlarini) amalga oshiradi:

- birja savdolarini, shuningdek banklararo pul bozorini hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etish va o'tkazish;

- davlat qimmatli qog'ozlarini saqlash va ularga bo'lgan huquqlarni hisobga olish;
- birja bitimlari bo'yicha milliy va xorijiy valyutalarda kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish;
- birja tovarlariga bo'lgan talab va taklifning nisbati asosida ularni kotirovkalashni (ularning narxini belgilashni) amalga oshirish, chet el valyutasi savdolari bo'yicha milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursini belgilash;
- birja bozori indikatorlarini shakllantirish va ularni muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) Birjaning rasmiy veb-saytida joylashtirish;



O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasining tashkiliy tuzilmasi

- birja a'zolari uchun majburiy bo'lgan birja savdolari qoidalarini, shuningdek namunaviy shartnomalarni va tuzilgan bitimlarni rasmiylashtirish uchun hujjatlarning standart shaklini ishlab chiqish;
- birja a'zolari xodimlarining (trejderlarning) kasbiy malakasini yuqori saviyada saqlashni ta'minlash maqsadida shart-sharoitlar yaratish;

- birja savdolari ishtirokchilarini har bir birja savdosining yakunlari to'g'risida tegishli axborotlar bilan ta'minlash, ularga zarur bo'lgan maslahat va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish;

- birja faoliyatiga oid dasturiy ta'minotlarni va avtomatlashtirilgan majmualarni ishlab chiqish va joriy etish;

- qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirish.

O'zbekiston Respublika valyuta birjasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati

Birja savdolarini tashkillashtirish va rivojlantirish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati:

chet el valyutasi, banklararo pul bozori, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan depozit operatsiyalari va davlat qimmatli qog'ozlari (birja segmentlari) bo'yicha birja savdolarini tashkillashtirish va o'tkazish;

dasturiy ta'minot tizimini taqdim etish va ularning texnik sozligini ta'minlash;

dilerlarga bevosita savdo zalidan yoki treyderlarning ish joyidagi uzoqlashtirilgan savdo terminallari orqali birja segmentlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

birja bitimlari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish xizmatini ko'rsatish;

treyderlarni, dilerlarning boshqa xodimlarini kasbiy malakasini yuqori saviyada bo'lishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida savdo tizimining kompleks dasturiy va texnik vositalaridan foydalangan holda, muntazam ravishda konsalting xizmatlarini hamda o'quv-seminarlarini tashkil etish;

savdo qatnashchilarini har bir birja savdolari yakunlari to'g'risidagi tegishli axborotlar bilan ta'minlash;

ma'lumotlarni taqdim etish (birja tovarlari va moliya instrumentlari, ularning narxlari va muomala shartlari haqida) xizmatlarini ko'rsatish.

Davlat qimmatli qog'ozlariga (keyingi o'rinlarda DQQ) bo'lgan huquqlarning hisobini yuritish va ularni saqlashni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati:

savdo tizimida har bir Dilerlar va ularning Investorlari uchun alohida "depo" hisobvaraqlarni ochish va yuritish;

birlamchi joylashtirish yoki ikkilamchi savdolar natijalari bo'yicha DQQLarni Diler va Investorlarning "depo" hisobvarag'iga kiritish;

dilerlarning o'ziga tegishli DQQ nashrlari bo'yicha alohida "depo" hisobini yuritish va saqlash;

savdo tizimida tuzilgan bitim natijalariga ko'ra "depo" hisobvaraqlar bo'yicha o'tkazmalarni amalga oshirish;

savdo tizimida tuzilgan bitim natijalariga ko'ra Dilerlarning "depo" hisobvaraqlarida amalga oshirilgan o'tkazmalar bo'yicha Dilerlarga "depo" hisobvaraqlaridan ko'chirmalarni taqdim etish;

dilerning "depo" topshiriqnomasiga binoan Investor oldi-sotdi bitimini amalga oshirmasdan DQQ o'tkazmalarini amalga oshirish;

garov shartnomalari bo'yicha DQQlarga to'siq qo'yish va to'siqdan chiqarish;

taqdim etilgan "depo" topshiriqnomasi asosida DQQlarni Diler va Investorlarning "depo" hisobvarag'ining "REPO savdolari uchun to'siq qo'yilgan" bo'limiga kiritish;

DQQlar bilan REPO bitimlari natijalari asosida Diler-xaridorning "depo" hisobvarag'ining "REPO bitimi bo'yicha to'siq qo'yilgan" bo'limiga kiritish;

har bir "depo" hisobvaraqda amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha Diler yoki Investorning "depo" hisobvarag'ining holati haqida tegishli ko'chirmalarni taqdim etish.

Birja savdolarida hisob-kitob-kliring operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati:

Har bir birja segmentlari bo'yicha Dilerlarga milliy va xorijiy valyutada alohida shaxsiy-hisobraqamlarini ochish;

barcha birja segmentlari bo'yicha Savdo tizimida ro'yxatga olingan Dilerlar bitimlarini hisobini yuritish;

Dilerning bir savdo sessiyasi doirasida vujudga kelgan so'm va chet el valyutasidagi netto-pozitsiyalari bo'yicha kliringni amalga oshirish;

Birja savdolari yakuniga ko'ra Dilerning so'm va chet el valyutasidagi netto-pozitsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarni o'tkazish;

Dilerlarning rasmiy so'rovnomalari binoan shaxsiy-hisobraqamlaridagi pul mablag'larini qaytarish, to'lov topshiriqnomalarini tayyorlash va ularni ijro etish;

Dilerlarning shaxsiy - hisobraqamlaridan ko'chirmalarni taqdim etish.

"O'zRVB" AJ tomonidan bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati:

Xorijiy valyutani xarid qilish va sotish bo'yicha banklararo savdolarni tashkil etish va o'tkazish;

Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish va muomalada bo'lishiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha savdolarni tashkil etish va o'tkazish;

Davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha hisob-kliring hamda depozitar faoliyatni amalga oshirish;

Moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) bilan savdolarni tashkil etish va o'tkazish;

Pul bozorida banklararo savdolarni tashkil etish va o'tkazish;

Birja savdolari ishtirokchilari uchun milliy va xorijiy valyutalarda hisob-kliring xizmatini ko'rsatish;

Birja savdolari ishtirokchilariga zarur bo'lgan maslahat va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish.

9.2. Valyuta birjasini litsenziyalash tartibi

Valyuta birjasi – chet el valyutasi, davlat qimmatli qog'ozlari, moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) oldi-sotdisi hamda ular bilan bog'liq boshqa birja bitimlari bo'yicha birja savdolarini, shuningdek banklararo pul bozorini hamda Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etuvchi yuridik shaxsdir.

Valyuta birjasi faoliyati O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi, «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi, «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi, «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi qonunlariga, "Valyuta birjasi faoliyatini litsenziyalash tartibi" to'g'risida"gi nizom va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi.

Valyuta birjasini litsenziyalovchi organ – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidir. Bunda litsenziya da'vogari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyuta birjasi faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadi.

Valyuta birjasi yuridik shaxs bo'lib, respublikamizda aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasiga ega bo'lgan valyuta birjasi litsenziat, deb yuritiladi. Litsenziya amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Litsenziyani berish, amal qilishini tugatish, bekor qilish, to'xtatib turish, qayta rasmiylashtirish yoki qayta tiklash O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi qarori bilan rasmiylashtiriladi. Valyuta birjasi

faoliyatini tartibga solish litsenziyalovchi organ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar valyuta birjasi faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

a) birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga va birja savdolari qoidalariga rioya qilish;

b) aksiyadorlik jamiyatlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondi (ustav kapitali)ning eng kam miqdori bo'yicha talablarga muvofiqlik;

v) kamida 10 ta tijorat banki sifatidagi birja a'zolarining mavjud bo'lishi;

g) tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratilganligi;

d) belgilangan umumiy texnik talablarga qat'iy rioya etgan holda shakllantirilgan birja savdolari elektron tizimining mavjudligi;

e) birja savdolarini oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida elektron shaklda valyuta birjasi a'zolarining barchasiga ushbu savdolarida bir vaqtda ishtirok etish imkoniyati berilgan holda o'tkazish;

j) kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish, shuningdek davlat qimmatli qog'ozlariga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va ularni saqlash tizimining mavjudligi;

z) axborotni qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish;

i) litsenziyalovchi organning talabiga ko'ra birja faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq axborotni taqdim etish;

k) xonalarning texnik jihatdan mustahkamlanganligi va qo'riqlash va yong'indan ogoh etish vositalari bilan jihozlanganligi;

l) kundalik buxgalteriya hisobi yuritilishini ta'minlovchi dasturiy ta'minotning mavjudligi;

m) birja savdolarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda tuziladigan elektron bayonnomalar tarzida kiritilgan birja bitimlari to'g'risidagi axborotni arxiv ishlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq saqlash.

Litsenziya olish uchun litsenziya da'vogari litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) litsenziya berish to'g'risida ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi: litsenziya da'vogarining nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), elektron manzili, bank hisobi rekvizitlari;

b) litsenziya talablari va shartlarining bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat;

v) litsenziya da'vogari ustavining nusxasi;

g) litsenziya da'vogarining boshqaruv organlari tarkibi to'g'risida ma'lumot;

d) litsenziya da'vogarining chet el valyutasi, davlat qimmatli qog'ozlari, moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi va banklararo pul bozori, shuningdek Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etish bo'yicha bo'linmalari, shuningdek xodimlar malakasi, bo'linmalar ixtisoslashuvi va ularning texnik jihozlanganligi tavsiflangan tashkiliy tuzilmasi.

Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar litsenziya da'vogari tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqida xabardor qilingan holda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar litsenziya da'vogarining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Litsenziya berish to'g'risidagi arizada litsenziya da'vogarining elektron manzili ko'rsatilganligi uning arizasi bo'yicha qabul qilingan qaror haqida axborot tizimi orqali elektron shaklda xabarnoma olishga bo'lgan roziligidir.

Noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun litsenziya da'vogari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi. Litsenziya da'vogaridan qonunchilikda nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya olish uchun ariza bilan barcha zarur hujjatlar litsenziyalovchi organ tomonidan ushbu hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida ko'rib chiqiladi. Litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya olish uchun taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi. Lekin, litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya berilganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq davlat boji undiriladi. Litsenziyalovchi organ tegishli qaror qabul qilingandan keyin uch kun mobaynida litsenziya da'vogarini litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror haqida xabardor qiladi. Litsenziya berish bo'yicha qaror qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda jo'natiladi (taqdim etiladi). Litsenziya litsenziya da'vogari tomonidan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan va u litsenziya bitimini imzolagandan keyin uch kun muddatda rasmiylashtiriladi va

beriladi. Litsenziya blankasining asl nusxasi litsenziatga beriladi, litsenziya nusxasi litsenziyalovchi organda saqlanadi. Litsenziya bitimi litsenziyalovchi organ va litsenziatning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Litsenziya bitimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- bitimni imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi;

- tomonlarning rekvizitlari;

- amalga oshirilishiga litsenziya berilayotgan faoliyat turining nomi;

- litsenziatga qo'yiladigan litsenziya talablari va shartlari;

- litsenziya bitimi talablari va shartlari buzilganligi uchun tomonlarning javobgarligi;

- litsenziat tomonidan litsenziya bitimi talablari va shartlari bajarilishining litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilinishi tartibi.

Litsenziya bitimi ikki nusxada tuziladi, bir nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi, ikkinchisi esa litsenziatga beriladi.

Litsenziyalovchi organ quyidagi sabablarga ko'ra litsenziya berishni rad etishga haqlidir:

- litsenziya da'vogari hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmagan holda taqdim etishi;

- litsenziya da'vogari taqdim etgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

- litsenziya da'vogarining litsenziya berish talablari va shart-sharoitlariga nomuvofiqligi.

Boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan litsenziya berish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda, rad etishning sabablari va litsenziya da'vogari ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, hujjatlarni ko'rib chiqish uchun takror taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi). Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Litsenziya da'vogari litsenziya berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish litsenziya da'vogarining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatda litsenziyalovchi

organ tomonidan amalga oshiriladi. Litsenziya da'vogarlarining arizalarini takroran ko'rib chiqqanlik uchun ham yig'im undirilmaydi.

Litsenziya da'vogarining arizasini takroran ko'rib chiqishda litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya da'vogarining litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan arizasi yangidan berilgan deb hisoblanadi.

Litsenziat qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxaidan o'tkazilgandan keyin bir oy muddatda litsenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart. Litsenziat litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyalovchi organ litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziyalar reestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyalovchi organ tomonidan tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza olingan kundan boshlab, besh kun mobaynida amalga oshiriladi. Litsenziya yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda litsenziatning arizasiga ko'ra dublikat berilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

- litsenziat tomonidan valyuta birjasi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining buzilishi holatlari aniqlanganda;
- litsenziat tomonidan litsenziya bitimida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlari buzilishi aniqlanganda;
- litsenziyalovchi organning litsenziat faoliyatida aniqlangan qoida buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalari litsenziat tomonidan bajarilmaganda.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay etkaziladi.

Litsenziyalovchi organ litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun muddat belgilaydi. Bunda belgilangan muddat olti oydan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, litsenziyalovchi organ ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida uch kun muddat ichida qaror qabul qiladi.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

- litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

- litsenziatning faoliyati yuridik shaxs sifatida tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, uning o'zgartirilishi bundan mustasno;

- litsenziat litsenziya bitimida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda;

- litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni litsenziyalovchi organ belgilagan muddatda bartaraf etmaganda.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay etkaziladi. Litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak. Litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek litsenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak. Tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Litsenziya quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- litsenziat litsenziyani bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

- agar litsenziat litsenziya berishi haqida qaror qabul qilingani to'g'risida xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran bir oy ichida litsenziya bitimini imzolamagan bo'lsa;

- litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi dalili aniqlanganda.

Litsenziyalovchi organning litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay etkaziladi.

Litsenziat litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek litsenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak.

Litsenziat faoliyatini tartibga solish va litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilishni amalga oshirishda litsenziyalovchi organ o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshirish;

litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish chog'ida paydo bo'ladigan masalalar yuzasidan litsenziatdan zarur axborotni so'rash va olish;

tekshirishlar natijalari asosida, litsenziya talablari va shartlarining litsenziat tomonidan aniq buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

litsenziatga aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday buzilishlarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror chiqarish.

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishda litsenziyalovchi organning tekshiruvchi xodimlari tomonidan ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ularning bittasi litsenziatga beriladi, ikkinchi nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi.

9.3. Valyuta birjasi savdolarining elektron tizimlariga qo'yiladigan umumiy texnik talablar

Birja savdolarining elektron tizimlari (keying o'rinlarda BSET) quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- lokal hisoblash tarmoqlari sharoitlarida faoliyat ko'rsatishi;
- ma'lumotlar bazasi bilan bog'langanlik asosida, valyuta birjasi savdo ishtirokchilari (bundan buyon matnda savdo ishtirokchilari deb yuritiladi) haqidagi axborotni shakllantirish, saqlash va aks ettirishi;
- ma'lumotlar bazasi bilan bog'langanlik asosida, buyurtmalar, bitimlar va savdo natijalari bo'yicha axborotni saqlash va aks ettirishi;
- ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan ma'lumotnomalar asosida axborotni saqlash va aks ettirishi;

- dasturiy vositalar majmuining ishini qisqa yo'riqnomalar, yordam ko'rsatish va tushuntirishlar bilan ta'minlaniladigan menyu tizimi orqali tashkil qilishi;

- terminalning jismonan joylashishidan qat'i nazar, aniq vaqt rejimida birja savdolarida qatnashish imkonini yoki savdo ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlash;

- o'tkazilgan birja savdolari bo'yicha hisobotlarni mazkur savdolarning elektron bayonnomasi mazmuniga qat'iy mos keltirgan holda shakllantirish;

- birja savdolari jarayonida bajarilayotgan har bir operatsiyaga avtomatik ravishda identifikatsiya raqamini birlashtirish va ushbu operatsiyalarni mazkur savdolarning elektron bayonnomasida yuritish.

BSETning tarkibida quyidagi ma'lumotlar ro'yxatga olinadigan birja savdolari bo'yicha bajarilgan amallarning hisobini yurituvchi avtomatlashtirilgan (elektron bayonnomasi) bo'lishi lozim:

- savdoning ochilishi;

- savdoning yopilishi;

- savdo ishtirokchisini identifikatsiya qilish;

- savdo ishtirokchisining tizimga kirish vaqti;

- savdo ishtirokchisining tizimdan chiqish vaqti;

- savdo ishtirokchisi tomonidan buyurtma berilgan vaqt;

- savdo ishtirokchisi buyurtmani qaytarib olgan vaqti;

- savdo ishtirokchisi buyurtmani o'zgartirgan vaqti;

- savdo ishtirokchisi bitim tuzgan vaqti;

- birja tovarining nomi;

- buyurtmadagi birja tovarining miqdori;

- birja tovarining narxi.

Yozuvlarni qayd qilish vaqtining formati — yil, oy, kun, soat, daqiqa, soniya.

BSETning dasturiy vositasi litsenziyaviy dasturiy ta'minotdan foydalangan holda va texnik topshiriqqa asosan ishlab chiqilishi hamda ekspluatatsiya qilinishi lozim.

Axborotning to'liq yoki qisman talofati yo'qolishi va ma'lumotlar bazasi butunligi buzilishini oldini olish maqsadida BSETning dasturiy vositasi foydalanuvchining xatolariga, texnik nosozliklar holatlarida yuzaga keladigan xatolarga hamda ma'lumot bazasi xatolariga foydalanuvchiga uning keyingi xatti-harakatlari ko'rsatilgan axborotni taqdim etgan holda ishlov berilishini ta'minlashi lozim.

BSETning dasturiy vositasida quyidagi funksiyalarni ta'minlaydigan dasturlar ishini nazorat qiluvchi modul bo'lishi shart:

foydalanuvchini identifikatsiya qilish (tanib olish), autentifikatsiya qilish (haqiqiylikini tasdiqlash) va avtorizatsiyalash (vakolatlarni o'zlashtirib olish);

BSET resurslaridan foydalanishni nazorat qilish;

BSETda sodir bo'layotgan voqealarni ro'yxatga olish va tahlil qilish;

BSET resurslari butunligini nazorat qilish.

BSETning dasturiy vositasi quyidagi dasturiy tizimlardan iborat bo'lishi yoki mavjud dasturiy tizimlar bilan elektron tarzda o'zaro ishlashni ta'minlashi lozim:

- savdo tizimi;
- kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish tizimi;
- davlat qimmatli qog'ozlari hisobini yuritish va saqlash tizimi;
- axborot-tahlil tizimi;

- ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari (agar texnologik savdo jarayoni bunday tizim bilan o'zaro ishlashni ko'zda tutsa).

Valyuta birjasida axborot xavfsizligi axborotni muhofaza qilishning tashkiliy-texnik chora-tadbirlari va dasturiy-apparat vositalaridan iborat tizim bilan ta'minlanishi va quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- xodimlar va ishtirokchilarning BSETga kirishi uchun parollarni qo'llash bo'yicha sxemalar va yo'riqnomalarni;

- BSET axborot resurslari va xizmatlaridan xodimlarning foydalanish bosqichlarini bir-biridan farqlash sxemalarini;

- axborotni takrorlash hamda ma'lumotlar nusxalari va jo'natilgan xabarlarini saqlash texnologiyasi bo'yicha yo'riqnoma va hujjatlarni;

- xodimlarning maxfiy hujjatlarni oshkor qilishi mumkin bo'lgan yoki oshkor qilgan harakatlari uchun javobgarlikni belgilaydigan hujjatlarni;

- axborotni muhofaza etishni ta'minlash maqsadida ishtirokchilarning elektron tarzda o'zaro aloqasida axborot almashinuvi qoidalarini belgilaydigan hujjatlarni.

Savdlarning texnologik jarayoni ishtirokchilar uchun axborot almashinuvi maqsadida uzunligi 1024 bitdan kam bo'lmagan kalitli ma'lumotlarni yagona shifrlash algoritmi qo'llanilishi lozim.

Tashkiliy choralar yuridik shaxslarni BSET dasturiy vositalarini loyihalash, yaratish, ekspluatatsiya qilish va ta'minlashga jalb qilish qoidasini tartibga soluvchi talablar hamda harakatlar ro'yxatidan iborat bo'lishi mumkin.

Valyuta birjasi a'zolarining BSETda axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalaridan, shu jumladan, elektron raqamli imzodan foydalangan holda, ish olib borishlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozim.

BSET dasturiy vositalarining axborot xavfsizligini ta'minlash tizimi xavf-xatar tahdidi hamda ularning normal faoliyat yuritilishining buzilishi bilan bog'liq sabablar va sharoitlarni o'z vaqtida aniqlanishini ta'minlaydigan tegishli xavfsizlik siyosati bilan amalga oshirilishi lozim.

BSET uzluksiz ravishda sutkasiga 24 soat mobaynida (ish kunlarida) ishlash imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Har bir ishtirokchi BSETdan teng shart-sharoitlarda foydalanish huquqiga ega bo'lishi lozim. Ishtirokchilar soni BSET dasturiy vositasi ish unumdorligi yoki dasturiy-apparat tavsiflari bilan cheklanmasligi kerak.

Valyuta birjasi savdo ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish maqsadida savdo zalidagi terminallar soni etarli bo'lishini ta'minlashi shart.

9.4. Valyuta birjasida banklararo savdo sessiyalarini o'tkazish tartibi

Valyuta birjasida savdolar Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida banklararo savdo sessiyalarini o'tkazish qoidalari asosida tashkil etiladi.

Banklararo savdo sessiyalarida chet el valyutasining ularni kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oidi-sotdi birja bitimlari (spot) amalga oshiriladi.

Banklararo savdo sessiyalarida chet el valyutasidagi operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil yil 10 iyuldagi "Birjadan tashqari valyuta bozori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 294-son Qaroriga, O'zRVB Ustavi, O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda mazkur Qoidalar asosida amalga oshiriladi.

O'zRVB a'zolicigiga qabul qilish tartibi, ularga qo'yiladigan talablar, ularning huquq va majburiyatlari, birja savdolarida ishtirok etishga ruxsat berish, shuningdek O'zRVB a'zolari tarkibidan chiqarish tartibi "O'zbekiston respublika valyuta birjasi" aksiyadorlik jamiyatiga a'zolik to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Diler bo'lmagan vakolatli banklar banklararo savdo sessiyalarda operatsiyalarni Dilerlar orqali amalga oshirishlari mumkin.

Banklararo savdo sessiyalarida O'zRVBning funksiyalari quyidagilardir:

- birja savdolarini tashkil etish;
- savdolarida tuzilgan bitimlar bo'yicha Hisob-kitob markazida ochilgan maxsus hisobraqamlar orqali hisob-kitoblarni o'tkazish;
- savdolar yakuni bo'yicha chet el valyutalarining so'mga nisbatan joriy kursini belgilash va uni muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) o'z rasmiy veb- saytida joylashtirish;
- Dilerlarni savdolarini o'tkazish joyi hamda vaqti, shuningdek har bir birja savdosining yakunlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish. Savdolarini o'tkazish vaqti va joyi bilan bog'liq barcha o'zgarishlar haqida O'zRVB Dilerlarni savdolar o'tkaziladigan kundan kamida uch ish kuni oldin xabardor qiladi;
- tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart sharoitlar yaratish;

- O'zbekiston Respublikasi Valuta birjasi (keying o'rinlarda O'zRVB) va Dilerlar pul mablag'larining alohida-alohida hisobini yuritish.

Dilerlar taqdim etayotgan buyurtmalarining mazmuni O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga mos kelishiga javobgardirlar.

Savdolar jarayonida treyderlar tomonidan amalga oshirilgan barcha operatsiya va harakatlar ularni vakolatlagan Dilerlar operatsiya va harakatlaridek baholanadi.

"O'zbekiston respublika valyuta birjasining chet el valyutasi bo'yicha birja savdolarida ishtirok etish huquqi uchun treyderlarning attestatsiyasi (qayta attestatsiyasi) to'g'risida nizom"ga muvofiq O'zRVBda attestatsiyadan o'tgan va chet el valyutasi bo'yicha birja savdolarida malakali ishtirokchi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi treyder sertifikatni olgan treyderlarga savdolarida ishtirok etishga ijozat beriladi.

O'zRVB treyderlarning vakolatlarini va tayyorgarlik darajalarini davriy ravishda tekshirib turishi huquqiga ega. Tekshiruv natijalari bo'yicha, shuningdek, treyder tomonidan O'zRVB ichki hujjatlarining talablari buzilganda, u savdolaridan qatnashishdan vaqtincha yoki to'liq chetlashtiriladi. Treyderlarga savdolarida o'z hisobi hamda o'z nomidan operatsiyalarni amalga oshirish ma'n etiladi.

Dilerlar o'zlarining treyderlari amalga oshirayotgan harakatlari va operatsiyalarining to'g'riligi va maxfiyligiga to'liq javobgardirlar hamda o'tkazilgan savdo yakunlari bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga majburdirlar.

Dilerlar O'zbekiston Respublikasida qonunchilik hujjatlari va ushbu Qoidalar talablariga rioya qilishga majburdirlar.

Dilerlar tomonidan chet el valyutasi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibi va ushbu Qoidalar talablari buzilganligi aniqlangan hollarda O'zRVB ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan choralarni qo'llashga haqlidir.

Markaziy bank savdolarini tashkil qilish uchun hamda ularni o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan masalalarni hal etish maqsadida O'zRVBga vakolatli vakilini yuboradi.

Savdolarini o'tkazish zaliga faqat Kuzatuv kengashi a'zolari, treyderlar, Markaziy banking vakolatli vakili va savdolarini tashkil qilish hamda o'tkazishda qatnashuvchi O'zRVB xodimlarigina kiritiladi. Ommaviy axborot vositalari vakillari savdo o'tkazish zaliga, kuzatuvchi sifatida O'zRVB Ijroiya organi ruxsati bilan qo'yiladi.

Savdo boshlanguniga qadar va uni o'tkazish paytida birja makleri Markaziy bankning vakolatli vakili bilan quyidagilarni bajarishda birgalikda ish olib boradi:

savdolarini o'tkazishga tegishli Markaziy bankning yozma ko'rsatmalarini qabul qilish (jumladan, texnikaviy nosozliklar yuzaga kelganidagi harakatlar haqida);

Markaziy bankdan qabul qilingan yozma ko'rsatmalar haqida O'zRVB rahbariyatini xabardor qilish;

Markaziy bankning yozma ko'rsatmalariga tegishli bo'lgan O'zRVB qarorlarini bajarish.

Savdo qoidalariga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar kuchga kirgandan so'ng dilerlar besh ish kunidan kechikmay xabardor qilinadi, agarda Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra boshqa muddat va tartib o'rnatilmagan bo'lsa.

Chet el valyutalari birja savdolariga qo'yilgan chet el valyutalari ro'yxatiga tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartib-taomilisiz kiritiladi.

Chet el valyutalari bo'yicha savdolar birja instrumentini sotish va sotib olish uchun taqdim etilgan buyurtmalarning umumiy hajmlari tengligiga erishilganda kursni belgilash printsipiga asoslangan uslubda ("fiksing" uslub) bir haftada kamida ikki marta o'tkaziladi.

Banklararo savdo sessiyalarini o'tkazish vaqti soat 11-00 dan 13-00 gacha etib belgilanadi.

Savdolarni o'tkazishdan bir kun oldin Dilerlar O'zRVBga soat 9-00 dan 13-30 gacha chet el valyutasining xaridi va (yoki) sotuvi uchun dastlabki buyurtmalarni (4 va 5 -ilova) taqdim etishlari shart.

Dastlabki buyurtma rasmiy blankda rasmiylashtirilgan, imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar imzolari (Dilerlar tomonidan oldindan taqdim etilgan, birinchi va ikkinchi imzo qo'yish huquqidan foydalanuvchi mansabdor shaxslar imzolarining namuna varaqchasida ko'rsatilgan imzolar), hamda asosiy (yoki gerbli) muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi shart. Rahbar shaxslarga vaqtincha birinchi yoki ikkinchi imzo huquqi berilganda, shuningdek rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslardan birortasi vaqtincha o'zgarganda, vaqtincha vakolat berilgan shaxsning imzo namunasi qo'yilib, amal qilish muddati ko'rsatilgan qo'shimcha varaqcha taqdim qilinadi. Ushbu vaqtinchalik varaqcha rahbar tomonidan imzolanadi va muhr qo'yiladi.

Dilerning muhri o'zgarganda, varaqchada ko'rsatilgan imzolardan birortasi almashtirilganda yoki qo'shilganda, yangi imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha taqdim etiladi. Bekor qilingan imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchalar Dilerning yuridik yig'majildiga tikiladi.

Soat 15-00 gacha Birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasini boshqarish bo'yicha Kengashning ishchi organiga Dilerlardan kelib tushgan dastlabki buyurtmalar bo'yicha ma'lumot savdolar o'tkazilishidan bir kun oldin etkaziladi. Savdolar boshlanishidan 45 minut oldin birja makleri Savdo tizimiga kiritilgan zarur parametrlar (savdolar boshlanish va tugash vaqti, instrument turi, shu instrument bo'yicha bundan oldingi savdolar o'rnatilgan kurs qiymati) nazoratini amalga oshiradi. Savdolar boshlanishidan 30 minut oldin treydemning birja bitimlarini tuzish huquqini tasdiqlash tartib-taomili (treyderlar autentifikatsiyasi) o'tkaziladi. Bunda Savdo tizimiga treyderlarning shaxsiy kodi va paroli kiritiladi. Treydemning paroli bevosita uning ish joyidan kiritiladi. Autentifikatsiyadan so'ng treyderlar Savdo tizimiga chet el valyutasining xaridi va sotuvi uchun boshlang'ich buyurtmalarni kiritadilar. Bunda Savdo tizimi kiritilgan boshlang'ich buyurtmalarga muvofiq Dilerlarning operatsiyalarini o'tkazish uchun etarli chet el valyutasidagi pul mablag'larining mavjudligini tekshirishni amalga oshiradi.

Savdolarni o'tkazishda chet el valyutasining so'mga nisbatan boshlang'ich kursi sifatida bundan oldingi savdolar o'rnatilgan kursdan foydalaniladi.

Savdo boshlanishiga Savdo tizimida taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq miqdori hamda ishorasi haqidagi ma'lumot aks ettiriladi.

Agarda, chet el valyutasining sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari xarid uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlaridan ortiq bo'lsa, ularning orasidagi farq ishorasi musbat ("+") hisoblanadi.

Aksincha, agarda chet el valyutasining xaridi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari sotuv uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlaridan ortiq bo'lsa, ularning orasidagi farq ishorasi manfiy ("-") hisoblanadi.

Savdolar boshlanishida Savdo tizimidagi boshlang'ich buyurtmalarning (xarid va sotuvga) hajmlari orasidagi farq ishorasi musbat ("+") bo'lsa, birja makleri chet el valyutasining so'mga nisbatan kursini bir birlikka tushiradi.

Aksincha, Savdo tizimidagi boshlang'ich buyurtmalarning (xarid va sotuvga) hajmlari orasidagi farq ishorasi manfiy ("-") bo'lsa, birja makleri chet el valyutasining so'mga nisbatan kursini bir birlikka oshiradi.

Agarda, chet el valyutasining sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari xarid uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlariga teng bo'lsa, ularning orasidagi farq miqdori nolga ("0") teng, deb hisoblanadi. Bu holda, savdolar yopiq deb e'lon qilinadi va barcha bitimlar uchun chet el valyutasining so'mga nisbatan boshlang'ich kursi qo'llaniladi.

Chet el valyutasining so'mga nisbatan kursi o'zgartirishining minimal birligi – 0,01 so'm. Savdolar boshlanishida chet el valyutasining xaridi va(yoki) sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq miqdoridan kelib chiqqan holda, treyderlarning roziligi bilan, birja makleri minimal kurs o'zgarish birligini o'zgartirishi mumkin. Kurs o'zgarishining maksimal birligi – 0,1 so'm.

Savdo tizimida chet el valyutasining so'mga nisbatan boshlang'ich kursining birinchi o'zgarishidan keyin kurs harakati yo'nalishi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.

Savdolar davomida treyderlar Savdo tizimiga qo'shimcha buyurtmalar(7-ilova) kiritishlari mumkin.

Boshlang'ich va qo'shimcha buyurtmalarning miqdori operatsiya varag'ida (8-ilova) aks ettiriladi.

Har safar Savdo tizimiga treyderlar tomonidan buyurtma kiritilganida Savdo tizimi mazkur buyurtmalarga muvofiq quyidagi tartib-taomillarni amalga oshiradi:

instrumentning xaridi uchun buyurtma kiritilganida, Dilerning soʻmdagi reja pozitsiyasini, OʻzRVB undiradigan vositachilik mukofotini hisobga olgan holda, ushbu buyurtmaning qondirilishi uchun etarli boʻlgan miqdorga kamaytiradi va uning chet el valyutasidagi reja pozitsiyasini koʻpaytiradi;

instrumentning sotuvi uchun buyurtma kiritilganida, Dilerning chet el valyutasidagi reja pozitsiyasini ushbu buyurtmaning qondirilishi uchun etarli boʻlgan miqdorga kamaytiradi va uning soʻmdagi reja pozitsiyasini koʻpaytiradi.

Savdolarni oʻtkazish jarayonida Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari (xarid va sotuvga) orasidagi farq ishorasi musbat (“+”) boʻlsa, birja makleri chet el valyutasining soʻmga nisbatan kursini yana bir birlikka tushiradi.

Aksincha, Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari (xarid va sotuvga) orasidagi farq ishorasi manfiy (“-”) boʻlsa, birja makleri chet el valyutasining soʻmga nisbatan kursini yana bir birlikka oshiradi.

Savdolar oʻtkazishdagi bu jarayon Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari (xarid va sotuvga) orasidagi farq miqdori nolga (“0”) teng boʻlgunga qadar davom etadi.

Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari(xarid va sotuvga) orasidagi farq miqdori nolga (“0”) teng boʻlganda, yaʼni chet el valyutasiga boʻlgan talab va taklif hajmlarining tenglashishiga erishilsa, fiksing holati yuz beradi va birja makleri savdolarni yopiq, deb eʼlon qiladi.

Savdolar davomida tuzilgan barcha bitimlar uchun chet el valyutasining soʻmga nisbatan yagona kursi qoʻllaniladi.

Savdo tizimiga treyderlar tomonidan qoʻshimcha buyurtma kiritilganida chet el valyutasining xaridi va(yoki) sotuvi uchun taqdim etilgan barcha buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq ishorasi oʻzgarsa, oxirgi berilgan buyurtma kurs belgilash uchun zarur boʻlgan hajmda qondiriladi.

Kurs belgilash jarayonida Savdo tizimiga turtli Dilerlar tomonidan qoʻshimcha buyurtmalar bir vaqtda kiritilganda, maksimal summaga ega boʻlgan buyurtma qondiriladi. Agarda, qoʻshimcha buyurtmalarning summalari ham teng boʻlsa, bu buyurtmalar proporsional teng ravishda qondiriladi.

Savdolar yakunlanganidan so'ng, O'zRVB:

- chet el valyutasini so'mga nisbatan o'matilgan kursi to'g'risidagi ma'lumotni Markaziy bank va vakolatli banklarga etkazadi;
- savdo yakuni bo'yicha 9, 9A, 10-ilovalarga muvofiq hisobotlarni Markaziy bank va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Treyderning ish joyida texnikaviy nosozlik yuz berganida, u o'z vaqtida kechiktirmay, ixtiyoridagi aloqa vositalari orqali birja maklerini xabardor qilib, unga o'zi tomonidan avval kiritilgan buyurtmalarni bekor qilishni yoki Savdo tizimida qoldirishni topshiradi. Birja makleri treyderning topshiriqlarini bajarishi hamda bu haqida uni hamda Markaziy bankning vakolatli vakilini ixtiyoridagi aloqa vositalari orqali xabardor qilishi shart. Treyder ish joyining odatiy ish rejimi tiklanganidan so'ng u Savdo tizimiga qayta kirishi mumkin. Savdo tizimining texnikaviy nosozligi paytida savdolar to'xtatib turiladi. Birja makleri o'z vaqtida Markaziy bankning vakolatli vakilini va O'zRVB Ijroiya organini bu haqida xabardor qiladi, shuningdek bu ma'lumotni treyderlarga etkazadi.

Savdo tizimining odatiy ish rejimi tiklanganidan so'ng savdolarini davom ettirish imkoni baholanadi. Agar Savdo tizimining texnikaviy nosozligi sodir bo'lganidan keyin uning odatiy ish rejimi 60 minut mobaynida tiklansa, savdolar davom ettiriladi va treyderlar Savdo tizimiga qayta kirish uchun zarur barcha amallarni yana bajaradilar.

Savdolarini davom ettirish yoki to'xtatish haqidagi qarorni birja makleri Markaziy bankning vakolatli vakili bilan kelishgan holda qabul qiladi. Savdolar davom ettirilganda, savdolar tugash vaqti savdo tizimining odatiy ish rejimini tiklash uchun ketgan vaqtga uzaytiriladi.

Agar Savdo tizimining texnikaviy nosozligi yuzaga kelganidan keyin uning odatiy ish rejimi 60 minut mobaynida tiklanmasa, bunda savdolar birja makleri tomonidan yopiq deb e'lon qilinadi. Kurs va savdolar yakuni qayd etilmaydi, savdolar yakuni bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi. Dilerlar va O'zRVB joriy savdolar bo'yicha o'zaro talablar va majburiyatlardan ozod hisoblanadilar.

Navbatdagi savdolar keyingi ish kuni o'tkaziladi.

Savdo tizimining texnikaviy nosozliklarining barcha hollarida, Dilerlarning yozma talabi bo'yicha, O'zRVB texnikaviy nosozlik sodir bo'lganligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi.

Birja bitimlarini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda savdolar tugaganidan keyin ikki soat ichida amalga oshiriladi. Bunda, O'zRVB

mansabdor shaxslari va treyder tomonidan imzolangan birja guvohnomalari va operatsiya varaqlari ikki nusxada, shuningdek, treyder tomonidan imzolangan banklararo savdo sessiyalarida bajarilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotnoma rasmiylashtiriladi.

Dileming vakolatli vakili bo'lgan treyder tomonidan birja guvohnomalari, operatsiya varaqlari va operatsiyalar bo'yicha ma'lumotnoma imzolanmasligi, bo'lib o'tgan savdo yakunlariga muvofiq O'zRVB bilan hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlarni ushbu Diler tomonidan bajarilmasligiga asos bo'lmaydi.

Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi.

O'zRVBda tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratiladi:

- kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish;
- chet el valyutasidagi pul mablag'larini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;
- savdo qoidalari va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Savdolar o'tkazilishidan oldin o'zryb hisob-kitob markazidan O'ZRVBning maxsus hisobraqamlari bo'yicha ko'chirmalar oladi, ularga ishlov beradi hamda kelib tushgan pul mablag'lari to'g'risida fayllarni shakllantiradi.

Savdo tizimiga pul mablag'lari savdolar boshlangunga qadar kelib tushadi.

Hisob-kitob markazidan deponentlangan pul mablag'lari haqidagi ma'lumotlar kechikkanda yoki ularni qabul qilish imkoniyati bo'lmagan hollarda, O'zRVB Markaziy bankning vakolatli vakilini tegishli qaror qabul qilishi uchun tezkor xabardor qiladi va shu bilan birga yozma ravishda Markaziy bankga ma'lum qiladi.

Savdolar yakunlari bo'yicha kliring va hisob-kitoblar mazkur Qoidalarga muvofiq birja guvohnomalari va chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha O'zRVBning kliring va hisob-kitoblar tizimida qatnashish to'g'risidagi Shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Diler bilan O'zRVB o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar savdolar o'tkazilgan keyingi ish kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Savdolar yakuni bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda "to'lov asosida yetkazib berish" printsiptiga rioya etiladi.

Savdolar yanuni bo'yicha hisob-kitoblar Dilerlarning savdo qoidalarga muvofiq aniqlanadigan netto-pozitsiyalari bo'yicha Diler va O'zRVBning to'lovlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dilerning biror-bir valyuta bo'yicha netto-pozitsiyasini aniqlash uchun ushbu Dilerning O'zRVBga nisbatan, faqatgina bir kunlik savdo sessiyalari doirasida yuzaga kelgan, xuddi shu valyutadagi majburiyatlari va talablari kliring qilinadi.

Netto-pozitsiya faqat musbat ishoraga ega bo'lishi mumkin.

Savdolar bo'yicha hisob-kitoblar Hisob-kitob markazidagi O'zRVBning maxsus hisobraqamlari orqali amalga oshiriladi.

Savdolar qatnashish uchun hamda uning yakunlari bo'yicha kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish maqsadida Savdo tizimida Dilerlarga so'm va chet el valyutalarida alohida shaxsiy hisobraqamlar ochiladi.

O'zRVBning maxsus hisobraqamlari bo'yicha operatsiyalar Hisob-kitob markazida o'rnatilgan qoidalarga muvofiq va tegishli shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Dilerlar tomonidan savdolar bo'yicha to'lovlar faqatgina ularning bosh banklari hisobraqamlari orqali amalga oshiriladi. Dilerlar O'zRVBga o'zlarining hisobraqamlari bo'yicha rekvizitlar to'g'risidagi ma'lumotlarni «AJ "O'zbekiston respublika valyuta birjasi"ga a'zolik to'g'risida"gi Nizomdagi talab asosida taqdim etishlari shart. Dilerlar o'zlarining hisobraqamlari rekvizitlarining o'zgarishi haqida O'zRVBga noto'g'ri taqdim etish va o'z vaqtida xabar qilmaslik oqibatlarini uchun to'la javobgardirlar.

Dilerlar operatsiyalarini amalga oshirishlari uchun etarli miqdordagi chet el valyutasidagi pul mablag'lari, Banklararo savdo sessiyalari o'tkazilishidan oldin Hisob-kitob markazidagi maxsus hisobraqamlarida deponentlanadi.

Yuqoridagi talablarni bajarmagan Dilerlar navbatdagi savdolariga qo'yilmaydilar.

Dilerlar O'zRVB bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan so'mdagi pul mablag'larini (savdolar yakuni bo'yicha netto-majburiyatlar) savdolar o'tkaziladigan kun tamom bo'lguniga qadar O'zRVBning Hisob-kitob markazidagi maxsus hisob raqamlariga o'tkazilishini ta'minlashlari shart.

Shuningdek, savdolar boshlanishiga qadar O'zRVBning Hisob-kitob markazidagi maxsus hisobraqamlarida Dilerlarning so'mdagi pul mablag'lari mavjud bo'lishiga ijozat beriladi.

Dilerning so'mda deponentlangan pul mablag'lari birinchi navbatda uning savdo yakunlariga ko'ra vujudga kelgan netto-majburiyatlarini bo'yicha to'lovlarini bajarishga yo'naltiriladi.

O'zRVB bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan so'mdagi pul mablag'larini (savdolar yakuni bo'yicha netto-majburiyatlar) o'z vaqtida ta'minlamaganliklari bo'yicha netto-majburiyatlarga ega Dilerlar (Markaziy bankdan tashqari) navbatdagi savdolarga qo'yilmaydilar.

Markaziy bank banklararo savdo sessiyalarida chet el valyutasida pul mablag'larini oldindan deponentlamasdan ishtirok etishi mumkin.

Markaziy bank O'zRVBning so'm va chet el valyutasidagi netto-talablari bo'yicha to'lovlarni O'zRVB Markaziy bank oldidagi netto-majburiyatlarini bajarganidan keyin ikki soatdan kechiktirmay amalga oshiradi.

Savdo qoidalari bilan o'rnatilgan tartib va muddatlarda, savdo yakunlariga binoan O'zRVB Dilerning netto-talablari bo'yicha to'lovlarni bajarish uchun to'lov topshiriqnomalarini rasmiylashtiradi.

O'zRVB Dilerlarning chet el valyutasidagi va so'mdagi netto-talablari bo'yicha to'lovlarni savdolar o'tkazilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay o'tkazadi.

O'zRVB Markaziy bankning so'mdagi netto-talablari bo'yicha to'lovlarni Dilerlarning savdo yakunlariga ko'ra vujudga kelgan so'mdagi bajarilmagan netto-majburiyatlari miqdoriga kamaytirib o'tkazadi. Navbatdagi savdolar o'tkazilganidan so'ng netto-majburiyatlardan holi so'mdagi pul mablag'larining qoldiqlari Dilerlarga qaytariladi. Shuningdek, shaxsiy hisobraqamlarda savdolar o'tkazilgan kundan keyingi ish kuni boshlanishiga so'mdagi pul mablag'lari mavjud bo'lishi mumkin.

Shaxsiy hisobraqamlarda mavjud bo'lgan chet el valyutasidagi pul mablag'larining qoldiqlari har oyning oxirgi ish kunida Dilerlarga qaytariladi.

Shuningdek, shaxsiy hisobraqamlarda keyingi oyning birinchi ish kuni boshlanishiga chet el valyutasidagi pul mablag'lari mavjud bo'lishi mumkin.

Savdo yakunlariga ko'ra Markaziy bankda chet el valyutasida netto-majburiyatlar hosil bo'lgan taqdirda, O'zRVB qolgan Dilerlarning chet el valyutasidagi netto-talablari bo'yicha to'lovlarni Markaziy bank O'zRVBga nisbatan o'z netto-majburiyatlarini to'la bajarganidan keyin o'tkazadi.

O'zRVB Dilerlarning pul mablag'larini ular tomonidan taqdim etilgan asl nusxadagi xatlariga muvofiq qaytarishni ham amalga oshirishi mumkin. Bunda:

✓ agar xat soat 13-00 gacha taqdim etilgan bo'lsa, joriy ish kuni davomida;

✓ agar xat soat 13-00 dan keyin taqdim etilgan bo'lsa, keyingi ish kuni davomida.

Pul mablag'larini qaytarish uchun xatlarni rasmiylashtirish va taqdim etish shartlari quyidagilardan iborat:

a) xatlar aniq summa va bank rekvizitlari ko'rsatilgan holda Dileming rasmiy blankida rasmiylashtirilishi shart. To'g'rilash va bo'yashlarga ijozat berilmaydi;

b) xatlar imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar imzolari (Dilerlar tomonidan oldindan taqdim etilgan, birinchi va ikkinchi imzo qo'yish huquqidan foydalanuvchi mansabdor shaxslar imzolarining namunalari varaqchasida ko'rsatilgan) hamda asosiy (yoki gerbli) muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Mansabdor shaxslarga vaqtincha birinchi yoki ikkinchi imzo huquqi berilganda, shuningdek, rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslardan birortasi vaqtincha o'zgarganda, vaqtincha vakolat berilgan shaxsning imzo namunasi bilan amal qilish muddati ko'rsatilgan qo'shimcha varaqcha taqdim qilinadi. Ushbu vaqtinchalik varaqcha rahbar tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Dileming muhri o'zgarganda, varaqchada ko'rsatilgan imzolardan loaqal birortasi almashtirilganda yoki qo'shilganda, yangi imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha taqdim etiladi. Bekor qilingan imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchalar Dileming yuridik yig'majildiga tikiladi.

Yuqoridagi bandlar talablariga mos bo'lmagan pul mablag'larini qaytarish uchun taqdim etilgan xatlar O'zRVB tomonidan ijrosiz qoldiriladi.

Bunda pul mablag'larini qaytarish uchun xatni taqdim etgan Diler quyidagi amallarni bajarish huquqiga ega:

a) rasmiylashtirish va taqdim etish talablariga rioya etgan holda xatni qayta taqdim etish.

Bu holda xatni yangidan taqdim etish sanasi ushbu xatni qabul etish sanasi deb hisoblanadi;

b) O'zRVBga taqdim etilgan xatni topshirilgan joyida qaytarib olish.

Dilerlar tomonidan savdolar yakunlariga ko'ra o'zlarining so'mdagi netto-majburiyatlarini mazkur Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarmaganliklari (jumiadan, qisman) hollarida:

- instrument xaridi bo'yicha bitim yoki bitim qismi Dilerlarning so'mdagi netto-majburiyatlari bajarilmagan miqdorida bekor qilinadi;

- Dilerlarning bajarilmagan so'mdagi netto-majburiyatlarini hisobga olgan holda avval taqdim etilgan birja guvohnomalari qayta rasmiylashtiriladi;

- kliring sessiyasi o'tkaziladi.

Kliring sessiyasini o'tkazish mobaynida bitimlarni tuzish so'm va chet el valyutasidagi pul mablag'lari deponentlanmasdan oldingi savdo sessiyasida belgilangan kurs bo'yicha amalga oshiriladi.

Markaziy bank hamda O'zRVB bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun so'mdagi pul mablag'larining (savdolar yakuni bo'yicha netto-majburiyatlar) o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlamagan Dilerlar kliring sessiyasi qatnashchilari hisoblanadi.

Kliring sessiyasini o'tkazish vaqti soat 9-30 dan 10-00 gacha etib belgilanadi.

Birja bitimlarini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish kliring sessiyalari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda savdolar tugaganidan keyin ikki soat ichida amalga oshiriladi. Bunda, O'zRVB mansabdor shaxslari va treyder tomonidan imzolangan birja guvohnomalari rasmiylashtiriladi.

O'zRVBning maxsus hisobraqamlaridagi so'm va chet el valyutasidagi pul mablag'lari qoldiqlarini solishtirish maqsadida Dilerlar har chorakda shaxsiy hisobraqamlaridagi pul mablag'larining chorakning 1-sanasisiga bo'lgan holati to'g'risidagi rasmiy blankda rasmiylashtirilgan xatni (16-ilova) hisobot choragidan keyingi oying 10-sanasidan kechiktirmagan holda taqdim etadilar.

Savdolar jarayonida vujudga keladigan hamda to'lov majburiyatlarini ijro etish bilan bog'liq nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston respublika valyuta birjasida nizolarni ko'rib chiquvchi Arbitraj komissiyasi majlisida ko'rib chiqiladi.

O'zRVB bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun pul mablag'larining o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlamagan Dilerlar majburiyatlarining ijro etilmagan qismidan 0.1% miqdorida penya to'laydilar.

O'zRVB oldida penya to'lash bo'yicha bajarilmagan majburiyatlarga ega Dilerlar navbatdagi savdolarida ishtirok etishga qo'yilmaydilar.

O'zRVB o'zining netto-majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni o'tkazish muddatini buzganligi uchun:

a) soʻmda bajarilmagan majburiyat summasining har bir kechiktirilgan kuni uchun 0,05 foiz, lekin majburiyat summasining 10 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

b) chet el valyutasida penya hisoblash sanasiga uch oylik LIBOR (London Interbank Offered Rate) stavkasining oʻrtacha qiymati (London banklararo depozitlar stavkasi) qoʻshuv bajarilmagan majburiyat summasining har bir kechiktirilgan kuni uchun 1 foiz, lekin majburiyat summasining 10 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda penya toʻlaydi.

Penyani hisoblash chet el valyutasida, penyani undirish esa penyani qoʻyish sanasiga Markaziy bankning kursi boʻyicha soʻmda amalga oshiriladi.

Penya toʻlovlarni oʻtkazish muddatlari buzilgan kundan boshlab, ikki ish kuni davomida toʻlanadi.

OʻzRVB va Dilerlar OʻzRVBda savdolar oʻtkazilganidan soʻng yuzaga kelgan engib boʻlmas kuch sharoiti taʼsirida va fors-major holatlarida, OʻzRVB ichki hujjatlarida belgilangan hisob-kitob qilish muddatlarini buzganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar. Engib boʻlmas kuch sharoitlari deganda yongʻinlar, zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, Davlat organlari koʻrsatmalari hamda qabul qilgan qarorlaridan kelib chiqadigan boshqa sharoitlar hamda bundan tashqari, texnika yoki dasturiy taʼminotning ishdan chiqishi tushuniladi.

Engib boʻlmas kuch sharoitlari yuzaga kelganligi toʻgʻrisida tomonlar barcha imkoniyatdagi vositalardan foydalanib, bir-birlarini zudlik bilan ogohlantirishlari shart.

Tomonlar majburiyatlarining bajarilish vaqti engib boʻlmas kuch sharoitlarini barham toptirishga ketgan vaqtga uzaytiriladi.

Savdolar yakuni boʻyicha OʻzRVB Dilerlardan instrumentni sotib olish chogʻida vositachilik mukofotini undiradi. Undirilayotgan vositachilik mukofotining miqdori birja guvoohnomasida aks ettiriladi.

Vositachilik mukofotini undirish miqdori va tartibi OʻzRVB Kuzatuv kengashining qarorlari bilan belgilanadi.

Dilerlar tomonidan OʻzRVBda oʻtkaziladigan operatsiyalar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muhofaza qilinadigan maxfiy axborotni tashkil etuvchi maʼlumotlardir.

«Oʻzbekiston respublika valyuta birjasi aksiyadorlik jamiyatiga aʼzolik toʻgʻrisida»gi Nizomga muvofiq Dilerlar tomonidan taqdim etiladigan maʼlumotlar oʻzgariganda, ular OʻzRVB Ijroiya organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Dilerlar tomonidan hisobotlarni taqdim etish tartibi, ularning ko'rinishlari, shakllari va muddatlari O'zRVB Ijroiya organi tomonidan belgilanadi. Dilerlarning rahbari hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi va to'g'riligi uchun javobgardir.

Dilerlar tomonidan hisobot va ma'lumotlarni taqdim etmaslik O'zRVBning ichki hujjatlari shartlarini qo'pol ravishda buzish hisoblanadi.

Qoidalarda belgilangan talablar bajarilmaganda, O'zRVB Dilerlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar bilan bog'liq o'zining majburiyatlarini aniq va to'g'ri bajarilishiga javobgar emas.

9.5. Xorijiy mamlakatlardagi valyuta birjalari faoliyati

Bugungi kunda keng miqyosda foydalaniladigan o'ziga xos xalqaro bozorlardan biri bu Foreks hisoblanadi. "Forex" so'zi inglizcha «Foreign exchange» (xalqaro valyuta ayirboshlash) iborasining qisqartirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Foreks – bu xalqaro banklararo valyuta bozori. Ushbu bozorda valyutalar oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Asosiy valyutalar kursi muntazam o'zgarib turgani bois, spekulyativ amaliyotlar yo'li bilan foyda olish mumkin. Masalan, valyutani arzonroq narxda sotib olib, keyinroq qimmatroqqa sotsa bo'ladi.

Jahon valyuta bozori dunyodagi eng katta va eng likvid moliya bozori bo'lib, trillionlab dollarlik o'rtacha kundalik hajmga ega. Birja operatsiyalari spot yoki fyuchers uchun amalga oshirilishi mumkin. Forex operatsiyalari uchun markazlashtirilgan bozor mavjud emas.

Eng yirik valyuta bozori London, Nyu-York, Singapur, Tokio, Frankfurt, Gonkong va Sidney kabi yirik moliyaviy markazlarda joylashgan.

Foreks XX asrning 70-yillaridan beri mavjud bo'lib, dinamik rivojlanuvchi va hajmi bo'yicha mazmundor bo'lgan bozor hisoblanadi. Valyuta bozori, asosan, uning miqdori tufayli bir necha sabablarga ko'ra noyobdir. Forex bozorida savdo hajmi odatda juda katta. Bozor dunyoning turli yirik moliyaviy markazlarida haftasiga 5 kun, kuniga 24 soat ochiq. Bu valyutalarni kun davomida xohlagan vaqtda sotib olish yoki sotish mumkin degan ma'noni anglatadi. Markaziy banklar, tijorat banklari va boshqa yirik moliya tuzilmalari Foreks bozorining ishtirokchilari hisoblanadi.

Xususiy sarmoyadorlar ham kamroq miqdordagi mablag' bilan vositachilar yoki brokerlar orqali ushbu bozorda qatnashishi mumkin. Buning uchun shunday diling kompaniyasida hisob ochib, unga valyutani

o'tkazish kerak. Depozit jamg'arma bo'lib, u yordamida savdo qilish, pul ishlash, sug'urta badali yoki garovga qo'yish mumkin. Bu brokeriga muvaffaqiyatsiz savdo natijasida zarar ko'rishiga yo'l qo'ymaydi. Broker o'z tomonidan mijozning topshirig'i bo'yicha bozorda o'z hisobi va o'z nomidan amaliyotlarni amalga oshirish mas'uliyatini oladi. Ishtirok etishni xohlovchilarga bozorga kichik summa bilan chiqishga ruxsat berishmaydi, shu bois broker savdo qilish uchun depozitdagi mablag' miqdoridan ancha ko'p bo'lgan kreditni taqdim etadi. Ishtirokchi kreditdan faqat bozorda savdo qilish uchun foydalanishi mumkin. Bitim yakunlanganidan keyin brokeriga kreditni to'liq qaytarish lozim, bitimdan tushgan foyda esa ishtirokchiga qoladi. Odatda ushbu kredit miqdori depozitdagi mablag'dan 100 baravar ko'p bo'ladi (1:100 deb yoziladi), ya'ni bozorga bitim uchun foydalanishga tayyor bo'lgan summadan 100 baravar ko'p bo'lgan mablag' bilan chiqadi. Odatda, Foreks bozorida savdolar lotlarda olib boriladi: 1 lot = 100.000\$. Kredit miqdorini taqdim etadigan sug'urta depozitli brokerlik kompaniyasi orqali ishlash tizimi «marjinal savdo» («margin trading») deyiladi.

Foreksdagi har bir savdo bitimi ikki qismdan iborat bo'ladi: bozorga chiqish yoki pozitsiyaning ochilishi va yopilishi. Pozitsiyaning yopilishi pozitsiyaning ochilishini amalga oshirgan operatsiyaning teskarisi bo'ladi.

Ya'ni yevro sotib olish bilan pozitsiya ochilsa, yevro yangi narxda sotilgan paytda pozitsiya yopilgan bo'ladi. Pozitsiya yopilganidan keyingina olgan foyda yoki ko'rgan zarar hisob-kitob qilinadi.

Har bir ochilgan pozitsiya brokeriga muayyan miqdordagi valyutani boshqa muayyan miqdordagi valyutaga sotib olish uchun buyruq vazifasini o'taydi.

Foreksda barcha valyutalar juft savdo qilinadi. Har bir juftlikda bir valyuta asos vazifasini o'tasa, ikkinchisi kotirovka qilinadigan bo'ladi. Masalan, EUR/USD juftligida yevro asos vazifasini o'taydi, USD/JPY juftligida esa AQSh dollari shu vazifani bajaradi.

Kotirovka qilinadigan valyuta birligida ifodalangan asos vazifasini o'tovchi valyutaning qiymati kotirovka deyiladi.

Har bir kotirovka ikkita raqamdan iborat bo'ladi. Birinchi raqam – “Bid” – mijoz, asos vazifasini o'tovchi valyutani kotirovka qilinadigan valyuta uchun sotishi mumkin bo'lgan narx. Ikkinchisi – “Ask”, yoki “Offer” – mijoz asos vazifasini o'tovchi valyutani sotib olishi mumkin bo'lgan narx. Masalan: EUR/USD = 1.2603 Bid; 1.2606 Ask. “Bid” va “Ask” o'rtasidagi farq “spread” (spread) deyiladi. Yuqoridagi misolda spread 3 ta bandga teng. Band (“point” yoki “pips”) – bu narxlarning o'zgarishga

ruxsat etiladigan eng kam miqdori. Turli juftlikdagi valyutalar turli aniqlikda kotirovka qilinadi, ya'ni kotirovkada turli miqdordagi o'nli raqamlar bo'ladi. Valyutalarning ko'pchiligi verguldan keyingi to'rtinchi raqamgacha aniqlikda kotirovka qilinadi, faqat "yena"gina 0.01 gacha aniqlikda bo'ladi. Spredning kattaligi valyuta juftligiga, bitim summasiga hamda bozordagi vaziyatga bog'liq.

Spred broker yoki DM – diling markazining daromad manbai hisoblanadi: brokerlik kompaniyalari o'zlarining asosiy daromadlarini valyutalar oldi-sotdisidagi kurslar orasidagi farqdan olishadi. Foreks bozoridagi valyuta amaliyotlari nafaqat dollarda amalga oshiriladi, balki boshqa valyutalarda ham amalga oshiriladi. Valyutalarning dollarga nisbatan kursidan kelib chiqadigan ularning ayirboshlash kursi kross-kurs deyiladi. Bozorda asosan quyidagi kross-kurslar qo'llaniladi: EUR/GBP, EUR/JPY, EUR/CHF.

Foreksda, boshqa bozorlardagi kabi faoliyatning asosini ma'lum to'plamdagi tovarlar - turli mamlakatlarning milliy valyutalari bilan savdo qilish tashkil etadi.

Valyuta harakatining tayanch tamoyili davlat muassasalarining ehtiyoji, shuningdek butun dunyodagi tijorat tuzilmalarining chet ellarda olgan foydasini milliy valyutaga konvertatsiya qilish hisoblanadi. Biroq ularning ulushiga valyuta bozori umumiy aylanish hajmining taxminan 5% to'g'ri keladi. Qolgan 95%i valyuta kurslarining harakatidan foyda olishga intilayotgan valyuta bilan ishlovchi treyderlarning spekulyatsiya kapitali ta'minlaydi. Spekulyantlar orasida eng ommaviylari (85%dan ortig'i) asosiy valyutalar: AQSh dollari (USD), yapon yenasi (JPY), britaniya funti (GBP), shveysariya franki (CHF), Kanada (CAD) va avstraliya dollarlari (AUD) hisoblanadi.

Masalan, agar dollar barbod bo'lsa, u holda boshqa valyuta kuchliroq bo'ladi, bozordagi harakat esa faolroq bo'ladi. Savodli tarzda savdo qilgan bunday vaziat treyderning qo'shimcha daromad olishiga imkon beradi.

Valyuta bozori quyidagi xarakteristikalar tufayli noyobdir:

- ❖ yuqori likvidlikka olib keladigan dunyodagi eng katta aktiv klassini aks ettiruvchi yirik savdo hajmi;
- ❖ uning geografik tarqalishi;
- ❖ uning uzluksiz ishlashi: dam olish kunlari tashqari 24 soat, ya'ni yakshanba kuni (Sidney) 22:00 dan juma kuni (Nyu-York) 22:00 ga qadar savdo qilish;
- ❖ kurslarga ta'sir qiluvchi omillarning xilma-xilligi;

❖ boshqa daromadli bozorlar bilan solishtiradigan nisbiy foydaning past darajada bo'lishi;

❖ foyda va zarar cheklovlarini va hisob hajmiga bog'liq holda kaldıraç foydalanish.

Shu sababli, markaziy banklar tomonidan valyuta aralashuviga qaramasdan, mukammal raqobat idealiga eng yaqin bozor deb ataladi.

Foreks bozori barqarordir. Har qanday moliya bozorining asosiy xatari uning barbod bo'lishi mumkinligidir. Foreks uning asosiy tovari - valyutaning - barcha mavjud vositalardan eng likvidli va ishonchli savdo vositasining o'ziga xos xususiyati tufayli bunday barbod bo'lishdan himoyalangan.

Foreksga kirish barcha uchun yengildir. Internet tufayli treyderlar boshqa mamlakatlardagi mijozlar bilan bitimlar tuzilari mumkin. Valyuta kurslari harakatining, treyderning intellektual imkoniyatlari bilan hamda eng yangi kompyuter texnologiyalari bilan birgalikdagi faolligi qisqa vaqt ichida yuqori daromadli biznesni yaratishga imkon beradi. Hozirgi paytda ECN-brokerlarning xizmatlari juda ham dolzarb hisoblanadi, ular trederlarga tizim ichida bir-biriga qarshi narxni taklif etish vositasida savdo qilish imkoniyatini beradi.

Foreks bozori himoyalangan bo'ladi. Foreks kompaniyasining xavfsizlik tizimi tufayli savdo paytida har bir mijozning mablag'lari to'liq himoyalangan bo'ladi.

Valyuta va boshqa bozorlar orasida ba'zi bir farqlar mavjud. Birinchidan, qoidalar kamroq, ya'ni investorlar kabinetga, fyuchers bozorlarida bo'lgani kabi qattiq me'yor va qoidalarga rioya qilinmaydi. Bu shuni anglatadiki, valyuta bozori yo'q va valyuta bozorini nazorat qiluvchi markaziy organlar yo'q. Shuningdek, savdo an'anaviy almashinuvda sodir etilmagani bois, boshqa bir bozorda bir xil to'lovlarni yoki komissiyalarni topib bo'lmaydi.

Valyuta bozori moliyaviy institutlar orqali ishlaydi va bir nechta darajada ishlaydi. Sahnalarning orqasida, banklar katta miqdordagi valyuta savdosi bilan shug'ullanadigan "dilerlar" deb nomlanadigan kichik miqdordagi moliyaviy firmalarga murojaat qilishadi. Ko'pgina valyuta sotuvchisi banklardir, shuning uchun bu tomoshabinlar bozori ba'zida "banklararo bozor" deb nomlanadi (garchi bir nechta sug'urta kompaniyalari va boshqa moliya kompaniyalari ishtirok etsa-da). Ayirboshlash bo'yicha dilerlar o'rtasidagi savdolar juda katta bo'lishi mumkin, bu yuz millionlab dollarni tashkil etadi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilgi Triennial markaziy bankning Chet el valyutasi va birjadan tashqari valyutalar bozorlari faoliyati tadqiqotining dastlabki global natijalari shuni ko'rsatadiki, valyuta bozorida savdoni kuniga o'rtacha 5,09 trillion AQSh dollari tashkil etadi, bu 2016 yil aprel oyida 5,4 trln. Aprel 2010 yilda 4,0 trillion dollargacha ko'tarildi. Qiymati bilan baholangan valyuta almashinuvi 2016 yil aprel oyida boshqa har qanday vositadan ko'proq, kuniga \$ 2,4 trln., keyinchalik spot savdo-sotiq \$ 1,7 trilliordan oshdi.

Valyuta bozorining muhim qismi mahsulot yoki xizmatlarni to'lash uchun valyuta izlayotgan kompaniyalarning moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadi. Tijorat kompaniyalari ko'pincha banklar yoki spekulatörler bilan solishtirganda juda oz miqdorda savdo qiladilar va ularning savdosi odatda bozor kursi bo'yicha qisqa muddatli ta'sirga ega emas. Shunga qaramay, savdo oqimlari valyuta almashinuv kursining uzoq muddatli yo'nalishi bo'yicha muhim omil hisoblanadi. Ba'zi bir ko'pmillatli korporatsiyalar (MNCs) bozorning boshqa ishtirokchilari tomonidan keng tarqalmagan keng tarqalishlar tufayli juda katta pozitsiyalarni qamrab olganda, oldindan aytib bo'lmaydigan ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Milliy markaziy banklar valyuta bozorida muhim rol o'ynaydi. Ular pulni, inflyatsiyani va / yoki foiz stavkalarini nazorat qilishga harakat qiladilar va odatda ularning valyutalari uchun rasmiy yoki norasmiy maqsadlarga ega. Bozorni barqarorlashtirish uchun tez-tez valyuta zaxiralariidan foydalanishlari mumkin. Shunga qaramay, Markaziy bankning "spekulyasiyani barqarorlashtirish" samaradorligi shubhali hisoblanadi, chunki markaziy banklar boshqa treyderlar kabi katta zarar ko'rsalar, bankrot bo'lmaydi. Bundan tashqari, ular savdo-sotiqdan daromad olishning ishonchli dalillari mavjud.

Ushbu valyuta bozorining moliyaviy instrumentlari sifatida forvard, fyuchers, opsiyon va shu kabilardan foydalaniladi.

Valyuta xavfini bartaraf etishning bir usuli bu forvard bitimni amalga oshirishdir. Ushbu tranzaksiyada pul kelishilgan kelgusi kunga qadar ayirboshlanmaydi. Agar xaridor va sotuvchi kelajakda biron-bir kun uchun joriy almashinuv kursi bo'yicha ayirboshlashga kelishgan bo'lsa, bitim O'sha paytdagi bozor narxi qanday bo'lishidan qat'iy nazar joriy narx bo'yicha amalga oshiriladi. Savdo muddati bir kun, bir necha kun, oy yoki yil bo'lishi mumkin. Odatda sana har ikki tomon tomonidan ham belgilanadi. Keyinchalik forvard shartnoma har ikki tomon tomonidan ham muhokama qilinadi va kelishib olinadi.

Fyuchers shartnomalari standartlashtirilgan muddatli shartnomalar bo'lib, odatda, ushbu maqsadlar uchun yaratilgan birjada sotiladi. Shartnomaning o'rtacha muddati taxminan 3 oyni tashkil qiladi. Fyuchers shartnomalari, odatda, foizlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Valyuta fyuchers shartnomalari - ma'lum bir valyutaning standart hajmini aniq hisob-kitob sanasi bo'yicha almashtiradigan shartnomalar. Shunday qilib, valyuta fyuchers shartnomalari majburiyatlarning muddati bo'yicha forvard shartnomalariga o'xshashdir, lekin ular oldi-sotdini amalga oshirish yo'li bilan farqlanadi. Bundan tashqari, fyucherslar forvardda mavjud kredit riskini yo'q qilishga yordam beradi.

Opsion - bu valyutada pulni almashtirish majburiyatini egasiga tegishli muddatda belgilangan valyutada oldindan kelishilgan kurs bo'yicha boshqa valyutaga almashtirish majburiyatiga ega bo'lgan derivativ hisoblanadi. Foreks opsionlar bozori dunyodagi istalgan opsion uchun eng chuqur, eng katta va eng likvidli bozor hisoblanadi.

Valyuta bozori valyuta konvertatsiyasini ta'minlash orqali xalqaro savdoga va investitsiyalarga yordam beradi. Misol uchun, Qo'shma Shtatlardagi biznesni Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar, ayniqsa, Yevro hududi a'zolari import qilish va uning daromadi Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'lsa-da, yevroga to'lash imkonini beradi. Shuningdek, u valyutalarning qiymatiga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri baholashni va ikki valyuta o'rtasida farq nisbati asosidagi savdo spekulatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Odatda, valyuta operatsiyalari paytida, bir tomon bir necha valyutaning bir nechta miqdori bilan bir nechta valyuta sotib oladi.

9.6. Kriptovalyutalar. Kriptovalyutalar bozori. Kriptovalyuta turiari. Bitkoin.

So'nggi yillarda kriptovalyutalar moliya bozorida shiddat bilan rivojlanayotgan asosiy tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda.

Kriptovalyutalar – shunday to'lov vositasiki, bunday to'lov tizimining egasi ham, ichkaridan yoki tashqaridan biror boshqaruvchisi mavjud emas. Bunday tizimning asosiy xususiyati ham bevosta markazlashtirilmagan tartibda ekanligidadir.

Kriptovalyutalarni bir tomondan o'ziga xos g'oyaga asoslangan pullarning yangi ko'rinishi sifatida, ikkinchi tomondan esa nima bilan savdo qilishlariga ahamiyat bermay, faqatgina foyda olishni ko'zlovchi spekulyantlar uchun juda qiziqarli bo'lgan urfdagi, o'zgaruvchan (volatil) moliyaviy aktivlardan biri sifatida aniq farqlab olishimiz lozim.

Insonlarning dunyo haqidagi qarashlarini yuqori tezlikda kechuvchi jarayonlar qanchalik o'zgartirmaydi deysiz-a? Ko'pincha insonlar, huddi baliq qarmoqqa bog'langan yaltiroq xo'rakka talpinganidek, urfdagi hodisa ortidan kelajak uchun barcha narsalari bilan risk qilishga tayyor bo'lishadi. Ayniqsa, bunda ularning ham fikrlari ko'p bo'lsa.

Kriptovalyutalar – raqamli yoki virtual valyuta hisoblanib, ularda xavfsizlik uchun **kriptografiya** (grekcha so'z, maxfiy belgilar bilan yozilgan xat)dan foydalaniladi. Kriptografiya – bu ma'lumotni ko'zda tutilmagan foydalanuvchilardan himoyalash yo'lida, axborotni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan g'oya va usullar yig'indisidir. Tarixiy jihatdan, kriptografiya maxfiy ma'lumotlar, asosan, maxfiy xizmat va razvedka idoralari tomonidan maxfiy ma'lumotlardan himoya qilish uchun ishlatilgan. Ushbu sohadagi olimlarning ko'pchiligi, har qanday hukumat yoki bank kabi boshqa vositachilar bilan bog'laninagan avtonom raqamli valyutaning o'zi yashaydigan maxfiylik va erkinlik tufayli foydali va qulay deb hisoblaydilar. Bunday tizimda pulni boshqa joyga o'tkazilishi, mahalliy va xalqaro miqyosdagi hududlar davlat tartib-qoidalarini chetlab o'tgan holda osonlik va tezda amalga oshirilishi mumkin. AQSHda kriptografiya asoschisi Horst Fietsel tomonidan "Digital Encryption Standard" (DES) ning 1975-yil 17-martda Federal Reyestriga kiritilishi bilan qabul qilinadi.


Ushbu tizim xavfsizlik xususiyati tufayli kriptovalyutalarini soxtalashtirish murakkab hisoblanadi. Kriptovalyutaning alohida xususiyatlaridan biri uning muomilaga kiritilish jarayonidir. Ya'ni, u hech qanday markaziy hokimiyat tomonidan berilmaydi va uni davlat aralashuvi yoki manipulyatsiyasidan holi hisoblanadi. O'z o'rnida Kriptovalyutalarda ham kamchiliklar ham mavjud. Shuningdek, ularning moliya bozoridagi dastlabki rivojlanish bosqichlari, xavf-xatarlari, imkoniyatlari va ularning kelajakdagi holati kriptovalyutalar bozorini alohida jihatini asoslaydi.

Kriptografik pullarning kelajagini bashorat qilish oson emas, chunki rasmiy tuzilmalar sohasida ayniqsa juda ko'p ishlar qilinishi kerak. Shu bilan birga, banklar va boshqa moliya institutlari kelajakda moliyaviy bitimlar uchun alternativ sifatida kriptovalyutalarni ko'ra olishi kerak. So'nggi yillarda jahon moliya bozorida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shuningdek, valyuta instrumentlari sifatida ishlatiladigan vositalarni, savdo operatsiyalarini iloji boricha osonlashtirish va qulaylashtirish, bozor ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarishlarini va rivojlanishni talab etmoqda. Tovar ayriboshlanishi uchun foydalaniladigan vositalar pul deb ataladi. Pul - bu o'zaro kelishuv vositasi bo'lib, bozorning barcha ishtirokchilari buni amalga oshirishda ishtirok


etadilar. Insoniyat va jamiyat, iqtisodiy munosabatlar, bozorlar tobora rivojlanib borishi sababli, murakkab tovar almashinuvi vositalariga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan, shifrlangan valyutalarning joriy etilishi xalqaro to'lov tizimini bir necha yil avval tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Blokcheyn texnologiyalar – kriptovalyutalarni asosini tashkil etuvchi texnologiyalar bo'lib, moliya bozorini taraqqiy etishini yangi bosqichga olib chiquvchi, raqamli innovatsion texnologiyalar bo'lgan, kriptografik tizim orqali himoyalangan va kiberxavfsizlikning yuqori darajasiga ega texnologiyalardir. Tranzaksiyalar bloklarda qayd etiladi, har bir blok o'zidan oldingi blok bilan bog'lanadi va natijada bloklar zanjiri hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan bloklar zanjiri esa "**Blokcheyn**" (Blockchain) deb ataladi. Blokcheyn texnologiyalarning xususiyati ularning markazlashmaganligi va taqsimlanganligidir (B, C) va aynan shu xususiyati bilan an'anaviy markazlashgan (A) to'lov tizimlaridan farqlanadi. Blokcheyn texnologiyalarni yaratuvchi va ularni yangilab borish bilan shug'ullanuvchilar maynerlar deb ataladi. Maynerlar (Miners) buning uchun mukofotga ega bo'ladilar. Hozirgi kunda Mayning (Mining) bilan shug'ullanuvchilar soni keskin ortmoqda. Mayning bu kriptovalyutani murakkab matematik formulalar orqali yaratish (qazib olish)dir. Buning natijasida ular mukofot (Bitkoyn)ga ega bo'ladilar. Ma'lumotlarga ko'ra, Moskvada oxirgi 2017 yilda videokartalar sotuvi 3 marta ko'payib, bozordagi talab taklifdan ortib ketishi kuzatilgan. Moskva axborot texnologiyalar departamenti ma'lumotlariga ko'ra 2017 yilning I kvartalida videokartalar o'rtacha 9300 rublda baholangan, bu esa 2016 yil IV choragiga nisbatan 6%ga arzon bo'lsa, shu yilning I choragiga nisbatan esa 9%ga qimmatroqdir. "Yandeks Market" ma'lumotlariga ko'ra Rossiyada videokartalar narxi 2017 yil yanvar oyida o'rtacha 13997 rublni, may oyida esa 17 040 rublni tashkil etgan. "Marvel-distributsiya" kompaniyasi departamenti direktori A. Kirichevskiy so'zlariga ko'ra, joriy davrda videokartalarga bo'lgan talab keskin ko'tarilib, bunday holat oxirgi 10 yilda kuzatilmaganligini hamda buning natijasida 200-600\$ narxdagi yuqori unumdorlikka ega kartalar defitsiti yuzaga chiqayotganligini va ularni sotib olish navbati 3-4 oyga cho'zilayotganligini ta'kidlab o'tdi. Bunday ko'rsatkichning boisi mayning bilan shug'ullanuvchilarning sonini keskin ortganligidir. Bunda ularga kuchli kompyuterlar kerak bo'ladi. Mayning bilan shug'ullanuvchilarni yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan Mayning bilan shug'ullanuvchilarni yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar haqida ogohlantirish befoyda, ular baribir buni inobatga olishmaydi. Xu'di XVII asrda shu kabi dalillarni inobatga olmasdan


“tulip” lola o‘simligi piyozlari bilan oldi-sotdi qilishga qattiq kirishgan gollandlar kabi.



A. Markazlashgan



B. Markazlashmagan



S. Taqsimlangan

Global to‘lov tizim sxemalari

Kriptovalyutalar mustaqil tizim hisoblanib, ular mutlaq avtonom va hech kimning yordamiga muhtoj emas, ya‘ni bir markazlashgan tizim orqali boshqarilmaydi va shu xususiyati bilan an‘anaviy to‘lov tizimlaridan farq qiladi. An‘anaviy to‘lov texnologiyalari (A) va blokcheyn texnologiyalarning (B, C) global tizim sxemasi tasvirlangan. Markazlashgan to‘lov tizimida tizim Markaziy bank tomonidan tijorat banklari orqali boshqariladi. Unda Markaziy bankning asosiy roli to‘lovlarning haqqoniyligi va xavfsizligini ta‘minlashdan iborat. Markazlashmagan yoki taqsimlangan tizimda esa bunday markaziy bo‘g‘inga ehtiyoj yo‘q. Chunki to‘lovlar bo‘yicha ma‘lumotlar tizimning barcha ishtirokchilarida mavjud bo‘lib, ular oshkora hisoblanadi va tizim ishtirokchilari tomonidan tasdiqlanadi.

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha 2396 ta kriptovalyutalar ro‘yxatga olinib, ularning jami bozor kapitallashuvi 204.09 mlrd. AQSH dollariga teng.⁸³

Blokcheyn texnologiyalarda kriptovalyutalarni bir hamyondan boshqasiga mablag‘ o‘tayotganini ko‘rib turish mumkin, ammo uni taqiqlab ham, bloklab ham bo‘lmaydi. Shuningdek kriptovalyutalarning soni chegaralangan bo‘ladi va ularning inflyatsiyaga uchramasligiga sabab bo‘ladi. Masalan, tahminan 2040-yilga borib maynerlar tomonidan 21,000,000 Bitkoyn topiladi, so‘ng to‘xtatiladi. Undan keyin nima bo‘lishi haqida taxminiy tasavvurlargina mavjuddir.

⁸³ <https://www.investing.com/crypto/currencies> (11.10.2018)

Kriptovalyutalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning maxfiyligidir, ya'ni anonim ismlar orqali ularning kimga tegishli ekanligini aniqlab bo'lmaydi. Natijada noqonuniy pul aylanmasi, giyohvand moddalar uchun, terrorizmni moliyalashtirish uchun yaxshi to'lov vositasiga aylanib qolishi mumkin. Kriptovalyutalarning yana bir xususiyati ularning nomarkazlashgan tizimga egaligi tufayli ularda vositachilar bo'lmaydi, shu tufayli o'zaro ikki shaxs o'rtasida bitim tez va kamroq xarajatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq xato amalga oshirilgan to'lovlarni ortga qaytarishning imkoni mavjud emas.

Bugungi kunda dunyoda eng yuqori qiymatga ega TOP 20 kriptovalyutalar ro'yxati keltirilgan.

Eng yuqori qiymatga ega TOP- 20ga kiruvchi kriptovalyutalar haqida ma'lumot⁸⁴

№	Kriptovalyuta nomi	Belgisi	Narxi (dollar)	Bozor kapitallashuvi (mlrd. dollar)	24 soatlik aylanmasi hajmi (mlrd. dollar)
1	Bitcoin	BTC	55,796.00	\$1.04 T	\$61.23
2	Ethereum	ETH	1,748.06	\$201.17	\$29.29
3	Binance Coin	BNB	263.01	\$40.79	\$6.38
4	Tether	USDT	1.000	\$38.24	\$102.76
5	Polkadot	DOT	35.20	\$34.27	\$1.45
6	Cardano	ADA	1.050	\$33.60	\$3.90
7	XRP	XRP	0.4351	\$19.92	\$2.93
8	Uniswap	UNI	29.67	\$15.42	\$1.05
9	Litecoin	LTC	203.95	\$13.62	\$7.66
10	Chainlink	LINK	28.21	\$11.63	\$1.62
11	Bitcoin cash	BCH	519.59	\$9.71	\$5.13
12	USD coin	USDC	1.000	\$9.33	\$1.75
13	Stellar	XLM	0.3860	\$8.74	\$839.54 M
14	Wrapped bitcoin	WBTC	55,788.00	\$7.40	\$379.42 M
15	Dogecoin	DOGE	0.0549	\$7.06	\$1.44
16	Theta network	THETA	6.580	\$6.55	\$1.20
17	Terra	LUNA	12.450	\$5.12	\$664.60 M
18	Crypto.com coin	CRO	0.1874	\$4.75	\$278.94 M
19	AAVE	AAVE	367.86	\$4.60	\$819.65 M
20	Cosmos	ATOM	18.190	\$4.34	\$904.45 M

⁸⁴ <https://profinvestment.com/cryptocurrency-rate/>, 12.03.2021 yil holatiga

Insonlarning dunyo haqidagi qarashlarini yuqori tezlikda kechuvchi jarayonlar qanchalik o'zgartirmaydi deysiz-a? Ko'pincha insonlar, huddi baliq qarmoqqa bog'langan yaltiroq xo'rakka talpinganidek, urfdagi hodisa ortidan kelajak uchun barcha narsalari bilan risk qilishga tayyor bo'lishadi. Ayniqsa, bunda ularning ham fikrlari ko'p bo'lsa.

Kriptovalyutalar – raqamli yoki virtual valyuta hisoblanib, ularda xavfsizlik uchun **kriptografiya** (grekcha so'z, maxfiy belgilar bilan yozilgan xat)dan foydalaniladi. Kriptografiya – bu ma'lumotni ko'zda tutilmagan foydalanuvchilardan himoyalash yo'lida, axborotni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan g'oya va usullar yig'indisidir. Tarixiy jihatdan, kriptografiya maxfiy ma'lumotlar, asosan, maxfiy xizmat va razvedka idoralari tomonidan maxfiy ma'lumotlardan himoya qilish uchun ishlatilgan. Ushbu sohadagi olimlarning ko'pchiligi, har qanday hukumat yoki bank kabi boshqa vositachilar bilan bog'lanmagan avtonom raqamli valyutaning o'zi yashaydigan maxfiylik va erkinlik tufayli foydali va qulay deb hisoblaydilar. Bunday tizimda pulni boshqa joyga o'tkazilishi, mahalliy va xalqaro miqyosdagi hududlar davlat tartib-qoidalarini chetlab o'tgan holda osonlik va tezda amalga oshirilishi mumkin. AQSHda kriptografiya asoschisi Horst Fietsel tomonidan "Digital Encryption Standard" (DES) ning 1975-yil 17-martda Federal Reyestriga kiritilishi bilan qabul qilinadi.

Ushbu tizim xavfsizlik xususiyati tufayli kriptovalyutalarini soxtalashtirish murakkab hisoblanadi. Kriptovalyutaning alohida xususiyatlaridan biri uning muomilaga kiritilish jarayonidir. Ya'ni, u hech qanday markaziy hokimiyat tomonidan berilmaydi va uni davlat aralashuvi yoki manipulyatsiyasidan holi hisoblanadi. O'z o'rnida Kriptovalyutalarda ham kamchiliklar ham mavjud. Shuningdek, ularning moliya bozoridagi dastlabki rivojlanish bosqichlari, xavf-xatarlari, imkoniyatlari va ularning kelajakdagi holati kriptovalyutalar bozorini alohida jihatini asoslaydi.

Kriptografik pullarning kelajagini bashorat qilish oson emas, chunki rasmiy tuzilmalar sohasida ayniqsa juda ko'p ishlar qilinishi kerak. Shu bilan birga, banklar va boshqa moliya institutlari kelajakda moliyaviy bitimlar uchun alternativ sifatida kriptovalyutalarni ko'ra olishi kerak. So'nggi yillarda jahon moliya bozorida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shuningdek, valyuta instrumentlari sifatida ishlatiladigan vositalarni, savdo operatsiyalarini iloji boricha osonlashtirish va qulaylashtirish, bozor ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarishlarini va rivojlanishni talab etmoqda. Tovar ayriboshlanishi uchun foydalaniladigan vositalar pul deb ataladi. Pul - bu o'zaro kelishuv vositasi bo'lib, bozorning barcha ishtirokchilari buni amalga oshirishda ishtirok

etadilar. Insoniyat va jamiyat, iqtisodiy munosabatlar, bozorlar tobora rivojlanib borishi sababli, murakkab tovar almashinuvi vositalariga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan, shifrlangan valyutalarning joriy etilishi xalqaro to'lov tizimini bir necha yil avval tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Blokcheyn texnologiyalar – kriptovalyutalarni asosini tashkil etuvchi texnologiyalar bo'lib, moliya bozorini taraqqiy etishini yangi bosqichga olib chiquvchi, raqamli innovatsion texnologiyalar bo'lgan, kriptografik tizim orqali himoyalangan va kiberxavfsizlikning yuqori darajasiga ega texnologiyalardir. Tranzaksiyalar bloklarda qayd etiladi, har bir blok o'zidan oldingi blok bilan bog'lanadi va natijada bloklar zanjiri hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan bloklar zanjiri esa **“Blokcheyn”** (Blokchain) deb ataladi. Blokcheyn texnologiyalarning xususiyati ularning markazlashmaganligi va taqsimlanganligidir (B, C) va aynan shu xususiyati bilan an'anaviy markazlashgan (A) to'lov tizimlaridan farqlanadi. Blokcheyn texnologiyalarni yaratuvchi va ularni yangilab borish bilan shug'ullanuvchilar maynerlar deb ataladi. Maynerlar (Miners) buning uchun mukofotga ega bo'ladilar. Hozirgi kunda Mayning (Mining) bilan shug'ullanuvchilar soni keskin ortmoqda. Mayning bu kriptovalyutani murakkab matematik formulalar orqali yaratish (qazib olish)dir. Buning natijasida ular mukofot (Bitkoyn)ga ega bo'ladilar. Ma'lumotlarga ko'ra, Moskvada oxirgi 2017 yilda videokartalar sotuvi 3 marta ko'payib, bozordagi talab taklifdan ortib ketishi kuzatilgan. Moskva axborot texnologiyalar departamenti ma'lumotlariga ko'ra 2017 yilning I kvartalida videokartalar o'rtacha 9300 rublda baholangan, bu esa 2016 yil IV choragiga nisbatan 6%ga arzon bo'lsa, shu yilning I choragiga nisbatan esa 9%ga qimmatroqdir. “Yandeks Market” ma'lumotlariga ko'ra Rossiyada videokartalar narxi 2017 yil yanvar oyida o'rtacha 13997 rublni, may oyida esa 17 040 rublni tashkil etgan. “Marvel-distributsiya” kompaniyasi departamenti direktori A. Kirichevskiy so'zlariga ko'ra, joriy davrda videokartalarga bo'lgan talab keskin ko'tarilib, bunday holat oxirgi 10 yilda kuzatilmaganligini hamda buning natijasida 200-600\$ narxdagi yuqori unumdorlikka ega kartalar defitsiti yuzaga chiqayotganligini va ularni sotib olish navbati 3–4 oyga cho'zilayotganligini ta'kidlab o'tdi. Bunday ko'rsatkichning boisi mayning bilan shug'ullanuvchilarning sonini keskin ortganligidir. Bunda ularga kuchli kompyuterlar kerak bo'ladi. Mayning bilan shug'ullanuvchilarni yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan Mayning bilan shug'ullanuvchilarni yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar haqida ogohlantirish befoyda, ular baribir buni inobatga olishmaydi. Xu'di XVII asrda shu kabi dalillarni inobatga olmasdan

Bitkoyn 2009 yilda yaratilgan eng birinchi yaratilgan blokcheyn texnologiyalar asosida yaratilgan kriptovalyuta hisoblanadi. Eng qiziqarlisi, o'zini Satoshi Nakamoto deb nomlovchi Bitkoyn tizimi yaratuvchisi deyarli anonym shaxs hisoblanib, u 2011 yildan so'ng g'oyib bo'ldi va hattoki Internetdan ham yo'qolib qoldi. Albatta bunday holatni tushunish mumkin, bu inson haqiqatda o'z hayotidan xavfsirayotgan bo'lishi mumkin.

Biroq kutilmaganda o'tgan yil avstraliyalik Kreyg Rayt omma oldida aynan u Bitkoyn kriptovalyutasini yaratuvchisi ekanligini oshkor etdi. U o'z fikrlarini 3ta – BBC, GQ va Economist nashrlariga intervyu berish orqali bildirdi. BBC bilan uchrashuvda Rayt Bitkoyn tizimi dastlabki rivojlanishni boshlayotgan davrda yaratilgan, kriptografik kalitlar qo'llanilgan elektron imzoni qoldirdi. Aynan ushbu kalitlar birinchi partiya Bitkoynlarni yaratishda ham qo'llanilgan. 2009 yil yanvar oyida Bitkoynlar Xolu Finney kriptografikasiga o'tkazilgan va bu kriptovalyuta bilan amalga oshirilgan birinchi bitim hisoblangan.

Raytning ta'kidlashicha, u Satoshi Nakamoto nomidan foydalanishga chek qo'yishga qaror qilib, aynan u Bitkoyn yaratuvchisi ekanligini isbotlovchi axborotni e'lon qilishni va'da berdi. U shuningdek kriptovalyutalarni vujudga keltirishda unga katta ko'lamdagi yaratuvchilar jamoasi yordam berganligini aytib o'tdi. O'tgan yili dekabr oyida Wired va Gizmodo jurnallari tekshiruv natijalarini nashr qilishdi, unda Bitkoyn yaratuvchisi Rayt ekanligi aytilgan. Shundan so'ng Avstraliya hukumati Raytning uyida tintuv o'tkazishdi. Rayt esa bu tintuvlar soliqlarni to'lanishi bilan bog'liq tekshiruvlar sababli ekanligini ma'lum qildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yil 21-oktyabrda Nakamoto Bitkoyn orqali 5.9 mlrd AQSH dollariga ega bo'ldi. Umuman olganda, 2018 yilning oktyabr oyida 17 million 311 ming dona Bitkoyn muomilada bo'lgan. Biroq, maynerlar tomonidan topiladigan Bitkoynning maksimal miqdori 21 million donani tashki etadi. Muomalada bo'lgan Bitkoynlarning 34.28 foizini top-1000 Bitkoynning anonim egalari egalik qiladi. Barcha Bitkoyn anonim egalarining 90 foizi 0.1 BTC kam miqdorga egalik qiladi. 2010 yil 22 may oyida Laszlo Haynkez 2 ta Papa John's Pizza pitsalari 10000 BTC ayriboshladi va bu birinchi qonuniy tovar ayriboshlanishi uchun Bitkoynning ishlatilishi edi. Usha vaqtda 10000 BTCning narxi 41\$ edi. 2018 yil oktyabr oyi holatiga 10000 BTC taxminan 66.67 mln dollarga teng.

Bugungi kunda dunyoda 500dan ortiq kriptovalyuta birjalari mavjud bo'lib, Binance, KuCoin, Huobi Pro, Chagelly, Bittrex, Poloniex, Bitfinex,

Bitmex, Cryptopia kabilar dunyodsagi eng yirik kriptovalyuta birjalari hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasining umumiy tavsifi va faoliyati yo'nalishlari
2. O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasining tashkiliy tuzilmasi
3. Valyuta birjasi faoliyatining nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari
4. Valuta birjasining faoliyat xususiyatlari.
5. Valuta birjasida savdo tartibi.
6. Valuta birjasi faoliyatini tartibga solish.
7. O'zbekiston Respublikasi valuta birjasi tarkibiy tuzilishi.
8. Valuta birjasida banklararo savdo sessiyalari.
9. Valuta birjasi avtomatlashtirilgan savdo tizimlari.
10. O'zbekiston Respublika valyuta birjasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar
11. Birja savdolarini tashkillashtirish va rivojlantirish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar
12. "O'zRVB" AJ tomonidan bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar
13. Xo
rijij mamlakatlardagi valyuta birjalari faoliyat mexanizmi
14. Kriptovalyutalar bozori. Blokcheyn texnologiyalari.
Kriptovalyutalar turlari va bitkoyn

Glossariy

Birja (gollandcha beurs, nem. Burse — hamyon) — bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli; tovarlar (tovar birjasi), qimmatbaho qog'ozlar (fond birjasi), valyuta (valyuta birjasi) ulgurji savdosi, tovar bo'lgan ish kuchi oldi-sotdisi (mehnat birjasi) bozori. Aksariyat hollarda yopiq yoki ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi. Birjaga birja qo'mitasi rahbarlik qiladi. Uning huzurida kotirovka komissiyasi ish olib boradi. B.da brokerlar, dilerlar, treyderlar faoliyat ko'rsatadi. Birja va uning shakllari bozor mexanizmining zaruriy infratuzilmasi hisoblanadi;

Birja – AJ “Toshkent” Respublika fond birjasi;

valyuta birjasi — chet el valyutasi, davlat qimmatli qog'ozlari, moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) oldi-sotdisi hamda ular bilan bog'liq boshqa birja bitimlari bo'yicha birja savdolarini, shuningdek banklararo pul bozorini hamda Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etuvchi yuridik shaxs;

Birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) – aksiyadorlik jamiyati (IPO tashabbuskori) tomonidan fond birjasida qo'shimcha aktsiyalarni cheksiz ko'p investorlar o'rtasida joylashtirish;

Ikkilamchi ommaviy aksiyalar (SPO) – aksiyador (SPO tashabbuskori) tomonidan o'z aktsiyalarini fond birjasida cheksiz ko'p investorlarga sotishi;

qimmatli qog'ozlar listingi – qimmatli qog'ozlarni, ularni birja kotirovka varag'iga kiritgan holda qimmatli qog'ozlar birja savdosiga qo'yish protsedurasi;

qimmatli qog'ozlar delistingi – emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovka varag'idan chiqarish protsedurasi;

Yagona dasturiy-texnik kompleks (YaDTK) – huquqni ta'minlovchi savdo maydonchasi: 1) "Toshkent" RFB birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni va savdolarini amalga oshirish va 2) birjadan tashqari platformada qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

birjada sotiladigan fond (ETF) - likvid qimmatli qog'ozlar savdosi, oltin va chet el valyutasi, indekslar va boshqa qiymatlarni bazaviy aktiv sifatida o'z ichiga olgan birja savdo fondi;

Birjaning javobgar bo'linmasi – Birjaning listing kompaniyalari bilan ishlash uchun mas'ul bo'lgan shtatli bo'linmasi;

listing kompaniyalari – qimmatli qog'ozlari birja kotirovka varag'iga kiritilgan emitentlar;

Listing komissiyasi (Komissiya) – Birjaning qimmatli qog'ozlar birja listingi va delistingini amalga oshiradigan komissiyasi;

listing talablari – emitentning moliyaviy ahvolini baholash mezonlari, ular muvofiq bo'lgan taqdirda uning qimmatli qog'ozlari birja kotirovka varag'ining toifalaridan biriga kiritiladi;

ekspertiza – emitentlarning moliyaviy ahvolini baholash va qimmatli qog'ozlarni birja kotirovka varag'iga kiritish, birja kotirovka varag'ida bo'lish hamda ularni birja kotirovka varag'idan chiqarish chog'ida qimmatli qog'ozlarning qadriligini baholash protsedurasi;

litsenziyalovchi organ — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

litsenziya da'vogari — litsenziyalovchi organga valyuta birjasi faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik shaxs;

litsenziat — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxs;

trejderning avtomatlashtirilgan ish joyi (TAIJ) – ijara shartnomasiga asosan birja a'zolariga beriladigan ish joyi;

birjaning kotirovkalash varag'i - birja savdolariga qo'yilgan birja tovarlari ro'yxati;

birja bitimi - birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdishartnomasidir;

birja tovari - dastlabki ko'zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko'rsatkichlari o'zgarmasligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan birja savdolariga qo'yilgan muayyan turdagi va sifatdagi tovar.

